Akademik erkinlik – bu bilim yaratish, uni tarqatish va muhokama qilish jarayonida mustaqil fikr yuritish erkinligi. Falsafa nuqtai nazaridan, bu tushuncha Kantning "Aqlning jamoaviy ishlatilishi" g'oyasi, J.S. Millning "so'z erkinligi" haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'liq. Akademik erkinlik – bu faqat bir huquq emas, balki ma'naviy javobgarlikni ham o'z ichiga oluvchi tushunchadir. U ilmiy

haqiqatni izlash, mavjud bilimlar tizimini tanqidiy tahlil qilish, yangilik yaratishga bo'lgan intilishni o'zida mujassam etadi.

Ko'plab demokratik davlatlar konstitutsiyalarida akademik erkinlik alohida band sifatida ko'rsatilgan. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bu borada prinsipial yondashuvlarni ishlab chiqqan. O'zbekistonda ham Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar jarayonida akademik erkinlik masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Biroq erkinlik doimo huquqiy chegaralar doirasida bo'lishi kerak: diniy, irqiy, siyosiy nafrat qo'zg'atuvchi chiqishlar, noto'g'ri ma'lumot tarqatish erkinlik doirasidan chiqadi.

Amaliyotda akademik erkinlik ko'plab muammoli holatlar bilan to'qnash keladi:

- Tadqiqotchi siyosiy jihatdan nozik mavzuni o'rganmoqchi bo'lsa, bu erkinlik deb qaraladimi yoki xavfmi?

- Universitet raxbariyatining ichki siyosati ilmiy erkinlikni cheklayotgan holatlarda nima qilish kerak?

- Ijtimoiy tarmoqlarda bildirgan shaxsiy fikr – bu akademik erkinlikka kiradimi?

Bu kabi chegaraviy holatlar akademik erkinlik tushunchasini qayta konseptuallashtirishni talab qiladi. Ya'ni, erkinlik faqat erkin fikr aytish emas, balki ilmiy etika, axloq va javobgarlik bilan uyg'unlikda bo'lishi zarur.

Akademik erkinlik – bu zamonaviy jamiyatda erkin tafakkur, tanqidiy yondashuv va ilmiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Falsafiy jihatdan u insonning intellektual erkinligi bo'lsa, huquqiy jihatdan u aniq me'yorlar bilan chegaralangan. Ammo amaliyotda yuzaga keladigan chegaraviy holatlar ushbu tushunchaning statik emasligini, balki doimiy ravishda qayta talqin qilinishini taqozo etadi. Shuning uchun ham, akademik erkinlikni nafaqat huquqiy hujjatlarda, balki akademik madaniyat va qadriyatlar doirasida yanada mukammalroq shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berlin, I. Four Essays on Liberty. Oxford University Press, 1969.— Erkinlikning falsafiy asoslari, shu jumladan akademik erkinlikka oid tushunchalar.

2. Mill, J.S. On Liberty. Penguin Classics, 1859.— So'z erkinligi va uning jamiyatdagi o'rni haqida klassik asar.

3. Altbach, P.G. Academic Freedom: International Realities and Challenges. Higher Education, 2001.— Akademik erkinlikning xalqaro kontekstdagi huquqiy va amaliy muammolari.

4. UNESCO. Recommendation concerning the Status of Higher-Education Teaching Personnel. 1997.— Akademik erkinlikka oid xalqaro hujjat.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 1992.— Huquqiy me'yorlar va erkinliklar haqida asosiy qonun.

6. Shayxullayev, O. Akademik erkinlik va uning chegaralari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashri, 2018.— Mahalliy tadqiqotlar va akademik erkinlik masalalariga bag'ishlangan maqola.

7. Popper, K. The Open Society and Its Enemies. Routledge, 1945.—
Demokratik jamiyat va erkinlik nazariyalari.

Soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning roli

**N.Sharipov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasining katta o'qituvchisi**

Hozirgi davrda davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti ko'p jihatdan ularning soliq tizimiga, soliq salohiyatidan qay darajada samarali foydalanishlariga bog'liqdir. Soliq salohiyati – bu mamlakatning mavjud iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va moliyaviy oqimlarini soliqlar orqali byudjet daromadlariga jalb etish salohiyati sifatida tushuniladi. Ya'ni, davlat iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida mavjud soliq imkoniyatlaridan qanchalik samarali foydalansa, u shunchalik moliyaviy mustaqillikka va barqaror byudjet ta'minotiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, soliq salohiyatini oshirish har bir mamlakat oldida turgan strategik vazifa hisoblanadi.

Soliq salohiyatining samarali ishlashi uchun bir qator omillar muhim rol o'ynaydi. Ulardan eng asosiysi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq. Bunda iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan ta'minlash, malakali kadrlar tayyorlash hamda ilm-fan natijalarini amaliyotga tatbiq etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1]. Shu o'rinda akademik erkinlik tushunchasi o'z o'rniga ega bo'ladi. Chunki akademik erkinlik ta'lim va ilm-fan sohasida yangicha yondashuvlarni shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan va iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan mutaxassislarini tayyorlash imkonini beradi.

Akademik erkinlik mohiyatan ilmiy izlanish, ta'lim jarayoni va professor-o'qituvchilar hamda talabalar faoliyatida mustaqillikni anglatadi. U o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, ilmiy g'oyalarni ilgari surishda, yangiliklarni tatbiq etishda tashabbuskorlikni ta'minlaydi. Bunday sharoitda yaratilgan bilimlar, ishlab chiqilgan nazariy va amaliy g'oyalar iqtisodiyotning real sektorida qo'llaniladi, natijada yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, samarador biznes modellar va boshqaruv mexanizmlari yuzaga keladi. Bu esa o'z-o'zidan soliq bazasining kengayishiga, iqtisodiy faol subyektlar sonining ortishiga, ularning to'lov qobiliyatining kuchayishiga olib keladi [6].

Akademik erkinlik va soliq salohiyatining oshishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Agar ta'lim va ilm-fan sohasi erkinlik asosida rivojlansa, iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan ta'minlash imkoniyati kengayadi. Yangi bilimlar esa innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, ularni bozorga olib chiqish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu jarayonlar nafaqat mamlakat ichki bozorida, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh mahsulotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada eksport salohiyati kengayadi, iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar oqimi kirib keladi va soliq tushumlari ko'payadi.

Shunday qilib, akademik erkinlik soliq salohiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda bu jarayonlarning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Akademik erkinlikning soliq salohiyatini oshirishga ta‘siri

№	Akademik erkinlik yo‘nalishi	Soliq salohiyatiga ta‘siri
1	Talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlari	Startaplar va yangi korxonalar tashkil bo‘lib, soliqqa tortiladigan manbalar soni ortadi.
2	Professor-o‘qituvchilarning o‘quv dasturlarini erkin ishlab chiqishi	Iqtisodiyot ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlanib, samarali mehnat bozorini yaratadi va soliqlar bazasini kengaytiradi.
3	Innovatsion g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi	Yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilib, qo‘shimcha qiymat solig‘i va foyda solig‘i tushumlari oshadi.
4	Xalqaro ilmiy hamkorlik	Raqobatbardosh bilimlar va texnologiyalar kirib kelib, eksport hajmi ortadi, bu esa soliq tushumlarini ko‘paytiradi.
5	Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Samarador korxonalar paydo bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi oshadi va daromad soliqlari ko‘payadi.
6	Talabalarning tashabbuskorligi	Yangi tadbirkorlik subyektlari yuzaga kelib, soliqqa tortiladigan baza kengayadi.
7	Akademik erkinlik orqali huquqiy ongni oshirish	Xufyona iqtisodiyot qisqaradi, soliqlarni to‘lash madaniyati kuchayadi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, akademik erkinlik soliq salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning ilmiy izlanishlari va tashabbuskorligi yangi startaplar hamda tadbirkorlik subyektlarini yuzaga keltiradi, professor-o‘qituvchilarning o‘quv dasturlaridagi erkinligi esa iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi yangi mahsulot va xizmatlarni yaratib, soliqlar tushumlarini ko‘paytiradi, xalqaro hamkorlik esa ilg‘or bilim va texnologiyalar kirib kelishiga, eksport hajmi kengayishiga olib keladi. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorlikni oshirsa, huquqiy ongning yuksalishi xufyona iqtisodiyotni qisqartiradi. Natijada, akademik erkinlik ta‘lim sifati bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish va soliqqa tortiladigan baza kengayishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning o‘rni beqiyosdir. Akademik erkinlik ta‘lim sifatini yuksaltiradi, innovatsion g‘oyalar va startaplarni rivojlantiradi, huquqiy ongni oshiradi hamda yangi soliqqa tortiladigan manbalarni shakllantiradi. Taklif sifatida aytadigan

bo'lsak, birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida erkin o'quv dasturlari ishlab chiqishni kengaytirish; ikkinchidan, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish; uchinchidan, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish; to'rtinchidan, soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limiy dasturlarni keng tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipov N. Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari // "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali. 2025-yil, iyun. № 6-son.
2. Tursinkulov N. (2022). Oliy ta'lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar. Архив научных исследований, 2(1).
3. Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Diss. avtoreferati. – T., 2022.
4. Azimov S.S. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. 126 b.
5. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimini barqarorligini ta'minlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2018. -230 b.
6. European University Association. How universities can protect and promote academic freedom. EUA principles and guidelines. Brussels: European University Association, February 2025.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsion faollikni oshirish yo'llari

F.Q.Saidmurodov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Jahon iqtisodiyotidagi bugungi kundagi vaziyat, mamlakatlar o'rtasidagi nizolar va turli tashqi salbiy omillar ta'sirida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi yanada murakkablashmoqda. Bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan mamlakatimiz iqtisodiyotida so'nggi yillarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan holda rivojlantirish modeliga o'tkazish dolzarbdir.

Biza ma'lumki, iqtisodiy o'sish muammolari jamiyat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim hisoblanib, iqtisodiyot ilmi tafakkurining eng dolzarb va haqli ravishda ko'pgina tadqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilarning diqqatini o'ziga jalb etayotgan birlamchi muammolardan biri desak adashmaymiz. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, hozirgi kunda iqtisodiy o'sish modellari uchta asosiy guruhi ajratiladi: keynscha va neokeynscha iqtisodiy o'sish modellari, neoklassik iqtisodiy o'sish modellari, hozirgi zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari. Iqtisodiy o'sish zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy

ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish hajmining real ko'payib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig'idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o'sishi tushuniladi.

Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, insoniyatning tub manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, aholi turmush darajasi, sifati va farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi, uning iqtisodiy bazisi hisoblanadi. Bugungi kunda maxsus iqtisodiy adabiyotlarda va kundalik matbuotda iqtisodiy taraqqiyot (rivojlanish) va iqtisodiy o'sish tushunchalarini bir xil tushunchalar deb qarash yuzasidan turlicha fikrlar bildirgan. Mualliflarning bir guruhi mazkur tushunchalarni sinonim tushunchalar sifatida ham talqin qilmoqdalar. Mualliflarning boshqa ikkinchi guruhi esa buning butunlay aksini qo'llab fikr bildirishmoqda. Albatta, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Investitsiyalar jalb etilgan xududlarda iqtisodiy o'sish uchun zamin tayyorlangan va ko'plab mamlakatning echimini kutayotgan muammolarning baratarf etishida amaliy yordamchi omillardan biri bo'lgan. Bugungi kunda investitsiyalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarni kuzatish mumkin. Ularda "investitsiyalar", "investitsion faollik", "investitsion mexanizm", "investitsion faoliyat" va shu kabi iqtisodiy tushunchalarga yagona bir ta'rif keltirilmagan. Ko'pgina ilmiy va o'quv turkumidagi adabiyotlarda "investitsion faollik"ka yaqin bo'lgan tushunchalar, ya'ni "investitsion jozibadorlik", "investitsion muhit" "investitsion imidj" sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda.

Yuqorida zikr etilgan turli xil omillarning ijobiy tarzdagi amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Yana, eng muhimi, xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi.

Investitsion jozibadorlikni baholash uchun ikkita muhim jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Birinchisi - ma'lum bir ob'ektni investitsiyalashning investitsion jozibadorligi. Bunda aniq bir hududiy tizimda mavjud bo'lgan tarmoqlar, sohalar iqtisodiy holati tahlil etiladi. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda investitsion loyiha va dasturlar samaradorligini aniqlashning tayanch ko'rsatkichlari baholanadi.

Iqtisodchi olim T.M. Smaglyukova investitsion faollikni belgilovchi barcha ko'rsatkichlardan kompleks baholash talablariga ko'proq muvofiq keladigan ko'rsatkichlarni ajratib oladi. Uning fikricha, mazkur ko'rsatkichlar investitsion jarayonning barcha tomonlarini aks ettiruvchi investitsion faollik omillari tarkibiga kiritiladi.

Olimaning fikricha, barcha keltirilgan omillar yordamida qo'yilmalarning xatarlikka tortilgan darajasi tahlil qilinishi mumkin. Tarmoqlar darajasida qo'yilmalarning xatarlik darajasini baholash uchun ushbu ro'yxatdan siyosiy, ijtimoiy, infratuzilma, qonuniy va jinoiy, innovatsion va resurs-xom ashyo omillari chiqarib tashlangan. Bu ularning tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarni shakllantirishga etarli darajada ta'sir ko'rsatmayotgani bilan izohlanadi.

Investitsion salohiyat kategoriyasi uzoq vaqt davomida foydalaniladigan aktivlarga, shu jumladan, daromad yoki boshqa iqtisodiy natijalarni ko'paytirish maqsadida qimmatli qog'ozlarga mablag'larni yo'naltirish imkoniyati sifatida talqin etib kelingan.

Mamlakatning investitsion salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish tahliliga bag'ishlangan, F.S.Tumusov tomonidan taklif etilgan yondashuv ham diqqatga sazovor. U "investitsion salohiyat"ni sarmoyani takror ishlab chiqarishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi real investitsion talabga aylanish imkoniga ega bo'lgan investitsiyalar bozorida investitsion talab shaklida namoyon bo'ladigan, to'plangan sarmoyaning bir qismidan iborat investitsion resurlarning jamlanmasi sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan biri Sh.I.Mustafaqulov investitsion muhit va uning shakllanishi xususida to'xtalib: "Investitsion muhit investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo'lib, u hududning investitsion faoliyati hamda investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi", - deya fikr bildirgan.

Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- innovatsion va tadqiqot faolligi, axborot texnologiyalari sohasida birinchi toifadagi tadqiqot markazlarini qo'llab-quvvatlash;
- texnopark va innovatsion klasterni tashkil etish;
- xorijiy investorlar uchun qulay bo'lgan infratuzilma va moliyaviy sharoitlarni shakllantirish. Ular qatoriga: sanoat korxonalarini qurish uchun er uchastkalari, ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari va kasbiy tayyorlash sohasida loyihalarni amalga oshirish uchun grantlarni, er uchastkalari, bino va texnologik uskunlarni xarid qilishga ketgan xarajatlarni qoplash uchun kapital subsidiyalarini, soliq imtiyozlarini berish;
- investitsion jarayonlar infratuzilmalarini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sherikchilik institutini shakllantirish.

Mamlakatning investitsiya faolligini oshirishda asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, investitsiya mexanizmining to'liq shakllanmaganligi va rivojlanmaganligi, tovar-moddiy mablag'larni, investorlarning tovar va pul mablag'larini, investorlar – iqtisodiyot sub'ektlari uchun moddiy-texnika, uskunalar bilan ta'minlovchilar, ishlab chiqaruvchilar va ularning mahsulotlari iste'molchilari, oxirgi ishlab chiqarish, sotish natijalari xarakatini to'liq nazorat qilish imkonini beruvchi kompleks investitsiyalashning majmuaviy mexanizmi taqozo etiladi.

Bugungi kunda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ta'minlash tizimining asosiy bo'g'ini investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Xorij tajribasi ko'rsatishicha, hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosini investitsion jarayonlarni takomillashtirish va jozibadorligini oshirish tashkil etadi. Respublikamizda hududiy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, tutgan o'rni va mavjud tabiiy-tashkiliy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni keng jalb etish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish bosqichida muhim omillardan biri

hisoblanadi. Hududiy iqtisodiyotning dastlabki bosqichlarida kam daromadliligi, ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lgan xatarlarining yuqoriligi, investitsiyalarni jalb etishning bozor tamoyillariga mos mexanizmlarining mukammal shakllanmaganligi sababli iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion jozibadorligi pastligicha qolmoqda.

Investitsiya faolligi va uning samaradorligini oshirish uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik bashoratlarga asolanmog'i lozim, chunki iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda yuqori samaraga erishishda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham mamlakat doirasida ishlab chiqiladigan investitsiya dasturlari va loyihalari iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, pirovardida, mamlakatimizga jalb etilgan investitsiyalar nafaqat tarmoqda ishlab chiqarish samardorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, balki ekologik jihatdan toza va sifatli mahsulot ishlab chiqarib, eksport salohiyatini oshirish, ichki va tashqi bozorni sifatli va raqobatbardosh maxsulotlar bilan to'ldirish hamda atrof-muhitni yaxshilashga olib keladi.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari

**S.X.Xalikov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi**

Jahon okeanlarida joylashgan yoki ular tomonidan quvvatlanadigan qayta tiklanadigan energiya tizimlari kelgusi o'n yilliklarda yashil energiyaga o'tishga katta hissa qo'shishi aytilmoqda. Dengizdagi shamol va uning qayta tiklanadigan energetika sektori ta'sirchanligi 31 foizni, global qo'shilgan qiymat 2000 yildagi 38 million AQSh dollaridan 2020 yilda 5 milliard AQSh dollariga ko'tarilganligi hamda global offshor shamol bozori 2024 yilda 39,6 milliard AQSh dollaridan ortiq baholanganligi va 2031 yilga borib 146 milliard AQSh dollaridan oshib ketishi prognoz qilinmoqda. Butun dunyo mamlakatlari 2050 yilga kelib yiliga 1,5 milliard uyni quvvat bilan ta'minlaydigan offshor shamol energetika tizimlarini joriy etish majburiyatini olmoqda. Shu sababdan jahon iqtisodiyotidagi energetika inqirozi, geosiyosiy beqarorlik, real atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning muntazam ravishda kamayishi so'nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'z nabatida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomil-lashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida "iqtisodiyot tarmoqlarida «yashil» texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiya-larni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tikla-nuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga

tatbiq etish” va bu sohada “yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish” masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo, yashil iqtisodiyotni shakllantirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, mavjud yashil investitsiya loyihalaridan iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritilayotgan loyihalardan samarali foydalanish borasida turli xil darajadagi manbalarning yetib borishi jarayoni, moliyalashtirishdagi muammolar sababli iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoq va sohalariga yashil investitsiyalarni faol jalb qilish hamda yangi yashil investitsiya loyihalari manbalarini shakllantirish hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalari hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish mavzusi makroiqtisodiy darajada ko‘p talqin qilinadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi dastlabki izlanishlar T.Maltus va D.Rikardolarning ilmiy izlanishlarida aks etgan. «Yashil» iqtisodiyotni shakllantirish g‘oyasi paydo bo‘lishiga qadar amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar asosan, cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni ishlatish, atrof-muhitning ifloslanishi va zaharlanishi, shuningdek, tabiiy biologik jarayonlar buzilishi bilan bog‘liq muammolarning ortib borayotganligiga qaratilgan. Atrof-muhit ifloslanishining oldini olish maqsadida 1980-2000 yillarda «yashil» iqtisodiyot va «yashil» moliyalashtirish terminlari paydo bo‘ldi. R.Solou va V.Leontevning ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sish g‘oyalari ilgari surilib, matematik va iqtisodiy modellashtirish faol qo‘llanildi. Ingliz iqtisodchisi E.F.Shumaxer o‘z tadqiqotlarida talabni qondirish va uni o‘stirishga asoslangan iqtisodiy tizimni qoralaydi va talabning haddan tashqari o‘sishi yangi iqtisodiy inqirozlarni yuzaga chiqarishini ta’kidlaydi. E.F.Shumaxer «Iste’mol - bu maqsad emas, minimal iste’mol qilish orqali maksimal yaxshi turmush tarziga erishishning vositasi bo‘lishi kerak», - degan g‘oyani ilgari surib, «Taraqqiyot – atrof-muhit va suvni ifloslantirishga hamda o‘rmonlarni yo‘q qilishga olib keladi», - degan xulosaga keladi.

Tarixiy rivojlanish bosqichiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, «yashil» iqtisod – bu XX asr oxirida yuzaga kelgan iqtisodiyot fanining yo‘nalishi bo‘lib, u iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish zarurligini nazarda tutadi. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisod fanining ekologiya iqtisodiyoti va atrof-muhit iqtisodiyoti kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda yaratilishi va iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989 yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish rejasi”, deb nomlangan hisobotda foydalanilgan. “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar 1972 yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada

atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan konferensiyada ko‘rib chiqilgan edi. Kojevnikova va Terakopovlar “Yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanishning yo‘nalishlaridan biri” nomli asarida iqtisodiyotda faoliyatini ekologiyaga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga o‘tish zarurati paydo bo‘lganini asoslaydi. Bunda “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy adolatning muhim va hozirgi zamondagi yetakchi asosi sifatida qaraladi. Shodimetov va Ayrapetovlar “Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga yo‘l” nomli maqolasida zamonaviy jamiyatlarda yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni ta‘minlashda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik tomonlari tadqiq qilingan. Rivojlangan davlatlar va Shanxay hamkorligi davlatlari tajribasi o‘rganilgan va uning O‘zbekiston uchun foydalai tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. V.Vaykning “Yashil iqtisodiyot” va barqaror rivojlanish” asarida so‘nggi yilda jahon amaliyotida barqaror rivojlani borasida sezilarli natijalar qo‘lga kiritilgani, barqaror rivojlanishda asosan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy tomonga urug‘u berilayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda “yashil iqtisodiyot” jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida resurstejamkor va atrof-muhitga kam salbiy ta‘sirli yo‘nalish sifatida tadqiq qilingan. Voymik va Husayin Shohning “Yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirish omili sifatida” nomli asarida Bangladesh Respublikasi misolida “yashil iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari hududlarida barqaror rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim yo‘nalish bo‘layotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizda «yashil» iqtisodiy o‘rish konsepsiyasini amaliyotga joriy qilish bilan bog‘liq moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ayni paytdagi rivojlanish bosqichiga bevosita taalluqli bo‘lgan bir qator muammolar yuzaga chiqmoqda. Xususan, milliy bozorda faoliyat yurituvchi iqtisodiyot sub’ektlari o‘z faoliyatlarida ijtimoiy va ekologik mas’uliyatli yondashuvlar mexanizmini qo‘llash yuzasidan turli xil usullardan foydalanmoqda. Ba’zi xo‘jalik sub’ektlari mustaqil ravishda mas’uliyatli javobgarlik tizimi va mexanizmi yuzasidan ichki tartib qoidalarni ishlab chiqmoqda va amalga oshirmoqda. Boshqa xo‘jalik sub’ektlari esa, asosiy e’tiborni atrof-muhit, jamiyat va korporativ boshqaruv, ya’ni «ESG» tamoyillariga qaratgan holda global xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishga harakat qilmoqda. Shu bilan birgalikda, yaqin vaqtgacha mamlakatimizda iqtisodiyot sub’ektlari tomonidan kiritilayotgan investitsiyalarning «yashil» mezonlarga muvofiqligini nazorat qilish tartibi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion va investitsion faolligini oshirishning nazariy asoslari

**Yo.A.Xaydarova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası mustaqil tadqiqotchisi**

Jahon iqtisodiyoti zamonaviy bozor munosabatlarini qaror toptirish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning yangi sifat bosqichiga o‘tib bormoqda. Bu o‘z navbatida mamlakat innovatsion salohiyati xalqaro hamkorlikdagi o‘rnini

aniqlashdagi muhim strategik resurs sifatida baholanmoqda. Dunyo iqtisodiyotidagi keskin vaziyat mintaqadagi asosiy ko'rsatkichlar tendensiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'lami 22 foizga kamaydi. 2024 yilda jami sarmoya oqimi 58% ga qisqargan holda va bundan Yevropa eng ko'p zarar ko'rdi. Jumladan, Yevropa mamlakatlaridan Germaniyada 89%, Ispaniyada 39%, Italiyada 24% va Fransiyada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 20%ga qisqarish tendensiyasi kuzatildi. 2024 yil dunyo global innovatsion indeksida eng samarali innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirgan davlat sifatida 14 chi marotaba Shvesariya mamlakati qo'ldan bermay kelmoqda. Keyingi o'rinlarda esa Shvesiya, AQSh, Singapur va Birlashgan Qirollik egallab kelmoqda.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida oqilona investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasi sifatida «...barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash», bu sohada «2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish» masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo, respublikada olib borilayotgan islohotlar orqali so'nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, mavjud investitsion va innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish borasida turli xil darajada muammolarning mavjudligi sababli barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish hamda yangi investitsiya loyihalarni amalga oshirishda hududlardagi maxsus zonalar hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalarining belgilab qo'yilishi mavjud iqtisodiy salohiyatdan potensial darajada samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Innovatsion investitsiyalashning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.Shumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lgan: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xom ashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish. K.Frimen 1987 yilda «Milliy innovatsion tizim» tushunchasini kiritgan. «Milliy innovatsion tizim» turli institutlarni birgalikda yoki alohida yangi texnologiyalarni yaratishga hissa qo'shgan va hukumat a'zolarining yangi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishiga ta'sir etuvchi innovatsion jarayondir. U o'zaro bog'langan institutlar tizimi bo'lib, ular «bilimlar, yangiliklar va yangi texnologiyalarni tashkil etish, saqlash va uzatishni amalga oshiradilar». P.Drukerning fikricha, tadbirkorlarning innovatsion fikrlashlari bir-biridan farqlanadi. Innovatsiyalashtirish tadbirkorlikning ixtisoslashgan yo'nalishidir. Har bir tadbirkor o'zining ishlab chiqarish ob'ektida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga ixtisoslashgan innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar esa umuman tadbirkorlik faoliyatining barcha yo'nalishlariga, ilm-fan va texnika

taraqqiyotida qo'lga kiritgan yangiliklari bilan, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish usullarini tashkil qilish asosida ularga xizmat qiladi. R.Fatxutdinovning xulosasi bo'yicha, innovatsiya-bu yangilikni tatbiq etishning yakuniy natijasi bo'lib, ob'ekt boshqaruvini o'zgartirish ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va boshqa ko'rinishdagi samaradorlikdir. Yangilik esa fundamental, amaliy tadqiqotlar ma'lum bir faoliyatning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan yoki tajribaviy ishdir. Yangilik quyidagi yo'nalishda rasmiylashtiriladi: yangilik, ixtirochilik taklifi, patentlar orqali, tovar belgisi, yangilik takliflarini berish, yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot, boshqaruv yoki ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoni yoki ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish, nou-xau, tushunish, ilmiy yondashuv yoki ularning shartlari va marketing tadqiqotlari orqali olingan natijalardan tashkil topadi. N.Marenkov ta'kidlaydiki, investitsiya va innovatsiya siyosati o'zaro bog'liqdir. Chunki investitsiya siyosati iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlovchi asosiy kapital manbai bo'lsada, uning ma'lum qismi innovatsion investitsiya sifatida iqtisodiyotning tarkibiy jihatini takomillashtirish va sifatini yaxshilashda faol qatnashadi. Texnologik innovatsiya, yangilik kiritish, innovatsion faoliyatning yakuni, iqtisodiyotga mablag' sarflash bilan bog'liq bo'lgan texnika, texnologiyani yangilanishini ta'minlaydigan jarayondir.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya ekanligi, uning ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy samara olishni ta'minlay oladigan holatini ifoda etadi. Innovatsion investitsiyalar ishlab chiqarish va investorlar daromadlarining o'sib borish manbai bo'lishi bilan birga, ularning ijtimoiy shart-sharoitlarini yaxshilash vazifasini ham bajaradi.

Innovatsion investitsiyalashtirishning mohiyati ishlab chiqarishning ichki sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarning takomillashib borishiga ta'sir etadi. U ishchi o'rinlarini ko'paytirish, ishlab chiqarish xodimlarini mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, ularni har tomonlama yetuk xodim sifatida faoliyat olib borishlari uchun zarur bo'lgan ijtimoiy infratuzilmaning takomillashib borishida ifodalanadi. Undan tashqari innovatsion investitsiyalashtirish davlatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mikro va makroiqtisodiy darajada jadallashishini ta'minlovchi yetakchi omil hisoblanadi. Shuningdek innovatsion investitsiyalashtirish innovatsion jarayonni amalga oshirishning asosi bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishining takomillashuviga ta'sir etishi asosida mikro va makroiqtisodiy barqarorlikni va foyda miqdorini oshib borishini ta'minlaydi. Innovatsion investitsiyalashtirish ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan, ma'naviy va jismoniy eskirgan asosiy ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalarni yangilashni, ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda amalga oshirishni ta'minlaydi. Innovatsion investitsiyalashtirish natijalari innovatsion jarayon orqali yaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonida qo'llash asosida yangi qiymatga, sifatga ega bo'lgan mahsulotlarda ifodalanadi. Innovatsion investitsiyalar xarajatlari asosan yangi mahsulotlarga, ishlab chiqarish texnikalariga yoki ishlab chiqarish texnologiyalariga qo'shiladi, iste'mol mahsulotlari sifatida ko'rinishi innovatsion jarayonning asosiy omili hisoblanadi.

Innovatsion investitsiya mablag‘larining bir qismi takomillashtirilgan yoki yangi ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarda ifodalanib, iqtisodiy jarayon bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Investitsiya mablag‘lari iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish sub‘ektlarida o‘zgarayotgan texnologik, ijtimoiy-ekologik va boshqa xususiyatlarning umumlashgan holatdagi o‘zgarishlarini ifoda etsa, innovatsion investitsiyalashtirish faqat ishlab chiqarish yoki ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va ko‘rsatish jarayonida bo‘layotgan yangi sifat o‘zgarishlarini o‘zida ifoda etadi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishdan maqsad investitsiyalashtirish sifatining o‘zgarishini ta‘minlagan holda sub‘ektlar olayotgan foydaning oshib borishini ta‘minlashdan iboratdir.

Chunki, har qanday iqtisodiy jarayon ishlab chiqarishda mavjud bo‘lgan resurslarni iqtisodiy mahsulotlarga aylantirish bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish sub‘ektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlashlari, mavjud resurslarni iste‘mol mahsulotlarga aylantirishning ilg‘or texnika va texnologiyalariga asoslanishini talab etadi. Bu jarayon ma‘lum bir vaqtni talab etadi. Innovatsion investitsiyalashtirish mablag‘larni ishlab chiqarish omillariga aylanishi ikki xil xususiyatga ega. Innovatsion investitsiya mablag‘larining asosiy qismi yangi ishlab chiqarish binolari va vositalarini hozirgi zamon fan va texnika yutuqlari asosida tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lsa, qolgan qismi esa ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan yangi xom ashyolarni ishlab chiqarish bilan bog‘liqdir. Innovatsion investitsiya mablag‘larining ishlab chiqarish vositalarida ifodalgan qismi o‘z qiymatini uzoq muddatda amortizatsiya mablag‘lari orqali qoplanishida innovatsion jarayonlarni qisqa muddatlarda yangilashda ma‘lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Xom ashyolarda innovatsion investitsiya mablag‘laridan foydalanish biroz yengilroq kechadi. Chunki, bu innovatsion mablag‘larning doiraviy harakati bir muncha tezdir.

Innovatsion investitsiyalashtirishni bazisli, ya‘ni fundamental innovatsion investitsiyalashtirishga va innovatsion jarayonlarni takomillashtirish bilan bog‘liq innovatsion investitsiyalashtirishga, ya‘ni qisman yangilanishga asoslangan innovatsiya investitsiya harajatlarga bo‘linadi. Bazisli innovatsion investitsiya xarajatlari asosan ilm-fan va texnika taraqqiyotida yuqori darajadagi yutuqlar bilan, yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ifodalanadi.

Повышение качества подготовки кадров в Республике Узбекистан

Л.Уличкина, доцент

Ташкентского государственного экономического университета

Сфера образования представляет собой одну из наиболее инновационных отраслей, оказывающую значительное влияние на инновационный климат и конкурентоспособность экономики в целом. Обеспечение подготовки и переподготовки квалифицированных специалистов, востребованных на рынке труда, а также интеграция образования с наукой и производством являются ключевыми приоритетами

различных государственных систем образования. В настоящее время создание и применение новых знаний выступают основополагающим источником роста мировой экономики и улучшения уровня жизни населения.

Эффективная система высшего образования играет неотъемлемую роль в экономическом развитии государства, и главная цель ее модернизации заключается в обеспечении качественного преобразования в условиях инновационной экономики. Для успешной модернизации высшего образования необходимо создание новых научно-методических, финансово-материальных и правовых условий, а также углубление и развитие кадрового обеспечения на основе сохранения накопленного позитивного потенциала и установления новых форм взаимодействия в системе высшего образования.

Современная система образования представляет собой процесс передачи знаний, умений и компетенций, с учетом сохранения традиций воспитания и обучения, направленный на достижение образовательных уровней, установленных государством. Профессиональное образование должно гарантировать накопление как общих, так и специальных профессиональных знаний, умений и компетенций разного уровня.

Инновационная система повышения качества специалистов может включать в себя использование новых образовательных технологий, разработку новых методик и программ обучения, введение современного оборудования и инструментов для практических занятий, а также создание учебных программ, основанных на актуальных тенденциях и потребностях рынка труда.

В условиях современных вызовов и требований рынка труда вопрос о повышении качества специалистов становится все более актуальным и важным для развития национальной экономики. В Республике Узбекистан отмечается растущая потребность в кадровых ресурсах, способных эффективно применять инновации, современные технологии и методы работы.

Для успешной адаптации к изменяющимся реалиям и конкуренции на мировом рынке необходимо создание инновационной системы повышения качества специалистов, которые смогут отвечать вызовам времени. Сейчас перед Узбекистаном стоят стратегические задачи, среди которых важное место занимает будущее развитие системы образования как ключевого фактора процветания страны, стабильного экономического роста и обеспечения занятости населения. Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев заявил, что главная цель реформ в сфере высшего образования – превратить Узбекистан в региональный центр образования и науки. Глава государства анонсировал запуск совместных образовательных программ с зарубежными университетами из топ-500 по приоритетным направлениям – информационные технологии, искусственный интеллект, агротехнологии и медицина. В стране планируется открыть филиалы университетов, входящих в топ-100 мирового рейтинга. Также планируется увеличить в 5 раз число иностранных студентов и довести объем экспорта услуг до 200 миллионов долларов. Одновременно была утверждена программа единого развития

системы высшего образования на период 2017-2021 годы, которая включает меры по укреплению и модернизации материально-технической базы вузов, а также оснащение их современными учебно-научными лабораториями и средствами современных информационно-коммуникационных технологий. Значимость реформы системы образования следует рассматривать в конкретном демографическом контексте Узбекистана: примерно 35% населения составляет молодежь в возрасте от 16 лет, а более 62% – молодые люди до 30 лет. Поскольку молодежь всегда находится в центре внимания, в Узбекистане проводится мощная молодежная политика, которая имеет надежный правовой фундамент. Эта политика отражена в Конституции Республики Узбекистан и в более чем 22 законах и нормативных актах, касающихся данной сферы. Инновационные технологии занимают важное место в современном развитии экономики, науки, образования и культуры. Они оказывают значительное воздействие на процесс подготовки специалистов различных профилей, требующих готовности к постоянным изменениям и новым вызовам. Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) представляют собой средства передачи, хранения, обработки и доступа к информации, используя компьютеры, сети, Интернет, мобильные устройства и другие технические средства.

ИКТ открывают широкие возможности для создания и использования разнообразных образовательных ресурсов. Среди них электронные учебники, мультимедийные презентации, интерактивные тесты, просветительные игры, видеоуроки, онлайн-курсы и многие другие. Эти технологии значительно обогащают образовательный процесс, делая его более доступным, интересным и эффективным.

Интеграция ИКТ в образование позволяет создавать динамичные и инновационные методы обучения, способствует персонализации образовательного опыта и развивает критическое мышление у учащихся. Возможность использования онлайн-ресурсов расширяет границы традиционного обучения, предоставляя учащимся доступ к обширным знаниям и опыту, недоступным ранее. ИКТ также способствуют формированию информационной культуры, развитию критического мышления, творчества, коммуникативных и коллаборативных навыков у студентов. ИКТ имеют ряд преимуществ для подготовки современных специалистов, таких как:

- повышение доступности и качества образования, учащиеся могут получать информацию из разных источников, выбирать наиболее подходящие для них формы и темпы обучения, а также получать обратную связь и помощь от преподавателей и однокурсников.

- Увеличение мотивации и заинтересованности студентов, так как ИКТ делают обучение более интересным, разнообразным, игровым и индивидуализированным.

- Увеличение эффективности и результативности обучения, так как ИКТ позволяют студентам лучше усваивать, запоминать и применять

приобретенные знания и навыки, а также проверять и оценивать свой уровень подготовки.

Однако, ИКТ также имеют некоторые недостатки, которые нужно учитывать при их использовании для подготовки современных специалистов, такие как:

- Риск перегрузки информацией, так как студенты могут встретиться с большим объемом и разнообразием информации, которую нужно отбирать, анализировать, критически оценивать и синтезировать.

- Риск потери социального взаимодействия, студенты могут изолироваться от реального общения с преподавателями и однокурсниками, а также потерять навыки работы в команде .

- Риск нарушения этических и правовых норм, так как студенты могут стать жертвами или нарушителями авторских прав, конфиденциальности, безопасности и других аспектов, связанных с использованием ИКТ.

Современные цели обучения сопряжены с формированием у студентов компетенций, то есть способностей к эффективному решению высококласных задач в различных ситуациях с учетом изменяющихся требований и условий. Обучение ориентировано на развитие творческого потенциала, критического мышления, самостоятельности и ответственности студентов.

Изменились формы и методы обучения. Современные способы обучения основаны на демократическом и сотрудиническом стиле преподавания, когда преподаватель выступает как координатор и консультант обучения, а студенты как активные участники и субъекты обучения. преваляют продуктивные методы, такие как дискуссии, дебаты, кейс-метод, проектный метод, проблемное обучение, исследовательское обучение и т.

сегодняшние формы организации обучения расширились за счет новых форм, таких как дистанционное обучение, электронное обучение, модульное обучение, рейтинговая система оценки и т. Студенты могут обучаться в разнообразных местах, в разное время и по разным программам.

Современные средства обучения расширились за счет новых средств, таких как компьютеры, интернет, мультимедиа, интерактивные доски, электронные библиотеки и т. Студенты пользуются разнообразными источниками информации, а также могут их создавать, редактировать и распространять.

Современные результаты обучения измеряются предпочтительно качественными показателями, такими как уровень компетенций, портфолио, рефлексия, обратная связь и т. Студенты показывают свои компетенции в реальных ситуациях, а также могут их развивать и совершенствовать.

В перспективе, мы можем ожидать появление различных инновационных технологий, направленных на подготовку специалистов, которые будут использовать преимущества передовых разработок в области искусственного интеллекта, нейроинтерфейсов, виртуальной и дополненной реальности, литий-металлических батарей и многих других областей. Вот несколько примеров таких технологий:

1. Робототехника и искусственный интеллект: Роботы, управляемые искусственным интеллектом, с возможностью управления сигналами, поступающими от мозга человека, представляют собой перспективное направление. Это позволяет студентам получать практический опыт работы с робототехникой, развивая при этом свои когнитивные и моторные навыки.

2. Интерактивные голосовые помощники: Голосовые помощники, оснащенные искусственным интеллектом, могут адаптироваться к индивидуальным особенностям и потребностям студентов. Они предоставляют индивидуализированные методы обучения, такие как дискуссии, игры и другие формы, способствуя более эффективному и интересному обучению.

Такие инновационные технологии предоставляют совершенно новые возможности для обучения, учитывая разнообразные стили обучения студентов и способствуя развитию технологических навыков. Они обеспечивают более динамичное и интерактивное образование, адаптирующееся к потребностям меняющегося мира и подготавливающее студентов к профессиональным вызовам в условиях постоянного развития и инноваций.

Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Ташкент 2017. Стр 3-5.
2. «Экономические и правовые основы интеллектуальной собственности» учебное пособие по общ. редакцией А.Н.Елисеева
3. <https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=873373>

Soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning roli

**N.Sharipov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasining katta o'qituvchisi**

Hozirgi davrda davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti ko'p jihatdan ularning soliq tizimiga, soliq salohiyatidan qay darajada samarali foydalanishlariga bog'liqdir. Soliq salohiyati – bu mamlakatning mavjud iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va moliyaviy oqimlarini soliqlar orqali byudjet daromadlariga jalb etish salohiyati sifatida tushuniladi. Ya'ni, davlat iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida mavjud soliq imkoniyatlaridan qanchalik samarali foydalansa, u shunchalik moliyaviy mustaqillikka va barqaror byudjet ta'minotiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, soliq salohiyatini oshirish har bir mamlakat oldida turgan strategik vazifa hisoblanadi.

Soliq salohiyatining samarali ishlashi uchun bir qator omillar muhim rol o'ynaydi. Ulardan eng asosiysi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq. Bunda iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan

ta'minlash, malakali kadrlar tayyorlash hamda ilm-fan natijalarini amaliyotga tatbiq etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1]. Shu o'rinda akademik erkinlik tushunchasi o'z o'rniga ega bo'ladi. Chunki akademik erkinlik ta'lim va ilm-fan sohasida yangicha yondashuvlarni shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan va iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Akademik erkinlik mohiyatan ilmiy izlanish, ta'lim jarayoni va professor-o'qituvchilar hamda talabalar faoliyatida mustaqillikni anglatadi. U o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, ilmiy g'oyalarni ilgari surishda, yangiliklarni tatbiq etishda tashabbuskorlikni ta'minlaydi. Bunday sharoitda yaratilgan bilimlar, ishlab chiqilgan nazariy va amaliy g'oyalar iqtisodiyotning real sektorida qo'llaniladi, natijada yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, samarador biznes modellar va boshqaruv mexanizmlari yuzaga keladi. Bu esa o'z-o'zidan soliq bazasining kengayishiga, iqtisodiy faol subyektlar sonining ortishiga, ularning to'lov qobiliyatining kuchayishiga olib keladi [6].

Akademik erkinlik va soliq salohiyatining oshishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Agar ta'lim va ilm-fan sohasi erkinlik asosida rivojlansa, iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan ta'minlash imkoniyati kengayadi. Yangi bilimlar esa innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, ularni bozorga olib chiqish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu jarayonlar nafaqat mamlakat ichki bozorida, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh mahsulotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada eksport salohiyati kengayadi, iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar oqimi kirib keladi va soliq tushumlari ko'payadi.

Shunday qilib, akademik erkinlik soliq salohiyatiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda bu jarayonlarning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Akademik erkinlikning soliq salohiyatini oshirishga ta'siri

№	Akademik erkinlik yo'nalishi	Soliq salohiyatiga ta'siri
1	Talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlari	Startaplar va yangi korxonalar tashkil bo'lib, soliqqa tortiladigan manbalar soni ortadi.
2	Professor-o'qituvchilarning o'quv dasturlarini erkin ishlab chiqishi	Iqtisodiyot ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlanib, samarali mehnat bozorini yaratadi va soliqlar bazasini kengaytiradi.
3	Innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiqi	Yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilib, qo'shimcha qiymat solig'i va foyda solig'i tushumlari oshadi.
4	Xalqaro ilmiy hamkorlik	Raqobatbardosh bilimlar va texnologiyalar kirib kelib, eksport hajmi ortadi, bu esa soliq tushumlarini ko'paytiradi.
5	Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Samarador korxonalar paydo bo'lib, ishlab chiqarish hajmi oshadi va daromad soliqlari

		ko'payadi.
6	Talabalarning tashabbuskorligi	Yangi tadbirkorlik subyektlari yuzaga kelib, soliqqa tortiladigan baza kengayadi.
7	Akademik erkinlik orqali huquqiy ongini oshirish	Xufyona iqtisodiyot qisqaradi, soliqlarni to'lash madaniyati kuchayadi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, akademik erkinlik soliq salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarning ilmiy izlanishlari va tashabbuskorligi yangi startaplar hamda tadbirkorlik subyektlarini yuzaga keltiradi, professor-o'qituvchilarning o'quv dasturlaridagi erkinligi esa iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiqi yangi mahsulot va xizmatlarni yaratib, soliqlar tushumlarini ko'paytiradi, xalqaro hamkorlik esa ilg'or bilim va texnologiyalar kirib kelishiga, eksport hajmi kengayishiga olib keladi. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorlikni oshirsa, huquqiy ongning yuksalishi xufyona iqtisodiyotni qisqartiradi. Natijada, akademik erkinlik ta'lim sifati bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish va soliqqa tortiladigan baza kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning o'rni beqiyosdir. Akademik erkinlik ta'lim sifatini yuksaltiradi, innovatsion g'oyalar va startaplarni rivojlantiradi, huquqiy ongini oshiradi hamda yangi soliqqa tortiladigan manbalarni shakllantiradi. Taklif sifatida aytadigan bo'lsak, birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida erkin o'quv dasturlari ishlab chiqishni kengaytirish; ikkinchidan, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish; uchinchidan, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish; to'rtinchidan, soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limiy dasturlarni keng tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharipov N. Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari // "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali. 2025-yil, iyun. № 6-son.
2. Tursinkulov N. (2022). Oliy ta'lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar. Архив научных исследований, 2(1).
3. Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Diss. avtoreferati. – T., 2022.
4. Azimov S.S. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. 126 b.
5. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimini barqarorligini ta'minlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2018. -230 b.
6. European University Association. How universities can protect and promote academic freedom. EUA principles and guidelines. Brussels: European University Association, February 2025.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ingliz tili o‘qitishning akademik erkinlik asosidagi rivoji

**Sh.Sultonmurotova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti**

Kirish

Mamlakatimiz ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish so‘nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, unda akademik erkinlik tamoyillari muhim o‘rin egallamoqda. Akademik erkinlik — bu ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar va talabalar uchun o‘quv jarayonini tashkil etishda mustaqil qaror qabul qilish, mazmun, metod va vositalarni erkin tanlash imkoniyatini beruvchi konsepsiya bo‘lib, ingliz tili ta’limida zamonaviy, moslashuvchan va samarali tizimni shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sifatini oshirish, chet tillarini, xususan, ingliz tilini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlari mazkur yo‘nalishda tub burilish yasadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5117-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi qarori, “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi qarorlari bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlarni aniq ko‘rsatib, ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchilar uchun yangi marralarni, amalga oshiriladigan islohotlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi davlat dasturi, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro reytinglar mezonlariga mos islohotlar, CEFR (Common European Framework of Reference) standartini joriy etish hamda ta’lim jarayonini liberallashtirish siyosati ingliz tili o‘qitishda akademik erkinlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism

Akademik erkinlikning joriy etilishi ta’lim mazmunini yangilash, pedagogik yondashuvlarni erkin tanlash, o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini bermoqda. Avvallari qat’iy o‘quv rejalari va markazlashgan dasturlar asosida ishlash talab qilinardi. Endilikda esa oliy ta’lim muassasalari o‘z o‘quv rejalari, fan mazmuni, dars soatlari nisbatini mustaqil belgilash huquqiga ega bo‘lib, ingliz tili bo‘yicha innovatsion kurslar, ixtisoslashgan dasturlar va amaliy mashg‘ulotlarni kiritish imkoniyatiga ega. Bu o‘z navbatida talabalar ehtiyojlari va mehnat bozori talablari o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlaydi, til o‘rganishning amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi. Akademik erkinlik, ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilari uchun katta imkoniyatlar ochdi. Endilikda pedagoglar dars jarayonida ilg‘or xalqaro metodikalardan foydalanish, muqobil darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni tanlash, o‘quvchilarning til kompetensiyasini baholashda zamonaviy baholash mezonlarini qo‘llash huquqiga ega. Masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning), Communicative Language Teaching (CLT),

Task-Based Learning kabi metodlar ko‘plab oliy o‘quv yurtlari va maktablarda keng tatbiq etilmoqda. Bu esa ingliz tilini nafaqat nazariy, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali chuqurroq o‘zlashtirishga, talabalarni ingliz tilida erkin muloqot qilishga, global ilmiy-texnik yangiliklarni o‘qib tushunishga rag‘batlantiradi.

Ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishda akademik erkinlikning yana bir muhim jihati — bu xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘ymoqda, talabalar ikki diplomli ta’lim dasturlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda. Shuningdek, chet ellik mutaxassislarni jalb etish, xorijiy o‘qituvchilarni darslarga taklif etish, onlayn va gibril ta’lim shakllarini joriy etish orqali ingliz tilini xalqaro tajribaga asoslangan yondashuv bilan o‘qitish imkoniyati yaratilmoqda. Masalan, ayrim universitetlarda ingliz tili fanlarining to‘liq ingliz tilida o‘tilishi, xalqaro imtihon tizimlari (IELTS, TOEFL) bo‘yicha tayyorlov kurslarining kengayishi talabalarning global mehnat bozorida raqobatbardosh kadr bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish akademik erkinlikni yanada mustahkamlab, ingliz tili o‘qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn platformalar (Coursera, EdX, Khan Academy), mobil ilovalar (Duolingo, Memrise) va mahalliy elektron resurslardan foydalanish o‘qituvchi va talabalar uchun erkinlikni yanada kengaytiradi. Shu bilan birga, ingliz tilini o‘qitishda akademik erkinlikni yanada kengaytirish uchun qator vazifalar ham dolzarbligicha qolmoqda. Avvalo, barcha ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy laboratoriyalar, til xonalari, multimedia resurslari bilan ta’minlash talab etiladi. O‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishini yo‘lga qo‘yish, xalqaro metodikalar bo‘yicha treninglar tashkil etish, xorijiy ilmiy adabiyotlarga erkin kirish imkoniyatini yaratish ham muhim. Bundan tashqari, akademik erkinlikni ta’minlash bilan birga, sifatni nazorat qilishning aniq mezonlarini belgilash, korrupsiya va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish ham zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishning akademik erkinlik asosidagi rivoji mamlakatning global integratsiya jarayonlaridagi o‘rnini mustahkamlash, yoshlarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlash, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalarida dunyo bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Akademik erkinlik nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar uchun ham keng imkoniyatlar eshigini ochib, ularni ijodkorlik, mustaqil fikrlash, zamonaviy bilimlarni egallashga undaydi. Bu esa O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ingliz tilini o‘qitish sifatini tubdan oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish

chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori <https://lex.uz/>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 19-yanvardagi qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi qarori

4. Musakhanova, G. (2022). Hozirgi zamon falsafasi: holati va taraqqiyotining istibollari: таълим жараёнининг самарадорлигини оширишда замонавий мутахассислар тайёрлаш-давр талаби. *Архив научных исследований*, 5(5).

5. Sultonmurotova, S.M. (2025). Malakali iqtisodchi rahbarlarni tayyorlash jarayonida ingliz tili o'qitish metodlaridan samarali foydalanish yo'llari. *Экономика и социум*, (5-1 (132)), 809-815.

Вопросы увеличения капитализации коммерческих банков в развитие предпринимательства

**З.Худайберганава, PhD, доцент кафедры
"Банковского учета и аудита" ТГЭУ**

Введение

В современных условиях вопросы увеличение капитализации коммерческих банков имеет важное практическое значение для укрепления финансовой устойчивости банков. Именно капитализация способствует увеличению ресурсного потенциала коммерческих банков за счет дополнительного привлечения прямых и портфельных инвестиций. По этой причине с уровнем капитализации очень тесно связан объем финансового рынка. В рамках отдельного института уровень капитализации характеризует способность его менеджеров доказать перспективность деятельности данного института.

Необходимо отметить, что в развитых странах накоплен многолетний теоретический и практический опыт по увеличению капитализации, анализа, оценки и регулирования финансовой устойчивости коммерческих банков. Изучение передового зарубежного опыта в данном направлении имеет важное практическое значение для дальнейшего увеличения капитализации, укрепления ликвидности и финансовой устойчивости коммерческих банков Узбекистана в условиях развития отраслей экономики.

Глобальное развитие рыночных отношений современной экономики требует от коммерческих банков разработки и совершенствования методов укрепления капитализации и финансовой устойчивости, основанных на принципах рынка и экономической рациональности. В частности, в стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы уделить особое внимание приведению дорожной инфраструктуры в соответствие с международными

стандартами, полной цифровизации системы управления движением, созданию должных условий для безопасного движения на дорогах всеми участниками, обеспечению широкого участия общественности в деятельности в данной сфере, а также эффективному использованию в данном направлении средств, направляемых посредством информационного портала «Открытый бюджет»[1].

Результаты исследования финансово-банковской системы развитых и развивающихся стран показывают, что капитализация коммерческих банков напрямую влияет на развитие и устойчивость экономики страны. Также кредиты банков оказывают поддержку развитию малого и среднего бизнеса, частного предпринимательства и стимулируют развитию инфраструктуры инновационной и цифровой экономики в стране. Дальнейшее развитие цифровых технологий в экономике и, в частности, банковской системе обусловлено глобальным прогрессом в областях информационных технологий и телекоммуникаций.

Обзор литературы по теме.

Теоретические, методологические и практические вопросы увеличения капитализации коммерческих банков были исследованы в научных трудах зарубежных ученых экономистов, таких как Э.Гилл, Т.Кох, Э.Рид, Х.Грюнинг, Э.Доллан, Л.Роджер, А.Симановский, О.Лаврушин, В.Усоскин, Г.Панова, Ж.Синки, Р.Коттер, У.Сото[2] Моисеев, Е.Жукова, Г.Белоглазова, Н.Валенцева, А.Гавриленко, В.Колесников, Г.Коробова, Л. Батракова, А. Литвинова, О. Овчинникова, Г.Панова, В. Родионова, И. Рыкова, Г.Тосунян и других.

Отдельно необходимо выделить разработанные Базельским комитетом по банковскому надзору стандарты определения достаточности собственного капитала коммерческих банков. Данный свод международных стандартов расчета адекватности собственного капитала является обобщением практики банковского управления и банковского надзора стран с развитыми банковскими системами, в том числе и для российской банковской системы. Последняя также опирается на данные стандарты определения достаточности капитала.

Научные подходы увеличения капитализации коммерческих банков нашли практическое воплощение и в работах местных ученых экономистов и специалистов такие как: Ш.Абдуллаева, Т.Бобакулов, Б.Бердияров, Т.Каралиев, Ф.Муллажанов, А.Омонов, Н.Холмуродов, Р.Таджиев, Р.Шомуродов, Н.Каримов, И.Таймухамедов, М.Нурмуратов, З.Холмахмадов и многих других.

Капитализация во многом определяется экономическим ростом и глобальной конкурентоспособностью национальной экономики, тогда как капитал является величиной относительно постоянной. Именно поэтому стандарты Базель II и Базель III предприняли попытку вывести технику реализации концепции регулятивного капитала на качественно новый уровень: уровень оценок, ориентированных на рынок, поскольку стандарт

Базель I исходил из концепции регулятивного капитала и определял требования к капиталу без учета реальной потребности в нем банков [3].

Понятия структура активов и структура пассивов коммерческого банка являются одними из основополагающих в теории банковского дела, поскольку вся деятельность банка сводится к грамотному формированию пассивной части баланса с последующим инвестированием накопленных средств в активные инструменты. Однако отношение к структуре активов и пассивов коммерческого банка как к самостоятельному объекту управления возникло относительно недавно.

Так, в учебнике «Банковское дело», изданном в 2009 году под редакцией известного зарубежного ученого экономиста Лаврушина О.И., приводится определение структуры активов как: «...соотношение разных по качеству статей актива баланса банка к балансовому итогу» [4], при этом определение структуры пассивов отсутствует.

Подход известного зарубежного ученого экономиста П.С. Роуза является наиболее конструктивным и основан на предположении, что сущность управления активами и пассивами в банках заключается в формировании стратегии и осуществлении мероприятий, которые приводят структуру баланса банка в соответствие с его стратегическими программами. По его мнению, «...основная цель управления активами и пассивами состоит в максимизации или, по меньшей мере, в стабилизации величины маржи банка (разности между процентными поступлениями и процентными издержками) при приемлемом уровне риска» [5].

Анализ и результаты.

Смысл процесса капитализации состоит в повышении стоимости капитала, принадлежащего субъектам всех уровней экономики страны, в результате роста их хозяйственного потенциала и эффективности. Таким образом, капитализация во многом определяет темпы экономического роста и глобальную конкурентоспособность национальной экономики.

Само понятие капитализация до сих пор не связывается с рыночным толкованием данного термина применительно к отечественным кредитным организациям. До сих пор и в научной среде и банковском сообществе под капитализацией понимают только наращивание собственного капитала банка. Например, Питер С. Роуз отмечает, что “мы часто оперируем термином “капитализация”, понимая под этим собственные средства или собственный капитал банков и его достаточность для покрытия рисков” [6].

Действительно, для частных и государственных компаний и банков собственные средства являются практически единственными источниками повышения капитализации. Для компаний и банков, акции которых котируются на фондовой бирже, рыночная стоимость капитала является определяющей при оценке уровня капитализации [7].

Таблица 1

Динамика ликвидности банковского сектора в Узбекистане

Показатели	01.03.2023	01.03.2024	01.03.2025
Высоколиквидные активы (млрд. сум)	94 426	93 556	138 967

Отношение высоколиквидных активов к совокупным активам, %	16,8%	14,4%	17,8%
Коэффициент покрытия ликвидности (мин. значение 100%)	191,6%	154,6%	194,7%
Коэффициент чистого стабильного финансирования (мин. значение 100%)	113,9%	111,3%	115,9%
Коэффициент мгновенной ликвидности (мин. значение 25%)	107,4%	96,5%	124,4%

Анализ таблицы 1 показывает, что высоколиквидные активы коммерческих банков страны на 1 марта 2025 года по состоянию с 1 мартом 2023 года значительно увеличились на 47,1% или на 44,5 млрд. сумов. В том числе, коэффициент покрытия ликвидности, коэффициент стабильного финансирования, коэффициент мгновенной ликвидности также увеличились за аналогичный период.

Поддержание устойчивости банковского сектора важно для экономической безопасности национальной экономики и, в свою очередь, за счет обратных связей поддерживает коммерческие банки как его неотъемлемое звено в сложном механизме, поэтому банка стоит уделять всё большее внимание анализу и управлению ликвидностью активных операций.

В банковской сфере максимальный доход приносят кредитные операции, содержащие основной риск потери, поэтому «управление портфелями кредитов - это поиск наилучшего соотношения между риском и прибылью всего банковского портфеля кредитов» [8], способствующего укреплению финансовой устойчивости банка в части его такого признака, как финансовое равновесие.

Конечно, трудно переоценить одно из важнейших условий стабильной деятельности банка - величину собственного капитала, которая формируется за счет вкладов учредителей, прибыли и формируемых из нее фондов. Собственный капитал банка представляет собой совокупность различных по назначению полностью оплаченных элементов, обеспечивающих экономическую самостоятельность, стабильность и устойчивость банка.

По результатам исследования теоретических основ увеличения капитализации коммерческих банков в условиях внедрения инноваций сформулировали следующие научные выводы, предложения и рекомендации:

1. Исследование банковской системы развитых и развивающихся стран показывает, что финансовая устойчивость служит характеристикой стабильного положения и дальнейшего развития банка как главного элемента банковской системы. Устойчивость отдельного банка, ликвидность, надежность и стабильность банковской системы являются взаимозависимыми показателями, так как обусловлены состоянием экономической среды, в рамках которой осуществляется банковская деятельность.

2. В современных условиях вопросы увеличение капитализации коммерческих банков имеет важное практическое значение для укрепления

финансовой устойчивости банков. Именно капитализация способствует увеличению ресурсного потенциала коммерческих банков за счет дополнительного привлечения прямых и портфельных инвестиций. По этой причине с уровнем капитализации очень тесно связан объем финансового рынка.

3. В своей деятельности коммерческим банкам приходится учитывать различные нюансы. В частности, немалое значение имеет характер рисков. Различают внешние и внутренние причины их возникновения. В категорию первых входят те риски, которые не связаны напрямую с деятельностью банка. Это убытки, возникшие вследствие каких-то серьезных событий.

4. Для увеличения капитализации, укрепления ликвидности и финансовой устойчивости коммерческих банков Узбекистана необходимо привлекать опытных отечественных специалистов и специалистов международного класса в области банковской деятельности, аналитиков, научно-исследовательский персонал, а также высшие образовательные учреждения, для разработки, апробирования, а в дальнейшем внедрения современных передовых банковских технологий.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «Стратегия развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы».

2. Рутгайзер В.М. и Будицкий А.Е. Оценка рыночной стоимости коммерческого банка URL: <https://www.livelib.ru/author/208447/latest-v-m-rutgajzer-a-e-buditskij>.

3. Банковское дело. Экспресс – курс/ под ред. О.И. Лаврушина – М.: «Кнорус», 2009.-128 с.

4. Банковское дело. Экспресс – курс/ под ред. О.И. Лаврушина – М.: «Кнорус», 2009. -128 с.

5. Роуз П.С. Банковский менеджмент. Предоставление финансовых услуг: пер. с англ. – М.: Дело Лтд, 1995.

6. Роуз П.С. Банковский менеджмент. М.: Дело. 2019. С.238.

8. Синки, Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг: пер. с англ. М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. С. 535, 540.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish yo‘llari

**Sh.Bayramova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi**

Zamonaviy global iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi va texnologik o‘zgarishlarning jadallashuvi milliy iqtisodiy siyosatda innovatsion tadbirkorlikning o‘rmini yanada mustahkamlashni talab etadi. Innovatsion tadbirkorlikning nazariy asoslarini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash,

yangi bozorlar yaratish va ilg'or texnologiyalarni joriy etishning muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlik deganda yangilik yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy tizimga samarali integratsiya qilishga qaratilgan faoliyat deb tushuniladi. J. Shumpeter konsepsiyasiga ko'ra, innovator tadbirkor yangi mahsulot, texnologiya yoki biznes model orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki beradi. O'zbek va rus iqtisodiy tafakkurida ham bu tushuncha keng o'rganilgan: mahalliy olimlar uni modernizatsiya va iqtisodiy raqobatbardoshlikning asosiy drayveri sifatida ko'rsatadilar.

Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tarkibiy omillari bu:

- Texnologik yangilanishlar — raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt yechimlari;
- Bozor ehtiyojlarini prognozlash — talab va taklifni oldindan tahlil qilish, moslashuvchan biznes-modellar yaratish;
- Moliyaviy manbalarni jalb etish — venchur kapital, davlat grantlari va investitsiya fondlari orqali yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Innovatsion tadbirkorlikning takomillashtirishning 5 asosiy yo'nalishlari mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish. Universitetlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va biznes-inkubatorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.
2. Intellektual mulkni himoya qilish. Patentlash tizimini soddalashtirish va tijoratlashtirishga qulay huquqiy asos yaratish.
3. Raqamli iqtisodiy vositalardan foydalanish. Elektron savdo, onlayn marketing va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish.
4. Moliyaviy resurslarni kengaytirish. Innovatsion loyihalarga uzoq muddatli kreditlash va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish.
5. Kadrlar salohiyatini oshirish. Innovatsion fikrlash va loyiha menejmenti ko'nikmalarini shakllantiruvchi ta'lim dasturlarini rivojlantirish.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni taklif sifatida kiritish bo'ladi:

- Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun grant va soliq imtiyozlarini kengaytirish.
- Venchur kapital va xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish.
- Texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar faoliyatini hududlarda rivojlantirish.
- Davlat va xususiy sektor sherikligini mustahkamlash orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, innovatsion tadbirkorlikning nazariy asoslarini chuqurlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, barqaror o'sishni ta'minlaydi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bunda davlat siyosati, ilm-fan va xususiy sektor hamkorligi asosiy omil sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Milliy innovatsion tizimni rivojlantirish konsepsiyasi, 2022. <https://mininnovation.uz/uz/lists/view/111>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi qaror, 2018. <https://lex.uz/docs/3564970>
3. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934. <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.187354>
4. Chesbrough, H. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press, 2003.
5. Xo'jayev, B. X., Jo'rayev, R. A. Innovatsion tadbirkorlik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
6. Karimov, A. S. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti. Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2021.

Экономическая сущность монетарной политики

**Р.Шомуродов, доцент кафедры
“Социально-гуманитарных наук и экономики”, к.э.н. Филиала
Федерального Государственного бюджетного образовательного
учреждения высшего образования “Национальный исследовательский
университет” Московского энергетического института в городе
Ташкенте**

Введение

Монетарная политика – совокупность методов, инструментов и мер, направленная на обеспечение стабильности национальной валюты, платежного баланса, цен, предложения денег, финансового рынка, экономического роста, инвестиционной активности, макроэкономической и финансовой стабильности в экономике.

Развитые страны, такие как США, Япония, Германия, Канада, Италия, Франция имеют огромный теоретический, методологический и практический опыт по разработке, прогнозированию, осуществлению и совершенствованию методов, инструментов и рыночных механизмов монетарной политики. Кроме того, анализ передового опыта развитых стран показывает, что монетарная политика совершенствовалась под влиянием инновационных идей.

Глобализация мировой экономики кардинальным образом изменила процессы развития экономики, банковской системы, финансового рынка, инструментов, методов монетарной политики, в частности, придав им инновационную направленность. В условиях глобализации прослеживаются коренные изменения в международной в финансово-банковской системе, в монетарной политике с учетом цифровых технологий.

Монетарная политика также способствовала и играла важную ключевую роль в решении сложных макроэкономических и финансовых проблем,

связанных с возникновением различных кризисов экономического, финансового, политического, социального и системного характера, различного рода эпидемии и пандемии, наблюдавшиеся в мировой истории. Поэтому регулярно совершенствуются модели, методы, методология, механизмы и инструменты монетарной и фискальной политики.

Обзор литературы по теме.

По заключению М.Фридмена, Центральный банк имеет достаточные возможности для регулирования предложения денег, и при этом инфляция не является многофакторным процессом [1].

Данное заключение основывается на том, что Центральный банк, используя политику открытого рынка и дисконтных операций, может управлять денежной массой и процентными ставками.

Ф.Мишкин утверждает, что, “операции открытого рынка – самый важный инструмент монетарной политики, так как они позволяют управлять процентными ставками и монетарной базой, определяющими объем денежной массы” [2].

Действительно, покупка ценных бумаг Центральным банком на открытом рынке увеличивает резервы банковской системы и монетарную базу, что ведет к росту предложения денег и снижению краткосрочных процентных ставок.

По мнению В. Юровицкого, в условиях отсутствия обязательного резервирования все исходные, эмиссионные деньги являются активными, следовательно, кредитная деятельность коммерческих банков приведет к росту депозитов [3].

МакКаллум утверждает, что спрос на деньги является нестабильным, поэтому основным инструментом денежно-кредитной политики является процентная ставка Центрального банка [4].

Вопросы совершенствования монетарной политики были исследованы, и соответствующие выводы были сформулированы в научных трудах таких зарубежных ученых-экономистов, как: Ж.Кейнс, М.Фридмен [5], И.Фишер, Ж.Тобин, Э.Долан, О.Лаврушин [6], Мартин Боденштейн [7], Итаи Агур [8], Навой А., Косой А., Белоглазова Г., Ван-Хуз Д, Кейнс Дж., Абрамова М., Лаврушин О., Афанасьева О., Смирнова О., Миллер Р, Моисеев С, Хесус У, Мишкин Ф [9].

Например, С. Моисеев в своих научных трудах анализировал такие актуальные вопросы монетарной политики, как обеспечение стабильности национальной валюты, таргетирование предложения денег и целевой показатель инфляции и сформулировал соответствующие выводы.

Отдельные теоретические и практические аспекты монетарной политики нашли свои отражения в научных трудах узбекских ученых-экономистов – А.Вахабова [10], А.Омонова, Т.Коралиева, Б.Душаева [11], О.Намозова [12], Т.Бобакулова [13], Р.Шомуродова [14].

Например О.Намозов в качестве обязательного условия укрепления денежной системы предлагает внедрение инфляционного таргетирования. Р.Шомуродов впервые в среде ученых экономистов Узбекистана изучал

инструменты монетарной политики, выделив их на прямые и косвенные инструменты. А также раскрыл их сущность, особенности, преимущества и недостатки. Б.Душаев предлагает совершенствовать регулирование предложение денег путем развития практики использования инструментов монетарной политики.

Анализ и результаты.

Исследование экономики, монетарной и фискальной политики, финансовой системы развитых стран показывает, что проблемы финансового и макроэкономического характера в мировой экономике имели циклический характер.

Необходимо отметить, что в истории мировой экономики наблюдались различные макроэкономические и финансовые проблемы, а также отдельные кризисы экономического и финансового характера. Для решения этих проблем правительством каждой страны была разработана и осуществлена программа макроэкономической стабилизации экономики.

На наш взгляд, эти проблемы будут появляться в различной степени в зависимости от изменения мировой конъюнктуры, ослабления и нарушения финансовой дисциплины в отношениях между странами, а также с возникновением неожиданных для человечества различного рода новых пандемий и эпидемий, не наблюдавшихся в истории мировой экономики.

В настоящее время во многих странах не нашли своего научного и практического решения ряд макроэкономических и монетарных проблем. В частности, спад производства, снижение экспортного потенциала, рост уровня безработицы, внешнего долга, дефицита государственного бюджета и дефицита платёжного баланса. Решение этих сложных взаимосвязанных проблем зависит от качества разработанных конкретных мер и программы стабилизации экономики правительств всех стран.

Совершенствование методов и монетарных инструментов является обязательным условием повышения эффективности монетарной политики. Поэтому в настоящее время в мировой экономической практике широко используются косвенные инструменты монетарной политики. К ним можно отнести операции на открытом рынке, дисконтную политику, обязательные резервные требования, операции по РЕПО, рефинансирование коммерческих банков, ломбардный механизм, валютные свопы, кредиты овернайт, кредитный аукцион и другие. Эти инструменты позволяют центральным банкам проводить эффективную монетарную политику, которая способствует обеспечению устойчивости цен и экономическому росту, укреплению макроэкономической и финансовой стабильности.

Традиционным инструментом монетарной политики является политика обязательных резервов Центрального банка. Через изменение резервной нормы можно менять размер денежной массы страны. Однако политика обязательных резервов является административным инструментом, сила воздействия которого через мультипликатор значительна.

Третьим инструментом монетарной политики является политика открытого рынка. Опыт развитых стран показывает, что активные операции

на открытом рынке с целью регулирования ликвидности коммерческих банков невозможны при отсутствии у коммерческих банков заинтересованности в приобретении государственных ценных бумаг. Для формирования этой заинтересованности, уровень дохода по ним не должен быть ниже дохода по основным активным операциям.

В научных трудах известных ученых-экономистов часто встречается мнение о том, что не менее важным инструментом монетарной политики является валютная политика. В рамках валютной политики Центральные банки выполняют три вида валютных операций: валютная интервенция, обслуживание внешнего долга Правительства, управление официальными золотовалютными резервами.

Совершенствование методов и инструментов монетарной политики позволяет обеспечить стабильность цен, национальной валюты, процентных ставок, ликвидности банковской системы и денежного рынка, устойчивого экономического роста и тем самым способствует повышению стабильности макроэкономической и финансовой стабильности.

По результатам исследования теоретических основ сущности монетарной политики сформулировали следующие научные выводы:

1. Монетаризм основывается на понятии, что рыночная экономика является внутренней стабильной системой. Возникающие всякие негативные явления в ней – это результат неправильного вмешательства государства. Поэтому необходимо минимизировать такого вмешательства. Также существует сильная взаимосвязь между денежной массой в обращении и номинального ВВП, чем взаимосвязи между инвестицией и ВВП.

2. Из мировой экономической практики известно, что на спрос и предложение денег влияют в основном два фактора: номинальный объем ВВП и процентная ставка. По этим факторам были проведены различные монетарные и макроэкономические анализы учеными экономистами всех стран и сделаны соответствующие выводы, а также предложения.

3. Исходя из функций и полномочий, центральный банк является также ответственным за макроэкономическую стабилизацию экономики, реальный экономический рост и низкий уровень безработицы. Поэтому для обеспечения стабильности цен Центральные банки используют инструменты монетарной политики и воздействуют состоянию денежного рынка, ликвидности банковской системы и экономике в целом.

4. Главная задача разработки и реализации центральным банком денежно-кредитной политики состоит в том, чтобы добиться максимально возможного равновесия денежного рынка и поддержать баланс между количеством денег в обращении и потребностью в них. На наш взгляд, проблема экономических циклов, выделяемых в экономической теории, имеет самостоятельное значение и связана с вопросами макроэкономической и финансовой сбалансированности.

Список использованных источников

1. Фридмен М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 132-134.

2. Мишкин Ф. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2014. – С. 483.
3. Юровицкий В. Эволюция денег: денежное обращение в эпоху изменений. М.: Гросс Медиа, 2005. – С. 96.
4. McCallum, B.T. Robustness Properties of a Rule for Monetary Policy. - Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy 29, 1988. - P. 173-203.
5. Фридман М. Если бы деньги заговорили... Пер. с англ. – М.: Дело, 1999. – С. 132-134. Лаврушин О.И., Банковский менеджмент. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 560 стр.
6. Лаврушин О.И., Банковский менеджмент. Учебник. – М.: КНОРУС, 2010. – 560 стр.
7. Itai Agur, Maria Demertzis. Will macroprudential policy counteract monetary policy's effects on financial stability? North American Journal of Economics and Finance 48 (2019) 65-75.
8. Martin Bodenstein, Junzhu Zaho. Employment, wages and optimal monetary policy. Journal of Monetary Economics. February 14, 2019.
9. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: И.Д. ООО «Вильямс», 2013. – 880с.
10. Вахабов А.В. Обеспечение стабильности банковской системы в условиях кризиса//Экономический вестник Узбекистана. – Ташкент, 2009. - №4 – 24-с.
11. Омонов А.А., Коралиев Т.М. Деньги, кредит и банки. Учебник. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2012. – 324 с.;
12. Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. д.э.н. – Ташкент, 2001. – 39 с.
13. Бобакулов Т.И. Проблемы обеспечения стабильности курса национальной валюты и пути их решений. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. д.э.н. – Ташкент: БФА, 2008. – 33с.
14. Шомуродов Р.Т. Пути совершенствования монетарных инструментов в банковской системе. Автореф. дисс. на соис. уч. ст. к.э.н. – Ташкент, 2004. – 19 с.

Post-pandemiya davrida global ta'minot zanjirlarining barqarorligi

A.Sohibov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: K.Xursandov, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) joriy yil birinchi yarmida koronavirus pandemiyasi kengayishining to'xtatilishi va ikkinchi yarim yildan boshlab iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich tiklanishi bo'yicha taxminlariga asoslangan bazaviy prognozlariga ko'ra, 2020 yilda jahon iqtisodiyoti 3 foizga qisqarishi kutilmoqda.

2019 yilning noyabr-dekabr oylarida Xitoy Xalq Respublikasining Uxan shahrida paydo bo'lgan koronavirus pandemiyasining jahon miqyosida keng tarqalishi global inqirozni vujudga keltirdi. Bu jahon inqirozlaridan turli jihatlar bilan farq qilib, iqtisodiyotga salbiy ta'siri juda kuchliligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy tilda aytadigan bo'lsak, bu pandemiya yalpi talab va yalpi taklifga, makroiqtisodiy barqarorlikka tashqi "zarba" bo'lib, oldingi iqtisodiy inqirozlardan ko'lami va zarari jihatidan katta farq qiladi. Qisqa vaqt ichida COVID-19'ning global miqyosda keng tarqalishi deyarli barcha davlatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, virusning ta'sir ko'lami kengayishda davom etmoqda.

Koronavirus pandemiyasigacha bo'lgan davrdagi iqtisodiy rivojlanish

Tadqiqotlar natijasi shundan dalolat beradiki koronavirus pandemiyasi boshlangunga qadar jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlarda ijobiy siljishlar, barqaror rivojlanish alomatlari kuzatilgan. Oxirgi yillarda jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishning sur'ati o'rtacha 3 foiz atrofida bo'lsa, uning **yuqori sur'atlari:**

- Xitoy;
- Tojikiston;
- Armaniston;
- O'zbekistonda.

past sur'atlari:

- AQSh;
- Buyuk Britaniya;
- Rossiya Federatsiyasida kuzatilgan.

Jahon iqtisodiyotining yalpi daromadi 2019 yilda 84,5 trillion AQSh dollarni, shu jumladan:

- AQSh 20,6 trillion dollar (ulushi 24,4 foiz);
- Xitoy Xalq Respublikasi 13,1 trillion dollar (ulushi 15,6%);
- Germaniya 3,9 trillion dollar (4,6%);
- Buyuk Britaniya 2,8 trillion dollar (3,3%);
- Rossiya va Janubiy Koreya 1,5 trillion dollari (1,9%)ni tashkil etilishini 1-

rasmda ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari dinamikasi

Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) joriy yil birinchi yarmida koronavirus pandemiyasi kengayishining to'xtatilishi va ikkinchi yarim yildan boshlab iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich tiklanishi bo'yicha taxminlariga asoslangan bazaviy prognozlariga ko'ra, **2020 yilda jahon iqtisodiyoti 3 foizga qisqarishi kutilmoqda.**

Bu sharoitda, iqtisodiy pasayish rivojlangan davlatlarda 6,1 foizni (shu jumladan, AQSh – 5,9 foiz, Yevrozona mamlakatlari – 7,5 foiz) va rivojlanayotgan mamlakatlarda – 1 foizni, shuningdek, Rossiyada – 5,5 foizni va Qozog'istonda – 2,5 foizni tashkil etishi, O'zbekistonda esa 1,8 foizlik iqtisodiy o'sish prognoz qilinmoqda.

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan inqirozli holatning o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat:

birinchidan, yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat bank va moliya sektoridagi qandaydir inqirozli holat natijasi emas hamda fiskal yoki monetar siyosat orqali uning to'liq yechimini ta'minlash imkoniyati cheklangan. Mavjud vaziyat, eng birinchi navbatda "insoniy" yoki "inson sog'ligi inqirozi" bilan bog'liqdir;

ikkinchidan, odatda inqirozlar talab (bank tizimidagi inqiroz va kreditlarning sekinlashuvi, yoki davlat qarzining oshib ketishi natijasida xarajatlarning qisqarishi, daromadlarning kamayib ketishi) yoki taklifning ya'ni, ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarishi (urush va tabiiy ofatlar, qarz inqirozlari va h.k.) bilan bog'liq omillarning biri ta'sirida yuzaga keladi. Amaldagi iqtisodiy vaziyatning murakkabligi, bir paytning o'zida talab va taklifning qisqarishi bilan izohlanadi;

uchinchidan, koronavirus pandemiyasining to'xtatilishi va undan keyingi bosqichda cheklovlarning olib tashlanishi hamda ushbu kasallik tarqalishining ikkinchi to'lqini bilan bog'liq yuqori darajadagi noaniqliklarning mavjudligi:

- biznes sub'yektlari uchun ishlab chiqarish va investitsion loyihalar bo'yicha;
- aholining iste'mol faolligiga;
- hukumatlar tomonidan fiskal va monetar qo'llab quvatlash;
- tashqi va ichki qarzlarni jalb qilish;
- ijtimoiy himoya hajmi va dasturlarini belgilash borasida aniq qarorlarni qabul qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu nuqtai nazardan koronavirus pandemiyasining mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta'sirini yumshatish vazifasi, birinchi navbatda, ushbu kasallikning aholi sog'ligiga ta'sirini minimallashtirish, ushbu borada kiritilgan cheklovlarni ehtiyotkorlik bilan bosqichma-bosqich olib tashlash va kelgusidagi vaziyatni imkon qadar aniqroq baholay olish orqali inqirozdan keyingi iqtisodiy tiklanish siyosatini to'g'ri shakllantirish va amalga oshirishdan iborat bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Parlamentiga Murojaatnomasi hamda mamlakatimizni 2017 – 2021 yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarishga qaratilgan joriy yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb atalgani va Davlat dasturining qabul qilinishi, barqaror iqtisodiy rivojlanish, xalq farovonligini oshirishda muhim dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Koronavirus pandemiyasining global iqtisodiyotga va O'zbekistonning iqtisodiy hamkor mamlakatlariga salbiy ta'siri

Global inqirozning respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirlarini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz xolatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora - tadbirlar to'g'risida" va "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab – quvvatlashga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida" gi farmonlari qabul qilindi va amaliyotda joriy etilmoqda.

Farmonda ko'rsatib o'tilgandek jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda respublikamizda insonlarning harakatlanishiga

cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rilmogda. Global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham mazkur omillar ta'sir qilmogda, bu esa o'z navbatida ushbu holatning salbiy ta'sirlarini yumshatish bo'yicha samarali oldini oluvchi choralar ko'rishni talab qiladi.

Bunda turizm, transport, farmatsevtika va to'qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo'llab -quvvatlash va ularning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Globalashuv va integratsiyadan, ikki va undan ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalardan inqirozgacha ko'p naf ko'rgan mamlakatlar koronavirus pandemiyasidan juda ko'p zarar ko'rmoqda. Ular koronavirusga chalinganlarning soni jihatidan dunyoda peshqadam bo'lmoqda.

Jumladan:

- AQSh da 2020 yil 20 aprel sanasiga 1 475 milliandan ortiq;
- Ispaniya 245 ming;
- Italiya 209 ming;
- Buyuk Britaniya 182 ming;
- Fransiya 168 ming;
- Germaniya 164 ming;
- Rossiyada 134 ming;
- Turkiyada 124 ming holatda koronavirus yuqtirganlar qayd etilgan.

Iqtisodiyotning salohiyati, savdo-sotiq munosabatlar, mamlakatlarning ochiqlik darajasi, tovarlar, investitsiya va turistlar oqimi o'zaro kontaktlarining oshishiga va pandemiyaning keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Tahlillar shuni taqozo qilmoqdaki, mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ulushi bilan koronavirusga chalinganlarning ulushi o'rtasida o'zaro korrelyasion aloqadorlik ($R = 0,75$) bor ekan. Shuningdek, mamlakatlarning koronavirus pandemiyasidan iqtisodiy yo'qotishlari ham epidemiyadan zararlanish ulushlariga bog'liq.

Aholi daromadlaridagi yo'qotishlarni qoplash uchun ba'zi mamlakatlar pul tarqatmogda. Ammo O'zbekiston Respublikasi hukumati muqobil qaror qilib "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati orqali korxona va jamoat tashkilotlari kam ta'minlangan oilalarga xayriya tadbirlarini o'tkazmogda. Korxonalarning "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatida qatnashishi davlat tomonidan inqiroz yo'qotishlarini tadbirkorlar zimmasiga tashlagani emas, balki bu harakat ayni yalpi talab tushib borayotgandagi holatni o'nglashga qaratilgan harakatdir. Chunki yalpi taklif pasaygan davrda yalpi taklifni aholiga pul tarqatish orqali oshirish inflyasiyani oshiradi va aholi undan naf ko'rmasligi mumkin.

Korxonalarning umumxalq xarakatida qatnashishi ularga naf keltiradi:

- **birinchidan**, korxona tovar yoki xizmatlarini (oldindan to'plangan zaxiralarini talab tushib ketgan davrda sotish uchun reklama xarajatlarini qilishi kerak bo'lardi;

- **ikkinchidan**, korxonaning "Saxovat va ko'mak" umumxalq xarakatidagi ishtiroki xaridorlar, uning aholi o'rtasidagi obro'si va imidjini oshiradi;

• **uchinchidan**, umumxalq harakatida qatnashish korxonalar o'rtasidagi oldingi shakllangan zanjirband iqtisodiy aloqalarni jonlantiradi. Biznes yuritish faollashadi va to'rtinchidan marketiing xarajatlari tejaladi, chunki ular kelgusida jozibador (consumer loyalty) iste'molchilar guruhini shakllantiradi.

Kornovirus pandemiyasi tugagandan so'ng iqtisodiy tiklanish va rivojlanish

Inqiroz davom etayotgan davrida milliy iqtisodiyotning birinchi galdagi vazifalari bozor ishonchini tiklash, nobozor sektorini, birinchi navbatda renta munosabatlari ta'sir hududini qisqartirish va raqobatchilikni rivojlantirishdan iborat. Milliy iqtisodiyotni energiya-xom ashyo yo'lidan innovatsion yo'nalishga o'tkazish samaradorligi aholining turli ijtimoiy guruhlari, hokimiyat va biznes o'rtasidagi aloqalarning ishonch darajasi bilan belgilanadi.

Shuningdek, korxonalarning raqobatbardoshligi va ularning iqtisodiy holatiga koronavirus pandemiyasining ta'sirini yumshatish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish, transaksion sarflarni tejash chora - tadbirlari tavsiya etilgan.

Moliyaviy nochor korxonalarga imtiyozli kredit berish, bankdan olgan kreditlarini so'ndirishga imtiyoz yaratish, mahsulotlarning energiya va boshqa xom ashyo sig'imini pasaytirishni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini lokalizatsiya dasturlariga kiritish, ularning mahsulotiga bo'lgan ichki talabni oshirish tadbirlari belgilangan. Ishlab chiqarishni yangi mahsulotlar va faoliyatlar bilan kengaytirish hisobiga diversifikatsiyalashni amalga oshirish, mahsulotlar va xizmatlar assortimenti va sifatini oshirish, ulardagi qo'shimcha qiymat sig'imini oshirish, sotish kanallari va bozorlarini kengaytirish, bandlikni, o'z - o'zining bandligini ta'minlash chora - tadbirlari keng joriy etilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti 5 yoki 6 oyda iqtisodiy yo'qotishlarni qoplab bu yilgi YaIM ning o'sish sur'ati 1,2 - 1,5 foiz atrofida va keyingi yili 7,0 - 7,2 foizga ko'tariladi. Jahon iqtisodiyoti va rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Rossiya) iqtisodiyotlari iqtisodiyotining U - shaklda rivojlanadi, Boshqacha qilib aytganda bu iqtisodiyotlarga tiklanishi va rivojlanishi uchun ko'proq vaqt (bir va bir yarim yil) talab etiladi.

Respublikamiz uchun koronavirus pandemiyasi ta'siridagi iqtisodiy yo'qotishlarni qoplash uchun bizningcha bu yil 5 yoki 6 oy talab etiladi va joriy yilda iqtisodiy o'sish pasayib 1,2 - 1,4 foiz atrofida bo'lishi va keyingi yili esa qabul qilingan Inqirozga qarshi chora tadbirlarning mahsuli sifatida o'sish sur'ati 7,0 atrofida va undan yuqori bo'ladi.

Vaziyatning keskin o'zgaruvchan bo'lishini inobatga olib bugungi kunda kutilayotgan makroiqtisodiy vaziyat bo'yicha nisbatan aniq prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish murakkab bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning "Bir makon-bir yo'l" davlatlari bilan hamkorligi ulkan va hali to'la amalga oshirilmagan salohiyatga ega ekanligini ahamiyatga olish darkor. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan bildirilgan transport, innovatsiya va ta'lim sohalaridagi aniq tashabbuslar O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini yangi darajaga ko'tara oladi va "Bir makon-bir yo'l" doirasida barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishga to'siq bo'lib turgan eng dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha

hamkorlikka yoʻnaltiradi. Oʻzbekiston “Bir makon-bir yoʻl” loyihasini, transport, savdo, investitsiya, energetika va yuqori texnologiyalar sohalaridagi tashabbuslarni amalga oshirishni qoʻllab-quvvatlaydi. Hamkorlik doirasida Markaziy Osiyoni Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bozorlari bilan bogʻlaydigan transport-logistika yoʻnalishlarini ochish boʻyicha dasturlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqda.

"Bir makon-bir yoʻl"ga aʼzo mamlakatlar bilan sayyohlik sohasida faol hamkorlik Oʻzbekiston uchun katta imkoniyatlarni ochadi. “Bir makon-bir yoʻl”ning 60 mamlakati eng yirik tashqi turist “yetkazib beruvchilar”dir. Jahon sayyohlik tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, dunyodagi sayyohlar tomonidan sarflangan pullarning 20 foizidan koʻprogʻi Xitoy ulushiga toʻgʻri keladi. Ular 2017 yilda turizmga 250,6 milliard dollar sarflagan. Ekspertlarning qayd etishicha, 2021 yilga kelib jahondagi Xitoy sayyohlarining soni 200 millionga, ularning xarajatlari 429 milliard dollarga yetadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, hozirgi davrda nafaqat insoniyat hayotiga, balki ayrim davlatlar va umuman dunyo iqtisodiyotiga ham jiddiy xavf tugʻdirmoqda. Investorlarning vahima sababli aksiyalarini sotib yuborishi oqibatida dunyo boʻylab yetakchi boʻlgan birjalarda yuzaga kelgan inqirozni ekspertlar oxirgi 10 yillikda kuzatilmagan, deb baholashmoqda.

Mazkur vaziyat oddiy “informatsion panika” emas, balki jahon iqtisodiyotiga jiddiy tahdid ekanini dunyodagi yetakchi moliyaviy institutlar, xalqaro tashkilotlar va ayrim davlatlar amalga oshirayotgan harakatlardan ham kuzatish mumkin.

Historical Development and Practical Application of the Concept of Academic Freedom

**G.Hakimova, teacher of
Tashkent University of Applied Sciences**

Introduction

The concept of academic freedom has long been recognized as a central tenet of higher education. From its early roots in medieval universities to its formal articulation in Enlightenment thought, academic freedom represents the autonomy of scholars to pursue research, disseminate knowledge, and engage in teaching without external interference. This section introduces the historical background and sets the context for exploring its practical application.

Methods

This study uses a historical-analytical approach combined with comparative review methods. Primary sources include landmark writings on academic freedom, while secondary sources consist of modern analyses, reports, and policy papers from organizations such as UNESCO, OECD, and the World Bank. Graphs were developed to illustrate historical milestones and the Academic Freedom Index across countries.

Results

The historical trajectory of academic freedom reveals its evolution through

three main stages: (1) medieval university independence from church and state, (2) Enlightenment-era expansion of intellectual autonomy, and (3) twentieth-century global recognition of academic rights. Graphs demonstrate the steady expansion of the idea, as well as variations in global perceptions of academic freedom.




Figure 1. Timeline of Historical Development of Academic Freedom




Figure 2. Global Academic Freedom Index (Selected Regions)

Discussion

The findings confirm that academic freedom has shifted from being a philosophical ideal to a practical necessity in higher education. While historical development emphasized independence from religious and political authorities,

modern challenges are more closely tied to globalization, commercialization, and political pressures. Nevertheless, academic freedom continues to play a critical role in fostering innovation, ensuring accountability, and maintaining the relevance of universities in democratic societies.

References

1. Knight, J. (2013). The changing landscape of higher education internationalization: For better or worse? *Perspectives*, 17(3), 84–90.
2. Marginson, S. (2017). Academic freedom in the global era. *Higher Education*, 73(1), 123–140.
3. OECD. (2021). *Principles of public investment: Best practices in project assessment and governance*. Paris: OECD Publishing.
4. Slaughter, S., & Rhoades, G. (2004). *Academic capitalism and the new economy*. Johns Hopkins University Press.
5. Tight, M. (2019). *Academic freedom and responsibility: The university in the twenty-first century*. Routledge.
6. UNESCO. (2021). *World Higher Education Database*. Paris: UNESCO Publishing.
7. World Bank. (2020). *Infrastructure governance and investment assessment*. World Bank Publications.

Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatida ta'siri: imkoniyatlar va xavf-xatarlar

**M.Xasanova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliq va soliqqa tortish fakulteti St-86 guruh talabasi**

Hozirgi kunda raqamli texnologiya ya'ni, gadjetlar juda keng tarqalmoqda. Kundalik turmushda aloqa vositasi sifatida ishlatishimizdan tashqari ko'plab sohalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ba'zi qarashlar, “bu yangi texnika davrini juda qulay” deb bilishsa, ba'zilar “bu davrni bizning hayotimizga katta xavfi bor” deb ham o'ylashmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi – raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning samarali qo'llash yo'llarini aniqlashdir.

XXI asrga kelib iqtisodiyot, texnika, tarix va hozirgi kunda ko'plab izlanishlar va yangiliklar kiritilayotgan soha ya'ni ta'lim tizimida ham shu zamonaviy texnikalar sababli juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Bunga YUNESKO tashkiloti yaqqol misol bo'la oladi. Chunki bu tashkilotda ilm – ma'rifat yo'lida katta reja va maqsadlar qo'yilgan va xalqaro miqyosda rivojlantirilib kelinmoqda. YUNESKO shuningdek, barcha faoliyatlarida gender tengligi va Afrikaga alohida e'tibor qaratgan holda transformativ ta'lim orqali zamonaviy global muammolarga javob berishga harakat qiladi. YUNESKOga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim bo'yicha ixtisoslashgan agentligi sifatida, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishning 17 maqsadi orqali qashshoqlikni bartaraf etish bo'yicha global harakatning bir qismi bo'lgan “Ta'lim-2030” kun tartibiga rahbarlik qilish va muvoqlashtirish vazifasi ishonib topshirilgan. Ta'lim, bu maqsadlarning barchasiga erishish uchun

muhim ahamiyatga ega bo'lgan "inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va barcha uchun umr bo'yi ta'lim imkoniyatlarini rag'batlantirish" ga qaratilgan o'zining 4-maqsadiga ega. Har bir tashkillashtirilgan rejalar va maqsadlar ortida raqamli texnologiya mavjud. Chunki yuqorida aytib o'tilgandek, gender tengligi, afrikada olib borilayotgan ta'lim tizimi va dunyoda yo'q qilinishi kerak bo'lgan insonlar hayotidagi og'ir vaziyat ya'ni, qashshoqlik davrini yo'qotishga bo'lgan kurashda raqamli texnologiya katta ro'l o'ynamoqda. Yaqindagina hayotimizda bo'lib o'tgan og'ir kunlar shu raqamli texnologiyani rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Ya'ni, "covid-19". Bu pandemiya 2020 - yil boshida mart oyida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan e'lon qilindi. Rasmiy tarzda bu pandemiya 2023 – yil 5-may kuni "COVID - 19" endilikda global favqulodda sog'liqni saqlash holati emasligini e'lon qildi. Demak, pandemiya tahminan 3 yil davom etdi. Bu davrda yer shari to'xtab qolmadi, aksincha, insonlar har sohaga onlayn tarzda yangi izlanishlar kiritishdi. Ayniqsa, ta'lim sohasida juda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Maktab, kollej va universitetlarda darslar onlayn shaklda o'tkazila boshlandi. Hech bir yoshlar bekorchi bo'lib qolmadi va vaqtini zoya ketqizmadi. Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams, Telegram kabi platformalardan keng qo'llanildi. An'anaviy auditoriya darslari o'rniga "virtual sinf"lar tashkillashtirildi. Yoshlardan tashqari katta yoshdagilar ham tezda onlayn o'qitish sistemasiga moslashishdi. Elektron darsliklar, video ma'ruzalar, virtual laboratoriyalar ishlab chiqildi. Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish keskin ko'paydi. YUNESKOning 2021-yildagi "Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyasi"ga asoslanib, ushbu yo'riqnoma ta'limga insonparvarlik, inklyuzivlik, xolislik, gender tengligi, madaniy va til xilma-xilligi, ko'pchilik fikrlari va qarashlarini insonparvarlik darajasiga munosib targ'ib qiladi. Bundan tashqari, u Kelajak Ta'limi bo'yicha Xalqaro Komissiyaning 2021-yilgi hisobotida "Kelajagimizni birgalikda qayta ko'rib chiqish: ta'lim uchun yangi ijtimoiy shartnoma" chaqirig'iga javob berib, texnologiya bilan munosabatlarimizni yangilash bo'yicha harakatlarimizning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt inson aql-zakovatini egallamasligi kerak. Aksincha, bu bizni insonga xos bilim va o'rganish haqidagi o'zimizdagi tushunchalarimizni qayta ko'rib chiqishga taklif qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini davom ettirishga imkon yaratgan bo'lsa-da, ularning ortidan yangi muammolar yuzaga chiqdi. Jumladan, texnologik tengsizliklar, ta'lim sifatining pasayishi va talabalar motivatsiyasining sustlashuvi kabi salbiy jihatlar kuzatildi. Onlayn ta'lim tizimi davrida har bir yosh avlod ilm oldi deb o'ylasak xat'o bo'ladi. Chunki ba'zi chetqoq hududlarda aloqa yaxshimasligi, internet tarmog'i yaxshi ishlamasligi yoki ta'lim olishi uchun moddiy taraflama kamchiliklari bor oilalar ham yo'q emas edi. Bu narsa o'quvchilar orasida tengsizlik, adolatsizlik va psixologik zo'riqish muammolarini yuzaga chiqardi.

Shunday qilib, ta'lim tizimida pandemiya davrida kuzatilgan jarayonlar O'zbekistonda texnika ta'limini yanada modernizatsiya qilish zaruratini yaqqol ko'rsatdi. Kelgusi texnika ta'lim tizimida bu xatolarga qaytib yuz tutmaslik va xalqaro miqyosda "Raqamli texnologiya" bo'yicha dunyo saxnalarida raqobatlasha olishlik katta maqsadlarimizdan biriga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO.
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137>
2. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO.
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707>
3. UNESCO. (2023). Digital Learning Week: AI and the future of education. UNESCO. <https://www.unesco.org/en/digital-learning-week>
4. World Health Organization (WHO). (2020, March 11). WHO Director-General's opening remarks at the media briefing on COVID-19. WHO. <https://www.who.int/director-general/speeches>

Академическая мобильность студентов как актуальная проблема современного высшего образования

**Н.Файзуллаева, профессор кафедры «Экономическая теория»,
Ташкентский государственный экономический университет**

Введение (Introduction)

Новый взгляд на глобальные изменения в обществе вызвал к жизни необходимость модернизации образования, конструирования новой образовательной среды, профессиональное образование, в котором ориентировано развитие академической мобильности в соответствии с ценностными приоритетами личности.

Одной из важных проблем современного процесса модернизации образовательного процесса вуза является развитие академической мобильности, как студентов, так и профессорско-педагогического состава. Развитие академической мобильности студентов в высших профессиональных учебных заведениях является одним из наиболее приоритетных направлений в образовательной политике.

Структура академической мобильности предполагает единство и взаимосвязь следующих аспектов:

- реализации профессиональных знаний и умений, соответствующих мировым стандартам;
- готовности будущих специалистов к восприятию международных технологических инноваций;
- расширения профиля профессиональной подготовки специалистов;
- свободы и вариативности выбора образовательного маршрута, учебных модулей и учебных заведений;
- развития креативности и критического мышления личности;
- готовности будущих специалистов к активному использованию иностранного языка.

Развитие академической мобильности студентов университета реализуется на основе принципов преемственности, вариативности, свободы

выбора, рамочной реализации вариативной части основной образовательной программы (50% и 70% для программ бакалавриата и магистратуры), прагматичности, субъектности.

Анализ литературы по теме (Literature review)

Понятие «академическая мобильность», вошедшее в педагогический тезаурус в связи с переходом системы высшего образования на многоуровневую систему подготовки специалистов. С позиции развития международного образовательного пространства академическая мобильность направлены на оптимизацию международных связей по внедрению образовательных программ, обмену студентами и совместной деятельностью профессорско-преподавательского состава.

Академическая мобильность согласуется с обучением студентов в зарубежных вузах, а также деятельностью преподавателей и сотрудников в зарубежных образовательных или научных учреждениях, что в педагогической теории трактуется как внешняя (международная) мобильность.

Академическую и другие виды мобильности нельзя свести к конкретным действиям, технологиям и механизмам, связанным только с системой обмена студентами учебных заведений. Это достаточно сложный и многогранный процесс управления на новом этапе международного сотрудничества по обмену обучающими программами, внедрением в образовательный процесс вузов многоуровневой системы подготовки специалистов нового поколения.

Становление современной организационной культуры, согласующейся с научно-исследовательской деятельностью студентов, как творческим процессом приобретения новых знаний и смысла целостной жизнедеятельности субъекта; средства и метода повышения качества образовательного процесса вуза и есть один из способов формирования у обучающихся индивидуальной и социальной мобильности.

Методы

С целью определения педагогических условий развития академической мобильности студентов вуза были организованы и проведены информационные беседы и анкетирование. В качестве респондентов выступили студенты и работодатели. В содержательную часть вопросов анкет вошли мнения студентов о положительных и отрицательных аспектах мобильного образования, о планировании стажировок, получении дополнительного профессионального образования в зарубежных вузах.

Полученные результаты анкетирования позволили установить, что 67 % студентов из числа обучающихся по системе двойного диплома самостоятельно приняли решение обучаться по данной образовательной траектории.

Следует отметить, что 6 % студентов, прошедших обучение по системе двойного диплома, планируют остаться работать в родном городе, 25 % намереваются работать в мегаполисах родного государства, а 69 % студентов

планируют организовать трудовую занятость в других странах, например в Корее, Соединенных Штатах Америки, Германии.

Значимым выступает вопрос отсутствия заинтересованности в организации мобильного образования и введения кредитно-модульной системы в вузе в лице предприятий, учреждений, организаций, выступающих в роли работодателя как потребителя на рынке труда молодых специалистов.

Участники исследования твердо уверены, что опыт участия в международном академическом взаимодействии обеспечивает выпускникам способность работать в межкультурной глобальной профессиональной среде. Двойной диплом позволяет осознавать и понимать системы языковых, политических, практических явлений, что обеспечивает формирование профессиональных, общекультурных и социальных компетенций, помогает в установлении межличностных отношений.

Результаты

В процессе формирования готовности студента к академической мобильности как личностного качества у будущего профессионала особая роль принадлежит разработке инновационных технологий образовательного процесса, в основу которого положено создание системы субъект-субъектных отношений между его участниками. Важная роль принадлежит выявлению условий для осуществления разностороннего развития студентов, включая практическую апробацию сил и способностей в различных видах деятельности: учебной, профессиональной, проектной.

Для выявления особенностей перемещения студентов на обучение, стажировку и т. д, нами проведен Интернет-опрос студентов, которые были за рубежом: стажировку на производстве (производственная практика), познавательные программы за рубежом, учеба, работа и тому подобное.

Продуктивная направленность развития академической мобильности студентов вузов должна способствовать личностному самоутверждению, самореализации в ходе решения учебных задач в условиях установки на успех и стремления к успеху.

Анализ результатов показывает, что большая часть затруднений, с которыми столкнулись студенты, принимавшие участие в образовательных программах международного обмена, связаны с интеграцией студентов в другую культурную среду. Число таких испытуемых составило 38,2 % от общего числа респондентов. Значительное количество (21,8 %) затруднений связано с недостаточным уровнем владения обучающимися иностранным языком, вследствие этого наблюдается снижение возможностей коммуникации. Меньший процент отражают трудности интеграции студентов в образовательную или учебно-профессиональную среду принимающей страны. Выявлено, что около 10 % студентов испытывают трудности в реализации учебных или учебно-профессиональных целей в собственной предметной области. Не испытывали серьезных затруднений при участии в образовательных программах международного обмена 18,1 % респондентов, участвующих в эксперименте.

Выводы

Итак, академическая мобильность – это прежде всего возможность для студентов, предоставляемая вузами-партнерами, самим формировать и совершенствовать свою профессиональную образовательную подготовку через выбор предметов, дисциплин, курсов, учебных заведений в соответствии со своими склонностями и устремлениями. Академическая мобильность дает возможность каждому студенту выстраивать свою образовательную траекторию в рамках функционирования системы высшего профессионального образования вообще и системы непрерывного образования в частности. С целью построения и реализации международной образовательной траектории будущему специалисту необходимо формировать и развивать международные образовательные компетенции, а вузу – обеспечивать партнерское взаимодействие с мировым образовательным сообществом.

Литература:

1. Антонова, Н.Л. Пространственная мобильность студенческой молодежи крупного города / Н.Л. Антонова, С.Б. Абрамова, А.В. Аникиева // Logos et Praxis. – 2019. – Т. 18. – № 3. – С. 102–111. – DOI 10.15688/lp.jvolsu.2019.3.11. – EDN SKCEQW
2. Бринёв Н.С., Чуянов Р.А. Академическая мобильность студентов как фактор развития процесса интернационализации образования.
3. Гурова, Н.А. Международная студенческая мобильность в контексте традиций Европейского союза / Н.А. Гурова // Colloquium-journal. – 2019. – № 21–3(45). – С. 13–14.
4. Пимонова, С.А. Международная студенческая мобильность как элемент интернационализации образования / С.А. Пимонова, Е.М. Фомина // Университетское управление: практика и анализ. – 2019. – Т. 23. – № 4. – С. 91–103. – DOI 10.15826/umpra.2019.04.031. – EDN AMJBEG.
5. Ширина, М.С. Образовательный потенциал международной студенческой академической мобильности / М.С. Ширина // Экономические и гуманитарные исследования регионов. – 2019. – № 6. – С. 96–99.

COVID-19 sharoitida O‘zbekiston va sharqiy osiyo davlatlari o‘rtasidagi aloqalar

**N.Karimova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariya kafedrasida dotsenti**

KIRISH. Pandemiya O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu, avvalo, mintaqaning va umuman jahonning eng yirik bozorlaridan biri bo‘lib borayotgan Xitoy Xalq Respublikasida sanoat ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi natijasida xomashyo va resurslarga bo‘lgan talabning kamayib ketishi oqibatida yuzaga keldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo hajmi 63 mlrd 180 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil yakunida bu ko‘rsatkich pandemiya oqibatlari va global iqtisodiy noaniqliklar ta’sirida 58 mlrd 940 mln AQSh dollarigacha qisqardi. Jumladan, eksport hajmi 2024-yilda 25 mlrd 720 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 22 mlrd 860 mln dollargacha kamaydi. Import hajmi esa 37 mlrd 460 mln dollardan 36 mlrd 80 mln dollargacha tushdi.

Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmi 2024-yilda 5 mlrd 210 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 4 mlrd 690 mln dollargacha kamaydi. Koreya Respublikasiga eksport esa ikki baravar pasayib, 2024-yildagi 680 mln dollardan 2025-yilda 340 mln dollarga tushib qoldi. Xitoydan import hajmi ham qisqarib, 2024-yilda 10 mlrd 480 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 9 mlrd 720 mln dollargacha kamaydi. COVID-19 pandemiyasi davrida O‘zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan tibbiyot sohasidagi hamkorligi sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayon nafaqat ilmiy-texnikaviy hamkorlikning chuqurlashib borayotganidan, balki mazkur mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarning mustahkamlanayotganidan ham dalolat beradi. Olimlar va mutaxassislarning fikricha, pandemiyaning yengib o‘tish va iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotni qayta tiklash samarali vaktsinalarning yaratilishi hamda aholining keng qamrovli emlanish jarayoniga bevosita bog‘liq bo‘ldi.

Koreya Respublikasi va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri mehnat migratsiyasi masalasidir. Bugungi kunda Koreya Respublikasi tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davlatlardan biri bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi, xizmat ko‘rsatish sohasi va texnologiyalar rivoji mehnat resurslariga bo‘lgan talabni orttirib bormoqda. Shu bois, mazkur mamlakat xorijiy ishchi kuchidan faol foydalanadi. O‘zbekiston uchun esa mehnat migrantlarini xorijda, xususan Koreya Respublikasida, yuqori daromadli va huquqiy jihatdan kafolatlangan ish o‘rinlari bilan ta’minlash katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Zero, bu nafaqat fuqarolarning bandligini ta’minlash, balki ularning mamlakatga yuboradigan pul o‘tkazmalari hisobiga oilaviy farovonlikni oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu maqsadda, 2011-yil 23-avgust kuni ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida maxsus bitim imzolangan bo‘lib, unda mehnat migrantlarining huquqiy himoyasi va mehnat shart-sharoitlarini kafolatlash masalalari mustahkamlangan. Ushbu hujjat hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning 6 240 nafar fuqarosi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali Koreya Respublikasidagi turli korxonalar va kompaniyalarga ishga joylashtirilgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston mehnat bozorida ortiqcha ishchi kuchini samarali boshqarishda muhim omil bo‘ldi. Biroq 2025-yilda global iqtisodiy muammolar va pandemiyaning ayrim oqibatlari saqlanib qolayotgani sabab bu ko‘rsatkich 3 180 nafargacha kamaydi. Shunga qaramay, ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik to‘xtamagan, aksincha, yangi yo‘nalishlarda

rivojlanmoqda. Xususan, Koreya Respublikasining ilg'or tajribasini O'zbekistonga olib kirish, o'quv dasturlari orqali ishchi kuchini malakali kadrlar sifatida tayyorlash hamkorlikning asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, mehnat migrantlari uchun huquqiy kafolatlarni yanada kuchaytirish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

XULOSA. COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan cheklovlar O'zbekistonning Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy, turizm hamda boshqa sohalaridagi aloqalariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada so'nggi uch-to'rt yil davomida jadal rivojlanib kelayotgan savdo va investitsiya hamkorligi ma'lum darajada sekinlashdi. Shunga qaramay, O'zbekiston hamda hamkor mamlakatlar hukumatlari pandemiyaning noxush oqibatlarini yumshatish maqsadida qator chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Bu, avvalo, o'zaro savdoning keskin pasayib ketishining oldini olish, rejalashtirilgan qo'shma loyihalarni davom ettirishga intilishda namoyon bo'ldi.

REFERENCES

1. Saidov Bakhtiyor: Uzbekistan and China: new facets of cooperation and development. www.isrs.uz.
2. Uzbekistan- China Relations during COVID-19 Pandemic. www.cabar.asia.
3. Xaynazarov Bahrom. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda diasporalarning o'rni. O'tmishga nazar jurnali. 2019. 384-b

Talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhiti va neyropedagogik yondashuvlarning integratsion modeli

**Z.Shofiddinova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti**

Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki zamonaviy mehnat bozorida talab etiladigan kreativ tafakkur, innovatsion yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarur. Shuning uchun ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. An'anaviy o'qitish metodlari o'z o'rniga ega bo'lsa-da, ularning zamonaviy talablarga mos kelishi uchun raqamli texnologiyalar, neyropedagogik yondashuvlar va integratsion modellarni qo'llash zaruriyati yuzaga chiqmoqda.

Ijodiy qobiliyatning nazariy mazmuni.

Ijodkorlik (kreativlik) – bu yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni o'ziga xos tarzda qayta ishlash va noodatiy muammolarga yechim topa olish qobiliyatidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ijodiy tafakkur quyidagi komponentlar orqali izohlanadi:

Divergent fikrlash – bir muammoni turli xil yechimlar yordamida hal etish imkoniyati (Guilford).

Ijodiy tafakkurning testlari – original g‘oya yaratish va uni yangi sharoitga moslashtirish (Torrance).

Ko‘p intellektlar nazariyasi – ijodkorlik nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalar bilan ham chambarchas bog‘liq (Gardner).

Demak, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ta‘limda faqat bilim berish emas, balki motivatsiya, mustaqil faoliyat va hamkorlik kompetensiyalarini ham shakllantirish talab etiladi.

Raqamli ta‘lim muhiti imkoniyatlari.

Raqamli ta‘lim muhiti talabalarga keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratib beradi:

1. Virtual laboratoriyalar – amaliy mashg‘ulotlarni xavfsiz va tezkor shaklda tashkil qilish, turli tajribalarni modellashtirish.

2. Gamifikatsiya – o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirish, musobaqa va mukofot tizimi yordamida kreativ faoliyatni rag‘batlantirish.

3. Sun‘iy intellekt asosidagi platformalar – talabaga individual yondashuv asosida topshiriqlar berish, shaxsiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish.

4. Onlayn kollaboratsiya vositalari – talabalarni guruhlarda ishlashga jalb etib, “kooperativ ijodkorlik”ni shakllantirish.

Raqamli muhitdan to‘g‘ri foydalanish talabalarning faqat bilimini emas, balki ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda noodatiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Neyropedagogik yondashuvlarning o‘rni.

Neyropedagogika – bu ta‘lim jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi fan. Talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda neyropedagogik yondashuv quyidagi jihatlar bilan muhimdir:

Multimodal stimulyatsiya – ko‘rish, eshitish va amaliy harakatlarni uyg‘unlashtirish orqali miya faoliyatini kuchaytiradi. Masalan, vizual materiallar va interaktiv mashqlarni bir vaqtda qo‘llash ijodkorlikni faollashtiradi.

Kognitiv fleksibilitet – talabaning turli vaziyatlarga moslashuvchanligini oshiradi, noodatiy muammolarni hal etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash – ijobiy psixologik muhitni yaratish orqali stressni kamaytiradi va kreativ tafakkur uchun qulay sharoit shakllantiradi.

Ijodiy qobiliyatni samarali rivojlantirish uchun raqamli ta‘lim muhiti va neyropedagogik yondashuvlar asosida integratsion model ishlab chiqish lozim. Ushbu model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Gibrid ta‘lim – an‘anaviy dars shakllarini virtual va onlayn vositalar bilan uyg‘unlashtirish.

Shaxsiy o‘quv traektoriyasi – talabaga uning qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqqan topshiriqlarni taqdim etish.

Muammoli vazifalar – real hayotiy masalalarga ijodiy yondashuv asosida yechim ishlab chiqish.

Kooperativ ijodkorlik – guruhli loyihalar orqali yangi g‘oyalarni shakllantirish va hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish.

Bunday model talabalarning nafaqat individual, balki jamoaviy ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Eksperiment – raqamli va an'anaviy sharoitlarda ta'lim samaradorligini solishtirish.

2. Psixodagnostika – Torrance testlari orqali ijodiy qobiliyatni baholash.

3. Monitoring – talabalarning raqamli muhitdagi faoliyatini kuzatish va natijalarni tahlil qilish.

4. Matematik-statistik tahlil – olingan ma'lumotlarni ilmiy asoslash va umumlashtirish.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Raqamli ta'lim muhiti va neyropedagogik yondashuvlarning integratsiyasi talabalarda:

kreativ tafakkurni faollashtiradi,
mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi,
hamkorlik va jamoaviy ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi,
zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun integratsion modelni qo'llash ilmiy jihatdan asosli va amaliy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guilford, J. P. The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1967.

2. Torrance, E. P. Creativity: Prospects for the Twenty-First Century. Ablex Publishing, 1993.

3. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books, 2011.

4. Salomon, G. & Perkins, D. Individual and Social Aspects of Learning. Review of Research in Education, 1998.

5. Sawyer, R. K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford University Press, 2012.

**Ta'lim-tarbiya jarayonida sodir bo'ladigan nizolarni bartaraf etish
yo'llari**

**Sh.Mo'minov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi**

Ta'lim-tarbiya jarayoni jamiyatning kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur jarayonda o'qituvchi va o'quvchi, ota-ona va ta'lim muassasasi, shuningdek, o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida turli xil kelishmovchiliklar - nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bu nizolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, ta'lim sifatining pasayishi, ruhiy muhitning buzilishi va tarbiya

samaradorligining kamayishiga olib keladi. Ta'lim muassasalarida samarali ish muhitiga erishishda xodimlar o'rtasidagi munosabatlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, rahbar va qo'l ostidagi xodimlar o'rtasidagi vertikal nizolar ta'lim jarayoni samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi — ta'lim-tarbiya jarayonida uchraydigan asosiy nizo turlarini aniqlash va ularni samarali hal qilish yo'llarini o'rganishdan iborat.

Nizolarning turli shakllari mavjud bo'lib, ularni tashkilot ichidagi (o'qituvchi-o'qituvchi), vertikal (ma'muriyat-o'qituvchi), hamda pedagogik (o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona) deb tasniflash mumkin.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: Anketalash (savolnoma) — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi 532 nafar direktorlar o'rtasida so'rov o'tkazildi.

Hujjat tahlili — ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilgan ichki nizo protokollari va intizom ishlari o'rganildi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili — nizolar psixologiyasi, pedagogik menejment va muomala madaniyati bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Tadqiqot 2022-2024-yil Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida, Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumani va Guliston shahrida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari hamda Toshkent shahrida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida malaka oshirishga kelgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari ishtirokida amalga oshirildi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra:

Rahbariyat va xodimlar o'rtasida o'zaro tushunmovchiliklar ko'p uchrashini aytdi.

Xodimlar rahbariyat tomonidan bosim yoki tanqidga duch kelishini bildirgan.

Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan samarali aloqa qilolmasligini ta'kidladi.

Tahlillardan ko'rinishicha, ta'lim-tarbiya jarayonidagi nizolar quyidagi asosiy omillar tufayli kelib chiqmoqda:

1. Muomala madaniyatining pastligi.

Ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi axloqiy, madaniy yoki kommunikativ yetishmovchiliklar.

2. Emotsional intellektual yetishmovchilik.

Rahbar, xodim va ota-onalar o'z his-tuyg'ularini boshqara olmasligi va boshqalarni tushuna olmasligi.

3. Talab va vazifalardagi noaniqlik.

Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari talablarini to'liq tushunmasligi yoki noto'g'ri talqin qilishi.

4. Ta'lim tashkilotlarida samarali tinglash mexanizmlarining yetishmasligi.

Nizolarni tezkor eshitish va hal qilishga yo'naltirilgan maydonlar yo'qligi.

Tavsiyalar:

1. Muomala madaniyati va konfliktologik savodxonlik bo'yicha seminar-treninglar tashkil qilish.

2. Mediatsiya markazlari yoki ichki psixologik maslahat guruhlarini yaratish.

3. Tinglash va fikr almashish kunlari joriy qilish - har oyda ota-onalar ishtirokida ochiq muloqotlar o'tkazish.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga empatiya va emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslari.

5. Nizolarni erta aniqlash va hal qilish choralarini ta'lim tashkilotida ishlab chiqish.

Xulosa shuki, ta'lim-tarbiya jarayonidagi nizolarni bartaraf etish - bu faqat ma'muriy chora emas, balki pedagogik, ruhiy va madaniy yondashuvlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ushbu tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, nizolarning aksariyati muloqot yetishmasligi va tushunishdagi muammolardan kelib chiqadi. Shunday ekan, bu sohada faqat jazo emas, profilaktika, ishonchli muhit yaratish, va empatik munosabatlar tizimini yo'lga qo'yish - asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirova, R. M. va Joldasova, A. B. (2024). Ta'lim muassasalarida konfliktlarni boshqarish usullari. Web of Scientist: Xalqaro ilmiy tadqiqot jurnali, 5(3), 30–33.

2. Otajonov, J. M., va Ergasheva, Z. M. (2023). Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi nizolar va ularni hal qilish. Multidisciplinar tadqiqotlar va boshqaruv tadqiqotlari Yevropa xalqaro jurnali, 3(05), 81–84.

3. Nurullaeva, Sh. U. (2023). Pedagogik konfliktlar, ularni hal qilish yo'llari va konfliktlarning ijobiy tomonlari. Pedagogik va ta'lim tadqiqotlari Amerika jurnali, 19, 88–91.

Воздействие хозяйственного механизма на оценку основных факторов производства

**А.Расулев, доктор экономических наук, профессор,
Ташкентский государственный экономический университет**

В экономике Республики Узбекистан продолжается реализация рыночных реформ. В соответствии с Конституцией основу экономики составляет собственность в её различных формах. Государство создаёт условия для развития рыночных отношений и добросовестной конкуренции, гарантирует свободу экономической деятельности, предпринимательства и труда с учётом приоритетности прав потребителей. Осуществляется реформа хозяйственного механизма управления экономикой, в частности, сокращаются функции государства, совершенствуются методы государственного регулирования ценообразования. Проводится либерализация цен на энергоносители в целях повышения уровня окупаемости затрат в сфере энергетики и сокращения её субсидирования за счёт бюджетных средств. Одновременно проводится модернизация налогообложения субъектов предпринимательства, денежно-кредитной политики и других инструментов хозяйственного механизма.

Президент Узбекистана, Ш. Мирзиёев, выступая 17 октября 2024 г. на совещании по обсуждению ожидаемых экономических результатов по

итогах года, отмечал, что иностранные эксперты прогнозируют в 2025 г. осложнение ситуации на зарубежных экспортных рынках из-за усиления конкуренции и изменчивости цен на сырье. Данный тренд в мировой экономике может стать испытанием для отечественного производства, в особенности экспорта продукции. Основными приоритетами развития экономики на 2025 г. будут являться развитие транспорта и логистики, информационных технологий, аграрных и финансовых услуг, эффективное использование привлеченных средств. Структурные изменения будут осуществляться не путем вмешательства в деятельность предпринимателей, а за счет цифровизации, внедрения технологий искусственного интеллекта и легализации теневой экономики. *Для достижения данных приоритетов будет поддерживаться локализация производства, удлинение цепочки добавленной стоимости и повышение производительности труда в каждой отрасли.*

Правительство республики намерено реализовывать меры по дальнейшему проведению системных реформ, в частности: приватизация государственной собственности, радикальное сокращение государственных расходов и налоговой нагрузки на бизнес, продолжение реформ в банковской и внешнеэкономической сферах, проведение реформ в энергетике и аграрном секторе.

Целью исследования является разработка предложений о необходимости повышения эффективности регулирования ценообразования, разработки мер по обеспечению условий эквивалентного межотраслевого обмена в базовых отраслях национальной экономики, достижению справедливой стоимостной оценки основных факторов производства, сдерживания необоснованного роста затрат, прибыли и цен на продукцию субъектов естественных монополий и предприятий-монополистов. По результатам исследования разработаны рекомендации по совершенствованию хозяйственного механизма, в частности, двух его важнейших экономических инструментов - ценообразования и налогообложения.

В любой стране большое значение принадлежит хозяйственному механизму, который представляет собой совокупность форм и методов организации деятельности в отраслях экономики. Однако, в современной экономической науке пока ещё не сложилось общепринятого определения такой сложной категории, как хозяйственный механизм регулирования экономики.

Однако в последние десятилетия, под влиянием глубокого распространения либеральных идей, внимание к изучению проблем формирования хозяйственного механизма существенно снизилось.

В широких научных и практических кругах укрепились мнение, что исследование этой проблемы не имеет смысла, так как рынок и его главные составляющие (частная собственность, спрос и предложение, конкуренция, антимонопольная политика, рыночные цены) – сами будут регулировать сложную систему межотраслевых связей и деятельность предпринимательства. Однако, опыт рыночных реформ в странах бывшего

СССР показал, что чрезмерный уход государства от экономики, полномасштабная либерализация деятельности предприятий, приватизация государственной собственности приводит к масштабным ценовым искажениям, усилению диспаритета цен в межотраслевой торговле, сжатию платежеспособного спроса на макроуровне, опережающему росту потребительских цен по сравнению с ростом заработной платы в реальном секторе экономики, ухудшению торгового баланса, росту внешнего долга. Деятельность в официальном секторе экономики становится малопривлекательной. Растёт доля теневой и ненаблюдаемой экономики. Всё это негативно сказывается на устойчивости экономического роста, поступлении бюджетных средств, уровне доходов населения, занятости и других показателях развития страны.

По утверждению Л.И.Абалкина, структура хозяйственного механизма включает в себя формы организации общественного производства, структуру и методы управления экономикой, формы экономических связей в народном хозяйстве, экономические стимулы и рычаги воздействия на производство, правовые формы и методы регулирования производства, социально-психологические факторы воздействия на производство.

Развитие экономики происходит непрерывно, а организация управления изменяются время от времени. Нередко из-за усиливающейся несбалансированности экономических связей происходит замедление экономического развития страны. Однако после этого начинается обновление научной концепции, институциональной среды и характера воздействия государства на рыночный механизм и в случае обоснованного выбора инструментов хозяйственного механизма экономика вновь достигает устойчивого роста.

На наш взгляд, в соответствии с определением хозяйственного механизма, он включает в себя различные элементы экономической системы, такие как экономический механизм, системы государственного и общественного регулирования, а также институциональную среду. Данные элементы находятся в тесной взаимосвязи друг с другом. В этой системе целесообразно выбрать место рынка и его рыночных инструментов (либерализованные цены, частная собственность, конкуренция и др.).

Необходимо отметить, что основой хозяйственного механизма являются отношения собственности. Эффективность работы хозяйственного механизма во многом зависит от того, насколько справедливо распределена собственность в национальной экономике и доходы от ее использования. Если собственность распределена между гражданами, предприятиями и другими субъектами более-менее равномерно и справедливо, то страна, как правило, развивается устойчиво и достигает установленных приоритетов.

Все сферы экономических отношений (производство, потребление и др.) воздействуют на хозяйственный механизм. В свою очередь, хозяйственный механизм сам по себе также воздействует на сферы экономических отношений, формируя хозяйственную систему. Хозяйственный механизм имеет важное значение в сфере распределения и обмена произведённых

ценностей, в которых он обеспечивает связь между производителями и потребителями. При помощи инструментов хозяйственного механизма в рыночных условиях можно осуществлять корректировку распределения имеющихся ресурсов, их использование в качестве факторов производства, доведение до потребителей произведенной продукции и услуг, а также обеспечивать справедливую стоимостную оценку всех задействованных факторов (труда, земли, недр, основных средств, предпринимательской способности). Для этого могут быть использованы инструменты ценообразования и налогообложения.

Государственное регулирование экономики оказывает влияние на формируемый хозяйственный механизм, действие которого может быть направлено как на построение механизма хозяйствования в целом (как это имело место в условиях тотальной плановой экономики), так и на встраивание отдельных инструментов (например, ценообразование, регулирование цен, налогообложение) в экономическую политику. Как показывает отечественный и зарубежный опыт, второй вариант даёт более продуктивный результат при реализации утвержденной экономической политики. Учитывая действие рыночных инструментов саморегулирования на макроуровне, правительство может устранять негативные последствия рыночного регулирования, применяя такие механизмы, как планирование, программирование, прогнозирование, оперативное управление и мониторинг ситуации.

Таким образом, хозяйственный механизм представляет собой систему, сочетающую в себе механизм саморегуляции экономики (рынок) и государственное воздействие на экономику в целях справедливой оценки стоимости факторов производства, более равномерного распределения ресурсов и продуктов труда.

Mechanisms for the Organization of Independent Innovative Activities in Modern Higher Education

**G.Ochilova, Associate professor in Economics Theory
Tashkent State Economic University
A.Kadyrov, Kokand branch of
Tashkent State Technical University**

In the educational system of developed countries of the world, independent learning is widely promoted, and such methods of learning lead to regular improvement of learning processes and professional skills. In general, the importance of independent education and learning is very great, it is one of the main factors of personal development and economic development, and it serves to make the country more competitive in the world market. In particular, in the general secondary education system, which is the basis of the educational process, it provides students with regular and systematic knowledge, the formation of a broad outlook and creative independent thinking, the development of students as

well-rounded individuals, and the development of their interests and creative abilities. Independent education in the higher education system is the need of the hour to introduce methods and technologies aimed at strengthening students' critical and creative thinking, systematic analysis, organization ability in the educational process, competencies.

Independent study develops research skills in students. Critical thinking skills are also developed by discussing their research with peers. Students acquire 40-50 percent of knowledge related to the subject through direct independent study. Self-directed learning also allows students to be given differentiated assignments.

Independent education attracts more students with an individual approach and a variety of academic choices. Acquaintance with various sources as a result of independent research serves the development of the student's worldview. Initiative skills are formed. Also, independent study creates the basis for taking a leading position in group discussions on problem solving. In the USA, the level of practical use of independent work results developed by students is inventoried. Also, the "case collection method" is widely used. This method teaches how to use pedagogical knowledge by the teacher and how to think logically. The purpose of implementing these teaching methods is to develop critical thinking skills in students.

At all stages of the higher education system, attention is focused on the transition to the model of scientific research universities and conducting scientific research. US universities are currently implementing major projects. They are financed by various funds and the budget and are closely connected with various production corporations. The experience of Germany, Japan, France and other industrially and intellectually developed countries shows that the training of highly qualified and competitive personnel has turned the professional education system into a priority and profitable economic sector. In Great Britain, 39.7 percent are interested in learning through independent education. This also puts responsibility on the professor. The student is interested in conducting experiments.

In Russia, there is a lack of motivation of students to carry out independent education, inattention to the results of completed independent education, there is no system for the amount of independent education. Students prepare independent education mainly during lectures, practical and laboratory sessions with a science teacher. This does not ensure full independence of the student. The lack of motivation of students for independent learning is primarily due to the lack of a final stop on future professional activity, as a result of which there is little need to prepare for professional activity in their field. Especially first-year students do not have information about independent study. The main reason for this is the lack of fundamental understanding of independent education in general education schools. Lack of psychological preparation for independent education, lack of skills to work with scientific literature, lack of cognitive interest in academic subjects are among the main problems.

In the development of students' creative abilities, the purpose, tasks or content of the subject of standard subjects taught in school education is in the first place. Along with this, the structure of educational materials and their presentation

Ta’limning aralash shakli doirasida kunduzgi va masofaviy ta’limdan foydalanish, bu ko‘plab omillarga bog‘liq. Bular: mashg‘ulot olib boriladigan predmet sohasi; talabalarning yoshi; ularning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi; mashg‘ulot uchun foydalanish mumkin bo‘lgan infratuzilma; pedagog xodimlarning malakasi va boshqalar. Agar an’anaviy ta’limni amalga oshirish shakllari asrlar davomida tashkil etilgan va sinovdan o‘tgan bo‘lsa, aralash o‘qitishning amaliyotga joriy qilinganiga ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Raqamli ta’lim vositalari – o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Elektron ta’lim tizimlari uchun dasturiy ta’minot oddiy statik gipermatnli HTML-sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin va yanada murakkab ta’lim boshqaruv tizimlari (ingliz tilidagi adabiyotlarda LMS-Learning Management System deb ataladi) va ta’lim mazmunini boshqarish (LCMS-Learning Content Management System) yordamida korporativ kompyuter tarmoqlarida qo‘llaniladi. Lokal elektron ta’lim texnologiyalarining eng yirik tasnifi to‘rtta variant bilan belgilanadi, ya’ni: kontentni boshqarish tizimlari; ma’lumotlar bazasi; turli ma’lumotlar kataloglarini yaratish va ularni manipulyatsiya qilish imkonini beradi.

Aynan oliy ta’lim muassasasi ma’muriy-boshqaruv xodimlari tomonidan, axborot ta’lim tizimi portalining statistik ma’lumotlarini tahlil qilish orqali talabalarning mustaqil ishlarini uzluksiz kuzatib borishni nazarda tutadi. Yuqori sifatli raqamli va elektron ta’lim resurslarining mavjudligi zarur, bu talabalarni aralash o‘qitish tizimi faoliyatining yagona tarkibiy qismidir. Raqamli elektron ta’lim elementlaridan foydalanish samaradorligini baholashning muhim omili elektron ta’lim resurslaridan erkin foydalanishni to‘g‘ri tashkil etish va zarur vazifalar ro‘yxati mustaqilligini nazorat qilish tobora kengayib bormoqda. Uydagi masofaviy vazifalarni bajarish mustaqilligini ta’minlash va test natijalariga uchinchi shaxslarning ta’sirini istisno qilish maqsadida talabalarning elektron manzillarini elektron ta’lim muhitida qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash uchun zamonaviy talab biroz boshqacha bo‘lib qoldi. Shuning uchun u, avvalo, tayyor dasturlardan foydalanishni o‘rganishi va ularni yangitdan ishlab chiqmasligi kerak. Standart dasturlarni qo‘llash va ulardan optimal yechimni olish uchun foydalanish qobiliyatini shakllantirish asosiy vazifa bo‘lmoqda. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun o‘qitish amaliy muammolarni tahlil qilishga asoslangan bo‘lishi kerak. Faqat aniq misollar orqali talabalarga buni qo‘yishni o‘rgatish mumkin, interfaol usullarni qo‘llash uchun modelni yaratish va olingan yechimlarning turli jihatlarini tahlil qilish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘rib chiqilayotgan muammolarning aksariyati kompyuterdan foydalanmasdan hal etilmaydi.

Adabiyotlar

1. Aliyeva N.M. va boshq. Blended learning – ta’lim tizimida zamonaviy yondashuv // Science and education. February 2021.

2. Рахимов Х.А. Олий таълим тизимида электрон таълим муҳитининг афзалликлари // Замонавий таълим. – Т., 2021. – 2-сон.

3. Шарипов К.А., Хакимова М.Ф. Сифатли иқтисодчи кадрларни тайёрлаш жараёнларида инновацион таълим ва рақамли технологияларнинг қўлланилиши // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Т., 2021. – Махсус сон. – Б. 8-16.

4. Хакимова М. Инновационная деятельность высшей образовательной организации в условиях цифровизации образования // Просвещение и познание – М., 2021. – № 7. – С. 20-25.

Ta’lim jarayonida boshqaruvchanlik qobiliyatini rivojlantiruvchi ishbilarmon o‘yinlardan foydalanish

**D.Begmatov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Itisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi**

XX asrning 90-yillarida mutaxassislariga malakaviy talablarni qo‘yuvchi Xalqaro mehnat tashkiloti malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda “tayanch kompetensiya”lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan taminlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o‘ziga xos xarakter kasb etadi. Tayanch kompetensiyalar katorida fanda madaniy kompetensiya tushunchasi ham mavjud. Bu kompetensiya menejerning tanlash imkoniyati

Tayanch kompetensiyalar turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan taminlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o‘ziga xos xarakter kasb etadi.

Tayanch kompetensiyalar katorida fanda madaniy kompetensiya tushunchasi ham mavjud. Bu kompetensiya menejerning tanlash imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda, har xil madaniy uzilishlarda muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi.

Madaniy kompetensiya tashkilot menejerining boshqaruv madaniyati malakalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Kompetensiyalar - 1) tashkilot miqyosida qabul qilingan standart xulq-atvor;
2) menejerning tashkilot miqyosida qabul qilingan standartlarga muvofiq ish ko‘ra olish qobiliyati.

Kompetentlik (bilimdonlik) - 1) u yoki bu savolning javobidan xabardorlik;

2) ishda kerakli natijalarni qo‘lga kiritish yuzasidan zarur qarorlarni qabul qila olish qobiliyati.

Kompetensiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmui bo‘lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo‘lida xodimning o‘z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda, shaxs xulq-atvorini o‘lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar).

Ko‘pincha kundalik muloqotda biz “kompetensiya” yoki “bilimdonlik” tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, “professional kompetensiya” tushunchasi ko‘proq diqqatni tortadi. Lekin, ba‘zan insonlar bilan ishlash borasida “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o‘zgalar bilan til topisha bilish, o‘z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog‘lanadi.

Turli ta‘lim va psixologik ko‘mak yondashuvlari orasida eng universal va turli millat vakillari uchun samarali hisoblanuvchi uslublardan yana biri – bu shaxsning o‘z qadriyatlari sohasini, e‘tiqodini va hayot mazmunini anglashiga yo‘naltirilgan psixologik tadbirlardir. Xususan, F.Frankl ishlab chiqqan “Logoterapiya uslubi” insonning hayot yo‘lini haqqoniy tarzda aniqlash, tanlagan yo‘lining (shu jumladan kasb sohasini ham) qanchalik muhim ekanligini anglash imkonini beradi. Bunday yo‘nalishda tashkil etilgan “ichki ish” shaxsning o‘z hayot yo‘lini puxta tahlil etishga, o‘z o‘tmishi va tanlagan yo‘lini chuqur baholashga va demakki, o‘z kelajagiga bo‘lgan intilish uchun kuchli motivasiya yaratishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Andreev B. I. *Pedagogik texnologiyalar*. Moskva: Prosveshchenie. – 2015, – 280 b.
2. Anisimov O. S. *Ta‘lim metodikasi*. Moskva: Vysshee obrazovanie. -2013, – 270 b.
3. Axunova, G. N. *Pedagogik innovatsiyalar*. Toshkent: O‘qituvchi. -2014, – 280 b.
4. Begalov B.A. Moliya: Asosiy tushunchalar va yo‘nalishlar / Begalov. – Toshkent: Universitet, 2015. – 280 b.
5. Begimqulov U. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat* / Begimqulov. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2010. – 320 b.
6. Bekmurodov A. Sh. *Ijtimoiy fanlar metodologiyasi*. Toshkent: -2016, Universitet. – 300 b.

Ijtimoiy yordam va mikromoliyalash – moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari

**A. Kurbonaliyev,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil tadqiqotchi**

Kirish

“Bizning asosiy maqsadimiz – xalqimizning farovon hayotini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va odamlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali yangi imkoniyatlar yaratishdir” — Sh.M. Mirziyoyev.

Bugungi globallashuv davrida aholining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy yordam va mikromoliyalash mexanizmlari aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Metodologiya

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ijtimoiy yordam va mikromoliyalashning amaliyotdagi samaradorligi nazariy manbalar hamda xalqaro tajribalar asosida o‘rganildi.

Asosiy qism va tahlillar

1. Ijtimoiy yordamning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar

Ijtimoiy yordam davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida oxirgi yillarda ijtimoiy yordamning manzilliligi va shaffofligi ta’minlanmoqda. Masalan:

- 2024-yil yakunlariga ko‘ra, **1,9 mln nafardan ortiq oila** davlatning turli ijtimoiy dasturlaridan foydalangan.
- Davlat byudjetidan ijtimoiy nafaqalar va yordam uchun **20,3 trln so‘m mablag‘** yo‘naltirilgan.
- Elektron “Ijtimoiy reyestr” orqali yordam olish tizimi joriy etilib, yordamning **85 foizi raqamlashtirilgan shaklda** taqdim etilmoqda.

Bu jarayon aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qamrab olish samaradorligini oshirdi.

2. Mikromoliyalashning o‘shish dinamikasi

Mikromoliyalash tizimi kichik biznes, xususiyl tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

- 2023-yilda O‘zbekistonda mikromoliyalash xizmatlarining hajmi **6,5 trln so‘mni** tashkil etdi.
- Mikromoliyaviy tashkilotlar soni oxirgi 5 yilda **2 barobar oshdi**.
- Kredit oluvchilarning 65 foizini yoshlar va xotin-qizlar tashkil qiladi.

Jadval 1. O‘zbekistonda mikromoliyalash hajmining dinamikasi (trln so‘mda)

2019	2,1	—
2020	2,7	+28,5
2021	3,8	+40,7
2022	5,1	+34,2
2023	6,5	+27,4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mikromoliyalash hajmi yildan-yilga barqaror o‘smoqda va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining muhim bo‘g‘iniga aylangan.

3. Ijtimoiy yordam va mikromoliyalashning uyg‘unlashuvi

Hozirgi zamon sharoitida ijtimoiy yordam nafaqat bevosita moddiy yordam ko‘rinishida, balki kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi moliyaviy vositalar bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

“Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” orqali yordam olganlarning bir qismi mikrokreditlar jalb qilib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymoqda. 2024-yilda ushbu dasturlar orqali **250 mingdan ortiq yosh va ayollarga 2,3 trln so‘m miqdorida mikrokredit** ajratildi.

Natijalar

Ijtimoiy yordam aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi.

Mikromoliyalash esa kichik biznesni rivojlantirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va kambag‘allikni kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Har ikkala yo‘nalishning uyg‘un qo‘llanilishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Xulosa

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismidir. U ijtimoiy yordam orqali aholining zaif qatlamlariga bevosita yordam bersa, mikromoliyalash orqali ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qiladi. Shu tariqa, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlashi davlatning barqaror rivojlanishi va aholining farovon hayotini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi “Moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-214-son qarori.
2. Yunus, M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. PublicAffairs.
3. World Bank. (2022). Social Protection and Jobs Global Practice. Washington, DC.
4. Smith, A., & Johnson, P. (2020). Microfinance and Financial Inclusion. Routledge.

Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish

F.Jalolova,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, raqobatbardosh va zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash zarurati pedagogik faoliyatga bo'lgan yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Xususan, bo'lajak pedagog kadrlar nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini samarali tashkil eta oladigan, mustaqil qaror qabul qilishga qodir, mas'uliyatli va tashabbuskor yetakchilarga aylanishi lozim.

Ta'lim jarayonining sifatini oshirishda pedagogik kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Chunki boshqaruv kompetentligiga ega pedagog nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil eta oladi, balki ta'lim muassasasining umumiy strategik rivojlanishida ham faol ishtirok etadi.

Mazkur maqolada bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini shakllantirishga oid zamonaviy yondashuvlar, bu yo'nalishda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar va metodik tavsiyalar keltiriladi.

Maqolada bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi metodologik asoslarga tayanadi:

1. Ilmiy-nazariy asoslar:

- **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:** Boshqaruv kompetentligining rivoji pedagog shaxsining ichki salohiyati, yetakchilik fazilatlar va mas'uliyat hissiga asoslanadi.

- **Kompetensiyaviy yondashuv:** Bo'lajak pedagoglarda faqat bilim emas, balki amaliy ko'nikma, munosabat va qadriyatlarining shakllanishi nazarda tutiladi.

- **Sistemali yondashuv:** Boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayoni o'zaro bog'liq komponentlar (bilim, ko'nikma, motivatsiya, refleksiya) orqali shakllanadi.

2. Tadqiqot metodlari:

- **Nazariy tahlil:** Ilmiy adabiyotlar, mavjud pedagogik konsepsiyalar, boshqaruv nazariyalari va ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi.

- **Empirik usullar:** So'rovnoma, suhbat va amaliy kuzatuvlar asosida OTM talabalari (pedagogika yo'nalishi) orasida boshqaruv kompetentligining holati o'rganildi.

- **Eksperimental metod:** Tajriba-sinov ishlari orqali maxsus mashg'ulotlar, treninglar va boshqaruv holatlariga oid simulyatsiyalar asosida o'quvchilar bilan amaliy ishlar olib borildi.

Jadval – 1
Bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetentligining holati (so‘rovnoma natijasi)

Kompetentlik yo‘nalishi	Yaxshi (%)	O‘rtacha (%)	Past (%)
Rahbarlik va liderlik	32%	48%	20%
Qaror qabul qilish	28%	52%	20%
Jamoa bilan ishlash	35%	44%	21%
Tashkiliy ko‘nikmalar	30%	50%	20%
Konfliktlarni boshqarish	25%	47%	28%
Strategik rejalashtirish	18%	43%	39%

Jadval tahlili:

Ushbu jadval bo‘yicha shuni ko‘rish mumkinki:

- **Jamoa bilan ishlash** va **rahbarlik** kompetensiyalari nisbatan yaxshi shakllangan.

- Eng past ko‘rsatkich **strategik rejalashtirish** va **konfliktlarni boshqarish** kompetensiyalariga to‘g‘ri kelmoqda.

- Bu esa bo‘lajak pedagoglarda yuqori darajadagi boshqaruv qarorlarini qabul qilish va rejalashtirish borasida hali yetarli malaka shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Sxema – 1

Pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bosqichlari

1. DIAGNOSTIKA BOSQICHI



So‘rovnomalar, testlar orqali mavjud kompetentlik darajasi aniqlanadi

2. REJALASHTIRISH BOSQICHI



O‘quv rejasiga boshqaruv va liderlikka oid maxsus modullar kiritiladi

3. AMALIYOT BOSQICHI



Talabalar amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar, jamoaviy ishlar orqali ko‘nikma hosil qiladi

4. REFLEKSIYA BOSQICHI



O‘z faoliyatini baholash, tahlil qilish, fikr almashish orqali o‘zlashtirish chuqurlashtiriladi

5. MONITORING BOSQICHI



Kompetentligini baholash tizimi orqali rivojlanish natijalari kuzatib boriladi

Sxema tahlili:

Bu bosqichlar orqali bo'lajak pedagoglar **nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish, o'zini anglash, qayta tahlil qilish va mustaqil boshqaruv qarorlari qabul qilish** kabi ko'nikmalarni egallaydi. Ustuvor jihati – **uzluksizlik va reflektiv o'rganish** orqali kompetentlikni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon pedagoglarni faqat dars berishga emas, balki ta'lim muassasasining umumiy boshqaruv faoliyatida faol ishtirok etishga tayyorlashni nazarda tutadi. Boshqaruv kompetentligining shakllanishi – bu pedagogik bilim, amaliy ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining uyg'un holda rivojlanishini talab etadi.

Maqolada ta'kidlanganidek, samarali boshqaruv faoliyatini yo'lga qo'yish uchun bo'lajak pedagoglarda liderlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik, muammoni hal qilish va jamoa bilan ishlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish muhimdir. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda ta'lim muassasasining ijtimoiy nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu boisdan, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kompetentligini shakllantirishga qaratilgan maxsus kurslar, amaliy mashg'ulotlar va innovatsion o'quv metodlarini keng joriy etish zarur. Bu orqali biz kelajakdagi ta'lim yetakchilarini tarbiyalaymiz.

ADABIYOTLAR:

- 1.Egamberdiyeva, G. B. (2025). Ta'limda “boshqaruv”, “kompetentlik” hamda “boshqaruv kompetentligi” tushunchalari. – Noshir noma'lum (Zenodo). zenodo.org
- 2.Nafasov, D. Sh., Eshchanov, X. X., Ruzimova, I. X., Abdirimova, Sh. X., & Abdullayeva, N. B. (2024). Pedagogik kompetentlik [O'quv qo'llanma]. Bookmany Print. AKBT
- 3.Toktayeva, A. K. (2023). Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kompetensiyaviy mashg'ulotlarini boshqarishi [Maqola]. Journal-web. journal-web.uz
- 4.Kamolova, M. K. (2025). Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida pedagogik kompetentlik oshirishda pedagogik texnikaning ahamiyati [Maqola]. – Noshir noma'lum (Zenodo). zenodo.org

Kichik biznes faoliyatini samarali rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

M.Muxamedjanova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistenti

O.Aktamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

Har qanday yirik biznesni amalga oshirish bevosita kichik biznesdan boshlanadi. Chunki, har qanday kichik biznes dastlab qisman foyda keltiradigan yoki foyda keltirmaydigan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish asosida shakllanadi. Buning uchun kichik biznes g'oyalari zarur bo'lib, bugungi kunda ilgari amalga oshirilmagan g'oyalar biznes dunyosini o'zgartirgan yangiliklarga aylandi. Ushbu sohani samarali rivojlantirishga borasida mamlakatimizda qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qiligan. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-193-son Farmoni qabul qilinib, uning asosiy maqsadi kichik biznesni samarali rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yetarli shart-sharoitlar yaratish bilan belgilanadi.

Olimlar tomonidan berilgan ta'riflarda kichik biznes tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Xususan, kichik biznes - tadbirkorlik subyektlarining o'z tashabbusi bilan, o'z kapitalini yo'qotish va foyda olmaslik xavfi ostida faoliyat yuritadigan faoliyat turidir. Ya'ni, kichik biznes barcha ilm-fan yutuqlari sinovdan o'tkaziladigan soha sifatida qaraladi. Ishlab chiqarishning jami hajmi, kapital va mehnatni yo'qotish xavfini oldini olish uchun eng yangi texnologiyalar kichik korxonalarda sinovdan o'tkaziladi. Biroq, muvaffaqiyatli bo'lgan taqdirda undagi ishlab chiqarish yirik ishlab chiqarish shakliga o'tkaziladi.

Kichik biznes - bu bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan qonunlar, vakillik organlari va boshqalar bilan belgilangan muayyan shartlar va mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Kichik biznesning o'zni ushbu sohaning iqtisodiyotning yon sohasi ekanligida namoyon bo'ladi. Kichik biznes iqtisodiy tuzilish, raqobat muhiti va ijtimoiy mehnat taqsimotiga organik ravishda kiritiladi.

Bundan tashqari, uning zamonaviy dinamik hayotdagi roli ham tobora ortib bormoqda. Bu borada to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ilgari kichik korxonalar ko'pchilikning o'z biznesini ochish istagi natijasida yaratilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda esa kichik korxonalarni tashkil etish ko'pincha yirik kompaniyalar tomonidan boshlanadi. Ularga ishlab chiqarishning ayrim turlarini olib borish yoki bozor bilan o'zaro yaqin aloqalarni o'rnatish kabilar xos bo'ladi. Tadbirkor samarali natijalarga erishsa, ularning har biri uchun asosiy va aylanma mablag'lardan unumli va to'g'ridan-to'g'ri mo'ljallangan maqsadlarda samarali foydalanish o'z samarasini beradi.

Kichik biznes bozor sharoitida zarur harakatchanlikni ta'minlaydi, chuqur ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasini yaratadi. Ammo, kichik biznesning shakllanishi muhim yo'nalish sifatida ularsiz uning yuqori samaradorligini tasavvur qilib bo'lmaydi. Kichik biznesning shakllanishi, faoliyati

va rivojlanishi, uning tuzilishi va dinamikasi hal qiluvchi darajada mamlakatning qator siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish ham muhim masala bo'lib hisoblanadi. Hududlarda va yirik shaharlarda faoliyat olib borayotgan kichik biznes subyektlari rivojini ta'minlaydigan va kafolatlaydigan indeks ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Kichik korxonalarning bir qismi sifatida shartnoma va franchayzing tizimi orqali yirik ishlab chiqarish majmualariga kiritiladi. Boshqa korxonalar esa kichik firmalar mijozlari, ikkinchisi esa yirik kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchilari bo'lib hisoblanadi. Kichik korxonalar yangi tovarlarni keng joriy etish va ish o'rinlari bilan ta'minlashdan tashqari, yirik korporatsiyalar faoliyatida o'z mahsulotlarini sotish, texnik xizmat ko'rsatish va yetkazib berish bilan shug'ullanishda alohida o'rin egallaydi. Bu borada ko'pgina kichik firmalar paydo bo'ladi. Chunki, ular mijozlarning maxsus ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'ladilar.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning umumiy holati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kichik biznesning holatiga ta'sir qiladi. Ularda kichik korxonalar sonining tez o'sishi yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar va texnologiyalar turlari, ilmiy ishlanmalarning paydo bo'lishi, infratuzilmaning turli tarmoqlarini rivojlantirishda sifatli o'zgarishlar hamda xizmat ko'rsatish sohasining jamiyatdagi o'rnini oshishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu holatga iste'molni individuallashtirish imkon berib, ko'p jihatdan ishlab chiqarish yo'nalishiga va belgilangan ustuvorliklarga qarab o'zgarib boradi.

Kichik biznes cheklangan faoliyat ro'yxatiga ega va bozorda kichik ta'sir ulushiga ega bo'lgan mahalliy firma bo'lib ham qaraladi. Uni boshqarish egasi tomonidan amalga oshiriladi. Aynan shu toifa bilan tadbirkor o'z biznesini amalga oshira boshlaydi. Biroq, ochish yoki texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari uchun korxona tomonidan katta kapital qo'yilmalari talab qilinmaydi. Ushbu faoliyatning ro'yxatga kiritilishi korxonalarning qonuniy faoliyat yuritishini anglatadi. Bu kichik korxonalarga tegishli shartlarga javob beradi. Unga asosan, korxona soliqlarni o'z vaqtida to'laydi, xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatadi va soliq hisobotlarini taqdim etadi.

Kichik biznesning ishlab chiqarish imkoniyatlari, uni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari yirik firmalarga xos bozor sharoitidagi muammolardan iborat bo'ladi. Kichik korxonalar ularni muvaffaqiyatli faoliyat va foyda olish imkoniyati sifatida qaraydilar va ular kichik biznesni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- o'rta va yaqin kelajakda yirik firmalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- iqtisodiy jarayonlarga innovatsiyalarni keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- o'rta sinfni shakllantirish uchun vositachi vazifasini bajaradi (mamlakatning siyosiy barqarorligidan manfaatdor bo'lgan ijtimoiy jamiyatni yaratadi).

Bundan tashqari, kichik biznes faoliyati dinamik jarayon bo'lib, o'sish va inqiroz davrida ichki bozor o'zgarishlariga tezroq va samaraliroq javob beradi. Kichik biznes ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatishda ham keng namoyish etilishi mumkin.

Shu bilan birga, kichik biznesning katta qismi chakana savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, tibbiy va ilmiy xizmat ko'rsatish kabi faoliyat sohalarida uning ishlash tamoyillari tufayli mavjud bo'ladi. Kichik biznes asosida tovarlar va xizmatlarni sotish orqali foyda olishga qaratilgan tijorat faoliyati amalga oshiriladi. Buning uchun korxona rasmiy ro'yxatdan o'tishi, daromad solig'ini to'lashi va xodimlarga ish haqi to'lashi kerak.

Davlat kichik biznesni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. Korxonalar yangi ish o'rinlari yaratadilar, budjetga hissa qo'shadilar hamda aholiga tovarlar va xizmatlarni taklif qiladilar. Ammo, barcha tadbirkorlar imtiyozlarga ishonishlari mumkin emas. Bu borada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun ma'lum mezonlarga javob berish kerak. Shuningdek, kichik biznesning barcha afzalliklaridan bahramand bo'lish uchun ro'yxatga olingan bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlat tomonidan soliq va badallarni to'lash uchun hisobot berish vaqti va pulni tejashga yordam beradigan ko'plab qo'llab-quvvatlash choralari taklif etiladi. Ya'ni, imtiyozlar davlat darajasida taqdim etiladi va har bir mintaqa qo'shimcha imtiyozlarni taqdim etadi.

Fikrimizcha, kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim shartlar va omillarga quyidagilar xos bo'ladi:

- jamiyatdagi siyosiy vaziyat;
- mamlakat iqtisodiyoti holati;
- davlatning iqtisodiyot sohasidagi siyosati;
- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash choralari;
- kichik biznesni huquqiy qo'llab-quvvatlash;
- soliq siyosati;
- moliyaviy va kredit siyosati;
- aholi turmush darajasi;
- tadbirkorlik sivilizatsiyasi.

Bundan tashqari, kichik biznesni muvaffaqiyatli olib borish ichki omillardan yanada samarali foydalanish tufayli yirik korxonalar faoliyatiga qaraganda ancha foydali bo'ladi. Ushbu omillar tarkibiga quyidagi omillar tegishli bo'ladi:

- ishlab chiqarish omili: ularni yaratish uchun kichik boshlang'ich kapital talab qilinadi, kapital qurilish muddatlari qisqartiriladi va mablag'larning aylanmasi oshadi;
- tashkiliy va boshqaruv omili: ma'muriy ehtiyojlar uchun xarajatlar kamayadi;
- shaxsiy omil: mulk egasi va menejeri ish darajasini oshirishga turtki beradi.

Xulosa shuki, kichik biznes amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, jismoniy shaxslar, ya'ni tadbirkorlar, shuningdek, mulkchilikning har qanday tashkiliy-huquqiy shaklidagi yuridik shaxslar, kichik biznes subyektlariga

tasniflash mezonlariga muvofiq ro'yxatdan o'tgan tizimli, tashabbuskor va mustaqil faoliyati bo'lib hisoblanadi. Bu esa amalga oshiriladigan amaldagi qonunchilikka muvofiq, o'z tavakkalchiligi va daromad olish maqsadida javobgarlik asosida faoliyat olib borishni taqozo qiladi. Ushbu faoliyat mavjud resurslardan foydalanish xavfi bilan bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, bevosita foyda olishga qaratilgan faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Shu orqali kichik biznes iqtisodiyotning tarkibiy qismidir va uning rivojlanishi esa mamlakat iqtisodiy tizimining moslashuvchanligi va barqarorligiga katta hissa qo'shadi. Bu borada tadbirkorlar o'z faoliyatini rasman olib borishi, kichik biznesga tegishli mezonlarni bilishi talab etiladi. Imtiyozlar va maxsus soliqqa tortish tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari esa bevosita bunga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi —Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-193-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/6658633>
2. Малое предпринимательство. Организация, развитие и управление малым предприятием: учебник. / под науч. ред. Г.Л.Багиева, В.Ю.Бурова. - М.: ИНФРА- М, 2020. - с .33.
3. Якубова Д.М. Бизнес-среда: теория и практика. Учебник – Т.: Ташкентский государственный технический университет имени И.А.Каримова, 2023. - с. 21.
4. Maxmudova D.R. Kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirish asosida biznes muhitini va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish. // Science and innovation international scientific journal, Volume1, Issue8. - 314 b.
5. <https://studfile.net/preview/5762150/page:8/>

The Impact of Economic Clusters on Competitiveness

**Sh.Sherkulov, PhD in Economics Theory
Tashkent State University of Economics**

Introduction

The modern global economy is characterized by dynamic structural transformations, rapid technological progress, and increasing inter-firm cooperation. These processes have led to a fundamental rethinking of traditional models of economic development. One of the most effective approaches to improving competitiveness in such conditions is the creation and development of **economic clusters** — geographically concentrated groups of interconnected companies, specialized suppliers, service providers, and associated institutions in a particular field.

The concept of clusters was first systematized by **Michael E. Porter (1990)** in his theory of “The Competitive Advantage of Nations.” Porter argued that

clusters increase productivity, stimulate innovation, and facilitate new business formation, thereby enhancing national and regional competitiveness. Since then, cluster-based policies have been implemented in the European Union, the United States, Japan, South Korea, and a growing number of developing countries, including Uzbekistan.

In the context of Uzbekistan's transition toward a knowledge-based economy, cluster development has become a central priority in industrial and agricultural policy. Since 2018, the government has initiated several reforms aimed at fostering industrial cooperation and developing **cotton-textile, agro-industrial, construction, and tourism clusters**. These initiatives are expected to generate synergies among production, research, and education sectors, thereby enhancing the country's overall competitiveness.

The purpose of this study is to analyze the theoretical foundations and practical effects of cluster formation on competitiveness, evaluate Uzbekistan's experience in cluster development, and propose recommendations for improving cluster-based policy implementation.

The research employs a **qualitative and analytical approach**. The study is based on comparative analysis, systematization of theoretical literature, and empirical evaluation of Uzbekistan's cluster experience. It combines descriptive and analytical methods to explore the relationship between cluster formation and competitiveness enhancement.

Primary data were collected from official statistical reports of the **State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics**, policy documents, presidential decrees, and regional development programs. Secondary sources include academic publications, OECD and World Bank reports, and case studies on cluster development in developed and emerging economies.

The study adopts Porter's **Diamond Model** of national competitiveness, which emphasizes four determinants — factor conditions, demand conditions, related and supporting industries, and firm strategy, structure, and rivalry. The model is adapted to assess how cluster development influences these determinants within the Uzbek economic environment.

Clusters represent an organizational form that allows firms to gain both **competitive cooperation** and **innovative advantage**. Within a cluster, firms compete in final markets but cooperate in improving production processes, technological learning, and access to resources. This dual nature of competition and cooperation creates a **self-reinforcing innovation ecosystem**.

According to Porter (1998), clusters enhance competitiveness through three key mechanisms:

1. **Increasing productivity** of constituent firms.
2. **Driving innovation** and technological upgrading.
3. **Stimulating new business formation** within the cluster environment.

Empirical studies (OECD, 2020; World Bank, 2021) confirm that regions with strong clusters tend to achieve higher productivity growth, export performance, and employment rates than non-clustered regions.

Competitiveness at the firm and national levels depends on the ability to create value more efficiently than rivals. Clusters facilitate this by generating **economies of scale, knowledge spillovers, and network externalities**. Firms within a cluster benefit from:

- Easier access to specialized suppliers and skilled labor.
- Lower transaction and logistics costs due to geographic proximity.
- Shared access to R&D institutions and innovation networks.
- Accelerated diffusion of new technologies and managerial practices.

Thus, cluster development transforms isolated enterprises into an integrated system that collectively enhances national competitiveness.

In Uzbekistan, the **cluster model** has been actively implemented since 2018, primarily within the **cotton-textile industry**. The reform replaced the traditional state procurement system with a **vertically integrated cluster system** that connects cotton growing, processing, spinning, weaving, dyeing, and garment production within a single technological chain.

According to data from the Ministry of Agriculture (2024), more than **130 textile clusters** are currently operating across the country, covering approximately **90% of cotton-growing areas**. These clusters have:

- Reduced production costs by 25–30%;
- Increased labor productivity by 35%;
- Boosted export revenues by over USD 2 billion annually.

Beyond the textile sector, **agro-industrial clusters** have been established in fruit and vegetable production, viticulture, animal husbandry, and fish farming. Each cluster aims to ensure the full cycle — from raw material production to packaging and export.

The development of clusters in Uzbekistan is regulated by a series of **Presidential Decrees and Resolutions**, including:

- *Decree No. PP-4185 (2019)* “On measures to organize cotton-textile clusters”;
- *Resolution No. PQ-4411 (2019)* “On the development of agro-industrial clusters”;
- *Decree No. PF-60 (2022)* “On the Strategy for the Development of New Uzbekistan for 2022–2026.”

These legal documents define clusters as key drivers of industrial modernization, investment attraction, and export expansion.

The **state support mechanisms** include:

- Preferential credit lines and tax incentives;
- Infrastructure and logistics development;
- Support for R&D, innovation, and vocational training.

The integration of enterprises into clusters generates several economic benefits:

Productivity Growth	Due to efficient resource use and joint innovation, productivity rises by 30–40%.
Cost	Proximity to suppliers reduces logistics and transaction costs by

Reduction	15–20%.
Export Expansion	Clustered industries achieve higher export diversification and global competitiveness.
Employment	New clusters create stable jobs and increase labor mobility in rural areas.
Innovation	Strong links with universities and R&D centers foster technological modernization.

For instance, the **Namangan Textile Cluster** achieved a 45% productivity increase within three years, while the **Fergana Agro Cluster** introduced drip irrigation technologies that reduced water consumption by 40%.

A comparison with other countries shows that successful cluster policies share several key features:

- In **South Korea**, industrial clusters around Seoul and Busan serve as innovation hubs supported by technology parks.
- In **Germany**, the “Mittelstand” network of SMEs operates within regional clusters, fostering world-class competitiveness.
- In **Turkey**, textile and furniture clusters in Gaziantep and Kayseri have significantly boosted export capacity through industrial cooperation.

Uzbekistan’s experience demonstrates that while cluster formation is progressing rapidly, challenges remain in ensuring efficient coordination, innovation management, and equitable distribution of benefits among participants.

Despite positive results, several constraints hinder full-scale effectiveness:

1. Insufficient coordination between cluster members and local authorities.
2. Limited access to modern technologies and innovation financing.
3. Inadequate institutional capacity for cluster management.
4. Weak linkage between clusters and higher education institutions.
5. Uneven regional distribution of cluster benefits.

Addressing these challenges requires a comprehensive strategy combining **policy alignment**, **capacity building**, and **digital transformation** of cluster management processes.

Digital technologies — such as **blockchain**, **IoT**, **big data**, and **AI** — can dramatically enhance cluster efficiency by improving traceability, resource planning, and decision-making. Digital cluster platforms facilitate real-time coordination among producers, suppliers, and regulators. For example, implementing an **e-cluster management system** in Uzbekistan could enable data-driven monitoring of productivity, exports, and supply chain efficiency.

Conclusion

The research demonstrates that economic clusters serve as powerful instruments for improving competitiveness at the firm, industry, and national levels. By integrating production, innovation, and human capital, clusters create a synergistic environment where productivity, efficiency, and innovation reinforce one another.

For Uzbekistan, cluster development has already yielded substantial benefits — especially in the textile and agro-industrial sectors — by increasing export revenues, reducing costs, and stimulating rural employment. However, to achieve long-term sustainability, cluster policy must evolve toward deeper **digital integration, innovation financing, and knowledge exchange** among all stakeholders.

Key recommendations:

1. Strengthen institutional frameworks for cluster governance.
2. Promote partnerships between clusters, universities, and research centers.
3. Introduce digital monitoring and performance evaluation tools.
4. Expand access to finance and venture capital for cluster enterprises.
5. Encourage regional specialization based on comparative advantage.

In conclusion, economic clusters are not merely instruments of industrial policy but foundational elements of a nation's competitive strategy in the 21st century. Their effective management can ensure sustainable growth, technological progress, and global competitiveness for Uzbekistan's economy.

References

1. Porter, M.E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
2. OECD (2020). *Clusters and Regional Competitiveness: Insights and Policy Lessons*. Paris: OECD Publishing.
3. World Bank (2021). *Uzbekistan Country Economic Memorandum*. Washington, DC.
4. European Cluster Observatory (2019). *European Cluster Trends Report*.
5. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan (2024). *Statistical Data on Agro-Clusters*.
6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-4185, 2019.
7. Resolution No. PQ-4411, 2019.
8. Presidential Decree No. PF-60, 2022.
9. Ketels, C. (2017). *Cluster Mapping and Competitiveness Policies*. Harvard Business School.
10. Delgado, M., Porter, M.E., & Stern, S. (2016). *Clusters, Convergence, and Economic Performance*. *Research Policy*, 45(10), 1785–1799.

Akademik erkinlik: nazariy asoslari va amaliy ahamiyati

**D.Fayziyeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistenti**

KIRISH

So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar akademik erkinlik masalasini dolzarb mavzuga aylantirdi. Akademik erkinlik – bu universitetlar va professor-o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshirish imkonini beruvchi jarayon bo‘lib, u ta‘lim sifati, ilmiy faoliyat va talabalar ijodkorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Akademik erkinlik bir necha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta‘lim dasturlarini erkin ishlab chiqish.
2. Ilmiy tadqiqotlarda mustaqillikni ta‘minlash.
3. Innovatsion metodlarni qo‘llash imkoniyati.
4. Fikr erkinligini kafolatlash.

Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, ushbu tamoyil ta‘lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida akademik erkinlik oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ham so‘nggi yillarda universitetlarga mustaqillik berish, ta‘lim dasturlarini yangilash va xalqaro tajribaga moslashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Akademik erkinlik tushunchasi nafaqat oliy ta‘lim tizimi, balki jamiyatning intellektual salohiyati va taraqqiyot darajasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki ilmiy izlanish va ta‘lim jarayonida erkinlik mavjud bo‘lmasa, ijodkorlik va yangilikka intilish cheklanadi. Shu sababli zamonaviy ta‘lim tizimida akademik erkinlik fundamental tamoyil sifatida qaraladi.

Akademik erkinlik inson huquqlari va erkinliklari tizimining bir qismi sifatida qaraladi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham har bir inson ilm olish va fikr bildirish erkinligiga ega ekani ta‘kidlangan. Universitetlar erkinligi – bu nafaqat professor-o‘qituvchilarning, balki talabalar va tadqiqotchilarning ham mustaqil faoliyat yuritish huquqidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, akademik erkinlik ta‘lim muassasalarining demokratiyaviy boshqaruvi, fikrlar xilma-xilligi va yangicha g‘oyalarning erkin muhokama qilinishi uchun zamin yaratadi.

Dunyo oliy ta‘lim tizimida akademik erkinlikning turli ko‘rinishlari mavjud. Masalan:

- AQSh universitetlari – professor va talabalar o‘quv dasturlarini erkin tanlash va shakllantirish huquqiga ega. Grantlar va xususiy mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish ilmiy tadqiqotlarning erkinligini oshiradi.
- Germaniya – “Universitt der Freiheit” konsepsiyasi asosida universitetlarga keng avtonomiya berilgan. Moliyaviy mustaqillik ham erkinlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.
- Janubiy Koreya va Yaponiya – akademik erkinlik milliy innovatsion

rivojlanish strategiyalarining markazida turadi. Universitetlar davlat buyurtmasidan tashqari, xususiy sektor bilan ham faol hamkorlik qiladi.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, akademik erkinlikning muvaffaqiyati moliyaviy mustaqillik, huquqiy kafolatlar va ijtimoiy e'tirof bilan chambarchas bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'limda akademik erkinlikni kengaytirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- Universitetlarga o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqish huquqi berildi.
- Talabalar uchun kredit-modul tizimi joriy qilindi.
- Xorijiy universitetlarning filiallari ochilib, xalqaro standartlarga mos dasturlar ishlab chiqilmoqda.
- Ilmiy faoliyatni rivojlantirish uchun grant tizimi kengaytirilmoqda.

Biroq hali ham ayrim muammolar mavjud: professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetarli darajada emas, byurokratik to'siqlar saqlanib qolmoqda, ta'lim sifatini xalqaro darajaga ko'tarish uchun resurslar yetarli emas.

Akademik erkinlikning amaliy natijalari quyidagilarda ko'rinadi:

- Talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodkorlik rivojlanadi.
- Professor-o'qituvchilar o'z ilmiy faoliyatida yangilik yaratishga intiladi.
- Universitetlarning xalqaro reytinglarda o'rni mustahkamlanadi.
- Xorijiy tajriba va texnologiyalarni jalb etish imkoniyati kengayadi.

Masalan, 2020–2023 yillar oralig'ida O'zbekistonning bir qator universitetlari QS va Times Higher Education reytinglariga kirib, akademik erkinlikning real natijalarini ko'rsatmoqda.

Akademik erkinlikni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Moliyaviy mustaqillik yetarli darajada emas.
- Ilmiy tadqiqotlar uchun zarur infratuzilma va laboratoriyalar kam.
- Akademik erkinlikni noto'g'ri talqin qilish, ya'ni erkinlik va mas'uliyat muvozanatini saqlashdagi qiyinchiliklar.

Kelajakda esa quyidagi yo'nalishlar dolzarb bo'ladi:

- Universitetlarning moliyaviy avtonomiyasini oshirish.
- Talabalar va professor-o'qituvchilarning xalqaro akademik almashuvlarini kengaytirish.
- Innovatsion ilmiy markazlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash.
- Akademik erkinlikni huquqiy jihatdan yanada mustahkamlash.

Shu tarzda, akademik erkinlik nafaqat oliy ta'lim tizimini, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotini ta'minlaydigan strategik omil hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur ishda qiyosiy tahlil, huquqiy hujjatlar tahlili, shuningdek, xalqaro tajribani solishtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari ham ko'rib chiqildi.

Natijalar

Akademik erkinlikni kengaytirish quyidagi natijalarga olib keladi:

- Ta'lim sifatining oshishi;

- Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati rivojlanishi;
- Talabalarining mustaqil fikrlash va tahlil ko'nikmalarining shakllanishi.

So'nggi yillarda O'zbekiston universitetlari xalqaro reytinglarda yuqoriroq o'rinlarni egallay boshlagani ham buni tasdiqlaydi.

XULOSA

Akademik erkinlik zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ushbu jarayon ta'lim sifatini oshiradi, talabalar ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda mamlakatning ilmiy salohiyatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev, A. (2021). Oliy ta'lim tizimida islohotlar va akademik erkinlik. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimova, N. (2020). Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda akademik erkinlikning o'rni. Ta'lim va taraqqiyot jurnali, №4.
3. O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy maqolalar to'plami. (2019). Akademik erkinlik va ta'lim sifati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi farmon va qarorlari.
5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ma'lumotlari.
6. Altbach, P. G. (2016). Global Perspectives on Higher Education. Johns Hopkins University Press.
7. Anderson, R. (2017). Academic Freedom in an Age of Conformity. Palgrave Macmillan.
8. UNESCO (2020). Academic Freedom and Higher Education Development.

Формирование системы управления, обеспечивающей эффективную деятельность молодёжи в создании основ третьего ренессанса

**Х.Ахмедов, доцент кафедры «Экономическая теория»,
Ташкентский государственный экономический университет**

Современные достижения Узбекистана — результат не случайных обстоятельств, а плод неустанного труда многих поколений наших предков. Независимость стала величайшим благом, завоёванным тяжёлыми испытаниями. Сохранение мира, стабильности и благополучия требует постоянных усилий. Сегодня страна уверенно движется вперёд, создавая прочный фундамент Третьего Ренессанса. Однако этот процесс невозможен без активного участия и эффективного управления деятельностью молодёжи — главной движущей силы нового этапа развития.

Мы живём благодаря самоотверженному труду тех, кто отдал жизнь за независимость и процветание Родины. Наш долг — не только помнить их, но и продолжать начатое ими дело, оставив будущим поколениям свободную, развитую и процветающую страну. Каждый человек, особенно молодой,

должен понимать: преемственность поколений — не абстрактное понятие, а личная ответственность перед историей и народом.

Эффективное управление молодёжью начинается с умения каждого управлять собой. Без развитого воображения и самосознания невозможно понять, кто ты есть и какую роль можешь сыграть в жизни общества. Молодые люди должны ясно осознавать, как жили их предки, какие трудности пережили, и чем современность отличается от прошлого. Только тогда можно по-настоящему ценить сегодняшние достижения и мирную жизнь.

Каждый должен задать себе вопрос: что я сделал для успеха своей страны? Какой вклад внес в её развитие и благополучие народа? Созидательная молодёжь живёт не вопросом «что я получу?», а «что я могу сделать?». Такая позиция рождает инициативу, трудолюбие и стремление к самосовершенствованию. Без ясной цели и внутреннего стремления к развитию невозможно добиться настоящих успехов.

Созидательная личность — это человек, способный планировать свою жизнь на годы вперёд. Каждый должен иметь ясную жизненную стратегию: чего я хочу достичь через 5, 10, 20 лет, какие шаги предприму для этого уже сегодня. Способность прогнозировать своё будущее и выстраивать последовательные действия — один из ключевых факторов личностного и общественного прогресса.

Время — величайший ресурс. Оно становится другом лишь тогда, когда используется с пользой. Молодёжь должна осознать: промедление и праздность — главные враги развития. Каждый день, каждый час — возможность построить лучшее будущее. Поэтому лозунг «Молодёжь — наше будущее» должен восприниматься не как красивое выражение, а как руководство к действию, как личный девиз каждого молодого человека.

Настоящая зрелость начинается с осознания личной ответственности — перед родителями, перед своей Родиной, перед будущими поколениями. Родина дала нам мир, образование, возможности — и потому каждый обязан ответить трудом, знаниями и верностью. К сожалению, часть молодёжи, обучавшейся за рубежом, предпочла остаться там, забыв о своём долге перед страной. Однако истинный патриотизм заключается не в поиске лучшей жизни где-то, а в стремлении сделать свою Родину лучше.

1 октября наш Президент поздравил учителей и наставников с праздником, сказав: «Выдающихся учёных и мыслителей, создавших два великих Ренессанса в истории нашей страны, в своё время обучали и воспитывали учителя и наставники. Уверен, что сегодня вы, как продолжатели этих благородных традиций, внесёте достойный вклад в формирование на нашей Родине Третьего Возрождения», — подчеркнул он.

Сегодня Президент и народ Узбекистана видят в молодёжи надёжную опору будущего. Эта высокая оценка — не просто слова, а огромная ответственность. Чтобы оправдать это доверие, молодёжь должна проявлять инициативу, дисциплину и внутреннюю готовность трудиться ради

процветания страны. Только так можно построить общество, достойное памяти предков и надежд потомков — общество Третьего Ренессанса.

Kichik tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga doir qonunchilik bazasining barqarorligi va aniqligi - kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi shakllanishi maromiyligini ta'minlash omili sifatida

**K.Sharipov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti, PhD**

Ma'lumki, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyati umumiy tadbirkorlik faoliyati tarkibida tegishli qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, dastlab 2000-yil 25 mayda qabul qilinib, keyin 2012-yil 2 mayda yangi tahriri ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonunida "asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo'lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat"[1] deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning obyektlari bilan bog'liq bir necha holatlarni quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning obyektlari bilan bog'liq holatlar [1,5]

Moddalar	Holatlar mazmuni
2-modda. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik	Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir
	Notijorat tashkilotlarga nisbatan ushbu Qonun ular faoliyatining o'z xususiyatiga ko'ra tadbirkorlikdan iborat bo'lgan qismiga tatbiq etiladi.
	Chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari va ushbu huquqlarni himoya qilish choralari bilan bog'liq munosabatlar chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ushbu huquqlarni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonunchilik bilan ham tartibga solinadi
	Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi

7-modda. Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati	Oilaviy tadbirkorlikning amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi tuzilishi, faoliyat ko'rsatishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi
10-modda. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining birlashmalari	Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining tashkil etilishi, faoliyat ko'rsatishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi
30-modda. Tadbirkorlik subyektlarining axborotdan foydalanish kafolatlari	Vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari bilan o'zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan, ularning rasmiy veb-saytlarida Internet jahon axborot tarmog'i orqali e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning talablarini buzganlik uchun tadbirkorlik faoliyati subyektlariga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilmaydi

Shunga qaramay, amaliyotda kichik tadbirkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar tez-tez kuzatilmoqda. Birinchi navbatda, bunga sohani tartibga soluvchi qonunchilikdagi o'zgarishlarning ko'pligi hamda barqarorlik yetishmasligi asosiy sabab bo'lib, bu odatda qonunlarning chuqur tahlil qilinmasdan qabul qilinishi bilan bog'liq bo'ladi. Natijada qonunlar va me'yoriy hujjatlarning tez-tez o'zgarishi kichik tadbirkorlik subyektlariga moslashish uchun qiyinchilik tug'diradi.


Shuningdek, soha amaliyotida qonun hujjatlaridagi turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan, tushunarsiz yoki ziddiyatli qoidalarining mavjudligi ro'y berib, ushbu normalar pirovardida huquqiy nomuayyanlikka olib keladi.

Ayrim hollarda qonunchilikning uzoq muddatli istiqbolni hisobga olmasligi oqibatida kichik tadbirkorlikning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun barqaror huquqiy bazaga bo'lgan ehtiyoj ta'minlanmaydi.

Ikkinchidan, kichik biznes faoliyatidagi ortiqcha hujjatbozlik va lisenziyalash jarayonlarining murakkabligi tadbirkorlarning ishlash samaradorligini pasaytiradi. Jumladan, hozirgi kunda 59 ta nomdagi lisenziyalanadigan faoliyatning kichik turlari [2], 123 nomdagi ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat (tartib-taomil) [2], 36 ta nomdagi xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakat) turlari (kichik turlari) [2] belgilab berilgan. Bu borada "Davlatimiz rahbari lisenziya va ruxsatnomalar berish tartibi va muddatlarini ham qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidladi. ...Lisenziyalarning 79 foizi, ruxsat beruvchi hujjatlarning 80 foizi hanuzgacha qog'oz shaklida berilmoqda. "Lisenziya" axborot tizimlari kompleksi 2014-yilda tashkil etilganiga qaramay, bugungi kunda bu portal deyarli faoliyat yuritmayapti. O'tgan yili 4 mingdan ortiq lisenziya "bir darcha" tamoyiliga rioya qilinmasdan berilgan" [3].

Yana bir muammoli jihat – bu mahalliy va respublika darajalaridagi hujjatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi bo‘lib, turli davlat organlari talablarining bir-biriga zid bo‘lishi kichik biznes uchun qo‘shimcha qiyinchiliklar yaratadi.

Shunga ko‘ra, fikrimizcha, kichik biznesning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha samarali tarkibiy tuzilmasining shakllanishiga imkon yaratuvchi maromiylik jarayoni to‘laqonli ishlashi uchun davlat tomonidan soha faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazaning barqarorligini ta‘minlash borasida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazaning barqarorligini ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlar [5]

Kichik biznes subyektlarining nisbatan daromadli tarmoq va sohalarga erkin o‘tishi, o‘z faoliyatini qisqarib borayotgan, turg‘un tarmoqlarda yakunlab, tezlik bilan istiqbolli tarmoqlarda qayta tashkil etish imkonini beruvchi maromiylikni ta‘minlashda mamlakatdagi moliya bozorlarining barqarorligi va bank tizimining ishonchliligi muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 2012 yil 2 may, O‘RQ-328-son. - <https://lex.uz/mact/2006789>

2. «Lisenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga 1-ILOVA. Amalga oshirilishi uchun lisenziyalarni olish talab qilinadigan faoliyat turlari. - <https://lex.uz/docs/5511879>

3. Lisenziyalash va ruxsatnomalar berish tartibi tubdan takomillashtiriladi. 17.02.2020. - <https://president.uz/uz/lists/view/3360>


4. Закиров Ф.Ш. Развитие внешнеэкономической деятельности малого бизнеса в условиях либерализации экономики. Ташкентский государственный технический университет. Автореф. дисс. к.э.н. Т., 2005.;

5. Muallif ishlanmasi

**Kichik biznes tarkibiy tuzilmasining shakllanishida maromiylik jarayoniga
ta'sir etuvchi davlat siyosati**

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlar kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion faollikni rag'batlantirish imkonini hosil qilmoqda. Kichik biznes subyektlarining tarkibiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish va ularni sohaviy, hududiy hamda texnologik jihatdan optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va bozor infratuzilmasiga integratsiyalashuv darajasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va innovatsiyalar asosida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga ko'maklashadi. Shu jihatdan, kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish jahon miqyosida iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra "Mikro, kichik va o'rta biznes (MKO'B) jahondagi barcha korxonalarning 90 %ini tashkil etadi, ular ish bilan bandlikning 60-70 %ini va YaIMning 50 %ini ta'minlaydi. Jahon bo'ylab jamiyatning asosiy tuzilmasi sifatida, ular mahalliy va milliy iqtisodiyotga hamda aholining turmush darajasini qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi. Ayniqsa, ishlovchi kambag'allar, ayollar, yoshlar va zaif aholi guruhlari uchun muhim ahamiyatga ega. MKO'B to'g'ri qo'llab-quvvatlash bo'lgan taqdirda iqtisodiyotni o'zgartirish, ish o'rinlarini yaratish va adolatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash salohiyatiga ega" [1]. Bundan ko'rinadiki, kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy tizimining ajralmas va asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, unga oid masalalar davlatning iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatorida turadi. Bu siyosatlar kichik tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish va ularning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirishga qaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes tarkibiy tuzilmasining shakllanishida maromiylik jarayoniga ta'sir etuvchi davlat siyosatlar [2]

1-rasmda ifodalangan kichik biznes tarkibiy tuzilmasining shakllanishida maromiylik jarayoniga ta'sir etuvchi davlat siyosatlarini amalga oshirishda quyidagi dastak va vositalardan foydalanish nazarda tutiladi:

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosati: mikrokreditlash, imtiyozli kreditlar, davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar berish, grantlar va subsidiyalar, past foizli kreditlash;
- soliq siyosati: soliq imtiyozlari, soliq ta'tillari, soddalashtirilgan soliq tizimi;
- raqobat muhitini ta'minlash: erkin raqobat muhitini ta'minlash maqsadida monopoliyaga qarshi siyosat, me'yoriy-huquqiy mexanizmlar, lisenziyalash jarayonlarini yanada yanada soddalashtirish;
- ijtimoiy siyosat: ta'lim olish, yangi kasblarni o'zlashtirish va trening dasturlari, yangi ish o'rinlarini vujudga keltirish uchun rag'batlantirish;
- innovasion siyosat: texnik-texnologik yangilanish va raqamli transformasiyani yanada jadallashtirish, davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish;
- infratuzilmani rivojlantirish siyosati: biznes inkubatorlar, texnoparklar va klasterlarni tashkil etish;
- tashqi siyosat: maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlari, eksport-import jarayonlarini yengillashtirish, eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- huquqiy va ma'muriy qo'llab-quvvatlash siyosati: ma'muriy tekshiruvlarning sonini kamaytirish, biznes jarayonida shaffoflikni ta'minlash, biznes subyektlari huquqlarini himoya qilish;
- ekologik siyosat: ekologik toza texnologiyalarni rag'batlantirish, ekologik standartlarga moslashuvni qo'llab-quvvatlash, yashil iqtisodiyotga o'tish;
- hududiy rivojlanish siyosati: kichik tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari, maxsus imtiyozlar joriy qilish.

Kichik tadbirkorlikka nisbatan davlat iqtisodiy siyosatlar ushbu sohani qo'llab-quvvatlash, raqobatbardoshlikni oshirish va milliy iqtisodiyotdagi salmog'ini mustahkamlashga qaratilgan. Soliq, moliya, innovasiya, ijtimoiy va infratuzilmaviy siyosatlarning uyg'unligi kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bu jarayonda muhim o'rin tutadi.

Agar kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar ularning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari va natijalari bilan hamohang borsa, ushbu holatni maromiylik tamoyiliga muvofiq deb hisoblash mumkin. Mazkur holatni quyidagi formula orqali aniqlash mumkin [2]:

$$M_{TT} = \sum_{i=1}^n SS_{i1} \times K_{i1} - \sum_{i=1}^n SS_{i0} \times K_{i0};$$

bu yerda:

M_{TT} - kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi shakllanishi maromiyligi;

SS_{i0} - bazis davrida kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasida i tarmoqning solishtirma salmog'i;

SS_{i1} - hisobot davrida kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasida i tarmoqning solishtirma salmog'i;

K_{i0} - bazis davrida kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarish natijasida i tarmoqning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichi;

K_{i1} - hisobot davrida kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarish natijasida i tarmoqning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichi;

i - kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi tarmoqlar.

Ushbu formula asosida quyidagi natijalarga ega bo'lish mumkin:

$M_{TT} > 0$ – kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar maromiylik tamoyiliga muvofiq;

$M_{TT} = 0$ – kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasida o'zgarishlar mavjud emas yoki ularning ta'sir natijasi ahamiyatli emas;

$M_{TT} < 0$ – kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar maromiylik tamoyiliga muvofiq emas.

Kichik tadbirkorlikning tarkibiy tuzilmasini izchil va barqaror shakllantirish, ushbu sohada olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning davomiyligi, samaradorligi hamda ishonchligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotning poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. День микро, малых и средних предприятий. - <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>
2. Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari

**Sh.Sharipova, Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
14-umumiy o‘rta ta’lim maktabida matematika fani o‘qituvchisi**

Mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda xorijiy investisiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular vositasida mamlakatning qo‘shimcha investisiya mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi, mamlakat iqtisodiyotiga yangi va zamonaviy texnika va texnologiyalar kirib keladi, ilmiy yangiliklar, zamonaviy menejment usul va uslublari joriy etiladi, xususiylashtirish jarayonlari jadallashtiriladi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish orqali jahon bozoriga yo‘l ochiladi va uning xalqaro maydonlarda raqobatbardoshligi ta’minlanadi, buning natijasida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ta’minlanadi. Texnika va texnologiyalarning modernizasiya qilinishi orqali ma’naviy eskirgan va samarasiz texnologiyalar hisobdan chiqariladi, shuningdek mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkich (indikator)lari, jumladan YaIMning o‘shishi, eksport ko‘rsatkichlari, ish bilan bandlik, milliy valyutaning barqarorligi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda mahsulot turlarining kengayishi va boshqa ko‘rsatkichlarning ta’minlanishida xorijiy investisiyalar o‘ziga xos vazifani o‘tab beradi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan iborat. Mazkur strategiyaning 26-maqsadi “Mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko‘rish” deb nomlanib, shu maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilab berilgan.

Investisiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish.

2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investisiya jalb etish.

Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investisiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish.

Surxondaryo viloyatida «Investorlarga ko‘mak markazi», Navoiy viloyatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan «Biznesga ko‘maklashish markazi» va Toshkent shahrida «Ilg‘or loyihalar va injiniring markazi» va har bir tumanda «Innovasiya va texnologiya markazlari» tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko‘rsatish.

Toshkent shahrida har yili «Toshkent xalqaro investisiya forumi»ni o‘tkazib borish.

1-rasm. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 26-maqsadining ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari [1]

26-maqсадning “2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqib, amalga oshirish” deb nomlangan yo‘nalishining amalga oshirish mexanizmiga quyidagilar kiradi.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2026 yilgacha mo‘ljallangan xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish maqsadida, vazirlik va idoralar, hamda xorijiy konsultantlardan tashkil topgan ishchi guruhni shakllantirish.


2. Strategiya loyihasini ishlab chiqishda asosiy ustuvorliklarni quyidagilarga qaratish:

- pandemiya sababli dunyoda investisiya bozorida vujudga kelayotgan o‘zgarishlar tahlili, ehtimoli tendensiyalarni tahlil qilish;
- investisiyalar uchun vujudga keladigan keskin raqobatga qarshi choralar;
- xorijiy investisiyalarni jalb qilishning yangi samarali mexanizmlari;
- ichki investisiya resurslarini rag‘batlantirish mexanizmlari;
- mamlakatda reinvestisiya darajasini oshirish chora tadbirlari;
- hududlardagi investisiya ko‘rsatkichlaridagi disproporsiyalarni qisqartirish, ustuvor rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

3. Strategiya loyihasini vazirlik, idoralar bilan kelishib Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

Statistik tahlilni o‘tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga xorijiy investisiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi: qo‘yilma turlari; texnologik; takror ishlab chiqarish tarkiblari; iqtisodiy faoliyat turlari; moliyalashtirish manbalari bo‘yicha.

Chet el investisiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali. Mamlakatimizda yuqori ulushga yega bo‘lgan 8 ta investor-mamlakat bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investisiya va kreditlar, jamiga nisbatan % dagi ulushi 69,7 %ni tashkil etadi.



2-rasm. Mamlakatimizda 2024 yilda asosiy xorijiy investisiya ulushiga ega bo'lgan hamkor davlatlar [9,10]

Xorijiy investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investisiya ko'rinishida investision loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investision faoliyat subektlari hisoblanadi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investisiyalar – ustav kapitalda 10 foizdan kam bo'lmagan ulushga yega xorijiy investorning moliyaviy va nomoliyaviy qo'yilmalaridir. O'zbekiston respublikasida hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investisiyalar va kreditlar 3 ta mezon bo'yicha klassifikatsiya qilinadi. Bular:

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar
- Kafolatlanmagan boshqa investisiya va kreditlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni

7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari


8. Muallif ishlanmasi

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holatini tahlili

Sh.Sharipova, Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabida matematika fani o'qituvchisi

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.


2024 yilning yanvar-dekabrida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 54,3 % ni tashkil qilib, 2023 yilning tegishli davriga nisbatan o'zgarishsiz qoldi (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida, % da)


2024 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi hududlar bo'yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 77,8%, Jizzax viloyatida – 74,4 %, Namangan viloyatida 73,4,%, Farg'ona viloyatida – 73,1 %, Buxoro viloyatida – 73,0 %, Samarqand viloyatida – 72,3 % va Xorazm viloyatida – 72,3 % ni tashkil etdi (2-rasm).

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi ulushi (2024 yilning yanvar-dekabr oylarida, % da) 2024 yil yanvar-dekabr davri uchun ma'lumotlar dastlabki, o'tgan davrlar uchun ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi.




2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi eng katta ulushiga ega bo'lgan hududlar (2024 yilning yanvar-dekabr oylarida)

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 286 675,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 32,4%ini tashkil etdi (3-rasm). O'sish sur'ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,0 % ni tashkil qildi.




3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida)

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 178718,9 mlrd.so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 76,5%ini tashkil etdi (4-rasm). O‘shish sur‘ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,8% ni tashkil qildi.



4-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida)

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investisiyalar hajmi 255 883,8 mlrd.so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 51,8%,ni tashkil etdi (5-rasm). O‘shish sur‘ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 133,6 % ni tashkil qildi.



5-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investisiya hajmi va jami hajmidagi ulushi (yanvar-dekabr oylarida)

2024 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 444,716,7 mlrd.so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 95,2,% ni tashkil etdi (2.6-rasm). O'sish sur'ati 2023 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,7 % ni tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari
2. Muallif ishlanmasi

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish yo'llari

**Sh.Bayramova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi**

Zamonaviy global iqtisodiyotda raqobatning kuchayishi va texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi milliy iqtisodiy siyosatda innovatsion tadbirkorlikning o'rini yanada mustahkamlashni talab etadi. Innovatsion tadbirkorlikning nazariy asoslarini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi bozorlar yaratish va ilg'or texnologiyalarni joriy etishning muhim sharti hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlik deganda yangilik yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy tizimga samarali integratsiya qilishga qaratilgan faoliyat deb tushuniladi. J. Shumpeter konsepsiyasiga ko'ra, innovator tadbirkor yangi mahsulot, texnologiya yoki biznes model orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki beradi. O'zbek va rus iqtisodiy tafakkurida ham bu tushuncha keng o'rganilgan: mahalliy olimlar uni modernizatsiya va iqtisodiy raqobatbardoshlikning asosiy drayveri sifatida ko'rsatadilar.

Innovatsion tadbirkorlikning asosiy tarkibiy omillari bu:

- Texnologik yangilanishlar — raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt yechimlari;

- Bozor ehtiyojlarini prognozlash — talab va taklifni oldindan tahlil qilish, moslashuvchan biznes-modellar yaratish;

- Moliyaviy manbalarni jalb etish — venchur kapital, davlat grantlari va investitsiya fondlari orqali yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Innovatsion tadbirkorlikning takomillashtirishning 5 asosiy yo'nalishlari mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Innovatsion ekotizimni rivojlantirish. Universitetlar, ilmiy markazlar, texnoparklar va biznes-inkubatorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

2. Intellektual mulkni himoya qilish. Patentlash tizimini soddalashtirish va tijoratlashtirishga qulay huquqiy asos yaratish.

3. Raqamli iqtisodiy vositalardan foydalanish. Elektron savdo, onlayn marketing va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish.

4. Moliyaviy resurslarni kengaytirish. Innovatsion loyihalarga uzoq muddatli kreditlash va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish. Innovatsion fikrlash va loyiha menejmenti ko'nikmalarini shakllantiruvchi ta'lim dasturlarini rivojlantirish.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni taklif sifatida kiritish bo'ladi:

- Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun grant va soliq imtiyozlarini kengaytirish.

- Venchur kapital va xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

- Texnologik parklar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar faoliyatini hududlarda rivojlantirish.

- Davlat va xususiy sektor sherikligini mustahkamlash orqali yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, innovatsion tadbirkorlikning nazariy asoslarini chuqurlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, barqaror o'sishni ta'minlaydi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Bunda davlat siyosati, ilm-fan va xususiy sektor hamkorligi asosiy omil sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

7. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. Milliy innovatsion tizimni rivojlantirish konsepsiyasi, 2022. <https://mininnovation.uz/uz/lists/view/111>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi qaror, 2018. <https://lex.uz/docs/3564970>

9. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934. <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.187354>

10. Chesbrough, H. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press, 2003.

11. Xo‘jayev, B. X., Jo‘rayev, R. A. Innovatsion tadbirkorlik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
12. Karimov, A. S. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti. Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2021.

O‘zbekistonda investisiya muhiti omillarining swot tahlili va investisiyalar hajmining o‘shish dinamikasi

Q.Karimova, Toshkent shahar Chilonzor tumani 90-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

O‘zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investisiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko‘proq jalb etish maqsadida ularga uchun qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan. Har bir mamlakatdagi investisiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investisiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O‘zbekistondagi investisiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidadir.


1-jadval

Investisiya muhiti omillarining SWOT tahlili [2]

❖ Kuchli tomonlari (strengths)	❖ Kuchsiz tomonlari (weaknesses)
❖ tabiiy geografik joylashuvi; ❖ malakali, lekin nisbatan arzon ishchi kuchi; ❖ boy resurs bazasi; ❖ ishlab chiqarish omillarining nisbatan kam xarajatligi; ❖ ichki bozorning xarid qobiliyatining o‘shib borayotganligi; ❖ investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimi; ❖ rivojlangan infratuzilma	❖ geografik joylashuvi (dengizga kirish); ❖ ma’muriy to‘siqlar; ❖ biznes yuritish uchun muhim normativ to‘siqlar; ❖ ayrim hududlarda investisiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi
❖ Imkoniyalar (opportunities)	❖ Tahdidlar(threats)
❖ iqtisodiy o‘shishning yuqori darajasi; ❖ investorlar huquqlarini himoya qilishning davlat kafolati; ❖ mamlakatda makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik; ❖ tarkibiy islohotlarni amalga oshirish; ❖ rivojlanayotgan moliya tizimi; ❖ erkin zonalar yaratish.	❖ makroiqtisodiy o‘shishning jahon xom ashyo bozorlaridagi vaziyatga nisbatan bog‘liqligi; ❖ hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi; ❖ ba’zi qo‘shni mamlakatlarda ijtimoiy keskinliklar tufayli xavfsizlikning yomonlashuvi

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investisiya muhitini rivojlantirish uchun rag‘batlantirish omillarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investisiyalarni rag‘batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizasiya usullarini qo‘llashda to‘la erkinlik berish kerak.

Mamlakatimizda oqilona olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida 2024 yilda YaIMning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati 6,5 foizni, asosiy kapitalga investitsiyalarning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati esa 27,6 foizni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. YaIM va investisiyalar hajmining o‘shish dinamikasi, foizda [1,2]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investisiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga hamda energiya tejankor va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan investisiya loyihalarini amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, 2019 yilda iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investisiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo‘naltirildi. Jumladan, ushbu davrda umumiy qiymati 7,4 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishi yakunlanib, foydalanishga topshirildi.

Banklarning investisiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investision kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizasiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o‘rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investision loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda.

Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda xorijiy valyutalarni jalb etish va valyuta tushumini ko‘paytirish, milliy valyuta qadrini oshirish eng dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Xorijiy investisiyalar mamlakatga xorijiy valyutalarni


jalb etish va mamlakatda valyuta barqarorligini ta'minlashda muhim dastaklaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz "...Valyuta bozorini isloh qilishga qarshi bo'lgan ayrim "ekspertlar"ning ikkilanishi va "maslahat"lariga qaramasdan, biz qisqa muddatda xalqaro standartlar asosida valyutani liberallashtirish jarayonini boshladik. Lekin biz yaxshi tushunamizki, bu ish ushbu sohadagi islohotlarning boshlanishi, xolos.

Valyuta siyosati biznes va iqtisodiyotni rivojlantirish manfaatlariga to'liq xizmat qilishi, investisiya faoliyatiga ijobiy turtki berishi lozim" [4] deb alohida ta'kidlab o'tganlar.

Mamlakat iqtisodiyotiga chet el valyutalarini jalb etishda aksariyat davlatlar eksport salohiyatini oshirishga katta urg'u beradi, aslida xorijiy investisiyalarni jalb etish orqali ham katta miqdorda valyuta tushumini ta'minlash mumkin bo'ladi. Valyuta tushumini ta'minlashda xorijiy investisiyalarning eksportdan afzallik tomoni shundaki, eksport qilish orqali valyuta tushumiga ega bo'linadi, biroq ushbu valyuta ekvivalentidagi mahsulotlar chetga olib chiqib ketiladi. Xorijiy investisiyalarni jalb etish orqali esa chet el valyutasi yoki valyutaga keltiriladigan asbob-uskuna va mahsulotlar milliy iqtisodiyotga kiritiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Asosiy kapitalga investisiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investisiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.



2-rasm. Asosiy kapitalga investisiyalarning hajmi dinamikasi (yanvar-dekabr oylari uchun, trln so'm) [1,2]

So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega: 2021-2022 yillarda 102,9-100,2 % o'sish kuzatilgan bo'lsa, so'nggi ikki yilda yuqori o'sish sur'atlari – 123,4 va 127,6 % kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari
4. Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda investisiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar

**Q.Karimova, Toshkent shahar Chilonzor tumani
90-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib, milliy iqtisodiyotning turli soha hamda tarmoqlarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari va aholi turmush darajasining oshishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston iqtisodiyotiga investisiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishga aylandi. Iqtisodiyotda investisiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilishning ko‘lami, yo‘nalishlari va samaradorligi, bevosita investisiya muhitiga bog‘liq. Shu sababli mazkur iqtisodiy atamaning tub mohiyatini o‘rganish, yoritish va uni asoslab berishga bo‘lgan iqtisodchi olimlarning qarashlari va o‘ziga xos yondashuvlari orqali o‘zaro ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, bu o‘z navbatida, investisiyalarga oid chuqurroq bilimga ega bo‘luvchilar e’tiborini o‘ziga tortmasdan qolmadi. Iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investisiya muhiti to‘g‘risida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadilar: “investisiya muhiti bu-xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig‘indisidir. Investisiya muhiti kompleks, ko‘pqirrali tushuncha bo‘lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o‘sinh, stagnasiya), bojxona rejalari, valyuta siyosati, iqtisodiy o‘sinh sur‘atlari, inflyasiya sur‘atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko‘rsatkichlarga ega” [5]. Shuningdek, mamlakatdagi investisiya jaraenlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siësiy, me’ëriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investisiya muhitini anglatadi.

Investisiya muhiti sarmoyani samarali qo‘yish uchun yangi imkoniyatlar va rag‘batlarni shakllantiradi. Boshqacha qilib aytganda, qulay investisiya muhiti yaratilishi korxonalar uchun daromadlar o‘sishi va xarajatlar hamda risklar kamayishini ta’minlaydi. Natijada, qulay investisiya muhiti yaratilishi tufayli mehnat unumdorligining o‘sishi, innovasiyalarni tatbiq qilish, sifat va mahsulot raqobatbardoshligi, aholi bandligini ko‘tarish, turli darajadagi byudjetga soliq to‘lovlarini oshirish ta’minlanadi. Har tomonlama qulay investisiya muhiti korxonalar faoliyat samaradorligiga ta’sir etadi, bu esa investisiyalashga xos bo‘lgan daromadlar va kapitalning o‘sishiga olib keladi.

Investisiya muhiti – murakkab, keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Uning murakkabligi shundan iboratki, investisiya muhiti mamlakat yoki hududda investisiya faoliyatini amalga oshirishga asos bo‘ladigan shart-sharoitlarni yuzaga keltiruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan bog‘liq holda

shakllanadi. Mamlakat investisiya muhitini hududiy, mahalliy korxonalar, tarmoq va sektorlar investisiya muhitiga ajratish mumkin. Shu bilan birga, «mamlakat investisiya muhiti» bu tushunchalar ichida eng asosiysi hisoblanadi. Investision muhit deganda, mamlakatning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investisiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investision muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishiga bog'liq.

Har tomonlama qulay investisiya muhiti biznes tuzilmalarning faoliyati samaradorligiga ta'sir etadi, bu esa, investitsiyalashga xos bo'lgan daromadlar va kapitalning o'sishiga olib keladi. Investisiya muhiti investorlarning mamlakatga va davlatning iqtisodiyotiga nisbatan harakatlariga ishonchini oshiradi, uzoq muddatli investisiyalashga yo'l ochadi.

Investisiyaviy jozibadorlik - mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investisiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investisiya riski darajasi nuqtai nazaridan baholanishi. Investisiyaviy jozibadorlik investisiya salohiyati va investisiya riski darajasini shaldlantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi.

Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investisiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investisiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investisiya riski darajasi investisiya muhitiga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Respublikada siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investisiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi xorijiy investisiyalari jalb qilishning zaruriy shartidir. Investisiya muhiti investisiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larining daromadliligini ta'minlab beradi. Mamlakatning investisiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuini 1-jadval orqali ifodalash mumkin.

1-jadval

O'zbekiston investisiya muhitini shakllantiradigan asosiy omillar [1,2]

Omillar	Mazmuni
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me'yoriy, jumladan, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xom-ashè resurslari	Mineral, xom ashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zahiralarini, qishloq xo'jaligi xom ashèsini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi
Ishlab	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish

chiqarishning texnik bazasi	quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy texnik salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investisiyalar, shu jumladan, xorijiy investisiyalar hajmlari, investisiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig‘imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya va kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikasiya xizmatlari va mexmonxona xo‘jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug‘urta sohasi tarmog‘ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiasion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o‘zgarishi, xorijiy fuqarolarning unga moslashish darajasi

Har qanday davlatga investisiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investisiya muhitiga ta’sir etuvchi omillarga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Har qaysi investor ma’lum bir mamlakat va uning hududiga investisiya kiritishdan avval o‘sha mamlakat va hududning investisiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar o‘rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investisiya qarorlari qabul qilinadi.

Raqamli texnologiyalar va ularning ta’lim sifatini ta’minlashdagi roli

F.To‘rabekov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası professori

Kirish

Ta’lim standartlari bo‘yicha texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha olib boriladi. Universitetlar asosiy ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar va shuning uchun kelajakdagi texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash uchun o‘quv dasturlarida raqamli texnologiyalar sohasida o‘qitish turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ta’lim asosi matematik va tabiiy fanlar siklining asosiy qismida bakalavr o‘quv dasturlari tarkibiga kirgan “Axborot texnologiyalari” fani bo‘lishi mumkin. Ushbu fanni o‘rganish natijasida talaba: ta’limda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi; zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim faoliyatida qo‘llay olishi va dasturiy

mahsulotlar va ulardan kasbiy vazifalarni hal qilishda foydalanish istiqbollarini baholay olishi kerak; o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish uchun dasturiy vositalarga ega bo'lishi lozim.

Shunga o'xshash predmet ta'lim satndartiga magistr darajasini tayyorlash yo'nalishi bo'yicha kiritilgan. "Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari" fanini o'zlashtirish natijasida talaba: kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarining asosiy turlarini bilishi; zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv amaliyotida qo'llay olishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish, ularni raqamlashtirilgan ta'lim muhitida rivojlantirish, raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli kabi muammolar bo'yicha A.R. Xodjabaev, N.Sh. Shodiev, X.I. Ibragimov, Sh.S. Sharipov, O. Abduquddusov, E.T. Choriev, J. Hamidov, O. Qo'ysinovlar va boshqa ko'plab vatanimiz olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyati, texnologik salohiyati, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati va rolini tahlil qiladi.

Texnologiya darslarining sifatini oshirishda raqamli texnologiyalar tarkibini tahlil qilish usullari, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan foydalanish bo'yicha ilmiy umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha bo'lajak texnologiya o'qituvchilari bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi dunyoni raqamli texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin, insonning jamiyatda samarali va muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart – bu axborot madaniyatini shakllantirishdir. Xuddi shu madaniyatning asosi: axborot oqimlarini boshqarish qobiliyati va ko'nikmalari, axborot muhiti, uning ishlash qonuniyatlari haqidagi bilimlar, asosli qarorlar qabul qilish, ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish va filtrlash uchun uni tezda qayta ishlash va ishlatish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi raqamli texnologiyalari hisoblanadi.

Oliy ta'lim sifatini oshirish yangi o'qitish usullari va vositalaridan foydalanish bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan o'qituvchilar va olimlar universitetlarning o'quv jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar va tajribalarni tobora ko'proq boshladilar.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik manbalarda raqamli texnologiya resurslarining yuqori salohiyatiga e'tibor qaratilgan va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ta'limda raqamli texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shartlari ochib berilgan.

Ta'kidlanishicha, zamonaviy texnologiya o'qituvchisini kasbiy tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish har tomonlama va

integratsiyalashgan bo'lishi, butun o'quv kursini qamrab olishi va turli fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi kerak.

Raqamli texnologiyalarning didaktik xususiyatlarini aniqlash uchun M.P. Lapchik quyidagilarga ishora qiladi:

real va virtual ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar haqidagi o'quv ma'lumotlarini kompyuterda vizualizatsiya qilish va kompyuterda modellashtirish; katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ularga mobil kirishni ta'minlash; ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish;

hisoblash jarayonlari va axborot qidirish faoliyatini avtomatlashtirish;

o'quv faoliyatini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va o'quv materialini o'zlashtirishni nazorat qilish [2].

Eksperimental ravishda ma'lum bo'lishicha, bir daqiqada materialni og'zaki bayon qilish bilan tinglovchi mingta an'anaviy birlik ma'lumotni idrok etadi va qayta ishlashga qodir, ko'rish organlarining "bog'lanishi" bilan esa 100 minggaacha. Shuning uchun o'qitishda raqamli vositalaridan foydalanishning yuqori samaradorligi shundaki, uning asosi materialni vizual va eshitish orqali idrok etishdir.

Shu nuqtai nazardan, masalan, videomagnitafon va Slayd-shoudan foydalanishni o'z ichiga olgan har qanday taqdimotni raqamli deb hisoblash mumkin. Raqamli texnologiyalari kompyuterga CD-ROM, DVD yoki internet orqali yoki raqamli audio va video, grafik va matnli ma'lumotlarni interaktiv va kompleks yetkazib berishni qo'llab-quvvatlaydigan mobil telefonlar va shaxsiy raqamli yordamchilar kabi boshqa qurilmalarda yetkazib berilishi mumkin.

Talabalarni tayyorlashda ishlatilishi kerak bo'lgan raqamli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyati (ibtidoiy shakllardan farqli o'laroq) foydalanuvchi bilan yaqin aloqada bo'lish qobiliyatidir. Aslida, biz kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ikkita sohasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Universitet ichida: bu ma'ruzalar, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va hokazolarga bevosita hissa qo'shadigan barcha vositalarga tegishli. Bu yerda biz video va audio vositalardan, shaxsiy kompyuterlardan va boshqa asbob-uskunalaridan (yuqorida aytib o'tilganidek) talaba va tegishli jihozlarning yaqin o'zaro ta'siridan foydalanishni va buning uchun maqbul axborot makonini yaratishni nazarda tutamiz.

2. Ta'lim muassasasidan tashqarida: bu internet, suhbat xonalari, yangiliklar guruhi forumlari, uzoq masofali materiallar almashinuvi va boshqalar kabi aloqa texnologiyalariga taalluqlidir. Ushbu vositalarning kuchi bilimlarni samarali uzatish uchun o'zaro ta'sir qilish va hamkorlik qilish qobiliyatidadir, bunda masofaviy ta'lim ham mavjud bo'ladi. Ilgari o'qitish odatda o'zaro muloqot qilish uchun o'qituvchi va talabalarining bir vaqtning o'zida birga bo'lishini talab qilgan bo'lsa, endi ushbu texnologiyalar tufayli uzoq masofalarga dars berish mumkin.

Ta'lim muhitidagi raqamli dasturlar masalasi, shuningdek, talabalarining xulq-atvori bilan bog'liq ikkita asosiy dastur guruhini ajratishni o'z ichiga oladi: passiv yoki interaktiv. Birinchi guruh – bu o'qituvchilar oddiygina o'quv materialini

tushuntirish kuchini oshirish uchun foydalanadigan vositalar: video, ovoz, tasvirlar, grafikalar va boshqalar. Bunday holda, talabalar raqamli vositalar bilan o'zaro aloqada bo'lmaydilar, ya'ni darsda taqdim etilgan ma'lumotlarning hozirgi mazmuni o'quvchilarning xatti-harakatlariga qarab o'zgarmaydi.

Interfaol raqamli vositalari mavjud tarkibni talabalarning xatti-harakatlariga qarab o'zgartirishi mumkin: talabalar tarkibni o'z qiziqishlari, darajalari yoki unga yuklangan vazifaga qarab o'zgartiradi. Interfaol raqamli texnologiyalari vositalaridan tovushlar, videolar va matnlar kabi passiv vositalar singari foydalaniladi, ammo ular maxsus vazifalarni ham olishlari mumkin: yozib olish, qayta yozish, shakllarni o'zgartirish va h.k..

The intersection of academic freedom and inclusive education also reshapes the concept of educational leadership. Effective leaders are those who promote a culture of trust, dialogue, and shared responsibility. Instead of enforcing rigid compliance, they nurture an environment where diversity of thought and background is valued as a source of institutional strength. Such leadership transforms inclusion from a policy statement into a lived institutional identity, supported by an ecosystem of academic liberty, empathy, and innovation.

In conclusion, the pursuit of inclusive education cannot be separated from the protection of academic freedom. Both principles represent essential dimensions of human dignity and intellectual democracy. Academic freedom gives educators the courage to question established norms and the creativity to design inclusive learning experiences that reflect the complexity of real-world diversity. Inclusive education, in turn, provides the moral and social framework that gives meaning to freedom — by ensuring that all learners have the opportunity to participate, contribute, and succeed. Together, they form the intellectual and ethical foundation

of the future education system — one that is open, just, innovative, and profoundly human.

References

1. UNESCO (2022). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris.
2. Altbach, P. G., & De Wit, H. (2021). *Academic Freedom, Inclusion, and Global Higher Education Reform*. *Journal of International Education Studies*, 14(3), 11–25.
3. Slee, R. (2018). *Inclusive Education Isn't Dead, It Just Smells Funny*. Routledge.
4. Ainscow, M. (2020). *Promoting Inclusion and Equity in Education: Lessons from International Research*. *Education Review*, 72(2), 131–147.
5. Marginson, S. (2023). *The Role of Academic Freedom in Democratic and Inclusive Knowledge Societies*. *Higher Education Quarterly*, 77(1), 65–84.

Integrating Academic Freedom and Artificial Intelligence in the Strategic Management of Bilingual Education

**Sh. Sultonova, independent researcher,
Tashkent State University of Economics**

In the rapidly transforming global educational landscape, academic freedom and artificial intelligence (AI) have emerged as two fundamental forces shaping the future of higher education management. Their interaction determines not only the ethical and intellectual climate of universities but also the quality, accessibility, and flexibility of bilingual education systems worldwide. As educational institutions increasingly adopt AI-driven solutions to optimize teaching, assessment, and administration, the challenge lies in maintaining the delicate balance between technological governance and the autonomy of academic inquiry.

Academic freedom has long been regarded as the cornerstone of higher education — a principle that safeguards the right of educators and researchers to explore ideas, challenge conventions, and contribute to the progress of knowledge without external interference. It ensures diversity of thought, promotes creativity, and upholds the integrity of scientific and educational processes. Yet, in the era of digital transformation, the emergence of intelligent algorithms, learning analytics, and automated decision-making introduces new forms of oversight that may unintentionally restrict this freedom. As AI becomes integrated into every level of the educational process, from language learning platforms to policy evaluation systems, educators and administrators must redefine how freedom and control coexist within institutional frameworks.

Bilingual education — by its very nature — demands flexibility, innovation, and cultural inclusiveness. It requires pedagogical models that accommodate both linguistic diversity and cognitive variation among learners. In this context, academic freedom provides teachers with the intellectual space to design context-

sensitive curricula, experiment with new methodologies, and address the cultural dimensions of language learning. However, as AI-based tools increasingly mediate communication, assessment, and translation, the human component of pedagogical decision-making risks being reduced to algorithmic optimization. This calls for a new form of academic leadership — one that integrates digital intelligence with ethical responsibility and human judgment.

Artificial intelligence offers remarkable opportunities for the development of bilingual education. Adaptive learning systems can personalize instruction based on students' progress, while natural language processing can enhance translation accuracy and speech recognition. Machine learning algorithms can predict learning difficulties and recommend individualized learning paths. However, the strategic management of these technologies must be guided by principles that protect academic freedom. When algorithms determine what is taught, how it is evaluated, or which linguistic models are prioritized, they may inadvertently impose limitations on the intellectual and cultural richness of bilingual education.

Therefore, the strategic management of AI in education should not be confined to technical implementation. It must include ethical frameworks that guarantee transparency, accountability, and academic autonomy. Universities and schools need governance structures where educators participate in decision-making regarding AI adoption, ensuring that technology serves pedagogical goals rather than dictating them. The development of institutional AI policies should involve cross-disciplinary collaboration between computer scientists, linguists, ethicists, and education managers to ensure the integrity of bilingual programs.

Another critical dimension of this synthesis is the professional development of educators. To integrate AI effectively while maintaining academic freedom, teachers must be digitally literate, critically aware, and capable of evaluating AI systems beyond their surface efficiency. Training programs should focus not only on technical skills but also on critical digital pedagogy — the ability to question, interpret, and guide technological processes in alignment with educational values. This approach transforms teachers from passive users of AI into active co-creators of intelligent learning ecosystems.

From the management perspective, balancing academic freedom and AI involves redefining institutional governance. Decision-making processes should remain decentralized enough to preserve autonomy while using AI tools for evidence-based planning. Performance metrics should not reduce academic work to numerical outputs but should reflect creativity, inclusion, and innovation. Furthermore, bilingual education management should emphasize ethical data use, ensuring that learner analytics are utilized to enhance learning, not to impose surveillance or control.

The integration of academic freedom with AI in bilingual education management also carries global implications. As societies become increasingly multilingual and digitally interconnected, universities and schools have the responsibility to nurture not only technical competence but also intercultural understanding and critical digital ethics. The goal is to ensure that AI serves as a facilitator of linguistic and intellectual diversity — enabling learners to engage

meaningfully in multiple languages, cultures, and disciplines. Academic freedom, in this context, becomes the guiding principle that safeguards the human essence of education amid technological progress.

In conclusion, the future of bilingual education depends on a dynamic synthesis between academic freedom and artificial intelligence. Educational management must evolve toward models that are both intelligent and humane — combining data-driven insights with ethical responsibility and academic autonomy. AI should empower educators, not replace them; it should expand the boundaries of knowledge, not narrow them. Only through such a balanced integration can bilingual education fulfill its mission of fostering global communication, intercultural empathy, and lifelong learning in an era defined by both intellectual freedom and digital intelligence.

References

1. Altbach, P. G. (2020). *Academic Freedom: Global Perspectives in the Digital Age*. Boston College Center for International Higher Education.
2. UNESCO (2023). *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-Makers*. Paris.
3. Zhao, Y., & Frank, K. (2022). “Artificial Intelligence in Language Learning: Balancing Innovation and Autonomy.” *Educational Technology Research and Development*, 70(4), 1532–1548.
4. Chen, H., & Li, M. (2021). *Ethical AI and Academic Governance in Multilingual Education*. Springer.
5. OECD (2024). *The Future of Teaching: Managing AI Integration in Education Systems*. Paris: OECD Publishing.

The Importance of Ensuring Academic Freedom in Teaching Economic Sciences

**B. Maksudov, PhD, interim associate professor,
Tashkent State University of Economics**

In the context of the ongoing modernization of higher education in Uzbekistan, academic freedom has become a central element in shaping an effective and innovative learning environment. According to the *New Uzbekistan Development Strategy 2030*, expanding the scope of academic autonomy is one of the main priorities for improving education quality and competitiveness.

Academic freedom implies more than the instructor’s right to teach freely. It also means students’ right to express independent opinions, conduct original research, and participate in open discussions. In the field of economics, where theories evolve constantly and global realities change rapidly, such freedom is crucial for developing analytical and creative thinking.

Economic education without academic freedom often turns into rote memorization, limiting students’ capacity for critical reasoning. Therefore, fostering an environment that encourages intellectual curiosity and open inquiry is

indispensable for forming competent economists who can respond effectively to market transformations and policy innovations.

Historically, the idea of academic freedom originated in 19th-century Germany, particularly through the works of Wilhelm von Humboldt and Immanuel Kant, who viewed universities as independent institutions of research and learning. Later, this concept was institutionalized in the United States and Western Europe, emphasizing autonomy in teaching, research, and governance.

According to UNESCO and OECD definitions, academic freedom encompasses:

- The right of scholars to determine the content and methods of instruction;
- The freedom to choose research topics and publish findings without censorship;
- The protection of academic opinions and freedom of expression within universities;
- The institutional independence of universities from external political or commercial influence.

Such freedom ensures the intellectual integrity of higher education and supports the continuous generation of knowledge in social and economic sciences.

Economics, as a discipline, thrives on critical debate, model testing, and data interpretation. Academic freedom empowers teachers to move beyond rigid curricula and to incorporate real-world problems, contemporary theories, and digital-era innovations into their teaching.

For instance, instructors can apply:

- **Case-based learning** using international market data;
- **Simulation and modeling exercises** to demonstrate policy outcomes;
- **Comparative analysis** of economic systems and reforms;
- **Student-led research projects** that encourage independent exploration.

Such freedom encourages creativity and engagement. Students not only memorize models (Keynesian, Neoclassical, Behavioral, etc.) but also evaluate their applicability to current contexts such as the digital economy, green transition, and inclusive growth.

Moreover, academic freedom develops critical skills such as:

- Analytical thinking and problem-solving;
- Evidence-based reasoning;
- Ethical judgment in economic decision-making;
- Entrepreneurial and innovative mindset.

Uzbekistan has made tangible progress in reforming its higher education system. The *Concept for the Development of Higher Education until 2030* introduced academic and financial autonomy for universities, enabling them to design curricula, select disciplines, and establish international partnerships.

However, several challenges remain:

- **Centralized governance** and limited flexibility in academic planning;
- **Underdeveloped culture of research independence** among faculty;
- **Administrative pressure** and excessive reporting requirements that restrict creativity;

• **Insufficient funding** for independent research and international collaboration.

To overcome these barriers, the following measures are proposed:

1. Adoption of a “**University Academic Freedom Charter**” guaranteeing legal protection of academic rights.

2. Establishment of **competitive research grants** for students and young scholars.

3. Introduction of **performance indicators** that assess the quality of research, not merely quantity.

4. Expansion of **international academic mobility programs** to strengthen global collaboration and cross-cultural exchange.

Such reforms would not only enhance academic integrity but also foster a more vibrant intellectual environment within economic faculties.

Empirical analysis and comparative observation reveal that universities with strong academic freedom consistently outperform others in research productivity, innovation, and student engagement.

For example:

• **Finland** emphasizes teacher autonomy and creative pedagogy, leading to high global rankings in economic literacy.

• **South Korea** combines academic freedom with technology-driven education, fostering strong links between research and entrepreneurship.

• **The United States** maintains decentralized governance structures that encourage multidisciplinary research and policy innovation.

Uzbekistan can draw lessons from these experiences by balancing autonomy with accountability. When teachers are trusted as professionals and students are empowered as co-creators of knowledge, educational outcomes improve significantly.

Academic freedom is not merely a privilege but a **strategic necessity** for advancing economic education. It enables the continuous renewal of curricula, the adoption of innovative teaching methods, and the cultivation of a new generation of independent thinkers.

Ensuring academic freedom requires institutional trust, ethical responsibility, and mutual respect between educators, students, and administrators. When these principles are embedded in the governance of universities, they lead to intellectual diversity, creativity, and higher social impact.

Ultimately, academic freedom serves as the cornerstone of a knowledge-based economy — one that values critical inquiry, innovation, and open dialogue as key drivers of sustainable national development.

References

1. Humboldt, W. (1810). *On the Internal and External Organization of the Higher Scientific Institutions in Berlin*.

2. OECD (2023). *Academic Freedom and Higher Education Policy Report*. Paris: OECD Publishing.

3. UNESCO (2021). *World Higher Education Report: Towards 2030*. Paris.
4. Kayumov, A., & Imomov, I. (2024). "Scientific Independence and Academic Freedom in Uzbekistan's Higher Education System." *TSUE Scientific Bulletin*.
5. Bakhromov, B. (2022). *Innovative Approaches in Economics Education in Uzbekistan*. Tashkent: TSUE Press.
6. Altbach, P. (2020). *Academic Freedom: Global Challenges and Trends*. Springer.

**Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil
investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini ekonometrik modellar
asosida prognozlash ssenariylari**

**K.Xursandov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti**

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar oqimini ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ssenariylari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilishi natijasida bir qator iqtisodiy natijalarga erishildi. Jumladan, so'nggi yillarda mashinasozlik sanoati har bir davlatdagi milliy iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Jahon tajribasiga qaraydigan bo'lsak, sanoat sohasi bugungi kunda mamlakatni barqaror darajada rivojlanish tamoyillarini ta'minlashga, ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etilishiga va yashil investitsiyalarni jalb qilishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

Kelgusi 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar hajmini oshirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun eng muhim dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ilmiy tadqiqot ishimizda yashil investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini ekonometrik modellar yordamida prognozlash va turli ssenariylarini ishlab chiqdik.

Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatida yashil investitsiyalar quyidagi yo'nalishlarda keng miqyosda qo'llanilmoqda. Jumladan:


- energiya tejamkor mashinalarni ishlab chiqarish;
- chiqindilarni kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etish;
- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish;
- toza ishlab chiqarish tamoyillarini amaliyotga tatbiq qilish yo'nalishlarida yashil investitsiyalarni hajmi ortib bormoqda.

Tadqiqot ishida quyidagi modellar asosida 2030-yilgacha bo'lgan holatni prognozlari tahlil qilindi. Jumladan, ARIMA modelidan foydalanildi, mazkur model vaqt qatori asosida investitsiya oqimlarini bashorat qilish imkonini beradi. Ikkinchi modelimiz VAR modeli bo'lib, bir nechta o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni tahlil qiladi. Uchinchi model ARDL modeli bo'lib, qisqa

va uzoq muddatli bog‘liqliklarni baholash imkonini beradi. Mazkur modellardan kelib chiqib, 2010–2024 yillar oralig‘ida mashinasozlik sanoatiga jalb qilingan yashil investitsiyalar ma’lumotlari tahlil qilindi va ularni o‘lchov birligi esa mln AQSh dollari hisobida olindi. Tadqiqot ishida 2010-yilda 1.2 mln AQSh dollar, 2012-yilda 1.95 mln AQSh dollar, 2014-yilda 3.1 mln AQSh dollar, 2016-yilda 4.95 mln AQSh dollar, 2018-yilda 7.85 mln AQSh dollar, 2020-yilda 11.95 mln AQSh dollar, 2022-yilda 15.95 mln AQSh dollar, 2024-yilda 20.0 mln AQSh dollar investitsiyalarni hajmi bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi.

2010-2030-yillar orasidagi yashil investitsiyalarni prognozi shakllantirilib, quyidagi 1-rasmda aks ettirildi.

1-rasm. 2010–2030-yillarda yashil investitsiyalar prognozi



Mazkur 1-rasmda keltirib o‘tilgan grafikdan ko‘rinadiki, Dinamik ssenariy barqaror o‘shishni ko‘rsatadi, Optimistik ssenariy esa qo‘shimcha rag‘batlar bilan yuqori o‘shishni beradi va oxirgi Pessimistik ssenariy esa pastroq darajada o‘shishni aks ettiradi. Natijada esa ssenariylarni eng optimalini aniqlash uchun esa quyidagi 2-rasmdagi grafikda ask etgan taqqolama ma’lumotlar orqali aniqlash mumkin.

2-rasm. 2030-yilda prognoz natijalari taqqoslanishi

bunda, Pessimistik ssenariy – 31.18 mln \$ (+55 %), Dinamik ssenariy esa – 39.00 mln \$ (+95 %) hamda Optimistik ssenariy – 46.80 mln \$ (+135 %) o‘shish imkoniyatiga erishadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tadqiqot ishiga ko‘ra,

O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar oqimini ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ssenariylari asosida quyidagi natijaga erishiladi. Ya'ni 2010–2024 yillarda investitsiyalar hajmi 16 baravarga oshadi, ARIMA(1,2,1) modeli eng maqbul model bo'lib, 2030-yilga borib investitsiyalar hajmi 31–47 mln AQSH dollari oralig'ida bo'lishi mumkin. Dinamik ssenariysi (realistik) eng optimal ssenariy bo'lib, 39 mln AQSH dollariga oshib +95 foizni tashkil etadi. O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar oqimini ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini oshirish uchun Green bond va xalqaro moliya manbalarini kengaytirish, davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini kuchaytirish, energiya samaradorligi texnologiyalarini keng joriy qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda yashil texnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlash talab etiladi. Ushbu islohotlarni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida 2030-yilga borib esa yashil investitsiyalar hajmi 2 martadan ortiq o'sishiga erishiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida mashinasozlik tarmog'ini o'rni juda ham yuqori bo'lib, mashinasozlikni rivojlanishi mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga, hududlarni rivojlanishiga, yashil texnologiyalarni kirib kelishiga, elektrtomobillarni yangi turlarini yaratilishiga, yashil transport tizimini takomillashishiga va boshqa ko'plab iqtisodiyotni soha va tarmoqlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Mashinasozlik tarmog'ini rivojlantirish bosqichlari hozirgi kunda mamlakatimizda 2030-yilga qadar strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, 2026-2030 yillar orasida avtomobil ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish vazifasi belgilangan. Bundan ko'rinadiki, rivojlanish bosqichlari ham yillar kesimida aniq va strategik jihatdan hisobga olingan.

Mashinasozlik sanoati tarmog'ining tarkibi juda ham keng bo'lib, barchasini rivojlanishida zamon talabiga aylanib borayotgan yashil investitsiyalarni rivojlantirish eng yaxshi samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Chunki, hozirgi kunda yashil investitsiyasiz mashinasozlik sanoatini va boshqa turdagi sanoat korxonalarini rivojlantirib bo'lmaydi. Yashil investitsiyalar bu - xavfsiz ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalardir. Ulardan samarali foydalanish mashinasozlik sanoati tarkibidagi korxonalarni iqtisodiy samaradorligini oshishiga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon tajribasida yashil investitsiyalarni mashinasozlik sanoati korxonalariga tatbiq etilishi yangi imkoniyatlarni yaratilishini ta'minlab bermoqda. Jumladan, yashil investitsiyalarni jalb etilishi yashil texnologiyalarni, yashil budjet va yashil moliyalashtirish tizimini rivojlanishiga hamda qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmoqlariga ham yashil investitsiyalarni keng jalb etilishi mamlakatimizdagi ekologik barqarorlikni ta'minlashga hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuksalishiga zamin yaratib beradi.

O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar oqimini ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ssenariylari asosida quyidagi natijaga erishiladi. Ya'ni 2010–2024 yillarda investitsiyalar hajmi

16 baravarga oshadi, ARIMA(1,2,1) modeli eng maqbul model bo'lib, 2030-yilga borib investitsiyalar hajmi 31–47 mln AQSH dollari oralig'ida bo'lishi mumkin. Dinamik ssenariysi (realistik) eng optimal ssenariy bo'lib, 39 mln AQSH dollariga oshib +95 foizni tashkil etadi. O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida yashil investitsiyalar oqimini ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini oshirish uchun Green bond va xalqaro moliya manbalarini kengaytirish, davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini kuchaytirish, energiya samaradorligi texnologiyalarini keng joriy qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda yashil texnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlash talab etiladi. Ushbu islohotlarni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida O'zbekiston mashinasozlik sanoati tarmog'ida 2030-yilga borib esa yashil investitsiyalar hajmi 2 martadan ortiq o'sishiga erishiladi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy qarashlar

**M.Mamatov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dotsenti**

Mamlakatimizda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi milliy xo'jalikda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, uning mexanizmi va instrumentlarini ishlab chiqish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu xaqda **O'zbekiston Respubikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ham alohida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: “Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, budjet ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi”** [1]. O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotda raqamlashtirish, ijtimoiylashtirish, resursli va infratuzilmali rivojlanishda tengsizlik muammolarini keskinlashuvi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu milliy iqtisodiyot oldida turgan ichki va tashqi taxditlar bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Mamlakat o'z iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun masuliyati va javobgarligini hisobga olgan holda, yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy va mahalliy amaliyotda iqtisodiy xavfsizlik holatini baholash uchun iqtisodiy xavfsizlikning integral koeffitsientlari, shuningdek, alohida ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymatlari ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Davlat va jamiyatning iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun mamlakat rivojlanishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining chegaraviy qiymatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularga rioya qilmaslik iqtisodiyotda salbiy, buzg'unchi tendensiyalarning shakllanishiga olib keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy xavfsizlikning yuqori darajasiga barcha ko'rsatkichlar to'plami uning chegara qiymatlarining maqbul chegaralarida bo'lishi sharti bilan erishiladi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda eksport tarkibiga alohida e'tibor qaratib, tayyor mahsulotlarni ko'paytirish va foydali qazilmalar eksportini

kamaytirish kerak. Shuningdek, Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda to'lov balansi va mamlakat holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beriladi, ulardan 4 tasi asosiy ko'rsatkichlarga kiradi: tashqi qarz, davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarining ulushi, oltin-valyuta zaxiralari hajmi va tashqi qarz bo'yicha to'lovlarning yillik eksport hajmiga nisbati orqali baholanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi deganda har qanday tashqi va ichki beqarorlashtiruvchi omillar va xavflarni tahlil qilish va ularga tezkor javob berish, mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'lgan milliy iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanat pozitsiyasi tushunilishi kerak. Jahon miqyosida, shuningdek, mamlakatlar iqtisodiy barqaror rivojlanishi aholi ehtiyojlarini qondirishni kafolatlaydi.

Shunday qilib, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini shakllantirish iqtisodiy xavfsizlikni bir qator mezonlar bo'yicha har tomonlama baholamasdan turib ta'minlab bo'lmaydi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini barcha muhim belgilovchi xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini shakllantirish, davlatning xavfsiz rivojlanishiga erishish maqsadlarini aniqlashga yordam beradi va rivojlanishning keyingi, sifat jihatidan yangi bosqichiga olib keladi. Xavfsizlikni milliy manfaatlar prizmasidan o'tgan holda uning iqtisodiy salohiyatidan to'liq va oqilona foydalanish bilan tavsiflangan davlatni iqtisodiy rivojlanishining ma'lum bir holati sifatida belgilash mumkin.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Bularni hisobga olgan holda, J.Sh.Tuxtabaev iqtisodiy xavfsizlik nafaqat davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qiluvchi tashqi salbiy omillarni bartaraf etishga, balki ichki omillarni yumshatishga ham yo'naltirilishi kerakligini ta'kidlaydi[2]. Global iqtisodiy inqirozning dunyoning aksariyat mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'siri oqibatlari iqtisodiy xavfsizlikni tartibga soluvchi rolini oshirishni taqozo etadi. Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalar milliy iqtisodiy tizimda sezilarli institutsional deformasiyalarga olib keldi, bu esa asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va aholi turmush darajasining pasayishiga ta'sir qildi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya va muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflaydi, bozor tizimida xatar borligidan va bundan hatto milliy iqtisodiyot ham holi bo'lmasligini, undan saqlanish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezonlari – bu mamlakat ehtiyojlarining uzluksiz ta'minlanishi hisoblanadi, bu, birinchidan, imkoni boricha o'zini-o'zi mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlashni, ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo'lmagan tovar hamda xizmatlarni chetdan qulay narxlarda va uzluksiz imrort qilishni bildiradi. Iqtisodiyot ochiqqligi normal holat va ob'ektiv zaruriyatdir. Biroq, mamlakatning ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, bank tizimi va pul aylanishi kabi strategik sohalarni himoyalanganlik darajasini hisobga olgan holda ish ko'rish lozim. Ochiq iqtisodiyotga o'tish o'ta darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqozo etadi. Ammo davlatni jahon xo'jaligiga kirib borishi nuqtai nazaridan istiqbolli bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni himoya qilish, ya'ni selektiv proteksionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini,

import xomashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikasiyalash, ko'plab mamlakatlar bilan yomonlashgan munosabatlar o'rniga boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Davlatni iqtisodiy xavfsizligining mohiyati va mazmunini aniqlashga turli nuqtai nazar va yondashuvlarni tahlil qilish bizga "davlatning iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasiga mualliflik yondashuvinni ishlab chiqishga imkon berdi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi bu - yashil iqtisodiyot vositasida davlatni ichki va tashqi xavf va tahdidlardan himoyalanganligi, ijtimoiy – iqtisodiy, mulkiy, innovasion, oziq-ovqat, moliyaviy, kadrlar, ekologik, resurs boshqa turdagi xavfsizligini ta'minlanish holati bilan bog'liq uning iqtisodiy salohiyatining izchil rivojlanishini belgilaydigan va jamiyatning barcha a'zolarining turmush farovonligini barqaror o'sishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar deb ta'kidlab o'tish mumkin. Uning ob'ekti ma'lum tarixiy, geografik, etnik, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy chegaralarga ega bo'lgan davlat va uning mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bo'lishi mumkin. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning milliy manfaatlarining ichki va tashqi taxditlardan ishonchli tarzda himoyalangan holati hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, tizimli o'zini-o'zi tashkil etish nazariyasining asosiy qoidalarini qo'llash asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vositasi sifatida bizga, uning barqaror faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ifoda etuvchi, strategik maqsadlar va ustuvor yo'nalishlarga muvofiq rivojlantirish, aholining normal turmush shart-sharoitlarini ta'minlash, resurs salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiy sohada milliy manfaatlarni himoya qilishda ifoda etuvchi davlatni iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga hissa qo'shadigan instrumentlar to'plami va tizimning eng muhim sifat tavsifi sifatida baho berishga imkon beradi,

Ijtimoiy sohadagi tahditlarni davlatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

**M.Mamatov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dotsenti**

Ijtimoiy xavfsizlik ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni tadqiq etish jarayonida turli-tuman keng qamrovli qarama-qarshi nazariy yondashuvlar vujudga keladi. Ijtimoiy xavfsizlik masalalarini sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, iqtisodchilar va xuquqshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosida vujudga kelgan turli yondashuvlar asosida murakkab bo'lgan ijtimoiy xavfsizlik to'g'risida keng va to'la tassavur shakllandi. Ijtimoiy xavfsizlik shaxsni, oila va jamiyatning hayotiy zarur mafaatlarini ichki va tashqi xavf-hatardan himoya qilingan holati xisoblanadi. Uning ob'ekti davlat ijtimoiy siyosati tomonidan tartibga solinadigan mamlakatning ijtimoiy himoya qilish tizimi elementlari, aholining turmush darajasidan iborat.

Yashil iqtisodiyotda ijtimoiy xavfsizlik bu -shaxs, jamiyat va davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, resurs va boshqa tavsifdagi ichki va tashqi tahdidlar

majmuasidan himoyalanganlik holati bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy taxditlar orqali mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga ta’sir etadi. Ijtimoiy xavfsizlik taxditlari deganda kimlarningdir manfaatlariga zarar yetkazish mumkin bo‘lgan yuz berayotgan yoki potensial yuz berishi mumkin bo‘lgan voqea, xarakat yoki xodisalar tushuniladi.

Ijtimoiy standartlar jamiyatning munosib turmush darajasi va sifati, minimal davlat ijtimoiy kafolatlari, o‘rta va yuqori turmush standartiga erishishning qiymatlari to‘risidagi tasavvur xisoblanadi. Turmush darajasi va sifati ijtimoiy standartlari kambag‘allikni takror ishlab chiqarishni kamaytirish, aholining ijtimoiy xizmatlarga ega bo‘lishining konstitutsion ta’minlash, inson salohiyatini rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro tamoyillar va yondashuvlarga asoslanib ishlab chiqilishi va belgilanishi lozim. Ijtimoiy xavfsizlik va aholini himoya qilishning asosiy mezonini xavfsizlik darajasi xisoblanadi. Ijtimoiy xavfli jarayonlarni kuchaytirishni chegaraviy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- oziq-ovqat maxsulotlarini importdagi ulushi -30 % ;
- fanga sarflanadigan xarajatlarni YaIMdagi ulushi -2% ;
- aholini 10 % eng boy qismi daromadlarini 10 % eng kambag‘al aholi guruxi daromadlariga nisbati 10:1 ;
- kambag‘allik chegarasidan quyida yashovchi aholining umumiy sonidagi ulushi -10 %;
- minimal va o‘rtacha ish haqi nisbati 1:3 ;
- qoplash koeffitsienti pensiya miqdori o‘rtacha ish haqining 40,0%dan kam bo‘lmasligi kerak;
- qayd etilgan va yashirin ishsizlik darajasi 8-10 % ;
- kutilayotgan aholi yashashining davomiyligi va hokazo.

Yashil iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy rivojlanishning muhim omili va natijasi xisoblanadi. Tengsizlikning turli jihatlarini majmualari jihatdan tahlil etish lozim. Tengsizlikning past darajasi bozor iqtisodiyoti sharoitida bo‘lishi mumkin emas, chunki u rivojlanishni rag‘batlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan haddan tashqari tangsizlikni mavjudligi ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘lib xizmat qiladi va ma’lum holatlarda jamiyat barqarorligiga xavf tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun tengsizlikning optimal darajasi iqtisodiy o‘rtni rag‘batlantiradi.

Bu yashil iqtisodiyotda davlatning aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni kamaytirish va aholini tadbirkorlik faolligini oshirish bo‘yicha olib borgan chora-tadbirlari natijasi sifatida xamda 2024 yilga kelib birlamchi daromadlar – 70,0 %, o‘z-o‘zini band qilishdan daromad 35,0% ni tashkil qilib, mazkur ko‘rsatkichlar mehnat munosabatlari sohasidagi olib borilayotgan o‘zgarishlar natijasida deb hisoblash mumkin. 2024 yilga kelib aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 62,9 % i) shakllandi, hamda nominal o‘rtni sur’ati 2021 yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun

o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 7,8 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 3,3 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 26,0% ni tashkil qildi. Tadqiq etilayotgan davrda kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushining o'sishi esa mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishning eng muhim omili sifatida kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy kafolatlar yaratilganligidan deb baholash mumkin. Aholining kambag'al toifasi tezkor iqtisodiy o'sishdan foyda ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'libgina qolmay, jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati cheklanganligi tufayli rivojlanishga ham hissa qo'sha olmaydi. Bu aholining kambag'al toifasining miqdorini o'sishi mamlakatda iqtisodiy o'sishga katta taxdit sifatida baholash mumkin. Biroq, iqtisodiy islohotlar natijasi ko'pincha aholining turmush sharoitini yomonlashuvi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining beqarorligi bo'lib, bu insonlar ongida qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy himoyasizlik kabi salbiy jarayonlar ko'laminig kengayishiga sabab bo'lmoqda. Kam sonli boylar va kam ta'minlangan fuqarolar sonining ko'pligini ifoda etuvchi jamiyatning mulkiy jihatdan tabaqalanishi ijtimoiy sohada mamlakatning xavfsizligiga katta tahdid tug'diradi.

Ijtimoiy barqarorlik kambag'allar sonining qisqarib borishi bilan ham bog'liq. Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va tengsizlikni yumshatishning eng muhim instrumenti hisoblanadi.

Global ekologik, iqtisodiy xavf-hatarlar sharoitida O'zbekistonda aholini ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ijtimoiy himoya qilishning manzilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi turli ijtimoiy qatlamlarini stratifikasiya uslublari asosida tartibga solishning jaxon tajribasidan kelib chiqqan holda yashil iqtisodiyotda davlatning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha quyidagi ilmiy taklif va tavsiyalar taqdim etilgan:

- potensial ijtimoiy risk va havf-hatarlardan ogoh qilish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun o'rta sinfni shakllantirish va kuchaytirish maqsadida aholi daromadlarini tabaqalanish tendensiyalari va dinamikasini doimiy monitoring tizimini joriy etish lozim;

- yashil iqtisodiyotda aholi daromadlarini shakllanish uslubiyatini bandlik, harajatlar, jamg'arish, uzoq muddatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlash asosida takomillashtirish;

- mintaqalarni majmualari rivojlanishini ta'minlashda davlat budjetini optimal taqsimlash uchun aholi daromadlarini tabaqalanish darajasini xisobga olish lozim;

- yagona ijtimoiy reestrni ishlab chiqish, hatolar, takrorlash muammosini hal etish imkonini beradi;

•kam daromadli oilalar uchun oilaviy nafaqalarni birlashtirib yagona ijtimoiy nafaqaga aylantirish lozim.

Yagona ijtimoiy reestrni joriy etish orqali aholini ijtimoiy himoya qilishni mazilligini kuchaytirish ijtimoiy soha uchun sarflanadigan harajatlarni optimallashtirishni byudjetning ijtimoiy xarajatlarini qayta taqsimlash orqali keskin kuchaytirish lozim.

Xulosa sifatida Yashil iqtisodiyot uzoq muddatda ijtimoiy tenglik va farovonlikni kuchaytirish imkonini beradi, ammo o'tish davridagi ijtimoiy tahdidlarni (ish o'rinlari siljishi, energiya qashshoqligi, taqsimotdagi adolatsizlik muammolari, hududiy nomunatosibliklarni hisobga olgan holda adolatli transformasiya siyosatlarini joriy etish davlatning iqtisodiy xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu — mustahkam ijtimoiy himoya, qayta tayyorlash, kompensasiya mexanizmlari va hududiy qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlansa, yashil o'zgarishning ijtimoiy xavflari bartaraf etiladi va iqtisodiy xavfsizlikka ijobiy ta'sir kuchayadi. Shaxs manfaatlari va uning ijtimoiy xavfsizligiga tahdidlarga munosabatda insonning ruhiy holatini faollik, bag'rikenglik, chidamlilik kabi qobiliyat va sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotni joriy etish ijobiy ekologik va iqtisodiy natijalarni berishi bilan birga, ijtimoiy sohada murakkab vazifalarni ham yuzaga chiqaradi. Ularning oldini olish va kamaytirish uchun ilg'or ijtimoiy siyosatlar, qayta tayyorlash dasturlari va inklyuziv yondashuvlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2020 yil 29 dekabr.

6. Asatullaev X.S., Mamatov A.A., Jo'raev T.T.. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik). –T.: «TMI nashriyoti», 2023. B.124.

7. Abulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.: "Akademiya", 2012 - B.22.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzulgan.

Innovatsion rivojlanish sharoitida ta'lim tizimining strategik modernizatsiyasi va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari

**D.Turgunov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi**

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu — innovatsion rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish, ularni amaliyotga keng joriy etish hamda bu jarayonda ta'lim tizimining rolini kuchaytirishdan iboratdir. Innovatsiya bugungi globallashuv davrida har bir davlatning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaralmoqda. Shunga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotining barcha

tarmoqlarida, ayniqsa ta'lim sohasida, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylangan.

Ishlab chiqarish tarmoqlari iqtisodiyotning tayanch sohasi sifatida azaldan milliy rivojlanishning barometri bo'lib kelgan. Bu tarmoqlarda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishga erishiladi. Shu jarayonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning roli ayniqsa katta. Davlat ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari, grantlar, kreditlar va investitsion dasturlar orqali moliyaviy yordam mexanizmlarini yaratmoqda. Misol tariqasida, 2021-yil 29-yanvardagi 41-sonli Vazirlar Mahkamasi qarorida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

So'nggi yillarda innovatsion tanlovlar, startap loyihalar va grant dasturlari orqali yangi g'oyalar moliyalashtirilmoqda. Bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi muhim o'rin tutadi. Vazirlik tomonidan o'tkazilayotgan startap tanlovlar natijasida 2021-yilda jami qiymati 41,4 milliard so'mlik 56 ta loyiha moliyalashtirishga tavsiya etilgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 560 foizga oshgan bo'lib, mamlakatda innovatsion faollik keskin o'sib borayotganini ko'rsatadi.

2019–2022-yillar davomida startap tanlovlariga 2000 dan ortiq arizalar kelib tushgan, ulardan 155 tasi moliyalashtirilgan bo'lib, umumiy qiymati 104 milliard so'mni tashkil etgan. Ushbu loyihalar natijasida 1279 ta yangi ish o'rni yaratilgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkichlar yanada oshdi — mamlakatda 5026 ta tashkilot tomonidan 8294 ta innovatsion loyiha amalga oshirildi. 2024-yilda startap investitsiyalari hajmi 2023-yilga nisbatan qariyb uch baravar ko'payib, innovatsion muhitni rivojlantirishda yangi bosqich boshlab berdi.

Innovatsion rivojlanishning eng muhim asosi — bu inson kapitalidir. Inson kapitalining yuksalishi esa bevosita ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu sababli O'zbekistonda ta'lim tizimida ham innovatsion mexanizmlar joriy etilmoqda. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, masofaviy o'qitish platformalari, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari joriy etildi. Bu jarayon o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchi va talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodkorlikni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifati oshib, ilmiy-tadqiqot faoliyati faollashmoqda. 2018–2024-yillar oralig'ida ilmiy-tadqiqot muassasalari soni va ularning faoliyati hajmi sezilarli darajada kengaydi. Davlat byudjetidan ilm-fan va innovatsiyalar uchun ajratiladigan mablag' 2018-yilga nisbatan 3 baravar ortib, 1,5 trillion so'mga yetkazildi. Yosh olimlar soni 2018-yildagi 6,5 ming nafardan 2022-yilda 10,8 ming nafarga oshgan, bu esa ilmiy salohiyatning barqaror o'sayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, har yili o'tkaziladigan "Innoweek.uz" Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi ta'lim va fan sohalarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlash

uchun muhim maydonga aylandi. Bu tadbir orqali talabalarning ilmiy g'oyalarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyati kengaymoqda.

O'zbekiston hududlari bo'yicha innovatsion faollik darajasi turlicha. Eng faol hududlar sifatida Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon, Namangan, Buxoro va Samarqand viloyatlari ajralib turadi. Bu viloyatlarda ilmiy-texnik parklar, biznes-inkubatorlar, universitet qoshidagi startap markazlari faoliyat yuritmoqda. Innovatsion sust rivojlanayotgan hududlar esa — Xorazm, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lib, bu hududlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim tizimi bu farqlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki har bir hududda zamonaviy oliy ta'lim muassasalari, texnikumlar va ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirish orqali innovatsion salohiyatni oshirish mumkin. Hududiy universitetlarda "ilm-fan – ta'lim – ishlab chiqarish" integratsiyasi asosida amaliy startaplar yaratilmoqda. Natijada, yoshlarning ilmiy salohiyati oshmoqda, innovatsion tafakkur shakllanmoqda va yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta'lim tizimi ham shu yo'nalishda transformatsiyalanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron ta'lim tizimlari, onlayn test platformalari, virtual laboratoriyalar joriy etilmoqda. Bu innovatsion yechimlar nafaqat o'qitish jarayonini optimallashtiradi, balki har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlaydi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar davlat tomonidan kuchli moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, Janubiy Koreya, Singapur, Finlyandiya, AQSh kabi davlatlarda ilm-fan va ta'limga ajratiladigan byudjet umumiy YAIMning 3–5 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu ko'rsatkich bosqichma-bosqich oshib bormoqda. 2024-yilda davlat byudjetidan ajratilgan ilmiy va innovatsion mablag'lar hajmi 2,5 baravar ko'paydi.

O'zbekistonning Global innovatsion indeksdagi o'rnini 2015-yilga nisbatan 36 pog'onaga ko'tarilgan. Bu esa innovatsion muhitning yaxshilanayotganini, ta'lim va ilm-fanning iqtisodiyotga ta'siri kuchayganini ko'rsatadi. Innovatsion jamg'armalar, ventur kapital tashkilotlari va davlat grantlari tizimi orqali yosh tadqiqotchilar, talaba-startaplar va o'qituvchilar yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish imkoniga ega bo'lishmoqda.

Kelgusida bu jarayonlarni yanada kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqaror mexanizmlarini joriy etish;
- Universitetlarda startap va texnopark infratuzilmasini kengaytirish;
- Ilmiy izlanishlar uchun xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish;
- Innovatsion loyihalarning natijalarini ishlab chiqarish amaliyotiga integratsiyalash;

- Yoshlar va talabalarni innovatsion tafakkurga o'rgatish, ular uchun grant va stipendiyalar sonini ko'paytirish.

Umuman olganda, ta'lim tizimi innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri sifatida O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro tajribalarni o'zlashtirish orqali mamlakatda barqaror ilmiy-ekonomik ekotizim shakllanmoqda. Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlari chuqurlashib, yoshlarning ijodkorligi va innovatsion salohiyati yuksalmoqda.

Natijada, ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish nafaqat kadrlar tayyorlash sifatini oshirmoqda, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda. Shunday qilib, innovatsion yondashuvlarni moliyaviy jihatdan mustahkamlash va ularni ta'lim tizimi orqali jamiyat hayotiga keng tatbiq etish O'zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

The Evolution from Feudal Structures to Capitalist Economies and Its Relevance Today

**Sh.Sherkulov, PhD in Economics Theory
Tashkent State University of Economics**

**A.Alisherov,
Student of Tashkent state university of economics**

The transition from feudalism to capitalism stands as the central epochal shift in Western history, a prolonged structural metamorphosis spanning from the 14th to the 18th century. Feudalism, characterized by decentralized political authority, an agrarian economy based on the manorial system, and the non-market extraction of surplus from a dependent peasantry, constituted the foundational social organization of medieval Europe. The decline of this order gave rise to capitalism, a system defined by its unique economic compulsions: production organized for market exchange, the constant need for technological innovation and productivity growth, and the separation of the direct producers from the means of production, leading to the establishment of free wage labor. This process, often termed the "Great Transformation" by Karl Polanyi (1944), remains arguably the most contested subject in economic history and social theory, with scholars fiercely debating its primary moving forces and geographical origins.

The debate hinges on a core historiographical challenge: identifying the determinant structural factor that broke the logic of non-market feudal relations and imposed the systematic logic of market dependence. The explanatory hypotheses can be broadly categorized into three dominant theoretical paradigms: the Commercial Model, which emphasizes the role of trade and urbanization; the Demographic Model, which focuses on population cycles and crises; and the Class-Relational Model, which prioritizes the inherent contradictions within feudalism and the outcomes of class struggle over property rights.

This article provides a comprehensive and critical historiographical analysis of these three major theoretical paradigms. By moving beyond a simple delineation of each model, this study will critically evaluate their explanatory power against empirical historical data, particularly focusing on the divergent developmental paths observed across Europe. The central argument posits that no single, monocausal factor—be it trade or population—is sufficient to explain the transition. Instead, the emergence of capitalism was a highly contingent, multicausal process where pre-existing and historically specific social property relations mediated the effects of external shocks (such as market expansion and demographic collapse), ultimately determining whether a region transitioned toward self-sustaining capitalist growth or merely reinforced existing feudal structures.

The transition from feudalism to capitalism was not a teleological process but a contingent and regionally diverse process rooted in the political struggle over the ownership and control of land.

The Commercial and Demographic crises of the late medieval period (trade expansion and the Black Death) provided the external shocks that destabilized the feudal order, making change necessary. However, the form of the replacement system—capitalist, renewed feudal, or petty commodity production—was determined by the capacity of the ruling class to enforce a specific structure of property rights. Only where the aristocracy successfully eliminated customary peasant rights and established purely economic leases, as in England, did the revolutionary social property relations necessary for self-sustaining capitalist development emerge.

Further research must fully integrate the role of early colonial exploitation and the accumulation of wealth from the periphery (as noted by Wallerstein) into the Class-Relational framework, specifically analyzing how colonial profits may have bolstered the political power of the emerging capitalist class in the core. The full historical weight of the Great Transformation requires acknowledging the complex interplay between demographic disaster, commercial opportunity, and the decisive outcome of class conflict over the land.

Iqtisodiyot va ekologiya: barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi

**A.Zokirjonov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs I-67 guruh talabasi**

Iqtisodiy barqaror rivojlanishda ekologik holat asosiy masala hisoblanib, atrof - muhitning deqregatsiyasi tabiiy resurslar tanqisligiga ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga hamda ijtimoiy - iqtisodiy holatning tushishiga olib keladi. Ekologik yondashuv asosida shakllangan iqtisodiy faoliyat tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. “XX asrning katta qismida hukmron bo‘lgan iqtisodiy model tezkor industrializatsiya va urbanizatsiyani rag‘batlantirgan. Ushbu model ishlab chiqarish hajmini va iste’molni maksimal darajada oshirishga qaratilgan bo‘lib, ko‘pincha ishlab chiqarishning ortishi va

resurslarni qazib olish bilan bog‘liq ekologik xarajatlarni e‘tibordan chetda qoldirgan. Natijada, qazilma yoqilg‘ilardan foydalanish, o‘rmonlarning kesilishi va sanoat ifloslanishi bu o‘shish jarayonining ajralmas oqibatlariga aylangan hamda ekotizimlarning yemirilishi va tabiiy resurslarning tugab borishiga olib kelgan”. [1] Resurslarni qayta tiklanmasligini inobatga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish kelajak avlod manfaatlarini himoya qilishga ko‘mak beradi.

Ekologik omillar aholi ya‘ni ishchi kuchining sog‘lig‘iga va mehnat samaradorligiga o‘z - o‘zidan kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Sog‘lom ekologik muhit inson kapitalining sifat darajasini oshiradi. Bu esa mamlakatda ijtimoiy faravonligini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Qolaversa ekologik muhitning barqaror bo‘lishi faqatgina ishlab turgan sohaning o‘zigagina e‘tibor va mablag‘ sarflash orqali barcha sohalarning rivojlanish potensialini oshirishga yo‘l beradi. Bu esa mamlakatga xorijiy investorlarning iqtisodiy integratsiya jarayonini tezlashtirishga imkon beradi. Mamlakatdagi ekologiyani asrash to‘g‘risidagi cheklovlar, qonunlar va tashviqot ishlari ichki sanoat sohasida samaradorligi yuqori va ekologik jihatdan zarari kam ishlab chiqarish jarayonlarini va yangi texnologiyalarni tashkil etishga turtki bo‘ladi. Bilamizki, mamlakatimizda energiya manbalarining katta qismini, ko‘mir yoqish orqali undan chiqqan issiqlikdan foydalangan holda olinadi. Bu esa davlatdan katta miqdorda kapital, tabiiy resurs talab qiladi. Shu bilan bir qatorda undan chiqayotgan zararli gazlar hozirda global issiqlikning oshib ketishiga sabab bo‘layotgan metan gasning atmosferada oshib ketishiga sababchi bo‘ladi. “Yashil iqtisodiyot”ni qo‘llab-quvatlagan holda energiya tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni tashkil etilishi, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari ilmiy taraqqiyotning yangi bosqichiga yo‘l ochadi va o‘z navbatida mamlakatning energetik jihatdan iste‘molini yetarli darajada qondirishga, qo‘shimchasiga davlat xarajatlarining keskin kamayishiga olib keladi.

“Iqtisodiy o‘shish va ekologik barqarorlik bir-biriga zid tushunchalar bo‘lishi shart emas. An‘anaviy o‘shish modeli ko‘pincha atrof-muhitning buzilishiga olib kelgan bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish, “yashil texnologiyalar” va “aylanma iqtisodiyot” kabi yangi yondashuvlar sayyoraga zarar yetkazmasdan iqtisodiy farovonlikka erishish mumkinligini isbotlamoqda.” [2]

Bundan tashqari, ekologik barqarorlik nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarida, balki iste‘mol madaniyatida ham shakllangan bo‘lishi kerak. Chunki aholining atrof-muhitga mas‘uliyat bilan yondashuvi, resurslarni tejashga bo‘lgan intilishi va chiqindilarni kamaytirish odatlarini shakllantirish ekologik barqarorlikni oshirishga yordam beradi. “Insonlarning tabiatga nisbatan ijobiy xatti-harakatlari iqtisodiy asoslangan baholashlar orqali rag‘batlantirilishi, aksincha, salbiy harakatlar esa jazolanishi lozim”. [3] Shu tarzda, ekologiya va iqtisodiyotning uyg‘un rivojlanishi jamiyatning umumiy farovonligini ta‘minlaydi va kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ekologiya va iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosi hisoblanadi. Ekologik muvozanatni ta‘minlash; tabiiy resurslardan intensive tarzda

foydalanish, yashil energiya manbalarini ochish, qayta ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy jihatdan mamlakat budjetining ortiqcha sarflanishini oldini olsa, ekologik jihatdan kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik xavflardan saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chambers, D., & Guo, J. T. (2009). Natural resources and economic growth: Some theory and evidence. *Annals of Economics and Finance*, 10(2), 367-389.
2. Economic Growth and Its Environmental Impact: Can They Coexist? // *Academy of Accounting and Financial Studies Journal*, 2024. — [Elektron resurs]. — <https://www.abacademies.org/articles/economic-growth-and-its-environmental-impact-can-they-coexist-17534.html>
3. Saydullayev A. Green economy: is it a path to sustainable economic growth for Uzbekistan? // *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*. – Vol. 15. – April, 2023. – P. 129–136. – ISSN (E): 2754-9291. – Samarkand branch of Tashkent State University of Economics. – [Elektron resurs]. – <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/304>

Mobil aloqa kompaniyalar uchun aksiz solig'i bekor qilinishi tarif narxlariga ta'sirini iqtisodiy baholash

**Sh.Qadamboyev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi**

Aksiz solig'i davlat daromadlari manbai sifatida davlat byudjeti daromadlari shakllanishda muhim ro'l o'ynaydi. Umuman olganda bugungi kunda aksiz solig'i barcha mamlakatlarda davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda va bozorlarda nosozliklarni bartaraf etishda qo'llaniladi. Moliyaviy funktsiya aksiz solig'ining asosiy va eng muhim funktsiyalaran hisoblanib, davlat byudjetini shakllantirishda barqaror daromad bilan ta'minlaydi. Joriy yildan O'zbekistonda 2019-yilda joriy etilgan mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bekor qilindi. Bu haqda prezident raisligida tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha joriy yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilga mo'ljallangan asosiy rejalar yakunlari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda ma'lum qilindi. Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i 2019-yilda 15% miqdorida joriy etilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov miqdori oyiga 2000 so'mgacha pasaytirilgan. 2020-yilda u 20 foizga oshirildi. Keyinchalik aksiz solig'i 2023-yilda bekor qilinishi aytildi biroq bunday bo'lmadi, ya'ni aytib o'tganimizdek dastlab 15% keyin 20% ga oshiriladi keyinchalik 2024 – yilda 10% qilib belgilandi. Nihoyat 2023- yilda bekor qilinishi aytilgan aksiz solig'i 2025 – yil 1- yanvarga kelib bekor qilinadi, mobil aloqa uchun aksiz solig'ini bekor qilish bandi 2025-yilga mo'ljallangan budjetnomada qayd etilgan edi. Budjet to'g'risidagi qonun loyihasi Senat tomonidan 18-dekabr kuni ma'qullandi. Davlat byudjetida katta iqtisodiy ahamiyatga ega va byudjetni barqaror iqtisodiy daromad

bilan ta'minlab turuvchi mobil aloqa vositalari uchun aksiz solig'ini belor qilinishi O'zbekiston byudjetini kamida 1,2 trln so'mga yaqin daromaddan quruq qoldirmoqda. Bu daromadlar ko'plab sohalrga sarflanishi mumkin misol uchun 1,2 trln so'm o'rtacha 50 ta maktab qurilishini ta'minlanishi mumkin edi. Bundan tashqari, Aksiz solig'i davlat byudjetiga qo'shimcha daromad keltiradi. Bu mablag'lar umumiy davlat xarajatlarini moliyalashtirishga, shuningdek, infratuzilma loyihalarini, ta'limni, xavfsizlikni va boshqa jamoat xizmatlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi. Ba'zi hollarda, aksiz solig'i ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun sarflanadi. Misol uchun, avtomobillardan olinadigan aksiz solig'idan atrof-muhitni himoya qilish va ifloslanishni kamaytirish bo'yicha dasturlarni moliyalashtirish mumkin edi. Aksiz solig'ining mobil aloqa xizmatlariga joriy qilinishi bir qator ta'sirlarni keltirib chiqardi. Bularga quyidagi misollarni keltirsak b'ladi: **Narx oshishi:** Aksiz solig'i undirilganda, bu mobil aloqa xizmatlari narxining oshishiga olib sabab bo'ldi. Masalan, mobil internet yoki qo'ng'iroqlar narxi aksiz solig'idan ta'sirlanib, foydalanuvchilarga yanada qimmatga tusha boshlagandi. **Raqobat va bozorning qisqarishi:** Soliqning ko'payishi kichik va o'rta mobil aloqa kompaniyalarining raqobatbardoshligini kamaytirdi. Ular aksiz solig'ining qo'llanilishi natijasida narxlarni oshirishiga olib keldi, bu esa ularni bozorning asosiy o'yinchilari bilan raqobatlashishda qiyinchiliklarga olib keldi. Bunday o'zgarishlar, shuningdek, yangi texnologiyalarga kirish uchun qo'shimcha to'lovlar va xarajatlar yuzaga keltirdi. **Foydalanuvchilarni moliyaviy yukning oshishi:** Aksiz solig'i mobil aloqa xizmatlarining narxiga kiritilganligi sababli, foydalanuvchilar uchun xizmatlar yanada qimmatga tushishi mumkin. Bu, ayniqsa, past daromadli aholiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, soliqning qo'llanilishi ba'zi foydalanuvchilarni mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishdan voz kechishga ham olib kelgandi. Shunday qilib yuqorida aytib o'tilgan bir nechta muammolarga olib kelayotgan mobil aloqa kompaniyalar uchun 2025-yilga kelib aksiz solig'i bekor qilindi. Hop soliq bekor qilinishi iqtisodiy jihatdan qanday imkoniyatlar yaratdi, ya'ni mobil aloqa xizmatlarining iste'molchilar uchun narxlarnig arzonlashishi, xizmat sifaning yaxshilanishi yoki iqtisodiy tilda aytganda avvalgi oligapoliya tizimini yo'q bolishi misol uchun kichik va o'rta mobil aloqa kompaniyalari ham raqobatlashaolyaptilarmi va shunga o'xshagan imkoniyatlarga yo'l ochildimi. Yangi yilning birinchi oyidan boshlab mobil aloqa kompaniyalari birin-ketin tariflarini oshirib olishni boshlashdi. Tariflarni oshirib olish metodikasi o'zgarmagan, foydalanuvchilarning ko'pchiligi ishlatmaydigan yoki ishlatishga ulgurmaydigan GB yoki sms lar ko'paytirildi. Bundan tashqari istemolchilar uchun pullik sms xabarnomalar ham bir necha marotaba qimmatashtirilmoqda. Garchi kompaniyalarga ko'plab imtiyozlar berilganda ham narxlar qimmatlashishiga olib keldi, shunday vaziyatda barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiyotda bir nechta nazariyalar mavjud misol uchun Ingliz iqtisodchisi **John Maynard Keynes** Keynschilik nazariyasiga asos solidi. Keynschilik — iqtisodiyot nazariyasidagi yetakchi yo'nalishlardan biri, jamiyat hayotida bir qator makroiqtisodiy hodisalarning o'zaro ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish asosida bozor xo'jaligi faoliyati mexanizmlarini sharhlaydi va davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi

amaliyotini asoslab beradi. 20-asrning boshlariga kelib iqtisodiyotning beqarorligini bartaraf etish, chuqur iqtisodiy tangliklardan chiqish yo'llarini izlash tarzida maydonga keldi. Bu davrga kelib klassik siyosiy iqtisod maktablari va ulardan keyingi iqtisodchilarning bozorning to'la samaradorligi va o'z-o'zini tartibga solish g'oyalari amalda to'la o'z tasdig'ini topmadi. Keynschilikning asosiy g'oyasi — bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi nomukammal, shu sababli istemolchilar uchun bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashda umuman olganda iqtisodiy o'sishni ayrim vaziyatlarda davlat aralashuvi orqali barqaror holatga keltirish mumkinligini takidlaydi.

Hozirgi narxlar oshishi ham keynschilik nazariyasini qo'llanishini ya'ni raqobatni muhofaza qiliuvchi institutlar orqali nazorat qilinishi kerak. Misol uchun O'zbekistonda raqobatni nazorat qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish qo'mitasining Monopoliyaga qarshi tartibga solish, narxlar, tariflarni nazorat qilish boshqarmasi mavjud.

Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan xo'jalik subyektlari yoki shaxslar guruhi tomonidan ishlab chiqarladigan (ko'rsatiladigan) tovarlar (xizmatlar) narxlari ustida monitoring olib borish. Narxlari davlat tomonidan tartibga solinadigan tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan xo'jalik subyektlari yoki shaxslar guruhi tomonidan ishlab chiqarladigan (ko'rsatiladigan) tovarlar narxlarini tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish hamda ularni qabul qilish maqsadga muvofiq emasligi bo'yicha takliflar tayyorlash; Ustun mavqeyini egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va tabiiy monopoliyaga oid subyektlarining tovarlariga (ishlariga, xizmatlariga) xarajatlarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish talab va vazifalar qo'yilgan. Biroq aksiz solig'ig'idan bekor qilinishi ham narxlar pasayishiga va boshqa kichik raqobatchi kompaniyalar rivojlanmayotgani yuqoridagi talablar bajarilishi ancha sust ekanligini ko'rsatyapti. Mobil aloqa xizmatlarining rivojlanishida xalqaro tajribalarga keladigan bo'lsak.

Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) — Birlashgan Millatlar Tashkilotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha ixtisoslashgan agentligi bo'lib, u butun dunyo bo'ylab raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan foydalanishni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. ITU mobil aloqa kompaniyalariga quyidagi sohalarida tavsiyalar beradi:

Standartlar ishlab chiqish: Mobil tarmoqlar va xizmatlarning global mosligini ta'minlash uchun texnik standartlarni ishlab chiqish.

Spektrni boshqarish: Mobil aloqa xizmatlari uchun radiochastota spektrini taqsimlash va boshqarish orqali samarali foydalanishni ta'minlash.

Xalqaro regulyatsiyalar: Mobil aloqa xizmatlari uchun xalqaro regulyatsiyalarni belgilash, ularni muvofiqlashtirish.

Raqamli inklyuziya: Mobil aloqa xizmatlari orqali raqamli bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli bo'linishni kamaytirish

Academic Freedom and Skill Development

O. Suvpulatov, teacher in Economics Theory
Tashkent State University of Economics

Academic freedom plays a vital role in nurturing the intellectual, emotional, and professional growth of students. It provides a framework within which learners can develop essential 21st-century competencies—critical thinking, creativity, communication, collaboration, and digital literacy—that determine their employability and career success. When universities and colleges allow both instructors and students to freely express opinions, challenge ideas, and explore alternative viewpoints, the learning environment becomes more dynamic, innovative, and aligned with real-world professional demands.

1. Encouraging Independent and Critical Thinking

Freedom in teaching and learning encourages students to think independently rather than simply memorize information. In an environment that promotes open inquiry, students analyze, compare, and evaluate diverse perspectives on economic, social, and ethical issues. This process strengthens their **analytical reasoning** and **decision-making** abilities—skills that employers prioritize in a competitive global job market. For instance, a student who debates controversial topics or conducts independent research develops the confidence to defend ideas and propose innovative solutions in the workplace.

2. Promoting Creativity and Innovation

Academic freedom allows both teachers and students to experiment with unconventional learning methods and creative projects. When students are encouraged to design new models, create digital tools, or apply interdisciplinary knowledge, they become innovators rather than passive learners. In fields like economics, business, and management, this creative autonomy translates into the ability to design new business strategies, marketing solutions, or sustainable development models.

Creativity born from academic freedom thus becomes a key **driver of entrepreneurship** and **technological progress**, directly linking higher education outcomes to economic growth and job creation.

3. Strengthening Communication and Collaboration Skills

Academic freedom also cultivates open communication and collaboration. In classrooms where students are free to question instructors and engage in dialogue, they learn to express their ideas clearly and respectfully. Group discussions, peer reviews, and collaborative research tasks foster **teamwork, negotiation, and leadership skills**, preparing graduates to work effectively in diverse professional settings.

Such collaborative learning models mirror the realities of modern organizations, where problem-solving often requires collective intelligence and cross-functional teamwork.

4. Building Research Competence and Lifelong Learning Habits

When students are encouraged to select research topics based on their interests and career goals, they develop deeper research competence and a stronger sense of ownership in their education. Academic freedom motivates students to pursue **independent inquiry**, use evidence-based reasoning, and continuously seek new knowledge. This mindset supports **lifelong learning**—a quality increasingly demanded in fast-changing labor markets where skills must be regularly updated. Graduates who have developed independent research habits can easily adapt to new technologies, emerging industries, and evolving job requirements.

5. Enhancing Ethical and Civic Responsibility

True academic freedom goes hand in hand with responsibility. It teaches students to use their freedom ethically—to respect differing opinions, avoid misinformation, and contribute positively to their communities. Employers value such integrity and civic awareness, as they are essential for building trustworthy and socially responsible organizations. Through open discussions about social justice, sustainability, and ethical dilemmas, academic freedom cultivates graduates who not only succeed professionally but also act as responsible global citizens.

6. Linking Academic Freedom to Employability

The development of these skills—critical thinking, creativity, communication, research, and ethics—forms the foundation of employability. In global and local labor markets, employers consistently emphasize **soft skills** alongside technical qualifications. Academic freedom enables universities to produce graduates who can **solve complex problems, think strategically, and adapt quickly** to change. Therefore, institutions that promote academic autonomy and innovation contribute not only to individual career success but also to the broader socio-economic development of the nation.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish strategiyasi: davlat va nodavlat sektor roli

**A.Kurbonaliyev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchi**

**S.Ishmamatova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi**

Kirish

Bugungi kunda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholining farovonligini oshirishda **moliyaviy savodxonlik** muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *“Har bir fuqaro moliyaviy masalalarda ongli qaror qabul qila oladigan darajada bilimli bo'lishi zarur”* (Mirziyoyev, 2022). Shu bois moliyaviy savodxonlikni oshirish strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Asosiy qism

1. Moliyaviy savodxonlik tushunchasi va uning ahamiyati

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning moliyaviy xizmatlardan ongli va samarali foydalanish, byudjetni boshqarish, jamg‘arma va investitsiya qarorlarini oqilona qabul qilish qobiliyatidir (OECD, 2023). O‘zbekiston sharoitida bu ko‘nikmalar aholining **moliyaviy inklyuziyasi, raqamli moliya tizimidan foydalanish** darajasini belgilovchi muhim omilga aylangan.

2. Davlat sektorining roli

Davlat moliyaviy savodxonlikni oshirishda quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi:

- **Normativ-huquqiy asoslarni yaratish:** “Moliyaviy savodxonlik konsepsiyasi” va Milliy strategiyalar ishlab chiqilishi (2021–2030).

- **Ta’lim tizimiga integratsiya qilish:** maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida “Moliyaviy madaniyat asoslari” fanini joriy etish.

- **Axborot platformalari orqali targ‘ibot:** Markaziy bank, Moliya vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan onlayn kurslar, interaktiv portal va mobil ilovalar ishlab chiqilishi.

- **Hududiy tenglikni ta’minlash:** moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirish orqali qishloq joylarda aholining savodxonligini oshirish.

3. Nodavlat sektorining roli

Nodavlat tashkilotlar, xususan **banklar, mikromoliya tashkilotlari, NNTlar, ta’lim markazlari** ham moliyaviy savodxonlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi:

- Tijorat banklari tomonidan **moliyaviy treninglar, seminarlar** tashkil etiladi.

- NNTlar tomonidan **ayollar, yoshlar va tadbirkorlar uchun amaliy dasturlar** yo‘lga qo‘yiladi.

- **Raqamli platformalar** (masalan, onlayn vebinarlar, bloglar, YouTube kanallar) orqali aholiga moliyaviy maslahatlar beriladi.

- Xalqaro tashkilotlar (World Bank, UNDP, ADB) bilan **hamkorlikda loyihalar** amalga oshirilmoqda.

4. Muammolar va takliflar

O‘zbekiston aholisi o‘rtasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish borasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Quyidagi jadvalda ushbu muammolar raqamli tahlil asosida keltirilib, ularning iqtisodiy hayotga ta’siri yoritilgan.

1-jadval. O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishdagi asosiy muammolar va ularning tahlili

№	Muammo nomi	Raqamli ko‘rsatkich / Fakt	Izoh
1	Moliyaviy savodxonlik darajasi past	Aholining atigi 37% moliyaviy tushunchalarni to‘liq biladi (Markaziy bank, 2024)	Bu daraja MDH davlatlari o‘rtacha ko‘rsatkichidan past.
2	Yoshlar orasida bank xizmatlaridan foydalanish sust	Talabalar va yoshlarning faqat 42% bank kartasidan faol foydalanadi	Bu raqam ko‘plab yoshlarning naqd pulga tayanishini

			ko'rsatadi.
3	Ayollar moliyaviy mustaqilligining pastligi	Ayollarning 55% moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qilmaydi (Gender tahlil markazi, 2023)	Bu holat iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi.
4	Qishloq hududlarida moliyaviy xizmatlardan foydalanish cheklangan	Qishloq aholining 60% dan ortig'i internet-bankingdan foydalana olmaydi	Raqamli infratuzilma yetarli emas.
5	Moliyaviy ta'lim tizimi sust rivojlangan	Oliy ta'lim muassasalarining faqat 18% da moliyaviy savodxonlik fanlari mavjud	Dasturlar yetarli darajada modernizatsiya qilinmagan.
6	Aholining kredit madaniyati past	Kredit oluvchilarning **28%**i to'lov muddatlarini kechiktiradi (MB ma'lumotlari, 2024)	Moliyaviy rejalashtirish ko'nikmasi yetarli emas.
7	Nodavlat sektorining faolligi past	Moliyaviy savodxonlik tashabbuslarining 70% ini davlat sektori amalga oshiradi	Xususiy sektor ishtiroki sust.
8	Axborot texnologiyalariga ishonchsizlik	Aholining 46% raqamli to'lov tizimlariga ishonmaydi	Kiberxavfsizlik bo'yicha tushunchalar yetarli emas.

Takliflar:

Davlat va nodavlat sektorlarning hamkorligi asosida aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish, raqamli moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy faollikni kengaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi.

1. Davlat va nodavlat sektor o'rtasida **hamkorlik mexanizmini kuchaytirish**.

2. **Raqamli ta'lim vositalari** (mobil ilova, onlayn o'yinlar, chatbotlar) orqali keng jamoatchilikni qamrab olish.

3. Yoshlar uchun **moliyaviy laboratoriyalar** tashkil etish.

Xulosa

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – bu faqat ta'lim jarayoni emas, balki milliy iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan muhim strategik yo'nalishdir. Davlat va nodavlat sektorning hamkorligi orqali bu boradagi chora-tadbirlar tizimli yo'lga qo'yilsa, O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya darajasi sezilarli oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston.

2. OECD. (2023). *Financial Literacy and Financial Inclusion Framework*. Paris: OECD Publishing.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Moliyaviy savodxonlikni oshirish milliy strategiyasi 2021–2030 yillar uchun*. Toshkent.
4. World Bank. (2023). *Enhancing Financial Literacy in Emerging Economies*. Washington, D.C.

Xalq ta'limi tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar ichki auditing nazariy asoslari

**G.Narbekova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va auditi” kafedrasining katta o'qituvchisi, PhD**

Bizga ma'lumki, byudjet tashkilotlari davlatning belgilangan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan yuridik shaxs bo'lib, ular o'z faoliyatini amalga oshirish uchun byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadi. Har bir byudjet tashkilotiga mablag'lar ajratish davlat byudjetidan tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi. Bulardan tashqari qonunchilikda byudjet tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'lar manbalaridan shakllantirishga ham ruxsat etilgan. Ya'ni, faoliyat turiga mos mahsulot (ish va xizmatlar) ishlab chiqarishdan tushadigan, vaqtinchalik bo'sh bino va mulklarni ijaraga berishdan tushgan, homiylik, shuningdek, moliya yili (yoki chorak) yakunida byudjet mablag'lari bo'yicha iqtisod qilib qolingani va boshqa mablag'lar hisobiga byudjetdan tashqari mablag'lar shakllantiriladi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda sarflanadi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti tomon yo'l tutishi va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishini hisobga olgan holda ta'lim tizimini byudjetdan tashqari moliyalashtirishning yangidan yangi manbalari (ta'lim xizmatlari ko'rsatish, tadbirkorlik, ilmiy maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, turli grantlar, ilmiy tadqiqot faoliyatidan olingan daromadlar, homiylik mablag'lari va boshqa manbalardan) o'zlashtirilmogda. Bu mamlakatimiz qonunchiligida ham o'z aksini topgan bo'lib, ta'lim tizimini byudjetdan tashqari moliyalashtirishning tashkiliy huquqiy asoslari yaratilganligidan dalolat beradi.

Xalq ta'limi tizimi muassasalarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqib, byudjetdan moliyalashtirish holati va byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash, mablag'larning maqsadli sarflanishiga erishish maqsadida muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari harakati to'g'risidagi moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Bu esa, xalq ta'limi tizimi muassasalarini ichki audit tizimini yanada samarali tashkil etish va uning natijalaridan real amaliy foyda olishni taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 62-moddasiga asosan: davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, mahalliy byudjetlaridan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi[2]. Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim xarajatlari 54 trln so'mni yoki 2024 yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 22,9 foizga

oshgan holda Davlat byudjeti jami xarajatlarining 15,7 foizini tashkil etmoqda. Ushbu xarajatlar asosan 10 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi 6 mln 800 mingga (o'tgan o'quv yilidan 207 ming bolaga ko'p) yaqin o'quvchilarga sifatli ta'lim berish uchun yo'naltirilgan.

Bunda xarajatlarning asosiy qismi, ya'ni 88 foizi ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlariga yo'naltiriladi.

Xalq ta'limi tizimi muassalarida ichki audit faoliyati uslubiy ta'minotida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim (2-rasm).



Muallif tomonidan shakllantirilgan.

2-rasm. Xalq ta'limi tizimi muassalarida ichki audit faoliyati uslubiy ta'minoti.

Xalq ta'limi tizimi muassalarida ichki audit metodologiyasiga e'tibor qaratgan holda, tashkilotlar moliyaviy qonunbuzarliklar, xatolar va samarasizliklarning oldini olish, aniqlash va yumshatish bo'yicha o'z imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Ichki nazorat tizimining etarligi xalq ta'limi tizimi muassalarida tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish, moliyaviy hisobotlarning to'g'riligi, ishonchli ma'lumotlar tahlili, umumiy javobgarlik, baholash usullaridan foydalanish imkoni beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nguen T.V.L. Sushnost i evolyusiya razvitiya vnutrennego audita//Internet jurnal «NAUKOVEDENIE» Tom 8, №1 (2016) <http://naukovedenie.ru/PDF/31EVN116.pdf>.
2. Sonin A. "Vnutrenniy audit kak vajneyshiy element sistemi upravleniya kompaniey": <http://naukovedenie.ru/PDF/31EVN116,14.10.2022>.
3. Ibragimov A.K. "Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish". Iqt.fan.dok. dis.
4. Axmadjonov K.B. "Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent: O'z.R.BMA. 2016.

The Impact of Generative Artificial Intelligence on Business Management

Sh. Rashidov, undergraduate student of
Tashkent State University of Economics

Introduction

In recent years, the rise of generative artificial intelligence (GenAI) is large language models, generative design systems, and intelligent automation has significantly influenced the global business landscape. Beyond automating routine operations, GenAI systems now assist managers in strategic decision-making, communication, and forecasting. Business leaders increasingly rely on AI-generated insights to improve efficiency, creativity, and market adaptability. However, the rapid integration of GenAI also raises ethical, organizational, and leadership challenges that demand new managerial frameworks. This study aims to analyze the multifaceted impact of GenAI on business management practices, focusing on three key dimensions: decision-making, organizational transformation, and ethics.

Recent literature highlights GenAI's role as both an enabler and disruptor in management. (Di Vaio *et al.*, 2020) describe AI as a driver of "augmented intelligence," emphasizing human-AI collaboration in executive decision-making. Studies by (Khamdamov *et al.*, 2025) show that AI-driven analytics improve forecasting accuracy and strategic agility across industries. Meanwhile, organizational theorists such as (Bi, 2023) argue that GenAI transforms traditional hierarchies by promoting decentralized, information-rich management systems. However, scholars also warn of significant ethical and operational risks. Concerns include data bias, transparency, over-dependence on automated insights, and the erosion of managerial accountability. The literature reveals a consensus that GenAI requires new ethical standards and adaptive leadership models to balance innovation with human oversight.

Methodology

This study employs a **qualitative, exploratory approach** based on secondary data analysis. Peer-reviewed articles, business reports, and case studies from 2020–2025 were systematically reviewed to identify recurring themes related to GenAI and business management. Thematic analysis was used to categorize findings into three main areas:

1. Decision-making enhancement,
2. Organizational and structural transformation, and
3. Ethical and leadership implications.

The methodology follows the IMRAD framework, ensuring analytical coherence and theoretical depth.

Results

Generative AI has revolutionized how managers analyze information and generate solutions. For instance, generative tools assist in scenario planning, report drafting, and market forecasting with greater speed and precision. Managers can

now simulate strategic alternatives using AI-generated insights, leading to more informed and evidence-based decisions. However, the results also show that excessive reliance on AI outputs may reduce critical thinking and creativity among human leaders.

GenAI adoption leads to flatter organizational hierarchies, where decision authority is distributed across AI-augmented teams. Traditional managerial roles are evolving into “AI supervisors” who guide algorithms rather than merely supervise employees. This structural shift increases operational agility but also creates challenges in defining accountability and performance evaluation standards.

Ethical implications remain a major concern. The automation of managerial tasks raises questions about bias, fairness, and privacy. Organizations struggle to establish transparent AI governance policies that ensure responsible data use and ethical accountability. The study finds that firms with strong ethical leadership tend to integrate AI more sustainably and gain greater employee trust.

Discussion

The findings suggest that GenAI is not merely a technological innovation but a transformative managerial force. The integration of AI reshapes leadership competencies by emphasizing adaptability, ethical reasoning, and data literacy. Managers must act as interpreters between algorithmic intelligence and human intuition. The paper supports the “augmented management” perspective, where humans and AI systems collaborate to achieve superior performance rather than compete for control.

Furthermore, organizational success with GenAI depends on cultural readiness and ethical governance. Firms that invest in employee AI literacy and transparent data policies report stronger innovation outcomes and public trust. Therefore, the managerial challenge lies in harmonizing technological adoption with human-centered leadership values.

In conclusion, generative artificial intelligence profoundly impacts business management by transforming decision-making, restructuring organizations, and reshaping ethical standards. While it enhances efficiency and innovation, GenAI also introduces new forms of managerial dependency and moral complexity. The study concludes that sustainable AI integration requires adaptive leadership that values ethical oversight, transparency, and continuous learning. Future research should investigate empirical case studies of AI adoption in different cultural and regional contexts, particularly within emerging markets such as Central Asia.

References:

1. Bi, Q. (2023) “Analysis of the Application of Generative AI in Business Management,” *Advances in Economics and Management Research*, 6(1). Available at: <https://doi.org/10.56028/aemr.6.1.36.2023>.
2. Khamdamov, S.J. *et al.* (2025) “The Impact of AI and Machine Learning on E commerce Personalization,” in *ACM International Conference Proceeding Series*. Association for Computing Machinery, pp. 115–128. Available at: <https://doi.org/10.1145/3726122.3726142>.

3. Di Vaio, A. *et al.* (2020) "Artificial intelligence and business models in the sustainable development goals perspective: A systematic literature review," *Journal of Business Research*, 121. Available at: <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2020.08.019>.

Yashirin iqtisodiyotning mohiyati va uning iqtisodiy tizimdagi roli haqida nazariy yondashuvlarning evolyutsiyasi.

**B. Raxmonov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchi**

Yashirin iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki u iqtisodiy va ijtimoiy hayotning ko'plab jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda biz, birinchidan, yashirin iqtisodiyot hajmini hisoblab chiqishga harakat qilamiz. Ikkinchidan, u bilan ishsizlik o'rtasida strukturaviy bog'liqlik mavjudligini asoslash uchun sodda nazariy modeldan foydalanamiz. Nihoyat, yashirin iqtisodiyot va ishsizlik darajasi o'rtasidagi strukturaviy bog'liqlikni empirik jihatdan qayta ko'rib chiqish orqali isbotlaymiz. Empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi ishsizlik oqibatida yashirin iqtisodiyot kengayadi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiyotda mehnat kuchi ishtirokining darajasiga yashirin iqtisodiyot o'sishining ko'rsatkichi sifatida qaraladi, chunki yashirin iqtisodiyot hajmining ortishi rasmiy iqtisodiyotda band bo'lgan ishchilar sonining kamayishida aks etadi.

Yashirin iqtisodiyotning kengayishi hukumat siyosatini yuritishda muammolar tug'diradi. Masalan, ijtimoiy ta'minot tizimida katta miqdordagi firibgarlik yuzaga kelishi mumkin: rasman ishsiz deb qayd etilgan, lekin aslida yashirin iqtisodiyotda ishlayotgan shaxslar ishsizlik nafaqasini olishlari mumkin. Yana bir muhim jihati, yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilar va ishchilar soliq to'lamaydilar, biroq davlat xizmatlaridan bepul foydalanadilar. Natijada, soliq to'lovchi ishchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan tovar va xizmatlarning hajmi hamda sifati kamayadi.

Bunday turfa yondashuvlarning shakllanishi iqtisodiyot, sotsiologiya, statistika, huquqshunoslik singari fanlar vakillarining o'z sohasi mezonlari asosida yondashishidan kelib chiqadi. Shu sababli, berilgan aniq va yagona ta'rifni uchratish qiyin. Bizning tadqiqotimizda yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy mazmuniga urg'u beriladi va u ikki asosiy yondashuvga ajratiladi.

Yashirin iqtisodiyotga berilgan ta'riflarni ikkita yo'nalishga ajratib olamiz: mehnatga yo'naltirilgan va hajmga yo'naltirilgan ta'riflar.

Mehnatga yo'naltirilgan ta'riflarda yashirin iqtisodiyot mehnat bozorida ta'sir doirasi orqali tavsiflanadi. Ya'ni, u rasmiy mehnat shartnomasi va qonuniy bandlikdan tashqari barcha daromad keltiruvchi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bunday faoliyat asosan soliqlarni yoki ijtimoiy sug'urta badallarini to'lashdan qochish natijasida yuzaga keladi.

Hajmga yo‘naltirilgan ta’riflarda esa davlatning tartibga solish darajasi bilan tadbirkorlik faoliyati o‘rtasidagi munosabat e’tiborga olinadi. Masalan, ular ro‘yxatdan o‘tmagan va litsenziyalanmagan xo‘jalik subyektlari sifatida ta’riflanadi. Yoki hisobot topshirmaslik, yoki yetarlicha hisobot bermaslik sababli ijtimoiy o‘lchov tizimidan, xususan, YAIM hisoblaridan tashqarida qoladigan barcha iqtisodiy faoliyatlar tarzida izohlanadi.

1.1-jadval

Yashirin iqtisodiyotni o‘rgangan iqtisodchi olimlar

Olim	Mamlakat / Tashkilot	Asosiy hissasi
Hernando de Soto	Peru	Yashirin iqtisodiyotning sababini yomon qonunlar bilan bog‘lagan; iqtisodiy liberallashtirishni taklif qilgan.
Friedrich Schneider	Avstriya	Yashirin iqtisodiyot hajmini hisoblash bo‘yicha eng mashhur tadqiqotchi; global statistik tahlillar olib borgan.
Edgar Feige	AQSh	“Underground economy” tushunchasini keng targ‘ib qilgan; yashirin iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’sirini o‘rgangan.
Vito Tanzi	Italiya – AQSh (XVJ)	Yashirin iqtisodiyotning soliq siyosati va davlat byudjetiga ta’sirini tadqiq qilgan.
Yu. Latov	Rossiya	Yashirin iqtisodiyotni oq yoqali, kulrang va qora turlarga ajratgan.
A.K. Bekryashev va I.P. Belozarov	Rossiya	Yashirin iqtisodiyotni jinoyatkorona va nojinoiy shakllarga ajratgan.
B.A. Tagayev	O‘zbekiston	Yashirin iqtisodiyotni davlat va nodavlat mulklaridan guruh manfaatlari yo‘lida noqonuniy foydalanish sifatida ta’riflagan.
I. Xotamov	O‘zbekiston	Yashirin iqtisodiyotni qonun-qoidalarni chetlab o‘tish orqali yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar deb ta’riflagan.
M. Alimov, Sh. Shodmonov, A. Islomov	O‘zbekiston	Norasmiy iqtisodiyot va uning soliq siyosatiga ta’sirini o‘rgangan.
B.Raxmonov	O‘zbekiston	“Yashirin iqtisodiyot” tushunchasiga nazariy jihatdan faqatgina rasmiy statistikada aks etmaydigan yoki soliqqa tortilmaydigan iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga, budget daromadlari va ijtimoiy tenglikka bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, mehnat resurslarining samarali bandligi va qonuniy iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlariga to‘siq bo‘luvchi omil sifatida yondashish orqali takomillashtirilgan mualliflik ta’rifini ishlab chiqqan

Perulik iqtisodchi Hernando de Soto yashirin iqtisodiyot muammosini o‘rganishda institutsional yondashuv tarafdori bo‘lib, uning nazariyasida bu hodisa asosan “yomon qonunlar” natijasida yuzaga kelishi ta’kidlanadi. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorda yuritish uchun talab etiladigan huquqiy va

byurokratik jarayonlar haddan tashqari murakkab, qimmat va uzoq davom etadi. Shu sababli, aholi va tadbirkorlarning katta qismi iqtisodiy faoliyatini rasmiy tizimdan tashqarida olib borishga majbur bo'ladi.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun De Soto iqtisodiy liberallashtirishni, ya'ni davlatning ortiqcha aralashuvini kamaytirish, huquqiy tartibotlarni soddalashtirish va xususiy mulk huquqini mustahkam kafolatlashni taklif qiladi. Unga ko'ra, tartib-taomillarning qulaylashuvi nafaqat yashirin iqtisodiyotni qisqartiradi, balki rasmiy sektorning jozibadorligini ham oshiradi. Natijada, rasmiylashtirilgan mulk faol kapitalga aylanib, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

De Soto o'z qarashlarini "The Other Path" (1986) va "The Mystery of Capital" (2000) asarlarida keng yoritib, kapitalizmning G'arb mamlakatlarida muvaffaqiyatli ishlashi, biroq boshqa hududlarda samarali faoliyat ko'rsatmasligining sababi ham aynan institutsional cheklolarda ekanligini asoslab berdi.

Rossiyalik iqtisodchi va sotsiolog Yuriy V. Latov postsovet hududida yashirin iqtisodiyot masalalarini o'rganishda yetakchi olimlardan biridir. Uning ilmiy izlanishlari ko'proq Rossiya va boshqa MDH davlatlaridagi o'tish davri iqtisodiyoti sharoitida norasmiy faoliyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganishga qaratilgan.

Latov yashirin iqtisodiyotni o'rganishda sotsiologik yondashuvni keng qo'llagan. Uning fikricha, norasmiy faoliyat nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi, balki ko'pincha aholining omon qolish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, soya iqtisodiyoti Rossiyada 1990-yillarda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy inqiroz davrida jamiyat uchun muayyan "barqarorlashtiruvchi omil" vazifasini ham bajargan.

Shu bilan birga, Latovning ta'kidlashicha, yashirin sektor uzoq muddatda salbiy oqibatlarga olib keladi: soliq bazasi qisqaradi, ijtimoiy tengsizlik kuchayadi, korrupsiya kengayadi va rasmiy institutlarning samaradorligi pasayadi. Shu bois u yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun nafaqat fiskal va huquqiy choralar, balki ijtimoiy siyosat, madaniy qadriyatlar va davlatga bo'lgan ishonchni mustahkamlash muhimligini qayd etadi.

Latovning ilmiy merosiga postsovet mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotning murakkab tabiatini tushuntirishda va uni qisqartirish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy nazariy manbalardan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar M. Alimov, Sh. Shodmonov va A. Islomov o'z ilmiy izlanishlarida yashirin iqtisodiyotni mamlakat iqtisodiy tizimining rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholaganlar. Ularning tadqiqotlari, avvalo, O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lish sabablari, oqibatlari va uni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu olimlarning qarashlariga ko'ra, yashirin iqtisodiyotning kengayishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- ✓ soliqlar va majburiy to'lovlarning yuqoriligi,
- ✓ rasmiy tartib-taomillarning murakkabligi va byurokratik to'siqlar,

- ✓ davlat boshqaruvidagi korrupsiya va huquqiy institutlarning zaifligi,
- ✓ rasmiy bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi,
- ✓ aholining daromadlarini oshirishga bo'lgan ehtiyoji.

Ularning qarashlari O'zbekiston iqtisodiyotida yashirin sektorni qisqartirish, uni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lida nazariy va amaliy asos sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

1.2-jadval

BMT "Ko'k kitobi"da yashirin iqtisodiyot tushunchalari

Tushuncha	Ta'rifi	Misol
Yashirin iqtisodiyot	Qonunlarda taqiqlanmagan faoliyat bilan shug'ullanadigan, ammo soliqlar va boshqa to'lovlardan qochadigan xo'jalik subyektlari.	Savdo-sotiq qiluvchi, lekin daromadini soliq organlariga ko'rsatmaydigan tadbirkor.
Norasmiy iqtisodiyot	Korporativlashtirilmagan, uy xo'jaliklari darajasida olib boriladigan iqtisodiy faoliyat.	Uy sharoitida tikuvchilik yoki shaxsiy xizmat ko'rsatish.
Qonuniy bo'lmagan iqtisodiyot	Noqonuniy, litsenziyasiz ishlab chiqarish, sotish yoki xizmat ko'rsatish, tezkor bozor talablariga moslasha oladigan faoliyat.	Kontrabanda, noqonuniy spirtli ichimlik ishlab chiqarish yoki qimorxona faoliyati.

BMTning Milliy hisoblar tizimiga oid "Ko'k kitobi"da yashirin iqtisodiyot mustaqil iqtisodiy hodisa sifatida talqin etiladi. Unda ta'kidlanishicha, bu turdagi faoliyat qonunlarda taqiqlanmagan bo'lsa-da, uni amalga oshirayotgan xo'jalik subyektlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashga intiladi. Shu sababli, ular yaratgan iqtisodiy qiymat rasmiy hisob-kitoblarga kiritilmaydi va milliy statistika ko'rsatkichlarida aks etmay qoladi.

Mazkur yondashuv yashirin iqtisodiyotni noqonuniy faoliyatdan farqlash imkonini beradi. Chunki qora iqtisodiyotda faoliyatning o'zi qonunga zid bo'lsa, yashirin iqtisodiyotda esa qonunan ta'qiqlanmagan faoliyat amalga oshiriladi, biroq uning moliyaviy natijalari ataylab davlat organlaridan yashiriladi. Bu holat uni iqtisodiy tizimdagi "soya" segment sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, BMT izohlarida yashirin iqtisodiyotning davlat boshqaruvi va makroiqtisodiy siyosatga ko'rsatadigan ta'siri alohida qayd etiladi. Bir tarafdin, u tadbirkorlar uchun daromadni oshirish va moslashuvchan faoliyat yuritish imkoniyatini bersa-da, boshqa tarafdin quyidagi oqibatlarga olib keladi:

- ✓ davlat byudjeti tushumlarining kamayishi;
- ✓ statistik ma'lumotlar ishonchliligining pasayishi;
- ✓ soliq yukining rasmiy subyektlar zimmasida og'irlashishi;
- ✓ korrupsiya va "norasmiy bitimlar" hajmining ortishi.

Shu bois, BMT yondashuvi yashirin iqtisodiyotni milliy hisob yuritish tizimi uchun xavf tug'diruvchi omil sifatida ko'radi va uni o'lchash hamda qisqartirish bo'yicha maxsus uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishni tavsiya etadi. Mazkur

yondashuv, bir tomondan, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, boshqa tomondan, iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish uchun zarur metodologik asos yaratadi.

Yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini baholashning uslubiy masalalari

**B.Raxmonov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası katta o'qituvchi**

Har qanday davlat iqtisodiy taraqqiyot bosqichidan qat'i nazar, yashirin iqtisodiyot fenomeni bilan to'qnash keladi. Bu hodisa ayrim mamlakatlarda kengroq, boshqalarida esa nisbatan torroq ko'lamda kuzatiladi. Biroq u iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida mavjud bo'lib qolaveradi. Yashirin iqtisodiyotning eng katta muammosi – uning davlat tomonidan nazorat qilinmasligi va statistik hisoblarda to'liq qayd etilmasligidir. Ayniqsa, mehnat bozori va ishsizlik darajasi bilan bog'liq masalalarda bu salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat davlatning bandlik siyosatini samarali yuritishiga to'sqinlik qiladi. Chunki rasmiy statistikada qayd etilmagan mehnat faoliyati mavjud bo'lgan sharoitda ishsizlik darajasi noto'g'ri qayd etiladi. Shu sababli, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta'sirini aniqlash uslubiy jihatdan murakkab, ammo iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yashirin iqtisodiyotning hajmi oshgani sari davlatning iqtisodiy siyosati noto'g'ri shakllanishi, ortiqcha subsidiya va ijtimoiy yordamlar yo'naltirilishi mumkin. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu masala yanada dolzarb bo'lib, iqtisodiy islohotlar samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozori iqtisodiy tizimning markaziy tarkibiy qismlaridan biri sifatida bandlik, ishsizlik va ishlab chiqarish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini ifodalaydi. Ammo mehnat bozoriga doir rasmiy ko'rsatkichlar har doim ham iqtisodiy jarayonlarning haqiqiy mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, yashirin iqtisodiyot keng tarqalgan mamlakatlarda ishsizlik darajasining rasmiy statistikasi bilan uning real hajmi o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'ladi.

Yashirin iqtisodiyot ishsizlikning statistik o'lchovlariga ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'pincha davlatning rasmiy ro'yxatlarida "ishsiz" sifatida qayd etiladi, chunki ularning faoliyati huquqiy jihatdan bandlik sifatida e'tirof etilmaydi. Buning natijasida ishsizlik darajasi sun'iy ravishda yuqori qayd qilinadi. Masalan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning ayrim hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy statistikada qayd etilgan ishsizlik ko'rsatkichi real vaziyatdan 3–5 foiz punktga yuqori bo'lishi aniqlangan.

Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyot real ishsizlikni ham chuqurlashtirishi mumkin. Buning sababi shundaki, norasmiy ish beruvchilar rasmiy sektorda faoliyat yurituvchi korxonalar bilan teng sharoitda raqobat qilmaydi, soliqlardan qochadi, mehnat huquqlarini chetlab o'tadi. Natijada, rasmiy sektor qisqaradi va

qonuniy ish o‘rinlari kamayadi. Bu jarayon “institutsional siqib chiqarish effekti” sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, norasmiy sektor kengaygani sari rasmiy sektordagi ishchi kuchiga talab qisqaradi va natijada real ishsizlik ortadi.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyot mehnat resurslarining samarali taqsimlanishini ham buzadi. Ishchilar norasmiy faoliyatga jalb etilganida, ular ko‘pincha past unumdorlikka ega bo‘lgan sohalarda ishlaydi. Bu esa iqtisodiyotning umumiy samaradorligini pasaytiradi va uzoq muddatda “strukturaviy” ishsizlik shakllarini kuchaytiradi. Masalan, Italiya janubiy hududlarida uzoq yillardan buyon norasmiy sektor keng tarqalgan bo‘lib, bu mintaqada rasmiy ishsizlik darajasi doimiy ravishda yuqori darajada qolib kelmoqda (Buehn & Schneider, 2012).

Nihoyat, yashirin iqtisodiyotning mavjudligi siyosiy qarorlar sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar ishsizlik darajasi noto‘g‘ri qayd etilsa, hukumat bandlik dasturlarini rejalashtirishda xato yo‘l tutishi mumkin. Masalan, ortiqcha subsidiya yoki ijtimoiy yordam noto‘g‘ri guruhlariga yo‘naltirilishi, mehnat bozorini tartibga soluvchi siyosat esa samarasiz bo‘lishi ehtimoli ortadi.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, ishsizlik va yashirin iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik turlicha shaklda bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda, odatda, yashirin iqtisodiyot iqtisodiy sikl bilan pro-siklik xarakterga ega bo‘ladi. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish davrida yashirin faoliyat ham kengayadi, natijada bandlik ko‘rsatkichlarida ayrim nomutanosibliklar yuzaga keladi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa bu munosabat ko‘pincha kontra-siklik xarakterga ega bo‘ladi: iqtisodiy pasayish davrida odamlar tirikchilik manbai sifatida norasmiy sektorga o‘tadi, bu esa rasmiy statistikada ishsizlikning keskin oshishiga olib keladi.

O‘zbekiston sharoitida bu munosabat yanada murakkab ko‘rinishga ega. Bir tomondan, mehnat migratsiyasi juda katta miqyosda bo‘lgani sababli, rasmiy statistikada ishsizlik darajasi real vaziyatni to‘liq ifodalay olmaydi. Chunki xorijda ishlayotgan fuqarolar ko‘pincha “ishsiz” sifatida qayd qilinmaydi, lekin ularning ichki mehnat bozoriga qaytish ehtimoli doimiy xavf tug‘diradi. Ikkinchi tomondan, mamlakat ichkarisida norasmiy bandlik keng tarqalgan bo‘lib, bu rasmiy sektor imkoniyatlarini qisqartiradi va real ishsizlik darajasini oshiradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta’siri bir yoqlama emas, balki murakkab ko‘p qirrali jarayondir. Ba’zi hollarda norasmiy sektor odamlar uchun “tampon zona” vazifasini bajarib, rasmiy sektor yetarlicha ish o‘rni yaratolmagan sharoitda vaqtincha bandlikni ta’minlaydi. Lekin uzoq muddatda u rasmiy bandlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, mehnat unumdorligini pasaytiradi va institutsional ishonchni yemiradi.

Yashirin iqtisodiyotni bevosita aniqlash mumkin emas. Shu bois, olimlar bilvosita metodlardan foydalanadilar. Ulardan asosiylari:


Monetar yondashuv – naqd pullar hajmi va ularning rasmiy iqtisodiyotga nisbati orqali yashirin iqtisodiyotni baholash.

Mehnat bozoriga asoslangan yondashuv – rasmiy va umumiy ishchi kuchi sonidagi tafovutni hisoblash orqali yashirin faoliyatni aniqlash.

Soliq tafovutlari metodi – soliq tushumlari va iqtisodiy faoliyat hajmidagi farqlar asosida yashirin iqtisodiyotni aniqlash.

Har bir metodning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud. Masalan, monetar yondashuv sodda, lekin raqamli to‘lovlar keng tarqalgan mamlakatlarda aniq natija bermaydi. O‘zbekiston uchun yashirin iqtisodiyot va ishsizlik darajasini baholashda quyidagi to‘siqlar mavjud:

Statistik ma’lumotlarning cheklanganligi – norasmiy bandlik to‘liq qayd etilmaydi. Migratsiya ta’siri – millionlab ishchilar xorijda ishlayotgan bo‘lsa-da, ular bandlik statistikalarida to‘liq ko‘rsatilmaydi. Soliq tizimidagi o‘zgarishlar – qisqa muddatda norasmiy faoliyatni rag‘batlantirishi mumkin. Hududiy farqlar – viloyatlar kesimida yashirin iqtisodiyot ulushi turlicha bo‘lib, umumiy baholashga ta’sir qiladi. Shu sababli, mamlakatda mehnat bozoriga asoslangan yondashuv eng samarali metod sifatida qo‘llanilishi mumkin.



1-rasm. Yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sir kanallari va mexanizmlari

Taqdim etilgan chizma yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ko‘rsatadigan ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan kompleks ko‘rsatib beradi. Unda asosiy diqqat markazida yashirin iqtisodiyot turib, u orqali ishsizlik darajasiga olib boruvchi “ta’sir kanallari” va “ta’sir mexanizmlari” ochib berilgan.

Avvalo, noto‘g‘ri statistika kanali orqali yuzaga keladigan ta’sirni ko‘rib chiqamiz. Norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan shaxslar ko‘pincha rasmiy statistika organlari tomonidan qayd etilmaydi. Natijada, ishlayotganlar ham “ishsiz” sifatida ro‘yxatga olinadi. Bu esa davlat organlari tomonidan ishlab

chiqiladigan siyosiy va iqtisodiy qarorlarning noto'g'ri shakllanishiga olib keladi. Masalan, ortiqcha subsidiya yoki ijtimoiy yordam noto'g'ri guruhga yo'naltirilishi mumkin. Bu jarayon, o'z navbatida, mehnat bozorida nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Qolaversa, soliqdan qochish kanali orqali yana bir ta'sir mexanizmi yuzaga chiqadi. Yashirin iqtisodiyot ishtirokchilari soliq to'lamaganligi bois, davlat byudjetiga tushum kamayadi va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati qisqaradi. Bu esa mehnat bozorida ishsizlik darajasini bevosita oshiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Rasmiy bandlik tizimi o'z moliyaviy manbalaridan mahrum bo'ladi, davlatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyati pasayadi.

Bulardan tashqari, noto'g'ri qabul qilingan qarorlar kanali ham mavjud. Yashirin iqtisodiyot sharoitida rasmiy ko'rsatkichlar ishonchli bo'lmagani sababli hukumat noto'g'ri siyosat olib borishi ehtimoli ortadi. Masalan, ishsizlik darajasi aslidagidan yuqoriroq qayd etilsa, davlat bandlik siyosatini haddan tashqari kengaytirib yuboradi, agar past baholansa, zarur qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rmaydi. Ikkala holatda ham resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi kuzatiladi.

Shuningdek, u yetarlicha ta'minlanmagan mehnat huquqlari kanali orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy sektorda ishlovchilar mehnat qonunchiligi bilan kafolatlangan huquqlardan mahrum bo'ladilar: pensiya, tibbiy sug'urta, mehnat shartnomasi va boshqa ijtimoiy himoya turlari ularga tatbiq etilmaydi. Bu esa nafaqat ularning shaxsiy farovonligiga salbiy ta'sir qiladi, balki iqtisodiy tizimda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Natijada, rasmiy mehnat bozoriga ishonch susayadi, norasmiy sektor kengayadi va ishsizlik darajasi yuqori ko'rsatkichda qayd qilinadi.

Ayni chog'da, rasmiy sektordagi raqobatga zarar yetkazilishi ham muhim kanallardan biridir. Yashirin ish beruvchilar soliqlardan qochib, ishchi kuchidan arzonroq foydalangani sababli, ular rasmiy sektordagi tadbirkorlik subyektlarini raqobatda siqib chiqaradi. Bu esa qonuniy korxonalar faoliyatining qisqarishiga va natijada rasmiy ish o'rinlarining kamayishiga olib keladi. Bunday vaziyat "institutsional raqobat muammosi" sifatida e'tirof etilgan.

Nihoyat, qayta aylanish effekti kuzatiladi. Bu effektda yashirin iqtisodiyot mehnat resurslarini o'zida ushlab qoladi va ularning rasmiy sektorga qaytishini qiyinlashtiradi. Mehnat resurslari uzoq muddat norasmiy sektorda bo'lgani sabab, ular o'z malaka va kasbiy ko'nikmalarini rasmiy sektorga moslashtira olmaydi. Bu esa bandlik siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha muammolarni yuzaga keltiradi.

Chizmada oxirgi bosqich sifatida "Ishsizlik" ko'rsatilgan bo'lib, uning uch asosiy yo'nalishdagi oqibatlari qayd etilgan:

Ijtimoiy yo'nalish – ishchi kuchining huquqsizligi va himoyasizligi kuchayadi. Bu ijtimoiy tengsizlikni oshiradi va jamiyatda norozilik kayfiyatini oshiradi. Iqtisodiy yo'nalish – rasmiy sektorda ish o'rinlari qisqaradi, raqobat muhitiga putur yetadi va iqtisodiyotda samaradorlik pasayadi. Siyosiy yo'nalish – noto'g'ri statistika va yangilash siyosiy qarorlar qabul qilinadi, bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi.

Shunday qilib, taqdim etilgan chizma iqtisodiy jarayonlarning murakkab mexanizmini ixcham, ammo aniq shaklda ifodalab bergan. Yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta'siri faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni emas, balki ijtimoiy va siyosiy tizimlarni ham izdan chiqarishi mumkinligi ilmiy asosda ko'rsatilgan. Ushbu tahlil shuni tasdiqlaydiki, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va uni rasmiy sektorga o'tkazish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi shart.

Barqaror iqtisodiy o'sishi omillari

**R.A.Kalandarov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası katta o'qituvchi**

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan beri iqtisodiy taraqqiyotda ham sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Ammo, tahlillar ko'rsatishicha, mazkur jarayonda bir qator rag'batlantiruvchi omillar bilan birga qatorda muammo va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi jihatlar ham mavjuddir. O'zbekistondagi iqtisodiy o'sishning asosiy jihatlarini tahlil etish orqali bu jarayonga yordam beruvchi omillarni ajratib olamiz hamda kyelgusi taraqqiyot yo'lida mamlakat oldida turgan asosiy vazifalarni yoritishga harakat qilamiz.

Jamiyat taraqqiyoti tarixida iqtisodiy o'sish masalasi iqtisodchi olimlar va davlat institutining asosiy tadqiqot mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. U ko'p jihatlarni, jumladan, o'sishga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'lchovlarini, jamiyat va umuman iqtisodiyotga ta'sirini o'z ichiga oladi. Ushbu sharhda iqtisodiy o'sish bilan bog'liq tadqiqotning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy o'sish turli nazariyalar prizmasi orqali o'rganiladi:

Klassik nazariya: Adam Smit va David Rikardo kabi asoschilar ishlab chiqarish omillari sifatida kapital, mehnat va tabiiy resurslarning ahamiyatini ta'kidladilar. Smit erkin bozor va raqobatning rolini ta'kidladi.

Neoklassik nazariya: R.Solou va T.P.Kobba iqtisodiy o'sish kapital to'planishi, ishchi kuchining o'sishi va texnologik o'zgarishlar bilan belgilanadigan modelni taklif qildi. Solow modeli o'sishning asosiy omili sifatida texnologik taraqqiyotning roliga qaratilgan.

Endogen o'sish nazariyalari: Pol Romer va Robert Lukas kabi iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariyalar inson kapitali, innovatsiyalar va institutsional omillarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular bilim va texnologiyaga investitsiya kiritish barqaror iqtisodiy o'sishga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar.


Ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy inqirozlar. Jozef Stiglits va Amartiya Sen kabi mualliflarning asarlari ijtimoiy va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda muvozanatli o'sish zarurati haqida savollar tug'diradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda ko'pchilik postsovet respublikalariga xos bo'lgan iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keldi. Markazlashtirilgan rejali tizimdan bozor modeliga o'tish YAIMning keskin

pasayishi va aholi turmush darajasining yomonlashuvi bilan kechdi. Aynan shu davrdan boshlab O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar boshlandi. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yuritish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qator qonun hujjatlari qabul qilindi, muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi hamda bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu islohotlar keyingi yillarda barqaror iqtisodiy o‘sishga zamin yaratdi.

Iqtisodiy o‘sish dinamikasi haqida so‘z borganda, avvalambor, klassik iqtisodiy nazariyalar nuqtai-nazaridan yondashgan holda mamlakat YAIMning mutloq, aholi jon boshiga hamda resurs birligiga ko‘payishini tushunish maqsadga muvofiq.

4-rasm. O‘zbekiston YAIMning o‘sish dinamikasi*



*Manba: O‘zbekiston Respublika Prezidenti huzurida statistika agentligi ma’lumotlari asosida.

4-rasm ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, 1991-1995-yillarda O‘zbekistonda YAIM kamayish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Buning sabablari sifatida rejali iqtisodiyotning salbiy oqibatlarini ta’siri, bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o‘tish jarayoni, asosiy kapitalning moddiy eskirishi kabilarni ko‘rsatish mumkin. O‘z vaqtida amalga oshirilgan institutsional o‘zgarishlar natijasida 1996-yildan boshlab YAIMda o‘sish tendensiyasi kuzatila boshlandi. 1997-2003-yillar mobaynida YAIMning yillik o‘sish darajasi 4-5 foizga, keyingi 2004-2023 yillarda o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 6-8 foiz atrofida bo‘ldi. Demak, 70 qoidasiga asosan mazkur davrda O‘zbekiston YAIMi 4 barobarga ortgan. Bunday o‘sish turli omillar, jumladan, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining barpo etilishi, qishloq xo‘jaligida hosildorlikning oshishi va xorijiy investitsiyalarning yuqori bo‘lmasa-da barqaror darajasi bilan bog‘liq bo‘ldi. 2020-yildagi past ko‘rsatkich Covid-19 pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan global

sanitar inqirozning natijasidir. Ushbu inqiroz O‘zbekiston iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, YAIMning o‘shish sur‘atlarining pasayishi bilan birga ishsizlikning oshishiga ham olib keldi. Inqirozga javoban tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari joriy etildi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishga salbiy ta’sir etuvchi quyidagi qiyinchiliklar va muammolar ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy diversifikasiyaning pastligi. Erishilgan yutuqlarga qaramay, O‘zbekiston iqtisodiyoti yetarli darajada diversifikasiyalanmaganligicha qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi va an’anaviy tovarlarga kuchli qaramlik global iqtisodiy o‘zgarishlar oldida zaiflikka olib kelishi mumkin.

2. Korrupsiya va ma’muriy to‘siqlar. Korrupsiya va haddan tashqari og‘ir ma’muriy tartib-qoidalar biznes yuritishni qiyinlashtirib, xorijiy investorlarni to‘xtatib qo‘yadigan dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda. Hukumat ushbu sohalarni isloh qilish bo‘yicha keyingi qadamlarni qo‘yishi kutilmoqda.

3. Ekologik muammolar. Orol dengizining qo‘rishi, havoning ifloslanishi, tuproqning sho‘rlanishi, ichimlik suvi yetishmasligi kabi ekologik muammolar shoshilinch choralar ko‘rishni talab qiladi. Barqaror iqtisodiy rivojlanish jamiyat va tabiat uchun salbiy oqibatlarining oldini olish uchun ekologik jihatlarni hisobga olishi kerak.

Yuqoridagi muammolarning hal qilinishi, shubhasiz, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va aholi turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirishda quyidagi istiqbolli yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim:

1. Innovatsiya va texnologiya ishlab chiqarishga keng joriy etish. Innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatishicha, keyinlikda iqtisodiy o‘shishning asosiy yo‘nalishlaridan biri innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va startaplarni rivojlantirish dasturlari kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari uchun asos bo‘lmoqda.

2. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. O‘zbekiston faol iqtisodiy va siyosiy aloqalar orqali xalqaro maydonda o‘z mavqeini mustahkamlashda davom etishi kerak. Jahon iqtisodiyotidagi ikki qutblilik sharoitida ko‘p tomonlama platformalarda ishtirok etish va tajriba almashishni ta’minlash jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integrasiyalashuvning kaliti bo‘ladi.

3. Davlat rivojlanish strategiyalarini hayotga tatbiq etish. Mamlakatni barqaror rivojlanishini ta’minlash davlat strategiyasining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi lozim. Iqtisodiy o‘shish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish o‘rtasida muvozanatni topish kerak. Yashil texnologiyalarni hayotga joriy etish ushbu transformasiyaning kaliti bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonning keyingi o‘n yilliklardagi iqtisodiy o‘shishi keng qamrovli islohotlar va tashabbuslar natijasida erishilgan ulkan yutuqlarni namoyon etdi. Biroq, mamlakat kelajakda barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta’minlash uchun ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Innovatsion yondashuvlardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etish

O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholisining turmush sifatini oshirishning asosiy omillariga aylanishi mumkin.

Valyuta risklarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti

**Z.L.Yaxyayev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchi**

Jahon iqtisodiyotida bank tizimi - barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hamda eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shuningdek, tez suratlarda o'zgarayotgan iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar, globallashtirish munosabatlari bank tizimining kelgusi faoliyatiga ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Jahon mamlakatlari tajribasi ko'rsatishicha bank operatsiyalarining tarkibida xorijiy valyutadagi kreditlariga bo'lgan talabning yuqoriligi, milliy iqtisodiyotimizga kiritiladigan investitsiyalarga xorijiy valyutadagi investitsiyalarga bo'lgan rag'batning oshishi hamda valyuta risklarini boshqarishda xedjirlash vositalarining passivligi iqtisodiyotni dollarlashtirishning yuqori darajada chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida valyuta kurslaridagi keskin o'zgarishlari oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olish uchun samarali usullardan foydalanishni talab qiladi.

Frederik Mishkin o'zining "Money, Banking and Financial Markets" kitobida valyuta risklarini kamaytirishda bank aktivlari va passivlarini muvofiqlashtirish (metching) usulini muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, metching – bu tijorat banklarida valyuta kurslari o'zgarishidan kelib chiqadigan xatarlarni pasaytirishning asosiy vositasi bo'lib, xatarlarni oldindan baholash va tuzilishini optimallashtirish imkonini beradi.

O'zbek olimi N.Asanbaeva "Bank ishi va valyuta muomalalari" darsligida O'zbekiston bank tizimida metching siyosatini joriy etishning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, metching siyosati banklarning valyuta risklariga dosh berish qobiliyatini oshiradi va Markaziy bank tomonidan nazorat mexanizmlarini engillashtiradi.

Biz mavjud valyuta risklarini yuzaga kelish sabablarini o'rganib uni doimo monitoring qilib borishimiz zarur hisoblanadi. Tijorat banki faoliyati asosan uning aktiv va passiv operatsiyalarida namoyon bo'ladi. Shu sababdan zamonaviy bank tizimida valyuta risklarini boshqarishda "metching" (matching) usulidan keng foydalaniladi. Metching - bu valyutadagi aktivlar va majburiyatlarni muvozanatda ushlashga qartilgan strategiya hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi - valyuta kursining o'zgarishidan kelib chiqadigan xatarni kamaytirish hisoblanadi.

Valyuta riskini boshqarishda metching siyosatidan to'g'ri foydalanish uchun uni quyidagi turlarga (1-jadval) bo'lib o'rganishimiz maqsadga muvofiq:

1-jadval.**Matching turlari**

№	Matching turlari	Matching siyosati
1	Valyutalar bo'yicha matching	Valyutadagi aktiv va passivlarni bir xil valyutalarda saqlash
2	Muddatlar bo'yicha matching	Aktiv va passivlarning muddatini bir xillashtirish
3	Foizlar bo'yicha matching	Foiz stavkasi bo'yicha mos keladigan operatsiyalar
4	Mijoz turlari bo'yicha matching	Risk darajasi o'xshash bo'lgan mijozlar bilan operatsiyalar

Yuqoridagi siyosatni amalga oshirish, o'z navbatida, bank faoliyatining dollarlashuviga bevosita bog'liq bo'ladi. Chunki, valyuta risklarini boshqarishda matching siyosati bank faoliyatining dollarlashuvi eng muxim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda bank tizimida dollarlashuv masalasi juda muhim hisoblanadi. Dollarlashuv - bankning aktivlar va passivlarning operatsiyalari tarkibida depozitlar va kreditlarning chet el valyutasidagi salmog'ining ortishi bilan izoxlanadi. Dollarlashuv jarayoni bank tizimida valyuta risklarini to'g'ri baxolashni va boshqarishni taqozo etadi. Zamonaviy bank tizimida bunday boshqaruv uslub ko'p hisoblansada, amaliyotda eng keng tarqalgan uslublardan foydalaniladi.

Quyidagi jadval (2-jadval) xuddi shu yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning ham dinamikasini kuzatishimiz mumkin. Bunda ham yillar davomida xorijiy valyutadagi kreditlarning salmog'i oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijiy valyutadagi kreditlar faqatgina yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga hisobiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, umumiy berilgan kreditlar salmog'ida yillar davomida o'rtacha barqaror bo'lib kelmoqda. Shuningdek, kreditlar bo'yicha chet el valyutasi ulushi deyarli bir xil darajada saqlanib kelmoqda. Bu banklarning xorijiy valyutadagi faoliyati hali ham yuqoriligini anglatadi va matching siyosati kuchli bo'lmagan hollarda valyuta risklari saqlanib qolayotganligidan dalolvt beradi.

2-jadval.**Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, mlrd. so'm**

	Yil				
	2020	2021	2022	2023	2024
Hammasi	127208	166674	203127	251402	287182
Milliy valyutada jami	79040,6	102259	132662	173499	193263
Shu jumladan yuridik shaxslar	48010	58637,8	64324,4	69353,8	80031
yakka tartibdagi tadbirkor	2564	3099,9	3049,4	3910,4	8556,9
jismoniy shaxslar	28466,6	40520,9	65288,5	100235	104675
Chet el valyutasida jami	48167	64415	70464,3	77902,6	93918,6
Shu jumladan yuridik shaxslar	48064,8	64161,7	69804,2	75830,5	89462,6
yakka tartibdagi tadbirkor	102,1	253,3	660,2	2072,2	4456,1
jismoniy shaxslar	0	0	0	0	0

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarda xorijiy valyutada berilgan kreditlarning ulushi (foizda)	37,9	38,6	34,7	31	32,7
---	-------------	-------------	-------------	-----------	-------------

Valyutadagi depozit va kreditlar muvozanati metchingini tahlil etish davri 2020–2025-yillar davomida tijorat banklaridagi chet el valyutasidagi depozitlar va kreditlar miqdoridagi dinamikasi quyidagilarni ko‘rsatadi:

2020-yilda xorijiy valyutadagi depozitlar umumiy depozitlar tarkibida 43,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 25,1 % gacha pasaygan.

Shu bilan birga, xorijiy valyutada berilgan kreditlarning umumiy kreditlardagi ulushi 37,9 % (2020-yil) dan 32,7 % (2024-yil) gacha kamaygan, ammo depozitlarga nisbatan kredit miqdori yuqori bo‘lib qolmoqda.

Bu holat banklarda metching talablariga to‘liq rioya qilinmayotganini anglatadi. Ya’ni, valyutada jalb qilingan resurslardan ko‘ra ko‘proq miqdorda valyutada kreditlar ajratilayotgani valyutadagi ochiq pozitsiyalarning yuzaga kelish xavfini oshiradi.

Shuningdek, valyuta kursining o‘zgarishlarini hisobga olsak, bank tizimida xorijiy valyutada majburiyatlarga (depozitlarga) nisbatan ko‘proq miqdorda aktiv operatsiyalar (kreditlar) amalga oshirilsa, valyuta kursining keskin o‘zgarishi bankning daromadlariga va likvidligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, so‘mning dollarga nisbatan qadrsizlanishi xorijiy valyutada berilgan kreditlarning qaytishiga oid muammolar keltirib chiqaradi.

Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, kerakli valyuta riskini boshqarishga mo‘ljallangan metodalar ya’ni xedjing operatsiyalari hamda derivativlardan foydalanilmasa bank faoliyatida yuqori risklar saqlanib qolaveradi.

Tahlillarimiz natijasida shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2020–2025-yillar oralig‘ida dollarlashuv darajasi asta-sekin pasaygan. Bu milliy valyutaga bo‘lgan ishonchning oshganidan dalolat beradi. Lekin shunga qaramay kredit portfelining katta qismi hanuz xorijiy valyutada saqlanmoqda, xususan yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarda bu ulush yuqori. Bunga sabab, milliy valyutadagi depozitlar ortib borayotgan bo‘lsa ham, bank operatsiyalarida valyutadagi muvozanat (metching) saqlanmayotganini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, xorijiy valyutada berilgan kreditlarning katta qismi eksport qiluvchi va valyutada daromad oluvchi sub’ektlarga ajratilgani maqbul hisoblanadi. Ammo tahlillardan kelib chiqadiki: Ba’zi holatlarda valyutada daromad olmaydigan mijozlarga ham valyutada kreditlar berilgan, bu esa valyuta risklarini keskin oshirishi tabiiydir.

Shu bois, valyutadagi kreditlar aniq segmentlarga – eksportyorlar, xalqaro shartnomalari bo‘lgan yuridik shaxslarga cheklangan holda berilishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Matching siyosati tijorat banklari uchun valyuta xatarlarini pasaytirishning eng sodda va arzon usullaridan biri hisoblanadi. U aktiv va majburiyatlarning valyuta turlari va muddatlar bo'yicha moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matching darajasi yuqori bo'lgan banklarda valyuta kurslari o'zgarishi bank foydasi va likvidligiga kam ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribada matching siyosati boshqa xedjirlash vositalari (derivativlar) bilan birgalikda qo'llanilib, risklarni diversifikatsiya qilishga erishiladi.

O'zbekistondagi banklar orasida matching siyosatiga etarlicha e'tibor berilmoqda, biroq uning hisob-kitob usullari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari

**A.Q.Allaberganova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi**

Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish orqali ekologik xavfsizlikka erishish bugungi kunda juda ham dolzarb masaladir. Mamlakatda sanoat, energetika va qishloq xo'jaligining rivojlanishi bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham ormoqda. Bu esa havo, suv va yer resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etishdir. Mazkur yondashuvni moliyalashtirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va ekologik xavfsiz yo'nalishda rivojlantirish mumkin. Bunday loyihalarga sarmoya kiritish, yashil obligatsiyalar va xalqaro grantlardan foydalanish orqali quyosh va shamol energiyasi, suvni tejovchi texnologiyalar, ekologik transport kabi sohalarda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

O'zbekistonda so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash kontekstida tobora dolzarb mavzuga aylandi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va resurslarni barqaror boshqarishga qaratilgan loyihalar katta moliyaviy investitsiyalar talab qiladi. Biroq, bunday tashabbuslarga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bizning fikrimizcha, yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'llarini quyidagilardan iborat:

1. Moslashuvchan moliyaviy vositalarni ishlab chiqish.

Yashil loyihalarni muvaffaqiyatli moliyalashtirishga yordam beruvchi asosiy omillardan biri bu turli moliyaviy vositalarning mavjudligidir. Bularga yashil obligatsiyalar, past foizli kreditlar, grantlar va subsidiyalar kiradi. Ushbu vositalar loyihalarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilganligi va ularni amalga oshirish bilan bog'liq xavflarni hisobga olishi muhimdir. Misol uchun, yashil texnologiya startaplariga investitsiya kiritadigan mablag'larni yaratish kapitalni jalb qilishning samarali usuli bo'lishi mumkin.

2. Davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

Davlat va xususiy investitsiyalar yashil loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Davlat organlari va xususiy kompaniyalar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish resurslar va ekspertizalarni birlashtirish imkonini beradi, bu esa mablag'lardan samaraliroq foydalanishga yordam beradi. Hukumat soliq imtiyozlari va subsidiyalar berishi mumkin, xususiy sektor esa innovatsion yechimlar va texnologiyalarni taklif qilishi mumkin.

3. Moliyalashtirishdan foydalanishni soddalashtirish.

Yashil iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan ko'plab kichik va o'rta korxonalar moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Kredit va grantlar olish tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturlarni yaratish moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shuningdek, tadbirkorlar mavjud resurslardan samaraliroq foydalanishlari uchun ularning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

4. Xatarlarni baholash va boshqarish.

Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish ko'pincha yuqori xavflarni o'z ichiga oladi, bu esa investorlarni xafa qilishi mumkin. Atrof-muhit loyihalari bilan bog'liq xavflarni baholash va boshqarish usullarini ishlab chiqish investorlarning ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu loyihalarning ekologik samaradorligini baholash standartlari va metodologiyalarini yaratish, shuningdek, xavflarni sug'urtalashni joriy etishni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Innovatsiyalar va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.

Yashil texnologiyalar sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar yangi, samaraliroq yechimlarga olib kelishi mumkin. Davlat va xususiy fondlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan innovatsion startap va ilmiy loyihalarni faol qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu nafaqat moliyalashtirish samaradorligini oshirish, balki yangi ish o'rinlari va tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi.

6. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish.

Xalqaro moliya tashkilotlari va fondlarining yashil iqtisodiyot loyihalariga qiziqishi ortib bormoqda. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish moliyalashtirish hajmini sezilarli darajada oshirish va loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish imkonini beradi. Bunga erishish uchun xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar, jumladan, huquqiy himoya va shaffof tartib-qoidalarini yaratish zarur.

Mamlakatimizda qabul qilingan O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik

komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010-yil darajasidan 10 foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

BMT ko'magida amalga oshirilgan yana bir loyiha doirasida "O'zbekistonda byudjetni "Yashil" markirovkalash metodologiyasi va yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Shuningdek, mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog'liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi "yashil energiya sertifikatleri" tizimi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PQ-156-son qarori bilan joriy etildi.

Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish integratsiyalashgan yondashuv va tarmoqlar bo'yicha hamkorlikni talab qiladi. Moslashuvchan moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish, moliyalashtirishga kirishni osonlashtirish, risklarni baholash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish - bularning barchasi barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Oxir-oqibat, yashil iqtisodiyotga investitsiya kiritish nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi, balki iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmiga aylanadi.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan choralar natijasida aholi salomatligi yaxshilanadi, iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlik ortadi va kelajak avlodlar uchun sof muhit yaratiladi. Shu bois yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Роль цифровых технологий в формировании третьего ренессанса в Узбекистане

**М.Т.Яхшиева, доцент кафедры «Экономическая теория»
Ташкентского государственного экономического университета**

Цифровые технологии, наука и исследования играют важную роль в достижении развития. Широкое внедрение цифровых технологий в государственное управление, стремление к современным знаниям будут способствовать благополучию наших людей. Духовное и просвещенное поколение-ключевой фактор развития страны. Поэтому совершенствование цифровой экономики, научное и практическое изучение ее экономических, политических, социальных и правовых основ является требованием времени.

Согласно анализу, проведенному ведущими международными организациями, цифровая экономика может увеличить ВВП как минимум на 30 процентов, устраняя при этом теневую экономику и резко снижая коррупцию. Если обратиться к международной практике, то сегодняшняя цифровая экономика не ограничивается электронной коммерцией и услугами, а охватывает все аспекты жизни, в частности, здравоохранение, науку и образование, строительство, энергетику, сельское и водное хозяйство, транспорт, геологию, кадастр, архивы, быстро проникает в интернет-банкинг и другие области и дает высокие результаты в каждой из них. Именно поэтому многие страны сейчас уделяют пристальное внимание цифровой экономике.

“Например, Республика Беларусь, Эстония активно развивают цифровую экономику. Правительство Австралии предпринимает шаги по обеспечению граждан высокоскоростной цифровой связью, а это означает, что Национальная широкополосная сеть (National Broadband Network) в Австралии обязана обеспечить 93% населения Австралии доступом в Интернет со скоростью 1 Гбит / с.

Отмечается, что цифровая экономика принесет беспрецедентные изменения более чем в половине существующих секторов. В частности, по оценкам экспертов Всемирного банка, увеличение числа пользователей высокоскоростного интернета на 10% увеличит общий объем национальной экономики в среднем на 0,4-1,4% ежегодно.

К 2025 году ожидается, что США получат дополнительные 20 триллионов долларов дохода от цифровизации промышленности, такая экономическая эффективность особенно высока в производстве потребительских товаров (10,3 триллиона долларов США), автомобильной промышленности (3,8 триллиона долларов США) и логистике (3,9 триллиона долларов США). Судя по зарубежному опыту, получение импортной / экспортной лицензии в Сингапуре обычно занимало 15-20 дней и требовало заполнения 21 формы. Правительство ввело онлайн-систему TradeNet, требуется всего лишь заполнить одну онлайн-форму и получить лицензию за 15 секунд. Продление водительских прав в Аризоне (услуга, которая была особенно популярна на

первом этапе развития электронного правительства во всем мире) стоит 1,60 доллара в Интернете, а не 6,60 доллара для личного обращения. Правительство США работает с IBM над этим вопросом. Компания обслуживает эту систему и получает 2% от добавленной суммы, поэтому работа системы незначительна для налогоплательщиков. Внедрение Государственной электронной торговой площадки (GEM) в Западной Австралии уже снизило дополнительные расходы, связанные с покупкой продукта, со 100 до 5 долларов, при этом общая экономия составила около 100 миллионов долларов».

Согласно различным исследованиям, доля цифровой экономики в мировой экономике колеблется от 4,5% до 15,5%. На Соединенные Штаты и Китайскую Народную Республику приходится почти 40 процентов добавленной стоимости, созданной в мировом секторе информационных и коммуникационных технологий, и 75 процентов патентов, связанных с технологией блокчейн.

В Узбекистане на государственный уровень поставлен вопрос развития цифрового сектора экономики, и в этом направлении принимаются масштабные меры. В частности, внедряются системы электронного документооборота, разрабатываются электронные платежи и совершенствуется нормативная база, созданная в сфере электронной коммерции. В то же время цифровая экономика, работающая на платформах информационных технологий, стремительно развивается. В целях дальнейшего развития науки в нашей стране, воспитания молодежи с глубокими знаниями, высокой духовностью и культурой, для ускорения работы по формированию конкурентоспособной экономики и поднятия ее на новый, современный уровень Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в Послании Сенату и Законодательной палате Олий Мажлиса объявил 2020 год Годом науки, просвещения и цифровой экономики. В основе этого лежит глубокий смысл и содержание, потому что вложение в науку, духовность и просвещение - это вложение в великое будущее.

Поэтому при разработке и реализации программы «Цифровой Узбекистан-2030» в Узбекистане, прежде всего, целесообразно сформировать продуманные и совершенные организационно-правовые механизмы, а также обеспечить тесное взаимодействие государственных структур и бизнеса по внедрению инновационных идей, технологий и разработок, целесообразно охватить цифровыми технологиями производство и услуги во всех сферах и отраслях, особое внимание уделить вопросам воспитания интеллектуально одаренных кадров, обладающих современными знаниями в этой области, создания в стране среды «информационного общества».

Список литературы:

1. Указ президента республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «цифровой узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации» № УП-6079, 5 октября 2020 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 02.03.2020 г. № УП-5953 «О государственной программе по реализации стратегии действий по пяти

приоритетным направлениям развития республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах в «год развития науки, просвещения и цифровой экономики»

3. www.kommersant.uz/ Цифровая экономика Узбекистана.

Monetar siyosat - moliya sohasini tartibga solish vositasi

**I. Boymatova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti**

O'zbekistonda hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun monetar siyosat orqali pul muomalasini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Monetar siyosat davlat yo'li bilan moliya sohasini tartibga solish usullaridan biri bo'lib u jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik umumiy narx-navo o'sishi sur'atlarining pastligi, ijtimoiy xo'jalikda ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan to'liq bandligi, to'lov balansining qoniqarli ahvoldaligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi kabi ko'rsatkichlarda aks etadi.

Monetar siyosat - to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyasiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni markaziy bank amalga oshiradi.

Boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham milliy pul birligi barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish, monetar siyosat vositalarining maqsadli darajalariga erishish, bank tizimining likvidligini hamda moliyaviy bozorlar faoliyatining samaradorligini oshirish markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Uning yordamida xar qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbqiq etadi.

«O'zbekiston — 2030» strategiyasining “Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash” deb nomlangan ikkinchi yo'nalishda 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari belgilab qo'yilgan. Jumladan:

“Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030 yilga borib yillik inflyasiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash, iqtisodiyotda transformatsiya va institusional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investision va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish, nazarda tutilmoqda”.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan iqtisodiyotda amal qiluvchi pul-kredit mexanizmlarining takomillashuv darajasiga uzviy bog'liqdir. Bu esa, iqtisodiyotda vujudga keladigan ayrim nomutanosibliklarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli bartaraf etishda, hamda monetar siyosat instrumentlarining (qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zahiralar normasi) ta'sirchanligini oshirishda

to'siq bo'la oladigan mavjud muammolarning aniqlanishi va hal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun valyuta va pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy barkarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Pul-kredit vositalari va usullarini isloh qilish taktik va strategik vazifalarni ajratishga asoslanadi. Strategik vazifa shakllangan bozor iqtisodi amal qilayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan, pul-kredit nazoratining umumiy qabul qilingan vositalaridan foydalana boshlashdir. Ushbu maqsadga erishish uzviy ravishda bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Monetar tartibga solish vositalarini takomillashtirishni bosqichlarga bo'lish o'tish davrining muayyan tarixiy bosqichlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi.

Bank tizimining taraqqiyoti aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifa va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiy iqtisodiy masalalarni hal etish bilan bog'liqdir. Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida iqtisodiyotda inflyasiyaning barqaror past darajasi ta'minlanishi va narxlardagi keskin tebranishlarning oldi olinishi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatining o'ta qat'iy lashtirilishi iqtisodiyotdagi investitsion faollikning susayishiga olib kelishi mumkin. Uning asossiz yumshatilib, kreditlash hajmlarining keskin oshirilishi esa iste'mol va investitsion talabni rag'batlantirish bilan bir qatorda inflyasiya darajasining keskin oshib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Ta'kidlash zarurki, birgina pul-kredit siyosatining o'zi mamlakat iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirishning asosiy manbai bo'la olmaydi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda raqobat muhitini yaxshilash, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini kuchaytirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 2023 yil 11 sentyabrdagi 158-sonli Farmoni.
2. Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025-2026 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023 yil Dastlabki konseptual loyiha.
3. M.T.Yaxshieva. Monetar nazariya va siyosat: 0 'quv qo'llanma. -T .: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021y ,140 bet.
4. <http://cbu.uz//>

Pul-kredit siyosatining strategik maqsadlari

**M.T.Yaxshiyeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası dotsenti**

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida shu davrda YAIMni aholi jon boshiga 1,6 barobarga oshirish, 2030 yilga borib esa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollariga yetkazish hamda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar safidan o'rin olishga zamin yaratish belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan iqtisodiyotda amal qiluvchi pul-kredit mexanizmlarining takomillashuv darajasiga uzviy bog'liqdir. Bu esa, iqtisodiyotda vujudga keladigan ayrim nomutanosibliklarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli bartaraf etishda, hamda monetar siyosat instrumentlarining (qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zahiralar normasi) ta'sirchanligini oshirishda to'siq bo'la oladigan mavjud muammolarning aniqlanishi va hal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy barkarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Umumdavlat iqtisodiy siyosatini tarkibiy va ajralmas qismi sifatida monetar siyosat mamlakatda narxlar barqarorligini ta'minlash asosida iqtisodiy o'sishga, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish va uni yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutishi allaqachon jahon tajribasida isbotlangan. Aksariyat markaziy banklar uchun pul-kredit siyosatining so'nggi maqsadi milliy valyutaning qiymatini ichki va tashqi bozorlarda saqlash hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot doirasida bu inflyasiyani past va barqaror darajada ushlab turishni anglatadi. Shu bilan birga liberallashtirilgan iqtisodiy tizimlar sharoitida markaziy banklar inflyasiyani to'g'ridan-to'g'ri nazorat kila olmaydi; buning o'rniga ular foiz stavkalariga, iqtisodiyotdagi pul massasi yoki kredit hajmiga ta'sir qilish orqali inflyasiyani bilvosita nazorat qilishga harakat kiladilar.

Mamlakatimizda "Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025-2026 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"da ko'rsatib o'tilgan O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy ssenariysidan farqli ravishda muqobil ssenariy doirasida, tashqi sharoitlarning birmuncha noqulay shakllanishi oqibatida ichki narxlarga qo'shimcha bosim yaratilishini inobatga olib, 2024 yilda inflyasiya darajasi 9-10 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bunda, doimiy targetga erishish davri yanada uzoqroq muddatga kechikib, 2025 yilda inflyasiya 7-8 foiz atrofida bo'lishi va 2026 yil yakuniga kelib 5 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda.

Iqtisodiyotda yalpi talabni rag'batlantiruvchi omillarning ta'siri ortib, talabning taklif omillariga nisbatan tezroq tiklanishi natijasida iste'mol savatining mahsulotlar guruhlarida keng qamrovli narx oshishi kuzatildi. Inflyasiya darajasining ishonchli barqaror pasayib borishi bilan Markaziy bankning asosiy stavkasi mos ravishda pasaytirib borilishi mumkin. Bunda kelgusi davrdagi ehtimoliy inflyasion xatarlar va kutilmalar atroflicha o'rganiladi hamda pul-kredit sharoitlarini belgilashda "ehtiyotkorona" yondashuv saqlab qolinadi. Joriy va

kelgusi yilda pul-kredit sharoitlari fiskal siyosat parametrlariga ham bog'liq bo'ladi. Bunda, rag'batlantiruvchi fiskal sharoitlar saqlanib qolgan vaziyatda inflyasiyaga monetar omillar ta'sirini qisqartirish uchun pul-kredit sharoitlarini yanada qat'iylashtirish talab etilishi mumkin. Aks holda, fiskal siyosatning rag'batlantiruvchi ta'siri iqtisodiyotda yalpi talabni qo'llab-quvvatlashi orqali inflyasiyaga bo'lgan bosimlarning sezilarli ortishiga olib keladi.

Pul-kredit siyosati instrumentlari pul-kredit va moliyaviy sharoitlarga ta'sir qilish uchun markaziy bank tasarrufidagi qurol hisoblanadi. Aytish joizki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimiz pul-kredit siyosatida monetar siyosatni asos qilib olish orqali islohotlarni chuqurlashtirish uchun shart-sharoit yaratish bilan birgalikda xo'jalik sub'yektlarini moliya, pul-kredit vositalari orqali rag'batlantirish vazifasi turadi. Pul-kredit vositalari va usullarini isloh qilish taktik va strategik vazifalarni ajratishga asoslanadi. Strategik vazifa shakllangan bozor iqtisodi amal qilayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan, pul-kredit nazoratining umumiy qabul qilingan vositalaridan foydalana boshlashdir. Ushbu maqsadga erishish uzviy ravishda bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Monetar tartibga solish vositalarini takomillashtirishni bosqichlarga bo'lish o'tish davrining muayyan tarixiy bosqichlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi. Bank tizimining taraqqiyoti aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifa va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiqtisodiy masalalarni hal etish bilan bog'liqdir.

Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida iqtisodiyotda inflyasiyaning barqaror past darajasi ta'minlanishi va narxlardagi keskin tebranishlarning oldi olinishi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Pul-kredit siyosatining o'ta qat'iylashtirilishi iqtisodiyotdagi investision faollikning susayishiga olib kelishi mumkin. Uning asossiz yumshatilib, kreditlash hajmlarining keskin oshirilishi esa iste'mol va investision talabni rag'batlantirish bilan bir qatorda inflyasiya darajasining keskin oshib ketishiga ham sabab bo'ladi.

Ta'kidlash zarurki, birgina pul-kredit siyosatining o'zi mamlakat iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirishning asosiy manbai bo'la olmaydi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda raqobat muhitini yaxshilash, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini kuchaytirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflyasion targetlash rejimi ekanligini ko'rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflyasiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 2023 yil 11 sentyabrdagi 158-sonli Farmoni.
2. Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025-2026 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023 yil Dastlabki konseptual loyiha.
3. M.T.Yaxshieva. Monetar nazariya va siyosat: O‘quv qo‘llanma. -T .: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021y ,140 bet.
4. <http://cbu.uz/>

International Green Economy Experience in Sustainable Economic Development

**S.S.Sokhibjonova, graduate student
Tashkent State University of Economics**

Today, a number of reforms aimed at developing the “Green Economy” are being implemented in Uzbekistan. In addition, Uzbekistan has become a member of the Paris Agreement (Paris, December 12, 2015), which also imposes a number of obligations on Uzbekistan to develop the “Green Economy”. The "Uzbekistan-2030" strategy envisages a transition to a "Green Economy" and a sharp increase in the use of renewable energy, which is its basis. In particular, special attention is paid to the formation of an environmentally friendly infrastructure and the widespread introduction of renewable energy sources in industrial enterprises. It is also important to study the experience gained in foreign countries.

Renewable energy is energy that is collected from resources that do not deplete and are naturally replenished on a human timescale. Solar energy has two primary benefits. The first is that solar systems do not produce air pollutants or carbon dioxide. Additionally, buildings and homes with solar panels have minimal effect on the environment. China, the European Union, the United States, Vietnam and Japan have the largest solar energy capacity in the world. In recent years, China has committed to drastically increasing its solar power to produce electricity in an effort to curb the severe air pollution crisis in the country. As of 2023, hydroelectricity remains the largest component of renewable electricity generation, accounting for 1,286 TWh (TeraWatt-hour). Wind power provided the next largest share with 886 TWh, followed by solar power with 584 TWh. Solar and wind power continue to grow rapidly. As of at least 2024, China is the world’s largest wind power equipment manufacturing base. The largest domestic wind turbine manufacturer in China is Goldwind from Xinjiang province.



Diagram 1. Renewable electricity generation in China by source in TWh.{4}

Every day, 11,250,000 tons of waste are generated on Earth. The world's population is growing by 1.5-2 percent every year, and the amount of waste generated is growing by 6 percent. Of course, it is impossible to completely stop the generation of waste. But there is always the opportunity to reduce the amount of waste generated, recycle it, reduce the consumption of natural resources, and develop alternative ways to properly dispose of waste. The leading countries for recycling waste within Asia are South Korea and Hong Kong. These countries are all considered "land scarce". Recycling became a necessary way to preserve their limited space. South Korea implemented an electronics recycling scheme in 1992 which forced manufacturers into providing recycling options for electronic goods. The electric vehicle (EV) industry, which was initially a niche market, has grown to be a mainstream option, with global sales of nearly 14 million units in 2023. This sizeable shift is driven by technological advancements and policy support, as governments worldwide are implementing stricter regulations on emissions and offering more incentives to switch to EVs. Electric vehicle sales are projected to reach over 45 million units worldwide by 2040, creating millions of jobs and reducing dependency on oil. Additionally, widespread EV adoption is projected to significantly lower CO₂ emissions through 2050.

We all know that there are a number of problems in the transition to a green economy. The development of green technology and infrastructure requires significant investment. This is especially a significant problem for developing countries and countries that are currently transitioning to a market economy. For example, in Uzbekistan there are areas with sufficient wind speed to use wind energy. However, since this technology is not produced in Uzbekistan, its import and launch require significant funds. International cooperation and technology transfer are important in this regard. At the same time, the transition to a green economy requires support from state policy, the creation of an appropriate legal framework, and the introduction of incentive mechanisms. In this regard, it is necessary to strengthen competition in the country by reducing customs duties or providing incentives for the import of electrical technologies.

There are financial and infrastructure problems in our republic to support the waste recycling process. The amount of funds received from waste-related activities does not allow creating a full-fledged regional infrastructure for waste recycling. In order to stimulate the market for goods and services made from recycled materials in foreign countries, a legislative framework has been created to regulate the use of the state's "green procurement" system for these products. For example, in China, in order to promote waste recycling and the use of recycled products, the law stipulates that government departments, public schools, state-owned enterprises and organizations, and military departments can purchase recycled products on a preferential basis. In developed countries, the method of burning waste and obtaining alternative energy sources from it is widely used. Based on the experience of Sweden, it is necessary to expand the possibilities of incinerating waste and obtaining alternative energy sources from it, and to apply tax incentives to enterprises that have mastered new waste processing technologies.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning makroiqtisodiy samaradorligini baholash

**Z.Bahodirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti**

Odatda Internet, katta ma'lumotlar, 5G, sun'iy intellekt bilan ifodalanadigan raqamli texnologiyalar sanoat bilan chuqur integratsiyani tezlashtiradi, dunyoni raqamli iqtisodiyot davriga olib keladi. Biroq, iqtisodiyotning raqamli tarkibiy qismlarining o'sishi bo'yicha o'z vaqtida va mamlakatlararo taqqoslanadigan ma'lumotlarning etishmasligi mavjud. "Raqamli iqtisodiyot" endi faqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori bilan chegaralanib qolmasa-da, ikkinchisi uning o'zagi bo'lib qolmoqda va bu keyingi raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tezis siyosatchilarga AKT sektorining iqtisodiy o'sishi bo'yicha so'nggi va taqqoslanadigan ma'lumotlarni taqdim etish uchun onlayn qidiruv ma'lumotlari va mashinani o'rganish usullaridan foydalanadigan hozirda tarqatish modelining natijalarini taqdim etadi. Ushbu hisob-kitoblar bugungi kunda ushbu sektor qanday ishlashini yoritishga yordam beradi, bu esa kelajakda iqtisodiyotning ushbu muhim sektoriga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy qarorlar haqida ma'lumot berishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak deb qaraladi:

1. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish darajasi (internet qamrovi, mobil aloqa, keng polosali internet tezligi) Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida internet infratuzilmasining kengayishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Internet qamrovi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, elektron savdoni kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish hamda inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Shu bilan birga, internet

texnologiyalarining davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlar tizimiga integratsiyalashuvi orqali ochiqlik, shaffoflik hamda samaradorlik darajasi oshadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun raqamli infratuzilmaning kengaytirilishi iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv o'sishini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, O'zbekiston uchun internet qamrovini yanada kengaytirish, uning sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur integratsiyasini ta'minlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Internet qamrovi oshishi yangi ish o'rinlarini yaratadi, raqamli xizmatlar sohasi (IT, freelancing, e-commerce) rivojlanadi. Masofaviy ishlash imkoniyati orqali ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bandligi oshadi. "Gig economy" (masalan, Yandex Go, MyTaxi, Uzun) rivojlanadi. Jahon bankining tadqiqotlariga ko'ra, keng polosali internetning ulanishning 10 foizga oshishi rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishini 1,21 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 1,38 foizga oshiradi. Rivojlangan mamlakatlar uchun ko'effitsient 1 foiz darajasida muhim bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu ko'rsatkich atigi 10 foizni tashkil etdi.

2. Iqtisodiyotdagi raqamli xizmatlar ulushi (elektron to'lovlar, onlayn savdo, elektron hukumat xizmatlari) Iqtisodiyotdagi raqamli xizmatlar ulushi — bu raqamli texnologiyalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning mamlakat iqtisodiyotidagi umumiy xizmatlar sektori yoki yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi hissasini anglatadi. Quyida elektron to'lovlar, onlayn savdo va elektron hukumat xizmatlarining iqtisodiyotdagi o'rnini va ulushi haqida umumiy tahlil va tavsif berilgan. Naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Soliq tushumlari oshadi — shaffoflik ortadi. Tranzaksiya tezligi va qulayligi ortadi. Uzcara, Humo, Click, Payme kabi tizimlar orqali o'tkazilgan to'lovlar hajmi iqtisodiy faoliyatning muhim segmentiga aylangan. Jahon miqyosida 2024-yilda global chakana savdoning 22-25% atrofida onlayn savdo orqali amalga oshirilgan.

3. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi raqamli yechimlar (AI, IoT, Big Data, Cloud Computing qo'llanilishi)

AI — Sun'iy intellekt qo'llanilishi sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, nosozliklarni oldindan aniqlash, sifat nazorati kabi soxalarda qo'llanadi. Xizmat ko'rsatishda, chatbotlar, mijozlar xatti-harakatini tahlil qilish, tibbiyotda tashxis qo'yish, moliyaviy sohada risklarni baholashda qo'llaniladi.

4. Ishchi kuchining raqamli savodxonligi va raqamli ko'nikmalar darajasi

Raqamli savodxonlik — bu ishchi kuchining kompyuter, internet, mobil texnologiyalar va boshqa raqamli vositalardan xavfsiz, samarali va maqsadli foydalana olish ko'nikmalaridir. Raqamli savodxonlik — bu axborot va raqamli texnologiyalarni tushunish, ulardan ongli va tanqidiy foydalanish, yangi texnologiyalarni o'zlashtira olish qobiliyatidir.

Yevropa Ittifoqida ishchi kuchining 54% dan ortig'ida o'rta va yuqori raqamli ko'nikmalar mavjud (2023). **Janubiy Koreya, Singapur, Estoniya** kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda yuqori — 70–85%. O'zbekistonda bu ko'rsatkich nisbatan past, ayniqsa, yoshlar orasida o'rta yoki yuqoriroq, Keksalar, qishloq aholisi orasida past darajada. 2023-yilda aholining raqamli savodxonlik

darajasi 35–40% ini tashkil etgan. O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishiga eng kuchli ta’sir qilayotgan omillar — internetdan foydalanish darajasi va asosiy kapitalga investitsiyalar. Mobil aloqa o‘shishga salbiy emas, lekin kuchli ham emas.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy o‘shish, soliq tushumlari oshishi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa internet infratuzilmasining kengayishi va asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Internetdan foydalanish darajasining 1% ga oshishi iqtisodiy o‘shishni 0.21% ga oshirishi, investitsiyalarning esa 0.26% ga ijobiy ta’siri mavjudligi buni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mobil aloqa xizmatlari ham o‘shishga hissa qo‘shsa-da, ta’sir darajasi nisbatan past hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PF-6079-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
3. G‘ulomov S.S. va boshq. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.TOSHKENT. “IQTISOD-MOLIYA”. 2019. 380 b.

HR-menejment va uni O‘zbekiston xizmatlar bozorida qo‘llash imkoniyatlari

Sh.Abidova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi

HR ingliz tilidan olingan bo‘lib, “Human resources”— inson resurslari degan ma’noni bildiradi. HR menejmenti tizimi bu inson resurslarini boshqarish tizimi, ya’ni xodimlarni boshqarishning eng zamonaviy va eng samarali usullarini qo‘llash hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, inson resurslarini boshqarish (Human Resources Management - HRM, yoki oddiygina HR) tashkilotning shu yerda ishlaydigan insonlarni yollash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ichki siyosati yoki ichki kompleks funksiyasi hisoblanib, inson faoliyatiga ta’sir qiluvchi barcha jarayonlar va dasturlar HR ning bir qismidir.

Inson resurslari bu - tashkilotda ishlaydigan malakali mutaxassislardir. Inson resurslarini boshqarish aslida xodimlarni boshqarish bo‘lib, korxonaning aktivlari bo‘lgan ishchilarga e’tibor beradi. Shu munosabat bilan bunday xodimlar ba’zan inson kapitali deb ham ataladi.

Amerikalik iqtisodchi Jon Kommons birinchi marta 1893-yilda nashr etilgan “Boylarning taqsimoti” kitobida inson resurslari atamasini kiritgan. Biroq, 20-asrga qadar HR bo‘lmagan, u keyinchalik rivojlangan hamda HR bo‘limiga dastlab faqat xodimlar va ularning ish beruvchilari o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish vazifasi yuklangan.

HR ning xizmatlar bozoridagi asosiy strategik funksiyalari:

- ✓ korxona va biznes strategiyasini muvozanatlash;

- ✓ tashkilot jarayonlarining reinjiningi;
- ✓ tashkilot xodimlari bilan o'zaro axborot aloqasi, o'zgarishlarni boshqarishdir.

HR menejeri tashkiliy yetakchilik va boshqaruv madaniyati monitoringi uchun javobgar hisoblanadi.

Xizmatlar bozorida inson resurslarini boshqarish to'rtta taktik funktsiyaga ega:

- Xodimlar bilan ta'minlash.
- Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish.
- Motivatsiyani boshqarish.
- Texnik xizmatlar.

Kadrlar ta'minotiga potensial xodimlarni intervyu, ilovalar, tarmoqlar va boshqalar orqali ishga tanlash va yollashni o'z ichiga oladi.

O'rgatish va rivojlantirish malakali xodimlarni uzluksiz rivojlantirish jarayonidagi navbatdagi qadamdir. Motivatsiya xodimlarning yuqori mahsuldorligini ta'minlash kaliti hisoblanadi. Bu funktsiya ishchilarga berilgan imtiyozlar, faoliyatni baholash va mukofotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Oxirgi funktsiya - xizmat ko'rsatish - ularning sadoqatini va tashkilotga sodiqligini saqlashni o'z ichiga oladi.

HRM inson resurslari bo'yicha mutaxassislarga yangi xodimlarni samarali tarzda o'qitish imkonini beradi. Texnologiya sifatida paydo bo'lgan HRM endi ilmiy soha bo'lib, ontologik tavsiflardan foydalanishni talab qiladi.

HRda esa asosan xodimlar bilan, ularning shaxsi bilan ko'proq ishlanadi, aynan bu tizimda xodim va korxona o'rtasida uzviylik ko'proq bo'ladi. Hozirgi xizmatlar bozorida kadrlar xizmati tizimida 70 foizlik ish ko'lami hujjatlardan, 30 foizi xodimlarning shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, HRda buning teskarisi, ya'ni hujjatlar bilan ishlash ish ko'lamining 30-35 foizini tashkil qilishi kerak. Qolgan resurslar xodimlarning o'ziga qaratiladi.

Xizmatlar bozorida inson resurslarini boshqarishning maqsadlarini to'rtta keng toifaga bo'lish mumkin:

1. Ijtimoiy maqsadlar: kompaniya va uning xodimlarining axloqiy va ijtimoiy ehtiyojlari yoki muammolariga javob beradigan chora-tadbirlar. Bu teng imkoniyat va teng ish uchun teng haq kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

2. Tashkiliy maqsadlar: tashkilot samaradorligini ta'minlashga yordam beradigan harakatlar. Bunga o'qitishni ta'minlash, berilgan topshiriq uchun kerakli miqdordagi xodimlarni yollash yoki xodimlarni ushlab turish va ularni saqlab qolish kiradi.

3. Funktsional maqsadlar: HRning butun tashkilot ichida to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun qo'llaniladigan ko'rsatmalar. Bunga HRning barcha resurslari to'liq potensialiga qarab taqsimlanishiga ishonch hosil qilish kiradi.

4. Shaxsiy maqsadlar: har bir xodimning shaxsiy maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan resurslar.

Bunga ta'lim yoki martaba rivojlanishi imkoniyatini taklif qilish, shuningdek, xodimlarning ishdan qoniqishini saqlab qolish kiradi. Hozir mamlakatimizda rivojlangan zamonaviy kompaniyalar, qo'shma korxonalar

kadrlar xizmati bo'limlaridan voz kechib, HR bo'limlari bilan ishlamoqda. Bunda hozirgi kadrlar xizmati faoliyati HRning alohida yo'nalishi sifatida uning ichida bo'ladi.

Masalan, HR tizimi rivojlanishi uchun mehnat huquqi normalari egiluvchan bo'lishi kerak, mehnat munosabatlari mehnat qonunlaridagi qattiq normalar bilan emas, asosan shu kompaniyadagi ish beruvchi va jamoaviy manfaatlarga mos keladigan ichki lokal hujjatlar asosida qurilishi kerak. Yangi tasdiqlanadigan mehnat kodeksidagi yuzlab qattiq normalar bizda HR tizimiga o'tishga yo'l berishi qiyinroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, HR va kadrlar bo'limi o'rtasidagi asosiy farq natijaviy muhitda. Hujjatlarga ko'milgan kadrlar xizmatlarida xodimlarning manfaatlari u qadar e'tiborga olinmaydi, muhit ham shunga yarasha bo'ladi. Xodimlarning shaxsi bilan ishlashga va o'rtada ko'prik yaratishga qaratilgan HRda mehnatkash va samarador xodimlar juda qadrlanadi, jamoa bir oiladek shakllanadi, o'z-o'zidan muhit ham, ishchanlik kayfiyati ham yaxshi bo'ladi. Umumiy va xususiy inson salohiyatini shakllantirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilsa, inson kapitali va resurslari darajasi o'ssa, tashkilotning raqobatbardoshligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдурахмонов Қ.Х. Холмўминов Ш.Р., Хайитов А.Б., Акбаров А.М. „Ходимларни бошқариш“ — Тошкент. 2018 й.
2. Управление персоналом: Учебник / Под ред. Базарова Т.Ю., Еремина Б.Л. - Москва. ЮНИТИ, 2017.
3. Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқалар. Давлат хизмати персоналини бошқариш: / Ўқув қўлланма. Тошкент. „Академия“, 2022.
4. Одегов Ю.Г. Управление персоналом в структурно – логических схемах. Москва. „Академический проект“, 2016.
5. Травин В.В., Магура М.И., Курбатова М.Б. Управления человеческими ресурсами: Учебное пособие — Москва. ИНФРА-М, 2018.

Bank tizimida yashil investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari

**Sh.A. G'afurov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri**

Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillari kuchayib borayotgan bir paytda, bank tizimi yashil iqtisodiyotga o'tishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, yashil moliyalashtirish nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini ham yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida tijorat banklariga ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida vazifalar yuklatilgan.

Yashil moliyalashtirish investitsiyalar, kreditlar yoki sug'urta kabi atrof-muhitga foyda keltiradigan har qanday tuzilgan moliyaviy faoliyatni anglatadi. Bular qayta tiklanadigan energiya, ifloslanishni nazorat qilish, biologik xilma-xillik yoki barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Yashil moliyalashtirishning yana bir nomi Climate Finance (iqlim moliyasi) bo'lib, ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, lekin ba'zida qamrovi bo'yicha farqlanadi. Yashil moliya, shuningdek, barqaror moliyaning asosiy bo'g'ini bo'lib, u qo'shimcha ravishda ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini qamrab oladi.

ESG (Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) kompaniyalar va investitsiyalar barqaror amaliyotlarga qanday mos kelishini baholash uchun asosdir. ESG yashil moliyasi ESGni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyalar va mahsulotlarga, xususan, atrof-muhitga tegishli.

Bunga quyidagilar kiradi:

Energiya tejamkor binolar yoki elektr transport vositalari uchun yashil moliya kreditlari

Yashil obligatsiyalar shamol fermalari kabi yirik infratuzilmani moliyalashtiradi

Investitsion skrinigda ESG integratsiyasi

ESG ko'rsatkichlari institutsional investorlar, reyting agentliklari va aktivlar menejerlariga portfollarni atrof-muhit maqsadlariga moslashtirishda yordam beradi.

Yashil moliyalashtirish iqlim va barqarorlik maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun global moliyaviy tizimni qayta shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U kapital oqimini ekologik jihatdan foydali loyihalarga va uglerodni ko'p talab qiluvchi faoliyatlardan uzoqlashtirishga yo'naltiradi, kam uglerodli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Ushbu siljish shunchaki o'tadigan tendentsiyani emas, balki kengroq o'zgarishlarni aks ettiradi:

— Global energiya almashinuvini tezlashtiradi: 2024 yilda yashil energiyaga o'tish uchun global investitsiyalar 2,1 trillion dollardan oshdi, bu rekord darajadagi yuqori ko'rsatkichdir va iqlimga moslashtirilgan yashil moliyalashtirishning ortib borayotgan ahamiyatini ta'kidlaydi.

— Iqlim bo'yicha maqsadlarga erishishni qo'llab-quvvatlaydi: Yashil moliyalashtirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari va Parij kelishuvida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga bevosita hissa qo'shadi.

— Iqlim bilan bog'liq moliyaviy riskni yumshatadi: Barqaror infratuzilma va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali yashil moliya iqlim o'zgarishi, tartibga solish o'zgarishlari va atrof-muhit degradatsiyasidan kelib chiqadigan xatarlarga ta'sir qilishni kamaytiradi.

— Uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni rag'batlantiradi: qayta tiklanadigan energiya, biologik xilma-xillikni saqlash va toza transportni moliyalashtirish innovatsiyalarni rag'batlantiradi va qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytiradi.

Global iqtisodlar o'tish davrida yashil moliya emissiyalarni nolga tenglashtirish va yanada mustahkam moliyaviy tizimlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Yashil moliyalashtirish turlari:

Yashil moliya mexanizmlarini tushunish uning xilma-xilligini tan olishni anglatadi. Kapitalni atrof-muhitga foyda keltiradigan loyihalarga yo'naltirish uchun bir qancha moliyaviy vositalar ishlab chiqilgan. Yashil moliyalashtirishning eng ko'p qo'llaniladigan turlari:

Yashil ipoteka (Green mortgages): Yuqori energiya tejamkorligi standartlariga javob beradigan mulklar yoki energiyani tejaydigan yangilanishlarga sarmoya kiritayotgan uy egalari uchun imtiyozli shartlar bilan taklif etiladi. Ushbu mahsulotlar barqaror uy-joy va uzoq muddatli emissiyalarni kamaytirishga yordam beradi.

Yashil kreditlar (Green loans): Quyosh panellarini o'rnatish, elektr transport vositalari, energiya tejaydigan ta'mirlash va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari kabi ekologik tashabbuslarni moliyalashtirishga bag'ishlangan. Yashil kreditlar ko'pincha davlat imtiyozlari yoki yashil banklar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Yashil kredit kartalari (Green credit cards): Atrof-muhitga e'tiborli iste'molchilar uchun mo'ljallangan ushbu kartalar odatda har bir tranzaksiya uchun daraxt ekish yoki uglerodni hisobdan chiqarish kabi ekologik tashabbuslarni moliyalashtiradi.

Yashil banklar (Green Banks): toza energiya va iqlimga chidamli infratuzilmaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat kapitalidan foydalanadigan davlat yoki boshqa moliya institutlari. Yashil banklar investitsiyalar riskini kamaytirish va yashil moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yashil obligatsiyalar (Green bonds): Sektordagi eng keng tarqalgan vositalardan biri bo'lgan yashil obligatsiyalar ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun investorlardan mablag' to'playdi. Bularga toza transport, qayta tiklanadigan energiya yoki tabiatni muhofaza qilish loyihalari kiradi. Ular korporatsiyalar, munitsipalitetlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqariladi.

Bank tizimi yashil investitsiyalarni amalga oshirishda hal qiluvchi vositadir. Global trendlar va xalqaro hisobotlar ham banklar uchun imkoniyatlar ko'rsatmoqda: toza energiya infratuzilmasiga yo'naltirilgan sarmoyalar oshmoqda va qayta tiklanuvchi quvvat o'sishi rekord darajada amalga oshmoqda. Mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, milliy va xalqaro kredit liniyalari va ESG integratsiyasi orqali banklar yashil loyiha portfelini muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.ebrd.com/impact-report-2024> EBRD Impact Report 2024
2. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024> United Nations (2024). World Investment Report. Geneva.

3. OECD (2021). Green Growth and Sustainable Development.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-sonli “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.
5. World Bank (2020). Energy Efficiency in Emerging Economies.
6. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewable Capacity Statistics, 2022.

The Issues of Academic Freedom in Non-State Higher Education Institutions

**S.Khudayberdiev,
Graduate student of Oriental University**

In recent years, the development of non-state higher education institutions in Uzbekistan has significantly expanded the country’s educational landscape. These institutions have introduced diversity, innovation, and competition into the higher education sector. However, one of the most essential and complex challenges they face concerns the issue of academic freedom. Academic freedom is a fundamental principle that guarantees the quality, independence, and credibility of education and research. It allows teachers, scholars, and students to express their opinions freely, pursue research without interference, and choose methods of teaching and learning independently.

In non-state higher education institutions, the implementation of academic freedom often depends on the ownership structure, internal governance, and the extent of state regulation. While the establishment of private universities has opened new opportunities for academic and institutional innovation, their autonomy is frequently constrained by the need to comply with national educational standards and accreditation requirements. According to the Law on Education and the Law on Higher and Postgraduate Education of Uzbekistan, both state and non-state universities must follow unified state standards. This ensures comparability of quality but also limits flexibility in curriculum design and program development.

Non-state institutions, as self-financing organizations, rely primarily on tuition fees. This financial model encourages efficiency and responsiveness to market demands, yet it may also prioritize commercial interests over academic integrity. In some cases, financial pressures can influence the choice of academic programs, reduce investment in research, and limit the scope for critical inquiry. Additionally, decision-making in private institutions is often centralized in the hands of founders or boards of trustees, which can diminish the participation of faculty and students in governance processes. Such a structure may affect the free exchange of ideas and the independence of academic decisions.

Despite these challenges, several non-state universities in Uzbekistan have successfully integrated international academic standards and governance models that promote academic freedom. For instance, institutions such as Westminster

International University in Tashkent and TEAM University have introduced practices that encourage research-oriented teaching, independent evaluation systems, and a culture of open dialogue. These experiences demonstrate that with clear policies and transparent governance, private universities can maintain both quality assurance and academic independence.

The protection of academic freedom in non-state higher education institutions requires a balanced approach between regulation and autonomy. State authorities should create a flexible legal and accreditation framework that supports diversity and innovation rather than imposing strict uniformity. Non-state institutions, in turn, must strengthen internal academic governance, develop ethical standards for research, and ensure that faculty and students participate in decision-making processes.

Promoting academic freedom also involves creating conditions for research development. This includes diversifying sources of funding, encouraging partnerships with international organizations, and establishing internal grant systems that support independent studies. Moreover, fostering a culture of open discussion, tolerance of differing opinions, and respect for academic integrity is vital for building an environment where knowledge can thrive freely.

In conclusion, non-state higher education institutions in Uzbekistan have an important role in modernizing the education system and integrating it into the global academic community. However, their contribution will be truly meaningful only when academic freedom becomes a core value guiding their operations. Achieving a balance between state oversight and institutional independence will allow these universities to become genuine centers of knowledge creation, critical thinking, and innovation that serve both national progress and global intellectual development.

Moliyaviy savodxonlikning oilaviy budjet boshqaruviga ta'siri

**S.Imomova, Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi magistranti**

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot moliyaviy savodxonlikning oilaviy budjetni boshqarishdagi o'rni va ahamiyatini IMRAD uslubida tahlil qiladi. Moliyaviy savodxonlik shaxsning kundalik moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi kompetensiyasini, daromad va xarajatlarni nazorat qilish ko'nikmalarini, kreditlardan oqilona foydalanish darajasini, jamg'arma va investitsiya madaniyatini, shuningdek, moliyaviy xavflardan himoyalaniish qobiliyatini qamrab oladi. Tadqiqot davomida moliyaviy savodxonlikning oilalarning iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy xatti-harakatlari, jamg'arma shakllari, kredit yuklamasi va budjet barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi keng miqyosda o'rganildi. Natijalar moliyaviy savodxonlikni oshirish oilalarda strategik fikrlashni kuchaytirishini, resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishini, impulsiv xaridlarni kamaytirishini va moliyaviy xavfsizlik yostiqchasi shakllanishiga yordam berishini ko'rsatdi.

Kirish - Introduction

XXI asrda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarning ko'payishi va kreditlash tizimlarining ommalashuvi shaxslarning moliyaviy bilimlarga ega bo'lishini hayotiy zaruratga aylantirdi. Moliyaviy savodxonlik — bu nafaqat nazariy tushunchalar yig'indisi, balki kundalik hayotda to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishni ta'minlaydigan amaliy bilim va ko'nikmalar majmuidir. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda har bir oila o'z budgetini boshqarishda murakkab vaziyatlarga duch kelmoqda: narxlarning o'zgarishi, kreditlarning ko'payishi, valyuta tebranishlari, kutilmagan tibbiy yoki maishiy xarajatlar, iste'mol shovqini va raqamli to'lov tizimlarining kengayishi ushbu jarayonlarni yanada murakkablashtirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy savodxonlik oilaning daromadlarini optimallashtirish, xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, jamg'arma yaratish, investitsion qarorlar qabul qilish va kreditlardan oqilona foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan oilalar iqtisodiy barqarorlikka tezroq erishadi, daromadlarida o'zgarish bo'lsa ham moliyaviy inqirozlarga kamroq duch keladi.

Aksincha, moliyaviy savodsizlik ko'pincha rejasiz xarajatlar, impulsiv xaridlar, kredit va qarzlar miqdorining oshishi, jamg'armalarning yetishmasligi, moliyaviy stressning kuchayishi va oilaviy nizolarning ortishiga sabab bo'ladi. Jahon banki va OECD tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy savodxonlikning past bo'lishi oilalarning 40–60 foizida moliyaviy muammolarga olib keladi.

Ushbu maqola moliyaviy savodxonlikning oilaviy budget boshqaruviga ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud nazariy yondashuvlarni o'rganish, empirik natijalarni umumlashtirish va oilalarda moliyaviy intizomni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

Metodlar - Methods

Tadqiqot bir necha bosqichda, kompleks ilmiy usullar asosida amalga oshirildi.

1. Nazariy tahlil (Literature Review)

Bu bosqichda quyidagi ilmiy manbalar chuqur o'rganildi:

- OECD (INFE) moliyaviy savodxonlik standartlari;
- Jahon bankining moliyaviy inklyuziya bo'yicha hisobotlari;
- Hilgert va Hogarth tomonidan uy xo'jaliklarining moliyaviy xulq-atvori bo'yicha tadqiqotlar;
- Lusardi va Mitchellning moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy farovonlikka ta'siri haqidagi ilmiy ishlari;
- O'zbekiston iqtisodchilarining moliyaviy madaniyat bo'yicha ilmiy maqolalari.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlikka ikkita asosiy yondashuv mavjud:

1. **bilimga asoslangan yondashuv**, ya'ni shaxsning moliyaviy tushunchalarni bilish darajasi;

2. **xulq-atvorga asoslangan yondashuv**, ya'ni real hayotdagi moliyaviy qarorlarni qanday qabul qilishi.

Ushbu yondashuvlar oilaviy budjetni boshqarish tajribasi bilan uzviy bog'liqdir.

2. Taqqoslama tahlil (Comparative Method)

Moliyaviy savodli va savodsiz oilalar o'rtasida quyidagi jihatlar bo'yicha taqqoslash o'tkazildi:

- budjet rejalashtirish odatlari;
- daromadlar va xarajatlar balansini yuritish;
- impulsiv xaridlar chastotasi;
- kreditlardan foydalanish madaniyati;
- jamg'arma mavjudligi;
- moliyaviy stress darajasi.

Natijada, yuqori savodxonlik darajasiga ega oilalar barqaror moliyaviy xatti-harakatlarni namoyon qilishi aniqlandi.

3. Konseptual model ishlab chiqish

Moliyaviy savodxonlikning budjet shakllanishiga ta'sir mexanizmini ifodalovchi model ishlab chiqildi. Model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy bilim →
2. Moliyaviy xulq-atvor →
3. Budjet boshqaruvi strategiyasi →
4. Iqtisodiy natija (barqarorlik, jamg'arma, qarz yukining kamayishi).

Bu model oilalarda moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

4. Empirik kuzatuv va umumlashtirish

Raqamli to'lovlar, kredit kartalari, iste'mol kreditlari, mikroqarzlar va jamg'arma odatlarining oilaviy moliyaga ta'siri bo'yicha kuzatuvlar o'tkazildi. Aholi orasida ko'p uchraydigan xatolar, masalan:

- rejasiz xaridlar;
- ortiqcha kredit olish;
- jamg'arma yo'qligi;
- moliyaviy intizomning pastligi aniqlanib, umumlashtirilgan holda tahlil qilindi.

Natijalar - Results

Tadqiqot natijalari moliyaviy savodxonlik darajasiga qarab oilalarning moliyaviy xulqi keskin farq qilishini ko'rsatdi.

1. Moliyaviy savodli oilalarda kuzatilgan ijobiy ko'rsatkichlar

- Budjet har oy muntazam rejalashtiriladi va sarf-harajatlar nazorat qilinadi.
- Oilalar kamida 3–6 oylik xarajatlarga teng moliyaviy “xavfsizlik yostiqchasi”ga ega bo'ladi.

- Jamg'arma odati shakllangan bo'lib, daromadning 10–20% qismini tejashga qaratadi.
- Kreditdan foydalanishda ongli yondashuv mavjud: kredit faqat zarurat tug'ilganda olinadi va qaytarish imkoniyati baholanadi.
- Kutilmagan xarajatlarga qarshi moliyaviy himoya mavjud.
- Uzoq muddatli maqsadlar, masalan, uy-joy olish, ta'limga investitsiya qilish, sog'liqni saqlash jamg'armalari rejalashtiriladi.

2. Moliyaviy savodsiz oilalarda aniqlangan muammolar

- Xarajatlarning 30–40% ulushi impulsiv xaridlardan iborat.
- Jamg'arma umuman yo'q yoki juda kichik.
- Daromad yetmay qolganda kredit yoki qarzga murojaat qilinadi.
- Kredit yuklamasi o'sib boradi va oilaviy bosimni kuchaytiradi.
- Moliyaviy rejalashtirish mavjud emas, har oy “tasodifiy” budjet yuritiladi.
- Kutilmagan xarajatlari yuzaga kelganda moliyaviy inqiroz sodir bo'ladi.

3. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'limning real samaralari

Moliyaviy treninglarda qatnashgan oilalarda:

- jamg'arma 10–25% ga oshgan;
- keraksiz xarajatlari 15–30% ga kamaygan;
- kreditdan foydalanish odati qayta ko'rib chiqilgan;
- budjet yurgizishning ikki usuli — “konvertlar usuli” va “raqamli hisob” keng qo'llanilgan;
- oilaviy moliyaviy intizom mustahkamlangan.

Muhokama - Discussion

Natijalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Moliyaviy savodxonlik oshishi bilan oilaning iqtisodiy qarorlari yanada ongli, puxta rejalashtirilgan va uzoq muddatli natijaga qaratilgan bo'ladi.

Shuningdek, moliyaviy savodsizlikning oqibatlari nafaqat iqtisodiy, balki psixologik salbiy ta'sir ham ko'rsatadi: stress, oilaviy kelishmovchiliklar, qarz tuzog'iga tushish, ijtimoiy beqarorlik. Bu esa moliyaviy savodxonlikning ijtimoiy ahamiyatga egaligini yanada oshiradi.

Moliyaviy savodli jamiyat:

- iqtisodiy jihatdan barqaror bo'ladi;
- kambag'allik darajasi kamayadi;
- aholining farovonligi oshadi;
- milliy iqtisodiyotga ishonch mustahkamlanadi.

Shuning uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak.

Xulosa - Conclusion

1. Moliyaviy savodxonlik oilaviy budjetning sifatli yuritilishini ta'minlaydi.

2. Savodxonligi yuqori oilalar moliyaviy barqarorlikka tezroq erishadi.
3. Moliyaviy savodsizlik moliyaviy inqiroz, kredit yukining ortishi va farovonlikning kamayishiga olib keladi.
4. Moliyaviy ta'lim qisqa muddatda ham ijobiy natija beradi.
5. Maktab, kollej, oliy ta'lim va ommaviy axborot vositalarida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha dasturlarni kengaytirish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Atkinson, A., & Messy, F. (2012). *Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study*. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions.
2. Chen, H., & Volpe, R. (1998). *An analysis of personal financial literacy among college students*. Financial Services Review, 7(2), 107–128.
3. Hilgert, M., Hogarth, J., & Beverly, S. (2003). *Household financial management: The connection between knowledge and behavior*. Federal Reserve Bulletin, 89, 309–322.
4. Huston, S. (2010). *Measuring financial literacy*. Journal of Consumer Affairs, 44(2), 296–316.
5. Jurayev, X. (2021). Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
6. Karimov, M., & To'xtayeva, N. (2023). *Moliyaviy savodxonlikning oilaviy budjetga ta'siri: amaliy tadqiqot*. O'zbekiston Ijtimoiy-Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 2(6), 112–120.
7. Klapper, L., Lusardi, A., & van Oudheusden, P. (2015). *Financial Literacy Around the World*. Standard & Poor's Global Financial Literacy Survey.
8. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence*. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44.
9. Remund, D. (2010). *Financial literacy explicated: The case for a clearer definition in an increasingly complex economy*. Journal of Consumer Affairs, 44(2), 276–295.
10. Roy, A. (2019). *Impact of financial literacy on family budgeting and saving behavior*. International Journal of Finance and Banking Studies, 8(1), 45–57.
11. Мехдиев, Р. (2020). *Финансовая грамотность населения и семейный бюджет*. Экономика и финансы, 4(12), 55–60.
12. Сабантеева, О. (2018). *Финансовая грамотность и управление личными финансами*. Москва: Инфра-М.

Davlat qarzi va inflatsiyaning o‘zaro tasirini hisoblashning uslubiy asoslarini takomillashtirishning nazariy asoslari

**A.Narkuziyev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti**

Bugungi kunda davlat qarzi va inflyatsiya iqtisodiyotning muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi mamlakatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy o‘rishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Davlat qarzining darajasi va shakli, shuningdek inflyatsiyaning sur‘ati, davlat siyosatini shakllantirishda va iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy omillardan biri sifatida e‘tiborga olinadi. Ayniqsa, yuqori davlat qarzi holatlarida inflyatsiyaning o‘rishi davlatning qarzlarni qaytarish qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlikka xavf tug‘diradi. Shu sababli, davlat qarzi va inflyatsiyaning o‘zaro ta‘sir mexanizmini chuqur tahlil qilish va ularni hisoblash uchun uslubiy asoslarni takomillashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu masala iqtisodiyotda samarali moliyaviy siyosat olib borish va moliyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi. Mazkur ishda davlat qarzi va inflyatsiyaning o‘zaro ta‘sirini hisoblash usullarining mavjud nazariy va amaliy asoslari ko‘rib chiqilib, ularni takomillashtirish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy siyosatni yanada aniqroq va samaraliroq shakllantirishga imkon beradi.

Davlat qarzi — bu davlat tomonidan tashqi yoki ichki manbalardan olinadigan moliyaviy resurslar majmuasi bo‘lib, u iqtisodiyotga bo‘lgan davlatning moliyaviy majburiyatlarini aks ettiradi. Inflyatsiya esa — pul qiymatining pasayishi va umumiy narxlar darajasining uzluksiz oshishi jarayonidir. Bu ikki fenomen iqtisodiy tizimda o‘zaro ta‘sirchanlikka ega bo‘lib, biri boshqasining shakllanishiga va rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘tgan yillarda jahon iqtisodiyotida davlat qarzining o‘rishi va inflyatsiyaning yuqori darajalari ko‘plab mamlakatlar uchun dolzarb muammo sifatida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda davlat qarzining iqtisodiyotga bosimi, shu jumladan uning inflyatsiyaga ta‘siri katta e‘tibor qaratilmoqda. Yuqori davlat qarzi holatlarida, davlat moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun yangi qarzlarni olish yoki pul massasini oshirish yo‘llarini tanlashga majbur bo‘lishi mumkin, bu esa inflyatsiya jarayonlarini yanada kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Natijada, inflyatsiyaning yuqori darajasi iqtisodiyotdagi investitsiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shu bois, davlat qarzi va inflyatsiyaning o‘zaro tasirini aniq va to‘liq tushunish, bu jarayonlarni raqamli jihatdan ifodalash va ularni hisoblashning uslubiy asoslarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatni samarali olib borish uchun zarur. Ushbu muammoni ilmiy asosda o‘rganish iqtisodiy nazariya va amaliyotning integratsiyasini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada asosiy maqsadi — davlat qarzi va inflyatsiyaning o‘zaro ta‘sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, ularni hisoblashning mavjud uslublarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirishga qaratilgan yangi nazariy

yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash va moliyaviy siyosatni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu ishda davlat qarzi va inflyatsiyaning o'zaro ta'sirini o'rganishda iqtisodiy nazariyalar, statistik usullar va matematik modellash yondashuvlari qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosatchilar va moliyaviy mutaxassislar uchun qimmatli manba bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga xizmat qiladigan takliflar ishlab chiqishga imkon beradi.

Bu maqolada iqtisodiyotning makroiqtisodiy sohasi bilan bog'liq bo'lib, davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish uchun turli statistik usullar, modellash va nazariy asoslar mavjud.

Indikator	Belgilanishi o'lchami	Maqsadi izohi
Joriy yil oxirgi davlat qarzi (ya'ni joriy jami davlat qarzi)	Nominal birlikda (milliard so'm / dollarda)	Qarzning joriy hajmi
Davlat qarzi / yaim (nisbatan)	Qarz darajasining iqtisodga nisbati	Foizlarda
Ichki qarz va tashqi qarz (alohida)	Nominal birlikda	Qarz tarkibi (ichki/tashqi)
Inflyatsiya darajasi (iste'mol narxlari indeksi – CPI)	Yillik foiz o'zgarish	Narxlar o'sish sur'ati
Yaim deflyatori o'sishi	Yillik foiz o'zgarish	Narxlar darajasining umumiy indeks o'zgarishi
Monetar indikatorlar: pul massasi (M2, M3) o'sishi	Yillik foiz o'zgarish	Pul ta'minoti dinamikasi
Foiz stavkalari	O'rtacha yillik foiz	Qarz xarajatlari darajasi
Byudjet balans ko'rsatkichi (Byudjet defitsiti / yaim)	Foizlarda	Fiskal pozitsiya
Iqtisodiy o'sish (real yaim o'sishi)	Yillik %	O'sish bosimi, pulsizlik xavfi
Valyuta kursi o'zgarishi	Foiz va kurs differensial	Tashqi qarzning valyuta riskini ko'rsatadi
Xorijiy kredit olingan summalar	Nominal birlikda	Yangi qarzning hajmi

Ushbu indikatorlar birgalikda ishlatilsa, davlat qarzi bilan inflyatsiya o'rtasidagi korrelyatsiya, sabab-oqibat munosabatlari va model parametrlarini aniqlash mumkin.

Quyida ushbu mavzuga oid asosiy nuqtalarni va statistik ma'lumotlarni umumlashtirilgan.

Kerak bo'ladigan yillik statistik ko'rsatkichlari.

Davlat qarzi va inflyatsiyaning o'zaro munosabatini tahlil qilish uchun quyidagi yillik indikatorlar odatda ishlatiladi.

Davlat qarzi va inflyatsiya haqida umumiy tushunchalar.

Davlat qarzi - davlat tomonidan yigilgan qarz majmuasi bo'lib, davlatning ichki va tashqi qarzlarini o'z ichiga oladi.

Inflyatsiya - umumiy narxlar darajasining doimiy oshishi, pul qiymatining pasayishi.

Davlat qarzi va inflyatsiyaning o‘zaro munosabati.

Nazariy jihatdan davlat qarzining oshishi inflyatsiyaga ta’sir qilishi mumkin, ayniqsa, agar qarzning to‘lovlari markaziy bank tomonidan pul bosish orqali moliyalashtirilsa.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lsa, davlat qarzining real qiymati kamayadi, ammo yuqori inflyatsiya iqtisodiy barqarorlikni buzadi.

Statistik ma’lumotlar va o‘lchovlar.

Davlat qarzi nisbatlari qarzning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati (masalan, %).

Inflyatsiya indeksi - iste’mol narxlar indeksi (CPI), yalpi ichki mahsulot deflyatori.

Pul-kredit statistikasi - markaziy bankning pul massasi, foiz stavkalari.

Davlat qarzi va inflyatsiyani tahlil qilish usullari.

Regression tahlil - davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlash uchun.

Vektor avtokorrelyatsiya (VAR) modellar vaqt bo‘yicha qarz va inflyatsiyaning o‘zaro dinamikasini o‘rganish.

Kointegratsiya testlari uzoq muddatli barqaror munosabatlarni aniqlash uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. G‘ulomov S.S., Xodiev B.Y. Makroiqtisodiyot. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.
2. Xasanov B.H. Davlat moliyasi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Mamadaliev R., Tolipov O. Inflyatsiya va uning iqtisodiy xavflari. — Toshkent: Fan, 2018.

The Practical Role of Academic Freedom in the Assessment of Investment Projects

**A. Ulashov, Senior teacher of Economics Theory
Tashkent State University of Economics**

Investment projects are critical drivers of economic growth, technological advancement, and societal development. Their assessment involves rigorous evaluation of risks, potential returns, and long-term sustainability. However, the quality and reliability of these assessments largely depend on the freedom of experts to explore, critique, and propose innovative solutions without political or corporate constraints. Academic freedom, defined as the liberty of scholars and researchers to pursue truth and knowledge without external interference, plays a fundamental role in ensuring objectivity and innovation in investment project evaluations.

Academic freedom is traditionally associated with universities and research institutions. It grants scholars the autonomy to teach, research, and publish findings

without undue pressure from governments, corporations, or interest groups[1]. In the context of investment projects, academic freedom ensures that economic models, financial forecasts, and environmental impact studies are conducted with objectivity rather than manipulated to serve predetermined outcomes. Without such independence, investment decisions may become biased, leading to resource misallocation, corruption, and unsustainable development[2].

The assessment of investment projects requires interdisciplinary expertise—economics, finance, engineering, environmental science, and social policy. Academic freedom contributes in several ways:

Independent Risk Analysis.

Investment projects carry uncertainties in cost, market demand, regulatory changes, and technology. Scholars free from political or corporate influence can present more realistic risk scenarios. For instance, independent academics may challenge overly optimistic financial projections made by investors, thereby protecting public resources and shareholders.

Innovation and Methodological Advancement.

Free academic inquiry encourages the development of novel tools such as real-options valuation, sustainability metrics, and multi-criteria decision-making frameworks[3]. Such innovations improve the precision and reliability of investment evaluations.

Investment projects, particularly in infrastructure and energy, affect communities and the environment. Academic freedom allows researchers to voice concerns over social displacement, ecological degradation, or labor exploitation, even when such critiques conflict with investor interests.

Evidence-Based Policy and Governance.

Governments rely on independent academic research to design regulatory frameworks for investments. For example, universities and think tanks often provide impact assessments that guide decisions on public–private partnerships or foreign direct investment[4]. Academic freedom ensures that such advice remains evidence-based rather than politically expedient.

In practice, academic freedom has influenced investment decisions in various regions. For instance, in Central Asia, free academic analysis of large-scale infrastructure projects under China’s Belt and Road Initiative has provided alternative perspectives on debt sustainability and environmental risks[5]. Similarly, in Europe, independent university studies on renewable energy investments have shaped government subsidies and private sector financing models. These examples demonstrate that academic freedom not only safeguards the integrity of investment assessments but also improves long-term development outcomes.

Despite its importance, academic freedom faces challenges such as:

Political pressure to endorse state-led projects.

Corporate funding influencing research agendas.

Restrictions on publishing findings critical of powerful stakeholders.

Addressing these challenges requires institutional safeguards, transparent peer review, and stronger academic-industry collaboration built on ethical standards.

The assessment of investment projects must balance profitability with sustainability, ethics, and social welfare. Academic freedom plays a practical and irreplaceable role in ensuring that such assessments are objective, innovative, and accountable. Protecting the independence of scholars is therefore not only an educational priority but also an economic and developmental necessity. In the long term, societies that respect academic freedom are better positioned to evaluate investments that genuinely contribute to inclusive and sustainable growth.

References

Altbach, P. G. (2001). *Academic freedom: International realities and challenges*. Higher Education, 41(1-2), 205–219.

Улашов, А. Р. (2024). Направления повышения экономической эффективности на предприятиях.

Liu, Y., & Meng, Q. (2020). *Innovative approaches to investment project evaluation: A multi-criteria decision-making perspective*. Journal of Economic Analysis, 34(3), 78–94.

Ulashov, A. (2024). Investitsion loyihani amalga oshirishning moliyaviy iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 418-422.

Kassenova, N. (2019). *China's Belt and Road Initiative in Central Asia: Economic opportunities and political risks*. Journal of Eurasian Studies, 10(2), 112–125.

Развитие цифровизации в целях сокращения бедности в условиях финансовой устойчивости

**Г.Алимова, доцент кафедры «Экономическая теория»
Ташкентского государственного экономического университета**

Введение

Современные социально-экономические трансформации все более связаны с развитием цифровых технологий. Цифровизация стала неотъемлемым инструментом обеспечения инклюзивного роста, повышения качества жизни населения и достижения целей устойчивого развития. Одной из важнейших задач в этом контексте является сокращение бедности, которая по-прежнему остается глобальным вызовом XXI века.

Финансовая устойчивость государства и общества создает базу для внедрения и распространения цифровых технологий, обеспечивая равный доступ к экономическим и социальным ресурсам. При этом именно цифровизация позволяет значительно ускорить процессы развития за счет автоматизации, прозрачности, повышения эффективности управления и доступности услуг для всех категорий населения.

«Благодаря столь масштабным усилиям Узбекистан стремится досрочно выполнить взятое обязательство — сократить бедность вдвое к 2030 году. Более того, сегодня мы готовы определить ещё более высокую планку: к 2030 году, по международным критериям, в Узбекистане есть все возможности

полностью искоренить абсолютную бедность – и мы обязательно этого добьемся», – подчеркнул президент.

Основная часть

1. Цифровизация как инструмент сокращения бедности

Цифровизация охватывает широкий спектр процессов — от внедрения электронных правительственных сервисов до цифровых финансовых технологий. Ее влияние на сокращение бедности проявляется в следующих аспектах:

- Доступ к финансовым услугам: цифровые платежные системы, мобильные кошельки и финтех-платформы позволяют малообеспеченным слоям населения участвовать в экономике.

- Образование и повышение квалификации: онлайн-курсы и дистанционное обучение обеспечивают доступ к знаниям даже в удалённых регионах.

- Занятость и предпринимательство: цифровые платформы создают новые рабочие места, облегчают доступ к рынкам и снижают барьеры для малого бизнеса.

- Прозрачность социальной помощи: цифровые системы учета и мониторинга позволяют адресно распределять государственную поддержку.

Таким образом, цифровизация выступает как мощный драйвер инклюзивного роста, снижая разрыв между богатыми и бедными слоями населения.

2. Финансовая устойчивость и цифровая трансформация

Финансовая устойчивость предполагает способность государства и общества обеспечивать стабильное экономическое развитие при минимизации рисков и дисбалансов. Для цифровизации это условие является ключевым, поскольку внедрение технологий требует значительных инвестиций в инфраструктуру, кадры и инновации.

Особенности взаимосвязи:

- при высокой финансовой устойчивости государство может инвестировать в цифровую инфраструктуру (интернет-сети, центры обработки данных, платформы);

- цифровизация, в свою очередь, способствует финансовой устойчивости, снижая транзакционные издержки, повышая налоговые поступления за счет прозрачности и расширяя экономическую активность населения.

3. Международный опыт

- Кения: внедрение мобильной платформы M-Pesa обеспечило миллионы людей доступом к банковским услугам и стало фактором снижения бедности.

- Индия: цифровая идентификация Aadhaar позволила упростить доступ граждан к государственным услугам и субсидиям, снизив уровень коррупции.

- Китай: развитие цифровых торговых площадок (Taobao, JD.com) стимулировало рост малого бизнеса и самозанятости в сельских регионах.

- Узбекистан и Центральная Азия: цифровизация финансовых услуг (онлайн-банкинг, QR-платежи) стала важным инструментом расширения доступа к финансовым ресурсам.

Методы и методика

1. Методы исследования

Для анализа роли цифровизации в сокращении бедности применяются следующие методы:

- экономико-статистический анализ — изучение динамики бедности и цифровизации;
- сравнительный метод — анализ опыта различных стран;
- системный подход — выявление взаимосвязей между цифровыми инициативами и финансовой устойчивостью;
- прогнозирование — моделирование сценариев влияния цифровизации на социально-экономическое развитие.

2. Методика реализации цифровых программ

- Оценка уровня цифрового разрыва (по регионам, доходам, возрастным группам);
- Формирование инфраструктурных основ: доступный интернет, цифровая идентификация, облачные сервисы;
- Интеграция цифровых финансовых решений: мобильные банки, онлайн-платежи, микрокредиты через финтех;
- Образовательные программы: обучение цифровой грамотности, доступное онлайн-образование;
- Мониторинг и обратная связь: использование big data и аналитики для отслеживания эффективности программ по сокращению бедности.

Заключение

Развитие цифровизации в условиях финансовой устойчивости является стратегическим направлением сокращения бедности и обеспечения инклюзивного роста. Цифровые технологии позволяют расширить доступ к финансовым ресурсам, образованию, здравоохранению и социальным услугам, что в конечном итоге способствует снижению уровня неравенства.

Однако для успешной реализации цифровой трансформации необходимо сочетание государственных инвестиций, участия частного сектора и международного сотрудничества. Важнейшую роль играет формирование цифровой культуры и повышение цифровой грамотности населения.

Таким образом, цифровизация в условиях финансовой устойчивости становится не только технологическим, но и социальным инструментом развития, обеспечивающим устойчивое будущее и справедливое распределение благ.

Использованная литература

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на открытии III международного форума «От бедности к процветанию». 17.09.2025.

2. OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. OECD Publishing, Paris, 2021.
3. United Nations. The Role of Digitalization in Achieving Sustainable Development Goals. UN Report, 2024.
4. Jack, W., Suri, T. Mobile Money: The Economics of M-Pesa. NBER Working Paper, 2011.
5. Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan. Digital Uzbekistan 2030 Strategy. Tashkent, 2024.
6. International Monetary Fund. Financial Inclusion in the Digital Age. IMF Discussion Paper, 2021.
7. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2021.
8. World Bank. Digital Dividends. World Development Report 2024. Washington, DC: World Bank.

Akademik erkinlik va kompetentli iqtisodchi-redagogik kadrlar tayyorlash

D.Tojiboyeva, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası professori

Qadimgi mashhur yunon faylasuflaridan biri Aflotun, agar kosib yomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo'qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Lekin yoshlar tarbiyachisi agarda o'z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsizlar va go'llar toifasi vujudga keladi, degan ekan.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali echimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liq.

Ma'lumki, “Magistratura to'g'risidagi nizom”ga ko'ra magistratura bitiruvchilari ilmiy-pedagogik, ilmiy-ijodiy, ilmiy-tadqiqot va tajriba, ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriat ta'lim yo'nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, magistraturani bitirgan mutaxassislar birinchi navbatda ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-3775-sonli qaroriga ko'ra magistratura mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy, kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil

etish”ni amalga oshirilishi tayyorlanayotgan ilmiy-pedagog kadrlarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini yanada oshiradi.

Zamonaviy talab darajasida bilimni o’rgatish uchun, avvalo murabbiyning o’zi ana shunday bilimga ega bo’lishi kerak. Rudolf Dreykursning fikricha, predmetni bilish yetarli emas. Bundan tashqari murakkab, qiyin fikr, g’oyalarni mazmun-mohiyatini anglash, ularni tushunarli mavzuga aylantirishni bilish kerak. Bu birinchi mezon.

O’qituvchi uchun ikkinchi mezon – pedagogik bilim. U o’z ichiga bilishga oid sohalarni o’rganish darajasi, o’quv maqsadi va boshqa maqsadlarni qo’ya bilish, darsni rejalashtirish, (loyihalashtirish), qo’llaniladigan metodlarni aniqlash, vaqt taqsimotini belgilash, muammoli savollar qo’yish, bajariladigan ishlar tartib-qoidalarini ishlab chiqish hamda testlar va boshqa topshiriqlar tayyorlashni oladi.

Uchinchi mezon, o’qitish, o’rgatish ko’nikmasi bo’lib, qanday strategiya, usullar, metodlar, topshiriqlar yordamida o’quvchi-talabalarni fanni o’rganishga jalb eta olishi, qiziqтира bilishi kerak.

O’z-o’zidan ko’rinib turibdiki, mutaxassislik fanlari bilan metodika chambarchas bog’langan. Buni nazarda tutgan xolda Davlat ta’lim standartlari-riga ko’ra magistrlik mutaxassisliklari o’quv rejasiga majburiy fan sifatida “Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi” fani kiritildi.

Barcha fanlar uchun didaktika va metodikaning birligi – bu qonun.

Fanni o’rganish metodlarini ikki guruhga ajratamiz:

Fanning predmetini o’rganish uslublari uning maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, mazmun, mohiyatini anglab kelgusida mutaxassis sifatida o’z faoliyatida ulardan foydalanish ko’zlanga, fanni o’rganishning pedagogik metodlari o’rganilayotgan fan mavzularining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning mazmun-mohiyatini o’quvchi-talabalar ongiga yetkazishga xizmat qiladi. Buni “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini o’rganish misolida ko’raylik:

Fan predmetini o’rgatuvchi va uni o’rganishning pedagogik metodlari

Fanning predmeti, mavzulari mazmun-mohiyatini anglab etish uslublari (metodlari)	Fanni o’rganishning pedagogik metodlari
dialektik yondashuv usullari; metafizik yondashuv usullari; Ilmiy abstraktsiya; Taqqoslash, taxlil, umumlashtirish (sintez), funktsional tahlil; Induktsiya va deduktsiya; Modellashtirish, talqin qilish; Matematik, statistik metodlar; Tarixiylik, mantiqiylik uslublari va boshqalar.	Savol-javob, suhbat, ko’rgazmali, namoyish, tarqatma materiallar, loyihalash, masala-mashqlar, tadqiqot, keys stadi, taqriz yozish, T sxema, konseptual jadval, toifali jadval, semantik jadval, blits o’yin, juftlik, kichik guruhlarda ishlash, B/B/B jadval va boshqalar

Magistrlar o’z mutaxassislik fanidan dars berar ekan, demak ana shu fanning mavzulari mazmun mohiyatini talabalar tomonidan fanni chuqur o’zlashtirish uchun uning predmeti, mavzulari mohiyatini chuqur anglaby etishga predmetni

o'rganish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar yordam beradi. Buning uchun har bir fanning o'ziga xos jihatlari, fanni o'rganishda nimalarga ahamiyat berish kerak, qaysi metodlarni tanlash kerak va uni qanday qo'llashni bilish kerak.

Bizning universitetimiz uchun mutaxassislik fani iqtisodiy fanlar bo'lib, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" - bu "Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi" hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlar o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi va katta guruhni tashkil qiladi. Predmeti, o'rganish ob'ektlari, maqsal, vazifalari ma'lum darajada bir-biridan farq qilishiga qaramay barcha iqtisodiy fanlarning umumiy jihatlari ustun.. SHu bilan birga iqtisodiyot nazariyasi ular uchun metodologik asos, fan predmetlarining bilish metodlari umumiy. Fanni o'qitishni "Iqtisodiyot nazariyasi" kafelasiga berilishining sababi ham uning barcha iqtisodiy fanlar uchun metodologik asos bo'lishidir.

Hozirda professor-o'qituvchilar orasida bir taraf mutaxassislik fanlari o'qituvchilari dars berishini, ikkinchi taraf metodika bu pedagogikaning bo'limi, demak pedagoglar dars berishi kerak, deya munozara qilmoqdalar.

Iqtisodiy fanlar qaror qabkl qilishga o'rgatuvchi fanlar ekan, qaror qabul qilishda nafaqat iqtisodiy omillar, balki pedagogik psixologik omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Oqilona qaror qabul qilish tanlash va taqqoslash bilan bog'liq bo'lgani bunda psixologik omil muhim rol o'ynashini hisobga olib Nobel mukofoti sovrindorlari G. Saymon, D. Kaneman,. R. Taler o'z talqiotlari asosida odamlarning tanlovida psixologik omillarning nihoyatda muhim rol zynashini ko'rsatib berishdi.

Bozor iqtisodiyoti modiy ehtiyojlarga urg'u berishni, individuvlizmni kuchaytiradi. Bu o'z navbatida ma'naviy barkamollik, madaniyat rivojlanishi jamoaviylik prinsiplpriga putur etkazadi. Tarbiyaning oqsoqlanishiga oli keladi. Demak, bo'lg'usi iqtisodchi pedagoglarimiz pelagogikadan ham, psixologiyadan ham zabardor bo'lishlari kerak.

Fikrimizcha buning uchun magistraturada **"Iqtisodiy pedagogika va psixologiya"** kursi kiritilishi, pedagogika qismi tarbiyaviy jihatlariga ustun darajada diqqat qaratsa, iqtisodiy psixologiya tanlov va boshqarishning psixologik jihatlariga ahamiyat berilishi zarur.

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini haqiqiy o'z nomi bilan **"Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasi"** deb atalishi va Iqtisodiyot nazariyasiga tayangan holda fanlarning nafaqat umumiy balki bir-biridan farqlanuvchi jihatlarini ham hisobga olgan holda magistralarimizga o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazishni amalga oshirishga diqqat qaratishi zarur.

Принцип бережливости и особенности их реализации

Введение

В условиях глобальной конкуренции, ограниченности ресурсов и высокой динамики рыночной среды особое значение приобретает принцип бережливости. Он выступает не только как экономическая категория, но и как универсальный подход к организации деятельности в бизнесе, государственном управлении и повседневной жизни. Суть данного принципа заключается в рациональном использовании ресурсов, минимизации потерь и ориентации на создание максимальной ценности для потребителя при минимальных затратах.

Современные вызовы — от экологических проблем до необходимости цифровой трансформации — делают бережливость важным инструментом устойчивого развития. В этой статье будут рассмотрены сущность принципа бережливости, его особенности и основные направления реализации, а также методы применяемые в разных сферах деятельности.

1. Сущность принципа бережливости

Принцип бережливости (или «lean-thinking») основывается на нескольких ключевых положениях:

- исключение ненужных операций и затрат, не приносящих ценности;
- непрерывное совершенствование процессов;
- ориентация на конечного потребителя;
- экономия времени, материалов, энергии и финансовых ресурсов;
- формирование культуры рационального использования и ответственности.

В отличие от традиционного экономического подхода, ориентированного преимущественно на прибыль, принцип бережливости сочетает экономическую эффективность с социальной и экологической ответственностью.

2. Исторические предпосылки

Зарождение концепции бережливого производства связано с практикой японской корпорации Toyota во второй половине XX века. Система Toyota Production System (TPS) показала, что минимизация потерь и упрощение процессов позволяют достигать устойчивого роста даже при ограниченных ресурсах. Впоследствии этот подход был адаптирован в различных странах и отраслях, включая образование, здравоохранение, государственное управление и даже сферу личного планирования.

3. Основные формы реализации принципа бережливости

- Экономическая сфера: внедрение технологий энергосбережения, оптимизация производственных процессов, цифровизация.
- Социальная сфера: формирование культуры ответственности у населения, рациональное потребление.

- Экологическая сфера: вторичная переработка отходов, переход к возобновляемым источникам энергии.

- Государственное управление: цифровое правительство, «бережливые» госуслуги, сокращение бюрократии.

4. Особенности реализации

Реализация принципа бережливости имеет ряд особенностей:

- ✓ комплексность — невозможно ограничиться только экономией ресурсов, необходимо учитывать социальные и экологические последствия;
- ✓ культурная обусловленность — в странах с высокой дисциплиной и коллективной ответственностью (например, Япония, Германия) бережливость внедряется успешнее;
- ✓ долгосрочность — результаты не проявляются мгновенно, а требуют системной работы и постепенного совершенствования;
- ✓ гибкость — методы бережливости должны адаптироваться к конкретным условиям, отрасли и культуре.

Методы и методика

1. Классические методы бережливого производства

- 5S (сортировка, систематизация, содержание в чистоте, стандартизация, совершенствование);
- Kaizen — философия непрерывного улучшения;
- Just-in-Time (точно вовремя) — минимизация складских запасов;
- Картирование потока создания ценности (VSM) — анализ всех этапов процесса для выявления потерь.

2. Современные методики

- Lean Six Sigma — комбинация бережливого производства и методов статистического контроля качества;
- Agile и Scrum — гибкие методы управления проектами, основанные на быстром реагировании и устранении излишков.
- Цифровая бережливость — использование технологий автоматизации, искусственного интеллекта и больших данных для снижения затрат.

3. Методика внедрения в организациях

- 1) Анализ текущих процессов и выявление источников потерь.
- 2) Формирование команды изменений и обучение сотрудников.
- 3) Постепенное внедрение инструментов бережливости (начиная с 5S и простых практик).
- 4) Оценка результатов и корректировка подхода.
- 5) Вовлечение всех уровней организации в культуру бережливого мышления.

4. Методика в социальной и государственной сфере

- Информационные кампании — популяризация культуры экономии.
- Образовательные программы — формирование навыков бережливости у молодёжи.
- Регулирование и стимулы — налоговые льготы для компаний, применяющих экологичные и экономичные технологии.

- Развитие цифровых сервисов — снижение бумажного документооборота, упрощение административных процедур.

Заключение

Принцип бережливости является универсальным инструментом повышения эффективности и устойчивого развития. Его реализация требует системного подхода, охватывающего экономические, социальные и экологические аспекты. Успех зависит не только от применения конкретных методов (5S, Kaizen, Lean Six Sigma и др.), но и от формирования культуры ответственности, рационального использования ресурсов и ориентации на долгосрочные результаты.

В условиях современных вызовов бережливость перестаёт быть исключительно экономической категорией. Она становится основой национальной конкурентоспособности, социальной стабильности и экологической безопасности. Внедрение принципов бережливости как в организациях, так и в обществе в целом открывает путь к устойчивому развитию и гармонии между экономикой, природой и человеком.

Использованная литература

1. Вумек Д., Джонс Д. Бережливое производство: как избавиться от потерь и добиться процветания вашей компании. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2007.
2. Тайити Оно. Производственная система Toyota. Уходя от массового производства. — М.: Институт комплексных стратегических исследований, 2008.
3. Лайкер Д. Дао Toyota: 14 принципов менеджмента ведущей компании мира. — М.: Альпина Паблишер, 2011.
4. Андерсон Дж., Шерман Дж. Lean Six Sigma: Секреты качества и эффективности. — СПб.: Питер, 2015.
5. Лайкер Д., Майер Д. Бережливое производство. Как избавиться от потерь и добиться процветания вашей компании. — М.: Альпина Паблишер, 2016.
6. Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. — Productivity Press, 1988.
7. Womack J., Jones D., Roos D. The Machine That Changed the World: The Story of Lean Production. — Harper Perennial, 2007.
8. Imai M. Kaizen: The Key to Japan's Competitive Success. — McGraw-Hill, 1986.
9. Закон Республики Узбекистан «Об охране окружающей среды». — Ташкент, 2019.
10. OECD. Sustainable Manufacturing and Eco-Innovation: Towards a Green Economy. — OECD Publishing, 2010.

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida akademik qadriyatlarni saqlash muammolari

**N.I.Saidaxmedova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professori**

Hozirgi zamonda jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti bozor munosabatlari ta'siri ostida rivojlanmoqda. Bu jarayonlar ta'lim tizimiga ham salbiy va ijobiy ta'sirlar ko'rsatmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda Yangi O'zbekistonni qurishdek tarixiy yo'lda ta'lim sohasi barcha islohotlar markazida turibdi. Davlat siyosatining uzluksiz ustuvor yo'nalishi sifatida maktabgacha ta'limdan tortib, oliygohgacha, texnikumlardan tortib, ilmiy-tadqiqot institutlarigacha bo'lgan barcha bo'g'inlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. So'nggi 8 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 202 taga, jami talabalar soni 250 mingdan 1,5 millionga yetdi, jumladan, 108 ta davlat, 30 ta xorijiy hamda 70 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bunday o'zgarishlar jamiyatda bilim orqali yuqori marraga chiqish imkoniyatini yanada mustahkamlaydi.

Oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim olish maskani, balki fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqot markaziga aylanib bormoqda. Bu jarayon yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun kuchli intellektual poydevor yaratib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va global raqobatga tayyor avlodni shakllantirishga zamin yaratadi. Demak, Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish jarayoni katta e'tiborga sazovor. Shunday sharoitda akademik qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalasi murakkab, ammo juda muhim vazifa hisoblanadi. Bozor munosabatlari ta'lim sohasida xizmat ko'rsatish sifatidagi yondashuvlarni kuchaytiradi. Ta'lim muassasalari raqobatga kirishib, talabalarga qimmatli va natijali ta'lim berishga intiladi. Bu jarayonda xususiy sektor va davlat muassasalari o'rtasida hamkorlik va raqobat kuchayadi. Bir vaqtda, bozor iqtisodiyoti talablari ta'lim tizimining asosiy maqsadlariga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, faqat bozor talabiga mos kasblarni tayyorlashga e'tibor qaratilishi, ilm-fan va adabiy-axloqiy qadriyatlarni chetga surish xavfi paydo bo'ladi.

Akademik qadriyatlar - bu ta'lim jarayonida insoflilik, haqqoniylik, mas'uliyat, ilmiy haqiqatga sodiqlik kabi tamoyillar majmui bo'lib, ular ta'lim va ilmiy faoliyatning muvaffaqiyati uchun fundament hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar ta'lim tizimining barqarorligi va rivojlanishini ta'minlaydi. Bu borada, O'zbekistonda ta'lim sohasida akademik qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish uchun davlat tomonidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Eng ahamiyatlisi, so'nggi 8 yilda oliy ta'lim sohasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar bugun sifat bosqichiga o'tmoqda. Xususan, ta'lim standartlari takomillashtirilmoqda, ilmiy salohiyatni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar soni 2017 yilda 25418 nafardan 2025 yilda 42339 nafarga, ilmiy salohiyat esa 32,7 foizdan 46,6 foizga yetgan. Ammo bozor munosabatlari ta'sirida mamlakatimiz ta'lim tizimida akademik qadriyatlar muammolari kuzatilmoqda: ta'lim sohasida xususiylashtirish ortishi bilan akademik standartlarning buzilishi xavfi; talabalar va ota-onalarda faqat kasbiy va

iqtisodiy manfaatlarga qaratish hukm surishi; ilmiy-tadqiqot ishlariga mablag' ajratilishining kamayishi va natijada ilm-fanning zaiflashishi; hamkorlik munosabatlari o'rnatishda bozor talablari bilan akademik erkinlik o'rtasidagi ziddiyat. Bu sohadagi muammolarning asosiy sababi - amaliy bilim bilan etik tamoyillarning mutanosibligi yetishmasligi. Shuningdek, globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim sohasida ham yangi tahdidlarni keltirib chiqarmoqda, bu esa akademik qadriyatlarni mustahkamlashga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayonda akademik erkinlik, halollik va ilmiy adolat kabi tamoyillarni saqlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada tizimli yondashuv va qat'iy siyosiy iroda talab etiladi.

Tizimli yondashuv - bu bir nechta sohalar, institutlar va shaxslarning o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan faoliyati orqali ma'lum maqsadga erishish jarayonidir. Akademik qadriyatlarni saqlashda tizimli yondashuv quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: davlat siyosati va qonunchilik bazasini takomillashtirish; ta'lim muassasalarida akademik etika va qadriyatlar tizimini joriy etish; professor-o'qituvchilar, talabalar va ilmiy xodimlarni tarbiyalash va malakasini oshirish; akademik adolat va shaffoflikni ta'minlovchi nazorat mexanizmlarini kuchaytirish; jamoatchilik va oila bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Akademik qadriyatlarni bozor munosabatlari sharoitida saqlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Davlat nazorati va ta'lim sohasida standartlarni qat'iy saqlashni ta'minlash;
- Xususiy va davlat ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini yaratish;
- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish;
- Ta'limda axloqiy va madaniy qadriyatlarni saqlash bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish;
- Talabalar va ustozlar o'rtasida akademik erkinlik va mas'uliyatni muvozanatlashtirish.

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida akademik qadriyatlarni saqlash ko'p jihatdan ta'lim muassasalari, mutaxassislar va talabalarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Akademik etika tamoyillarini kuchaytirish, ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etish va texnologik himoya mexanizmlarini takomillashtirish orqali ushbu muammolarni hal qilish mumkin. Shu tariqa, milliy ta'lim tizimida akademik qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmadov, Sh. *O'zbekiston ta'lim tizimida akademik etika va qadriyatlar*. Toshkent: Akademiya nashriyoti. 2020 yil.

2. Jo'raev, F. Akademik qadriyatlarni saqlashda xalqaro tajribalar. *Xalqaro ta'lim jurnali*, 2023, 12(1), 12-20.

3. Karimova, L. Ta'lim tizimida etika va innovatsiya. *O'zbekiston fanlari*, 2021, 7(2), 78-85.

Soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning roli

**N.Sharipov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Hozirgi davrda davlatlarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan ularning soliq tizimiga, soliq salohiyatidan qay darajada samarali foydalanishlariga bog‘liqdir. Soliq salohiyati – bu mamlakatning mavjud iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va moliyaviy oqimlarini soliqlar orqali byudjet daromadlariga jalb etish salohiyati sifatida tushuniladi. Ya’ni, davlat iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash jarayonida mavjud soliq imkoniyatlaridan qanchalik samarali foydalansa, u shunchalik moliyaviy mustaqillikka va barqaror byudjet ta’minotiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, soliq salohiyatini oshirish har bir mamlakat oldida turgan strategik vazifa hisoblanadi.

Soliq salohiyatining samarali ishlashi uchun bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Ulardan eng asosiysi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liq. Bunda iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan ta’minlash, malakali kadrlar tayyorlash hamda ilm-fan natijalarini amaliyotga tatbiq etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1]. Shu o‘rinda akademik erkinlik tushunchasi o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Chunki akademik erkinlik ta’lim va ilm-fan sohasida yangicha yondashuvlarni shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni egallagan va iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Akademik erkinlik mohiyatan ilmiy izlanish, ta’lim jarayoni va professor-o‘qituvchilar hamda talabalar faoliyatida mustaqillikni anglatadi. U o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, ilmiy g‘oyalarni ilgari surishda, yangiliklarni tatbiq etishda tashabbuskorlikni ta’minlaydi. Bunday sharoitda yaratilgan bilimlar, ishlab chiqilgan nazariy va amaliy g‘oyalar iqtisodiyotning real sektorida qo‘llaniladi, natijada yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, samarador biznes modellar va boshqaruv mexanizmlari yuzaga keladi. Bu esa o‘z-o‘zidan soliq bazasining kengayishiga, iqtisodiy faol subyektlar sonining ortishiga, ularning to‘lov qobiliyatining kuchayishiga olib keladi [6].

Akademik erkinlik va soliq salohiyatining oshishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Agar ta’lim va ilm-fan sohasi erkinlik asosida rivojlansa, iqtisodiyotni yangi bilimlar bilan ta’minlash imkoniyati kengayadi. Yangi bilimlar esa innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, ularni bozorga olib chiqish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Bu jarayonlar nafaqat mamlakat ichki bozorida, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh mahsulotlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Natijada eksport salohiyati kengayadi, iqtisodiyotga qo‘shimcha moliyaviy resurslar oqimi kirib keladi va soliq tushumlari ko‘payadi.

Shunday qilib, akademik erkinlik soliq salohiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda bu jarayonlarning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz (1-jadval):

Akademik erkinlikning soliq salohiyatini oshirishga ta'siri

Akademik erkinlik yo'nalishi	Soliq salohiyatiga ta'siri
Talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlari	Startaplar va yangi korxonalar tashkil bo'lib, soliqqa tortiladigan manbalar soni ortadi.
Professor-o'qituvchilarning o'quv dasturlarini erkin ishlab chiqishi	Iqtisodiyot ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlanib, samarali mehnat bozorini yaratadi va soliqlar bazasini kengaytiradi.
Innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiqi	Yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilib, qo'shimcha qiymat solig'i va foyda solig'i tushumlari oshadi.
Xalqaro ilmiy hamkorlik	Raqobatbardosh bilimlar va texnologiyalar kirib kelib, eksport hajmi ortadi, bu esa soliq tushumlarini ko'paytiradi.
Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Samarador korxonalar paydo bo'lib, ishlab chiqarish hajmi oshadi va daromad soliqlari ko'payadi.
Talabalarning tashabbuskorligi	Yangi tadbirkorlik subyektlari yuzaga kelib, soliqqa tortiladigan baza kengayadi.
Akademik erkinlik orqali huquqiy ongni oshirish	Xufyona iqtisodiyot qisqaradi, soliqlarni to'lash madaniyati kuchayadi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, akademik erkinlik soliq salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarning ilmiy izlanishlari va tashabbuskorligi yangi startaplar hamda tadbirkorlik subyektlarini yuzaga keltiradi, professor-o'qituvchilarning o'quv dasturlaridagi erkinligi esa iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchan kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiqi yangi mahsulot va xizmatlarni yaratib, soliqlar tushumlarini ko'paytiradi, xalqaro hamkorlik esa ilg'or bilim va texnologiyalar kirib kelishiga, eksport hajmi kengayishiga olib keladi. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi samaradorlikni oshirsa, huquqiy ongning yuksalishi xufyona iqtisodiyotni qisqartiradi. Natijada, akademik erkinlik ta'lim sifati bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish va soliqqa tortiladigan baza kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq salohiyatini oshirishda akademik erkinlikning o'rni beqiyosdir. Akademik erkinlik ta'lim sifatini yuksaltiradi, innovatsion g'oyalar va startaplarni rivojlantiradi, huquqiy ongni oshiradi hamda yangi soliqqa tortiladigan manbalarni shakllantiradi. Taklif sifatida aytadigan bo'lsak, birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida erkin o'quv dasturlari ishlab chiqishni kengaytirish; ikkinchidan, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish; uchinchidan, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish; to'rtinchidan, soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'limiy dasturlarni keng tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

7. Sharipov N. Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari // "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali. 2025-yil, iyun. № 6-son.

8. Tursinkulov N. (2022). Oliy ta'lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar. Архив научных исследований, 2(1).

9. Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Diss. avtoreferati. – T., 2022.
10. Azimov S.S. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. 126 b.
11. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimini barqarorligini ta'minlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2018. -230 b.
12. European University Association. How universities can protect and promote academic freedom. EUA principles and guidelines. Brussels: European University Association, February 2025.

O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarining rivojlanish tendensiyasi

**O.A.Abdunazarov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD**

O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlari uzoq davlar davomida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, yerga mulkchilik munosabatlari sobiq sovetlar ittifoqi davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan milliy hududiy chegaralanishning yerga mulkchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi iqtisodiy siyosatning shakllanishi mamlakatda jamoalashtirish, kolxozlashtirish hamda kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirishdan boshlanib, keyinchalik O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu boradagi yerga mulkchilik va qishloq xo'jaligi munosabatlarining rivojlanishini bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Respublika yer fondining xo'jalik maqsadidagi vazifalariga qarab bo'linishi muayyan maqsadda foydalanishga berilgan yerlarning bajaradigan funksiyalariga bog'liqdir.

